

O.P. UMURZOQOV, A.J. TOSHBOYEV,
J. RASHIDOV, A.A. TOSHBOYEV

QISHLOQ XO'JALIGI IQTISODIYOTI VA MENEJMENTI




"IQTISOD-MOLIYA"

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**O'.P. Umurzoqov, A.J. Toshboyev, J.H. Rashidov,
A.A. Toshboyev**

**QISHLOQ XO'JALIGI
IQTISODIYOTI VA MENEJMENTI**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
tomonidan oliy ta'lif muassasalari bakalavriat talabalari uchun
o'quv qo'llanma sifatida tavsija etilgan



Toshkent
«IQTISOD-MOLIYA»
2008

Taqrizchilar: TIMI dotsenti, i.f.n. Abdurazakova N.M;
ToshDAU dotsenti, i.f.n. Komilov Y.U.T.

Umurzoqov O‘.P.

Q51 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va menejment. O‘quv qo‘llanma/O‘.P.Umurzoqov, A.J.Toshboyev, J.Rashidov, A.A.Toshboyev. Mas’ul muharrir: akademik G‘ulomov S.S. O‘zR Oliy va o‘rtta ta‘lim vazirligi. -T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2008 y. -268 b.

Toshboyev A.J., Rashidov J.H., Toshboyev A.A.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada respublika agrar sektoridagi qishloq xo‘jalik sub‘ektlari va unga ta‘minot, servis xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarda iqtisodiy samaradorligini oshirishni bozor munosabatlarda rivojlantirish, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, boshqarish tizimini tubdan yaxshilashning nazariy va amaliy asoslari yoritib berilgan bo‘lib, kadrlar tayyorlash Milliy dasturi talablariga to‘la mos keladi.

Qo‘llanma qishloq xo‘jalik korxonalarini bozor munosabatlarda rivojlantirishning istiqbolli yo‘llarini respublika Prezidenti farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari, tegishli me’yoriy hujjatlar asosida yozilgan. Shuningdek, o‘quv qo‘llanmada agrosanoat majmuasi va uni rivojlantirish yo‘llari, yer fondi va undan samarali foydalanish, yer kadastro, suv va mehnat resurslaridan foydalanish, asosiy va aylanma fondlar, moddiy-teknika resurslari, investitsiya, ishlab chiqarish infratuzilmasi, MTP, lizing, transport va agrokimyo servis xizmat ko‘rsatish, dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari, qishloq xo‘jaligini boshqarishda menejment, agrar sohada biznes va menejment, qishloq xo‘jaligida menejment samaradorligini oshirishning istiqbolli yo‘llari yoritib berilgan.

O‘quv qo‘llanma 600000-“Qishloq va suv xo‘jaligi” bilim sohasiga kiruvchi noiqtisodiy bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari uchun tayyorlangan, shuningdek, ushbu bilim sohasiga kiruvchi iqtisodiy bakalavriat yo‘nalishlari hamda 5340100-“Iqtisodiyot (suv xo‘jaligida)” 5340200-“Menejment (suv xo‘jaligida)” bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlari talabalariga ham tavsiya etiladi.

BBK 65.32 ya.73

ISBN 978-9943-13-076-0

© Umurzoqov O‘.P., Toshboyev A.J., Rashidov J.H., Toshboyev A.A,2008

© «IQTISOD-MOLIYA», 2008

Bu vazifalarni hal etish uchun esa kuchli, qudratli davlat, yuksak malakali, ahloqan barkamol xodimlar kerak. Biz oddiy haqiqatni tushunib yetishimiz kerak: bizning davlatimiz, jamiyatimizni birov chetdan kelib qurib bermaydi. Uni hayoti o‘z vatanining kelajagi bilan uzyig bog‘liq bo‘lgan biz o‘zimiz, bu mamlakat farzandlari buniyod etamiz.

J.Karimov

SO‘ZBOSHI

Mamlakatimizda ijtimoiy ishlab chiqarish sohasida bozor munosabatlari shakllanayotgan bir paytda, xalq xo‘jaligining asosiy tarmog‘i bo‘lgan qishloq xo‘jaligida ham iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va xizmat ko‘rsatishda ijobjiy o‘zgarishlar bo‘ldi. Mulkchilikka asoslangan qishloq xo‘jalik subyektlari shakllandi. O‘zbekiston Oliy Majlisi tomonidan 1998 - yil 30 - aprelda qabul qilingan «Yer kodeksi», «Kooperativ (shirkat) xo‘jaligi to‘g‘risida», «Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida», «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi 4 ta qonun mulkcnilikning huquqiy asoslarini yaratib berdi. Sobiq sovet tuzumidagi davlat va jamoa xo‘jaliklari o‘rnida xususiy mulkchilikka asoslangan nodavlat xo‘jalik subyektlari (shirkat, fermer, dehqon) vujudga keldi. Natijada qishloq xo‘jalik boshqaruvi, xo‘jalik yuritish shakllari, dehqonchilik tizimi, ishlab chiqarish, servis xizmat ko‘rsatish, raqobatchilik va ular o‘rtasidagi munosabatlar o‘zgarib, bozor iqtisodiyoti munosabatlari shakllanmoqda.

Bu o‘ta dolzarb vazifalarni bajarish uchun qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishiga fan-tehnika yutuqlarini, ilg‘or va tejamkor texnologiyalarni, kichik va xususiy tadbirdorlikni joriy etish va eng asosiysi ishbilarmon, oqimishli iqtisodchi - tashkilotchi mutaxassislarni tayyorlash talab etiladi. O‘z navbatida, qishloq va suv xo‘jaligida ishlovchi iqtisodchi: qishloq va suv xo‘jaligi ishlab chiqarishi taraqqiyotining barcha iqtisodiy va biologik qonuniyatlarini, o‘rta, xususiy biznes va tadbirdorlik asoslarini; bozor iqtisodiyoti qonunlarini; fermer va dehqon xo‘jaliklarining tashkiliy - iqtisodiy asoslarini; xo‘jalik yuritish tizimi mexanizmlarini; korxonalarining

mavjud resurs potentsiallaridan samarali foydalanish; mehnatni tashkil etishning ilg'or usullari; osimlikchilik va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash va realizatsiya qilish jarayonlarini; ilg'or tejamkor texnologiyalarni joriy etish, me'yorlash, mahsulotlar tannarxi va rentabelligini oshirish shuningdek, bozor infratuzilmasini shakllantirish, qishloq xo'jaligiga xizmat korsatishda servis va lizingni orni, tayyorlov va ta'minot tashkilotlari ortasidagi munosabat, soliq , sug'urta va boshqa tashkiliy mexanizmlardan foydalana bilishga ega bolishlari shart.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda, avvalo, iqtisodiy islohotlarni tezkor bozor munosabatlarida joriy etish, mavjud yer va suv resurslaridan tejamli foydalanish, yerning meliorativ holatini yaxshilash, qishloqqa sanoatni kiritish, qishloq xo'jaligida texnika va texnologiyalardan izchil foydalanish, ishlab chiqarish jarayonida infratuzilmadan mukammal foydalanish, bozor infratuzilmasini qishloqda shakllantirish, mehnat bozorini tashkil etish, yangi ish orinlarini barpo etish, mahsulotni qayta ishlash, saqlash, sotish mexanizmini ishlab chiqish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini eksport qilish, istiqbolli navlarni ishlab chiqish, zamonaviy chet el texnologiyalarini amaliyotda qo'llash, inventitsiyalarni jalb qilish hisobiga mahsulot hajmini va tovarlilik darajasini oshirish, mayjud imkoniyatlardan foydalanilgan holda qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmini oshirish oldimizdag'i asosiy muammolardan biri bo'lib turibdi.

1-bob. «QISHLOQ XO‘JALIGI IQTISODIYOTI VA MENEJMENTI» FANINING QISHLOQ XO‘JALIGIDA TUTGAN O‘RNI, MAQSADI VA VAZIFALAR

1.1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo‘jaligi va uning rivojlanish istiqbollari

Qishloq xo‘jaligi mamlakat xalq xo‘jaligining eng muhim va yirik tarmog‘i bo‘lib, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga, sanoatni xomashyoga bo‘lgan talabini qondiradi. Qishloq xo‘jaligi dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini dastlabki yoki to‘liq qayta ishlashning turli jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

Respublika qishloq xo‘jaligi mamlakatning iqlim, yer-suv va moddiy resurslaridan hamda xalqning asrlar davomida to‘plangan dehqonchilik madaniyatidan unumli foydalanish negizida paxtachilik va donchilikni rivojlantirishga qaratilgan. Dehqonchilikda g‘allachilik, sholikorlik, mevachilik, uzumchilik, polizchilik, sabzavotchilik sohalari, chorvachilikda esa qoramolchilik, qo‘ychilik, qorako‘lchilik, echkichilik, parrandachilik, yilqichilik, asalarichilik, pillachilik tarmoqlari faoliyat ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston jahonda yalpi paxta hosilini yetishtirish bo‘yicha 4-o‘rinda, paxta tolasi eksporti bo‘yicha 2-o‘rinda (AQSH dan keyin) turadi. Shuningdek, respublikada yetishtiriladigan meva, uzum, sabzavot, poliz mahsulotlarining asosiy qismi qo‘shni davlatlarga sotiladi. O‘zbekiston o‘zining sisfati pillasi va qorako‘l terisi bilan ham dunyoga mashhurdir.

Respublikaning 1993 - yildagi g‘alla mustaqilligiga erishish dasturi to‘liq ta‘minlanib, 6 mln. tonna don ishlab chiqarilmoqda. Respublika aholisining 16,3 mln. kishisi qishloq joylarida yashaydi. Yalpi ichki mahsulotning 26,8% qishloq xo‘jaligiga to‘g‘ri keladi. 3,1 mln. kishi yoki respublika xalq xo‘jaligida ish bilan band bo‘lganlarning 30,9% qishloq xo‘jalik sohasida mehnat qiladi.

Respublika qishloq xo‘jaligida mulkchilik shakllariga ko‘ra:

- **kooperativ** (jamoa xo‘jaliklari, xo‘jaliklararo korxonalar, shirkatlar uyushmalari, davlat xo‘jaliklari negizida tashkil etilgan xo‘jaliklar, jamoa mulkiga aylantirilgan fermalar va boshqalar);

- **davlat** (davlat xo'jaliklari, naslchilik zavodlari, o'quv-tajriba hamda tajriba xo'jaliklari);

- **xususiy** (dehqon va fermer xo'jaliklari, xususiy lashtirilgan korxonalar);

- **shaxsiy yordamchi xo'jaliklari** (shaxsiy ehtiyojlar uchun ayrim qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish) sektorlari mavjud.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida paxta yakka hokimligi (yakka ziroatchiligi)ning qaror topishi oqibatida 1987 - yilga kelib 2107,7 ming hektar yoki jami sug'oriladigan ekin maydonining 60% dan ko'prog'iga paxta ekildi. Natijada ilmiy asoslangan almashlab ekish tizimi izdan chiqdi, mineral o'g'itlar, gerbetsidlar, ayniqsa, inson salomatligiga zararli bo'lgan pestitsidlar me'yоридан ортиқча ishlatalishi natijasida dehqonchilik qilinadigan joylarda ekologik sharoitlar buzildi, yerlarning meliorativ holati yomonlashdi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin mamlakat qishloq xo'jaligida chuqur islohotlarni amalga oshirish davri boshlandi. Respublika hukumati mamlakat iqtisodiyotning eng muhim tarmog'i bo'lgan qishloq xo'jaligida bozor munosabatlарини шакллантриш, mulkchilikning nodavlat shakliga o'tish, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish, dehqon, fermer xo'jaliklari faoliyatini yo'nga qo'yish kabi masalalarni hal etishga e'tiborni qaratdi. Respublika parlamenti qishloq xo'jaligida tub burilishlarning huquqiy asoslarini yaratadigan qonunlarni qabul qildi.

Respublika Prezidentining 1994 - yil 21-yanvardagi «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk manfaatlarini himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, respublika Vazirlar Mahkamasining 1995 - yil 24 - martdagisi «Chorvachilikda xususiy lashtirishni davom ettirish va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi va boshqa qarorlari asosida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, bozor tamoyillarining erkin ishlashi uchun shart-sharoitlar yaratish, xo'jaliklarni nodavlat shakllariga aylantirish, mahsuldarligi past chorva fermalarini jamoaga mulk qilib berish yo'li bilan qishloq xo'jaligida islohotlarni yanada chuqurlashtirishga, dehqon va fermer xo'jaliklari, kichik va xususiy biznes ishini yo'nga qo'yishga keng imkoniyatlar ochib berilib, yuqori natijalarga erishildi.

1.1.1-jadval

Qishloq xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqarish ko‘rsatkichlari

| | <i>2000 y</i> | <i>2001 y</i> | <i>2002 y</i> | <i>2003 y</i> | <i>2004 y</i> | <i>2005 y</i> | <i>2006 y</i> | <i>2007 y</i> |
|------------------------------|---------------|---------------|---------------|---------------|---------------|---------------|---------------|---------------|
| Paxta | 3002,4 | 3265 | 3122,4 | 2803,3 | 3536,8 | 3728,4 | 3600,3 | 3715,8 |
| Bug‘doy | 3929,4 | 4072 | 5650,8 | 6103,1 | 5868,8 | 6401,8 | 6655,1 | 6771,8 |
| Kartoshka | 731,1 | 744 | 777,2 | 834,4 | 895,7 | 924,2 | 1021,0 | 1188,1 |
| Sabzavotlar | 2644,7 | 2778 | 2935,6 | 3301,4 | 3336,1 | 3517,5 | 4294,1 | 4669,9 |
| Meva | 790,9 | 801 | 842,9 | 765,8 | 851,7 | 949,3 | 1182,2 | 1269,1 |
| Uzum | 624,2 | 573 | 516,4 | 401,5 | 589,1 | 641,6 | 803,6 | 880,3 |
| Poliz ekinlari | 451,4 | 466 | 479,1 | 587,3 | 572,5 | 615,3 | 744,1 | 840,0 |
| Go‘sht (tirik vaznda) | 841,8 | 853,5 | 865 | 936,7 | 996,3 | 1 061,1 | 1 139,8 | 1208,6 |
| Sut | 3632,5 | 3665,2 | 3721,3 | 4031,1 | 4279,8 | 4 554,8 | 4 855,6 | 5097,4 |
| Tuxum | 1254,4 | 1287,8 | 1368,9 | 1632,4 | 1859,9 | 19 666,7 | 21 281,1 | 2214,7 |

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi materiallari.

Jadval ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, 2000-2007 yillarda dehqonchilik va chovvachilik mahsulotlari oshganligi respublika qishloq xo‘jaligida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar o‘z samarasini berayotganligidan dalolat beradi.

Sabzavotlar, poliz ekinlari, kartoshka, meva, sholi mahsulotlari, chorvachiliikda sut, go‘sht, tuxum, teri va jun mahsulotlariga erkin (kelishilgan) narxlarda sotish joriy etildi. Bu esa xo‘jaliklarning o‘zlarini yetishtirgan mahsulotlarini o‘z ixtiyorida foydalanishga imkon yaratdi. Davlat buyurtmasi faqat paxta, don, sholiga nisbatan saqlanib qoldi.

Bu tadbirlar esa xo‘jalik yuritish mexanizmini takomillashtirishga, xo‘jaliklarni iqtisodiy jihatdan mustahkamlashga, qishloq mehnatkashlari turmush darajasini yaxshilashga hamda xo‘jaliklarda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta rivojlantirishga yo‘l ochdi.

Hammamizga ma’lumki, dehqon o‘zi hosil yetishtirib, uni sotish bilan shug‘ullanmasa, ish unumi va samarasi bo‘lmaydi. Ularga o‘z vaqtida bank, servis xizmati, ta’minot, iste’molchi va qayta ishslash korxonalarini yordami berilishi tufayli, ko‘proq mahsulot ishlab chiqarilib iste’mol bozori boyitilmogda.

Respublikada qishloq xo‘jaligi sug‘orma dehqonchilikka asoslangan bo‘lib, sug‘oriladigan yerlar maydonini kengaytirish, suv ta’minotini yaxshilash, daryolar oqimini mavsumiy tozalash, suv omborlari, to‘g‘onlar, ulkan o‘zi oqar va magistral kanallarining qurilishi,

irrigatsiya shoxobchalarini yaxshilash, yarlarni melioratsiyalash, qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash, elektrlashtirish, kimi yolashtirishni yaxshilash evaziga ekinlar hosildorligini va mehnat unum dorligini oshirish imkoniyati mintaqalar bo‘yicha yaratiladi.

O‘zbekiston hududi qishloq xo‘jaligi jihatidan 3 mintaqaga bo‘linadi:

1. Tog‘ va tog‘ oldi mintaqasi – respublika hududining 20 foizdan ortiq maydonini tashkil etadi. Ularga, lalmikor dehqonchilik (bug‘doy, arpa, no‘xat, zig‘ir), bog‘dorchilik va uzumchilik, mavsumiy bahorgi, kuzgi yaylovlari bo‘lib, chorvachiligi go‘sht-jun yetishtirishga ixtisoslashgan.

2. Sug‘orma dehqonchilik mintaqasi – respublika hududining qariyb 20 % ni tashkil etib, bu mintaqaga Farg‘ona vodiysi, Mirzacho‘l, Dalvarzin cho‘li, Chirchiq-Ohangaron, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxon-Sherobod vodiylari, Quyi Amudaryoni o‘z ichiga oladi. Mintaqada paxta, don, sholi, makkajo‘xori, kartoshka, sabzavot-poliz ekinlari, yem-xashak ekinlari, bog‘ va tokzorlar, tutzorlar, rezavor ekin maydonlari kiradi.

3. Cho‘l yaylov mintaqasi - respublika hududining 60 foizini tashkil etadi. Hududga cho‘l va suvsiz tekisliklardan iborat, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlari, Qoraqalpog‘istonda va Farg‘ona vodiysining markaziy qismida joylashgan yerlar kiradi.

Respublika hukumati tomonidan qishloq xo‘jaligini rivojlantirish to‘g‘risida 2011 - yilga qadar strategik rejalar ishlab chiqildi. Unda yetishtirilgan mahsulotlarni chet el investorlari yordamida qayta ishlash, saqlash va yetkazib berish bo‘yicha chora - tadbirlar ishlab chiqildi. Mahsulot hajmini oshirishda ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishga katta e’tibor berilgan bo‘lib, uning istiqbolli yo‘nalishlari ishlab chiqilib, amaliyatga tatbiq etilmoqda. Bozor infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha turli tadbiriy choralar ko‘rilmoxda. Qishloq xo‘jalik aholisini ijtimoiy muhofaza qilish maqsadida oxirgi yilda hukumatning qator qarorlari qabul qilinib, aholini turmush darajasini yaxshilash, kam ta‘minlangan oilalarga moddiy yordam, kasanachilikni rivojlantirishga asosiy e’tibor berildi.

Qishloq xo‘jaligini rivojlatirishda ham qishloq aholisiga ish haqi to‘lash tizimini yaxshilash, mehnat sharoitlarini yaratish, xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali qishloq xo‘jaligini industrial tarmoqqa aylantirish bo‘yicha ko‘plab chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

1.2. Fanning qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda tutgan o‘rni

Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlar o‘zining ijobiy natijalarini bermoqda. Ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari bozor tamoyillari asosida shakllanmoqda. Qishloq xo‘jaligida xo‘jalik yuritishning, yerga egalik va undan foydalanishning yangi shakllari mujassamlanishi, boshqarish tizimining bozor munosabatlariga moslashib borishi, ekinlar strukturasining bozor talabiga qarab takomillashtirilishi, mamlakat qishloq xo‘jaligidagi barqarorlikni ta’minlovchi asoslar bo‘lib xizmat qilmoqda. Qishloq xo‘jaligining istiqbolda rivojlanishi to‘g‘risida Prezident I.A. Karimovning “Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi Farmoni qishloq xo‘jaligida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarni isliqbolli yo‘llarini belgilab berdi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilariga turli xizmatlar ko‘rsatuvchi hamda ularga amaliy yordam beruvchi bir qator infratuzilmalarni;

- muqobil mashina-traktor parki (muqobil MTP)-qishloq xo‘jaligi korxonalarida shartnomaga asosida mexanizatsiya ishlarini amalga oshirishni;
- suvdan foydalanuvchilar uyushmasini (SFU)ni qayta tashkil etish;
- yonilg‘i-moylash materiallarini sotish shoxobchasi, mineral o‘g‘it va o‘simliklarni himoya qilish vositalari sotish shoxobchasi,
- fermer, dehqon va tadbirkorlarga yaqin hududlarda mini-bank tashkil etish;
- xizmat ko‘rsatish hamda moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda qulayliklar yaratish;
- nasldor mollarni sotish va zooveterinariya xizmati ko‘rsatish shoxobchasi;
- axborot ta’minati va konsalting xizmat shoxobchalari;
- qishloq xo‘jalik mahsulotlari tayyorlov tarmoqlari shoxobchalari tashkil etish ko‘zda tutildi.

“Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va menejmenti” fanning qishloq xo‘jaligini rivojlantirishdagi o‘rnini qishloq xo‘jalik tarmoqlarini rivojlantirish to‘g‘risida olib borilayotgan islohotlarni tezkor amaliyatga joriy etish, hukumat tomonidan qabul qilingan qonunlarni amaliyatga tatbiq etish yo‘llarini, qishloq xo‘jaligida yer, suv va moddiy resurslardan, asosiy, yordamchi va qo‘srimcha tarmoqlarni bir-biri bilan qo’shib olib borish bilan oddiy takror ishlab chiqarishdan sanoat usulida kengaytirilgan

takror ishlab chiqarishga o'tish, qishloq xo'jaligi subyektlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni yaxshilash, xo'jalikni boshqarish va menejment, qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar faoliyatini o'rganish, uning iqtisodiy samaradorligini oshirish, mahsulotni bozor talabi bo'yicha yetishtirish sohasidagi iqtisodiy muammolarni talabalarga o'rgatish fanning asosiy o'rni bo'lib xizmat qiladi.

1.3. Fanning maqsadi va vazifalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida shakllangan xalq xo'jaligida - sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish, transport, aloqa, savdo va boshqa bir qancha tarmoqlar bir-birlari bilan uzviy bog'langan holatda faoliyat ko'rsatadi. Qishloq xo'jaligida 3 ta tarmoq bo'lib: asosiy, yordamchi va qo'shimcha tarmoqlardir. Xo'jalikning asosiy faoliyat olib boruvchi yo'nalishi paxtachilik va g'allachilik bo'lib, uni - asosiy tarmoq, asosiy tarmoqni rivojlantirish uchun chorvachilik tarmog'ini - yordamchi tarmoq, ularga ta'minot va servis xizmat ko'rsatuvchilar qo'shimcha tarmoq deb yuritiladi.

Agrar tarmoqni rivojlantirish uchun iqtisodiy qonunlar va hukumat tomonidan olib borilayotgan islohotlar qishloq xo'jaligini rivojlantirishda asosiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Fanning vazifasi - bozor iqtisodiyoti talablari bo'yicha hukumat tomonidan agrar tarmoqni rivojlantirish to'g'risida belgilangan vazifalarni qishloq xo'jaligiga tatbiq etishga o'z hissasini qo'shishdan iborat.

«**Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti**» fani agrar tarmoqni rivojlantirishda samarali xizmat qiladi. Bu iqtisodiy fan bo'lib, qishloq xo'jaligi korxonalari ishlab chiqarishida qatnashuvchi barcha tarmoqlarning ishlab chiqarish munosabatlarini ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan uzviy bog'lanishini o'rganish, bozor sharoitida qishloq xo'jaligida obyektiv iqtisodiy qonunlarning qabul qilinishi va amaliyotga tatbiq qilish, ishlab chiqarishni biznes reja asosida tuzish, qishloq xo'jaligi va uning tarmoqlariga rahbarlik qilish, menejment, ishlab chiqarishdagi fan yangiliklari, texnika va ilg'or tajribalarni joriy etish yo'llari, baho, pul-kredit, bozor munosabatlari asosida arzon va sisfatli mahsulot ishlab chiqarish yo'llarini ko'rsatadi.

«**Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti**» fani keng ma'noda quyidagi iqtisodiy fanlar bilan: iqtisodiyot nazariyasи, iqtisodiy geografiya, biznes reja, iqtisodiy kibernetika, mikroiqtisod, tadbirkorlik, statistika, fermer xo'jaligi iqtisodi, ishlab chiqarishni tashkil etish, servis xizmatlari iqtisodi, menejment, marketing va boshqa fanlar bilan uzviy aloqadadir.

«Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va menejmenti» fanining maqsadi qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtiruvchi subyektlarda va unga xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlarda iqtisodiy qonunlarni ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq qilishdan iborat.

Fanning predmeti – qishloq xo‘jaligini tashkil etishning huquqiy-iqtisodiy asosini, ishlab chiqarish faoliyati va unga xizmat qiluvchi infratuzilma, iqtisodiy qonunlarni tatbiq qilish, moddiy ta‘minot va korxonalar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlari, ishlab chiqarish kuchlari, ishlab chiqarish munosabatlari va ish yuritishda mehnat unumdoorligini oshirishni o‘rganishdan iborat. “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va menejment” fani qishloq xo‘jaligidagi iqtisodiy samaradorlikni, qonunlar o‘zgarishini va jamiyat rivojlanishini o‘rganib sintez qilib turadi. Qishloq xo‘jaligi to‘g‘risidagi iqtisodiy qonunlar xo‘jalikni ijobjiy rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Fanning obyekti - qishloq xo‘jalik korxonalari va ishlab chiqarishga bevosita o‘z hissasini qo‘sadigan barcha tarmoqlar faoliyatidir.

“Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va menejmenti” fanining maqsadi qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtirishni ko‘paytirish va unga xizmat qiluvchi tarmoqlar o‘rtasida iqtisodiy aloqalarini mustahkamlash; mehnat jarayonlarini bozor munosabatlarda rivojlantirish; mehnat unumdoorligini oshirish; yer-suv hamda asosiy vositalaridan samarali foydalanishda boshqaruv tizimini shakllantirish va menejment faoliyatini amaliyotga tatbiq etishdan iboratdir.

«Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va menejmenti» fanining vazifasi qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtiruvchi va xizmat qiluvchi tarmoqlar bilan iqtisodiy aloqalarini mustahkamlash orqali, mahsulot hajmini va sifatini oshiradi. Tovar ishlab chiqaruvchi subyektlarda mehnat jarayonlarini ilmiy asosda rivojlantirish bilan mehnat unumdoorligini oshirish, yer-suv hamda asosiy vositalaridan samarali foydalanishdan iboratdir. Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish mulkchilikning turli shakllari asosida amalga oshirilmogda.

1.4. Fanda qo‘llaniladigan usullar

Tovar ishlab chiqaruvchi qishloq xo‘jalik korxonalari faoliyatini tahlil qilish uchun har xil usullardan foydalaniladi. Ushbu usullar orqali ishlab chiqarishda ro‘y beradigan hodisalarini iqtisodiy baholaydi. Ishlab chiqarishda quyidagi usullardan foydalaniladi:

1. Statistik guruhash usuli - yer fondidan ratsional foydalanish, mahsulot tannarxi, mehnat unumdorligining o'sishi, mehnat resurslari, texnikalardan ratsioal foydalanish va boshqa ko'rsatkichlarni o'rganadi. Bu usul yordamida ko'rsatkichlarni tarkibini, bir-biriga bog'liqligini, ko'p yillik o'sish tendensiyalarini, qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish istiqbollarini aniqlanadi .

2. Monografik usul - tajriba almashish maqsadida xo'jaliklarning umumiyligi va ayrim tarmoqlarning faoliyatini, ishlab chiqarish jarayonlarini, rivojlanish istiqbollarini aniqlab berishdan iborat.

3. Analitik hisob usuli - xo'jalik faoliyatini tahlil qilish, xo'jalikning barcha tarmoqlarini rivojlantirish yo'llarini belgilaydi.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni iqtisodiy fanlar orqali ijtimoiy hayotni chuqur tadqiqot qilib, keyingi yillarda katta yutuqlarga erishish uchun iqtisodiy fanga matematik tadqiqot usullari katta samara bermoqda.

4. Iqtisodiy matematik usuli - matematik raqamlardir. Qishloq xo'jaligining barcha ishlab chiqarish sohalari bo'yicha ko'rsatkichlarni tahlil qilishda matematik raqamlar 3 manbadan olinadi:

1) biznes rejadan;

2) xo'jalik yillik hisobotidan;

3) me'yoriy ma'lumotlar, texnologik karta va ma'lumotnomalar.

Iqtisodiy matematik usul bir qancha bosqichlarga bo'linadi. Tayyorlash, iqtisodiy tahlil, abstrakt raqamlar, ma'lumotlar yig'ish va uni o'rGANISH.

5. Loyiha konstruktorlik ishlari usuli - loyihalashtirilgan obyektlar va jamlab bo'lmaydigan har xil ko'rsatkichlarni tahlil qilishdan iboratdir.

Yuqorida usullar yordamida qishloq xo'jalik korxonalari va xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarning ishlab chiqarish faoliyati va iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinib, kelgusida rivojlantirish istiqbollari belgilab olinadi.

Qisqacha xulosa

«Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti» fanining premetri qishloq xo'jalik tarmoqlarini yagona bir tizim sifatida o'rganishdan iborat.

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, mulkchilikka asoslangan shakllarni rivojlantirishda yer-suv va moddiy resurslardan samarali foydalanib, mahsulot hajmi oshirilmoqda.

Fanning asosiy vazifasi qishloq xo'jaligi va unga xizmat qiladigan tarmoqlarda boshqaruv, menejment, ishni tashkil etish, tarmoqlarni

ixtisoslashtirish, iqtisodiy qonun va qarorlarni amaliyotga tatbiq etish, ustuvor faoliyat yurituvchi subyektlarni rivojlantirish yo'llarini ko'rsatish, xo'jalik va uning tarmoqlarida iqtisodiy va ishlab chiqarish munosabatlarni takomillashtirish yo'llarini o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Tayanch iboralar

Bozor, qishloq xo'jaligi, fermer, kooperativ, davlat, xususiy, iqtisodiyot, tarmoq, predmeti, obyekti, ijtimoiy rivojlanish, usullar, islohot, chuqurlashtirish, munosabatlar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

- 1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligini rivojlantirish yo'llari nimalardan iborat?*
- 2. Qishloq xo'jaligi respublika xalq xo'jaligida qanday o'rinni egallaydi?*
- 3. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda fanning asosiy vazifalari nimalardan iborat?*
- 4. «Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va menejmenti» fanining iqtisodiy fanlar bilan bog'liqligini ayting.*
- 5. Qishloq xo'jalik faoliyatini tahlil qilishning qanday usullari mavjud?*

Asosiy adabiyotlar

- 1. Karimov I.A. "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida". –T.: O'zbekiston, 1995.*
- 2. Karimov I.A. "Qishloq xo'jaligini isloh qilish. Agrar munosabatlarning yangi turlarini shakllantirish". –T.: "O'zbekiston", 1995.*
- 3. Karimov I.A. "Dehqonchilik taraqqiyoti – farovonlik manbai". –T.: "O'zbekiston", 1993.*
- 4. Петренко И.Я., Чужиков П.И., "Экономика сельскохозяйственного производства". Алма-Ата: Кайнар, 1992.*
- 5. Коваленко Я.Н. "Экономика сельского хозяйства". Москва: ЭКМОС, 1998.*
- 6. Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti", -T.: TDIU, 2004.*
- 7. Umurzoqov O'.P., Toshboyev A.J., Toshboev A.A. "Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. –T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008.*

2-bob. BOZOR MUNOSABATLARIGA O'TISH SHAROITIDA AGROSANOAT MAJMUASI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

2.1. Agrosanoat majmuasi tushunchasi, vazifasi va tarkibi

Agrosanoat majmuasi (ASM) – bu qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularni tayyorlash, qayta ishlash, saqlash, sotish, inson omilini faollashtirish va tayyor mahsulotni iste'molchilarga yetkazib beruvchi, yagona maqsadlarga bo'ysundirilgan tarmoq va xizmatlar yig'indisidir.

ASM ning asosiy vazifasi - qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishni ko'paytirish, ularni xarid qilish rejalarini bajarish va saqlashni ta'minlash, sifatli qayta ishlash va oziq-ovqat mollari assortimentini kengaytirishdan iboratdir.

Respublika agrosanoat majmuasining asosiy maqsadi - aholini sifatli oziq-ovqat va xalq iste'moli tovarlari bilan talab darajasida ta'minlashdir. Bu muammo siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, uning talab darajasida hal etilishi aholi turmush darajasini yaxshilashni ta'minlaydi. Bu masalada respublika hukumati tomonidan agrosanoat majmuasiga kiruvchi barcha tarmoqlarni rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan chora-tadbirlar ishlab chiqilib, hayotga bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Hozirgi sharoitda qishloq xo'jalik xomashyosidan oziq-ovqat mahsulotlari va iste'mol buyumlari ishlab chiqarish o'zicha rivojlanana olmaydi. Unga ko'pgina omillar ishlab chiqarish vositalarini ishlab chiqarish, mahsulotni saqlash, moddiy ta'minot, servis xizmatlari, mahsulotni sotish bilan faoliyat ko'rsatuvchi tarmoqlar qatnashmoqda.

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishni yanada ko'paytirish, ularning sifatini yaxshilash, shuningdek, ASM tarmoqlari ning samaradorligini oshirish bo'yicha ish yuritilmoqda.

Xo'jalikni yuritishda industrial yo'nalish asosida ish olib boriladi. Bu borada tuman ASM turli ishlab chiqarish shakllari mavjud bo'lib:

1. Xo'jaliklararo kooperatsiyalash - qishloq xo'jalik kooperatsiya yo'nalishini rivojlantirib, qishloq xo'jaligini sanoat asosida integratsion yo'naltirib yoki ASM integratsiya usulini yaqinlashtirish demakdir.

2. Xo'jaliklararo korxonalarga - bo'rdoqichilik komplekslari, buzoq boqish, cho'chqachilik kompleksi.

3. Xo'jaliklararo birlashmalarga - bir guruh shirkatlar yoki boshqa tashkilotlar birlashishi kiradi. Birlashmalarda ishlar integratsiya asosida olib borilib unda iqtisodiy, ishlab chiqarish potensiallaridan unumli foydalanishga qaratiladi. Integratsiya 2 ga bo'linib, ular: gorizontal va vertikal integratsiyadir.

Gorizontal - bir xil mahsulot, don, go'sht, sut yetishtiradigan tarmoqqa aytildi.

Vertikal integratsiya - ishlab chiqarishning mahsulotlarini saqlash, qayta ishlash, sotish bilan shug'ullanadi.

Endilikda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi kooperatsiya va integratsiyasiz istiqbolga ega emasligi ayon bo'lib qolmoqda. ASM tizimiga kiruvchi korxonalar o'rtasidagi tashkiliy-iqtisodiy aloqalarni umumlashtirib, kooperativ tizimini shakllantirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Kooperatsiya tizimi - o'z faoliyatiga ko'ra turlicha, ya'ni mintaqaga qarab tuman ichida, yoki tumanlararo, shuningdek, vertikal va goritzantal birikmalar holatida bo'lishi mumkin.

Yagona yo'nalishda, subektlarning bir xil mahsulot ishlab chiqarishi, qayta ishlashi, xizmat ko'rsatishi bo'yicha birlashadi.

Turli yo'nalishda, subektlarning turli faoliyat ko'rsatuvchi, ishlab chiqarish, qayta ishlash, saqlash, tashish, tayyorlash va mahsulot sotish bo'yicha birlashadi;

- vertikal birlashmalar holatida o'zaro mahsulot ishlab chiqarish, uni qayta ishlashdan boshlab to iste'molchiga tayyor holatda yetkazishdag'i barcha jarayonni o'z ichiga oladi.

- gorizontal birlashmalarda bir yoki ikki xil ish turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatish bilan chegaralanib qoladiganlar. Ko'p hollarda kooperatsiya munosabatlari qayta ishlash korxonalari negizida (sut, konserva, vinochilik, paxta tozalash zavodlari, go'sht kombinati, ulgurji savdo bozori, MTP, mahsulot tayyorlash, sotish korxonalari) bo'lishi mumkin.

Yuqoridaq faoliyatni o'zaro ixtisoslashtirib, korxonalar integratsiyalashuv jarayonlarini qo'shib olib borishdan iboratdir.

2.2. Agrosanoat majmuasining tashkiliy tuzilmasi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida Respublika ASM rivojlantirishga katta e'tibor berilib, uning faoliyati tubdan isloh qilindi. ASM tizimidagi mavjud tarmoqlar qaytadan ko'rib chiqildi. O'z moliyaviy faoliyatini yuritadigan tarmoqlar qoldirildi. ASM o'z faoliyatiga qarab 4 sohaga bo'linib, ular:

1-soha. Agrosanoat majmuasi tarmoqlari (tizimi) uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi soha. Bu sohaga agrosanoat majmuasi uchun mashina, traktor, kombayn, stanoklar, ishchi mashinalar ishlab chiqaradigan mashinasozlik, mineral o'g'it va ximikatlar ishlab chiqaruvchi kimyo sanoati, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi, saqlovchi va tashuvchi tarmoqlarga kerakli vositalarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar kiradi.

2-soha. Qishloq xo'jaligining o'zi. Agrosanoat majmuasining asosini, yadrosini tashkil etuvchi qishloq xo'jalik korxonalaridir.

3-soha. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlovchi, qayta ishlovchi tayyor mahsulotlarni iste'molchilarga yetkazib beruvchi tarmoqlar yig'indisi. Paxta zavodlari, go'sht, sut zavodlari, meva sharbatlari chiqaruvchi zavodlar, yog'-moy zavodlari, junni, kanopni qayta ishlash zavodlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yoki ularni qayta ishlash natijasida olingan mahsulotlarni sotish bilan shug'ullanuvchi korxonalardir.

4-soha. Agrosanoat majmuasi infratuzilmasi. Infratuzilmaning o'zi 2 ga bo'linadi. Birinchi qismi ishlab chiqarish infratuzilmasi bo'lsa, ikkinchi qismi ijtimoiy infratuzilmadir.

Ishlab chiqarish infratuzilmasiga – qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish va sotishda faoliyat ko'rsatuvchi korxonalar kiradi.

Ijtimoiy infratuzilma – qishloq xo'jalik korxonalarining ish faoliyatiga qatnashmasdan mehnatchining ish sharoitlari, sotsial xizmat ko'rsatish korxonalari kiradi.

Bozor infratuzilmasi huquqiy va jismoniy shaxs maqomidagi barcha sotuvchi va xaridor o'rtaida sodir bo'ladigan ko'p qirrali bozor munosabatlarining bevosita ishtrok etishi, ularni vujudga keltiruvchi, bog'lovchi, boshqaruvchi, nazorat qiluvchi, maqsadga yo'naltiruvchi, iste'mol qilishgacha bo'lgan jarayonlarni bir tekis to'xtovsiz ketishi uchun xizmat qiluvchi muassasalardan iboratdir.

Mahsulot yetishtirish mulkchilikka asoslangan bo'lib, ko'p ukladli boshqarish tizimida shakllandi. Ishlab chiqarish yo'nalishi nodavlat (shirkat, fermer, dehqon, kichik va xususiy tadbirkor va kooperativ xo'jaliklar) shaklidadir. Majmuani takomillashtirishda ijtimoiy ishlab chiqarishni chuqurlashtirish va mahsulotni qayta ishlab, iste'molchiga yetkazib berishdagi muammolar keskin o'zgarib, qayta ishlangan va tayyor mahsulot yetkazib bermoqda. Natijada mahsulotlar nobudgarchiligini kamaytirish, uni saqlash, eksport qilish imkoniyati ortib, transport xarajatlari keskin kamayib umumiyl daromad miqdori ortmoqda.

Istiqbolda ASM ni rivojlantirish uchun ilg'or tajribalarni, chet el texnologiyalarini joriy etib qo'shma korxonalar, zavod-fabrikalarni ochish, investorlar bilan sherikchilikda ishlab chiqarishni tashkil qilishdan iboratdir.

2.3. ASM da qishloq xo'jaligi va uning iqtisodiy mexanizmlari

Agrosanoat majmuasining bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy salmog'ini qishloq xo'jaligi tashkil etadi. ASM tarkibiga barcha tarmoqlar qatori qishloq xo'jaligi va u bilan bog'liq barcha korxonalar kiradi. Qishloq xo'jaligi deganda dehqonchilik qilib mahsulot yetishtiruvchi bir guruh ishlovchilar faoliyati tushuniladi. ASM ga qishloq xo'jalik korxonalariga shirkat, fermerlar, dehqon xo'jaligi va davalat tasarrufidagi qishloq xo'jalik korxonalari kiradi.

Respublika iqtisodiyotining eng yirik tarmog'i qishloq xo'jaligi bo'lib, ikki tarixiy vazifani bajarib kelmoqda. Avvalo, aholining oziq-ovqatga, sanoatni xomashyoga bo'lgan talabini qondirmoqda. Bugungi kunda mamlakat yengil va to'qimachilik sanoatida ishlatilayotgan tolaning 60 foizi paxta tolasi va qolgan qismi jun, kanop, pilla va kimyoiy tolalarga to'g'ri keladi. Meva, sabzavot, poliz va yog'-moy mahsulotlarini, sut va go'shtni qayta ishlash sanoatlari ham mamlakatda yetishtirilgan mahsulotlar hisobiga faoliyat ko'rsatmoqda.

Respublika iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, aholining turmush darajasining yaxshilanishi, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishi qishloq xo'jaligi tarmog'i bilan bog'liq. Qishloq xo'jaligi sohasi ko'p molivayi resurslarni talab qilmaydigan yuqori samara beradigan tarmoqlardir. Bu bozor munosabatlarida rivojlanish uchun asosiy omildir.

Agrosanoat majmuasining barcha tarmoqlarini rivojlantirishda iqtisodiy mexanizmni ya'ni shartnama munosabatlarini, ish haqi va ish haqi to'lash tizimini, rejalashtirish va boshqarishni, pul-kredit, moddiy rag'batlantirishni hamda pirovard natijaga qarab baho va baholash tizimlarini qayta ko'rib chiqish va uni to'g'ri o'z mehnatiga yarasha tashkil qilishdan iboratdir.

Respublika hukumati tomonidan qishloq xo'jaligini rivojlantirishda qabul qilingan qonunlar, qarorlar va boshqa me'yoriy hujjatlar huquqiy sharoit bo'lib xizmat qilmoqda. Qishloq xo'jaligida tadbirkorlikni rivojlantirish, mulkiy munosabatlarni shakllantirish to'g'risida ham katta ishlar qilindi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotida erkin xususiy mulk assosida rivojlanishga asosiy e'tibor kuchaytirilib, mulkdorlar sinfi shakllandi. Qishloqda xususiy mulkka asoslangn tadbirkorlar sinfi shakllanib, qishloq xo'jaligida bevosita erkin faoliyat ko'rsatmoqda. Respublika qishloq xo'jaligida shirkat, fermer va dehqon xo'jaliklari subyektlari shaklida mahsulot yetishtirilmoqda. Shu bilan birgalikda, qishloq joylarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida bevosita va bilvosita xizmat qiladigan sohalarda ham tadbirkorlik rivojlanmoqda. Bular hunarmandchilik, kosibchilik, maishiy xizmat va boshqalardir. Infratuzilmaning rivojlanishi qishloq xo'jaligi, mamlakat xalq xo'jalik iqtisodiyotining o'sishiga ijobji ta'sir ko'rsatadi.

Qishloq xo'jaligi kelajakda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish uchun asosiy manba bo'lib qolmasdan, balki agrosanoat majmuasining barcha tarmoqlarini qo'shib olib borish va ularni rivojlantirish asosi bo'lib xizmat qiladi.

1. Qishloq xo'jaligi uchun sanoat korxonalarini ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish va mahsulotga bo'lgan talabini asoslash;

2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tarkibi va joylashuvini ularni tayyorlovchi va qayta ishlovchi korxonalarning rivojlanishini belgilaydi.

Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risidagi qonun 1998 - yil 30 - aprelda O'zbekiston Oliy Majlisini tomonidan qabul qilingan bo'lib, 7 bob 33 moddadan iboratdir.

Qishloq xo'jalik kooperativi (shirkat xo'jaligi) – tovar qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtirish uchun pay usuliga va asosan oila (jamo'a) pudratiga, fuqarolarning ixtiyoriy ravishda birlashishiga asoslangan, yuridik shaxs huquqiga ega mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektdir.

"**Fermer xo'jaligi to'g'risida**"gi qonun 1998 - yil 30 - aprelda qabul qilingan bo'lib, u 7 bob 36 moddadan iboratdir. 2004 - yilda fermer xo'jaligi to'g'risidagi qonunga qo'shimchalar kiritilgan.

Shirkat xo‘jaliklari respublika qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlardan biridir. Islohotlarning asosiy yo‘nalishi tarmoqni boshqarish va ishlab chiqarishni tashkil etish hamda samaradorligini oshirishdir. Respublika qishloq xo‘jaligini 1997 - yilga qadar O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi boshqardi. Shu davrda qishloq xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha suv resurslari va ulardan foydalanishda muammolar vujudga keldi. Natijada 1997 - yilda O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi tashkil etildi. 2001 - yilning 1 - yanvariga kelib uning tarkibida 2018 ta qishloq xo‘jaligi korxonasi, 125 ta qorako‘lchilik, 51 ta parrandachilik, 18 ta sabzavotchilik xo‘jaligi bor edi.

1998 - yildan boshlab eski kolxoz va davlat xo‘jaliklari shirkat xo‘jaliklari shaklida tashkil etila boshlandi. Shirkatlar yirik qishloq xo‘jaligi korxonalari bo‘lib, 2001 - yilda ularning o‘rtacha ekin maydoni 1233 hektarni tashkil etdi. Ular o‘rtacha 94 hektardan bog‘ va 64 hektardan uzumzorlarga ega edi. Ular mamlakatda ishlab chiqarilgan paxtaning 60, tamakining 66, qand lavlagining 88, boshoqli donning 49, mevaning 26 va uzumning 43 foizini berdi. Shirkatlar aksiyadorlik jamiyatlarining o‘ziga xos bir ko‘rinishi sifatida vujudga keltirildi. Ularda xo‘jalikning mol-mulkлari unga a’zo bo‘lganlarga mulkiy pay ulushi ko‘rinishida taqsimlanib berilgan. Bu ulushning egasi xo‘jalik faoliyati natijasida vujudga kelgan daromaddan (foydadan) bir qismini oladi.

Shirkat xo‘jaliklarining faoliyati «Qishloq xo‘jaligi kooperativ (shirkat xo‘jaligi) to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni bilan hamda shirkat Nizomi asosida yuritiladi. Shirkat xo‘jaliklarida mehnatni tashkil etish oila pudrat shaklida amalga oshiriladi. Uning asosida shirkat bilan oila o‘rtasida tuziladigan oila pudrat shartnomasi yotadi. Shirkatlar ustav jamg‘armalariga ega bo‘ladilar. Ularning ustav jamg‘armasi, pay jamg‘armasi va bo‘linmas jamg‘armadan iborat bo‘ladi. Shirkatga a’zolik ixtiyoriydir. 16 yoshga kirgan fuqaro ixtiyoriy ravishda unga a’zolikka kirishi mumkin. Shirkat xo‘jaligining yuqori boshqaruv organi umumiylar majlis hisoblanadi. Umumiylar majlis xo‘jalik raisini, boshqaruvini va taftish komissiyasini saylaydi va shirkatni joriy boshqarish bo‘yicha o‘z vakolatini ularga beradi.

Fermer xo‘jaligi — o‘ziga uzoq muddatga ijara berilgan yer uchastkalaridan foydalanilgan holda qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi fermer xo‘jaligi a’zolarining birgalikdagi faoliyatiga asoslangan, yuridik shaxs huquqlariga ega mustaqil xo‘jalik yurituvchi subyektdir.

Fermer xo'jaliklari qishloq xo'jaligi korxonalarini orasida salmoqli o'rinni egallaydi. Mustaqillikning birinchi kunlaridan oq fermer xo'jaliklariga istiqbolli yo'nalish sifatida e'tibor berildi. Rahbarlar, mutaxassislar va olimlar bu xo'jaliklarning rivojlanishiga tabiiy sharoit yaratib berdilar. Natijada fermer xo'jaliklari tarixan qisqa davrda qishloq xo'jaligida o'z faoliyatini olib borishga haqli ishlab chiqarish shakllaridan biri ekanligini isbot qildi. 2007 - yil 220 mingta fermer xo'jaliklari mavjud bo'lib, ularga 3,7 ming gektar yer biriktirilgandi.

2.3. I-jadval

Fermer xo'jaliklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

| | O'chov birligi | 2000 y | 2001 y | 2005 y | 2006 y | 2007 y |
|--|-------------------|---------|----------|-----------|-----------|-----------|
| Mahsulot ishlab chiqarish hajmi | mln.so'm | 76492,9 | 154184,7 | 1453521,2 | 2361457,3 | 3115674,0 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | | | |
| - dehqonchilikda | mln so'm | 67348,8 | 138927,0 | 1382320,1 | 2273837,6 | 2986510 |
| - chorvachilikda | mln.so'm | 9144,1 | 15257,7 | 71201,1 | 87619,6 | 129164 |
| Fermer xo'jaliklari soni | dona | 43759 | 55445 | 125668 | 189235 | 217095 |
| Biriktirilgan yer maydoni | ming ga | 632,2 | 696,3 | 2140,7 | 2710,6 | 3001,6 |
| Jami ishlovchilar soni | ming kishi | 294,9 | 386,3 | 954,2 | 1381,1 | 1621,4 |
| <i>shundan: yollanma ishlovchilar</i> | ming kishi | 0,0 | 40,0 | 280,8 | 382,5 | 456,1 |
| Yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlarida fermer xo'jaliklarining ulushi | % | 5,5 | 7,3 | 24,3 | 32,3 | 34,7 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | | | | |
| - dehqonchilik | % | 4,9 | 6,6 | 20,6 | 31,1 | 60,3 |
| - chorvachilik | % | 0,6 | 0,7 | 3,7 | 1,2 | 3,2 |
| Bitta fermerga to'g'ri keladigan ekin maydoni | ga | 20,3 | 19,0 | 30,0 | 26,2 | 26,7 |

Manba: O'bekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

“Dehqon xo‘jaligi to’g’risida”gi qonun 1998-yil 30-aprelda O‘zbekiston Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan bo‘lib, 7 bob 31 moddadan iboratdir.

Dehqon xo‘jaligi—oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, oila a’zolarining shaxsiy mehnati asosida meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga berilgan bo‘lib, yer uchastkasida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtiradi va realizatsiya qiladi.

Dehqon xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligi korxonalarining yana bir shaklidir. Dehqon xo‘jaliklarining aholining mustaqillikka qadar mavjud bo‘lgan shaxsiy tomorqa xo‘jaliklarining rivojlanishi oqibatida ularning o‘rniga vujudga keldi. Ular 1990 - yildan 2007 - yillar davomida 2,3 mln.dan 3,3 mln.taga yetdi. Yangi vujudga kelgan dehqon xo‘jaliklari hajmi 0,35 hektar sug‘oriladigan yergacha yetdi. Oldin aholining shaxsiy tomorqa uchastkalari aksariyat holda 0,08 gektardan oshmas edi.

Dehqon xo‘jaliklari qonunda belgilangan tartibda yuridik shaxs maqomini olishi mumkin. Yuridik shaxs maqomini olgan dehqon xo‘jaligida ishlayotganlar ixtiyoriy ravishda O‘zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta’midot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg‘armasiga badallar to‘lab borishlari mumkin. Shunday hollarda pensiya jamg‘armasining tuman bo‘limlarida ularga mehnat daftrchasi belgilangan tartibda yuritiladi.

Agarda shirkatlar va fermer xo‘jaliklari asosan tovar ishlab chiqaruvchi yirik qishloq xo‘jaligi korxonalari hisoblansa, dehqon xo‘jaliklari oila a’zolarining shaxsiy mehnatiga asoslanib mayda tovar ishlab chiqaruvchi subyekt hisoblanadi. Dehqon xo‘jligida yetishtirilgan mahsulot, eng avvalo, oilaning o‘z ehtiyojlarini uchun ishlataladi. Ortiqcha mahsulot sotilishi mumkin. Yirik xo‘jaliklar foydalana olmaydigan imkoniyatlardan, resurslardan dehqon xo‘jaligi samarali foydalanadi.

2.4. Agrosanoat majmuasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari

Respublika xalq xo‘jaligi iqtisodiyotida agrosanoat majmuasining ahamiyati va o‘rni juda katta bo‘lib, mamlakat yalpi ichki mahsulotning 70 foiziga yaqini, iqtisodiyotdagi qattiq valutaning 70 foizidan ko‘prog‘i shu majmua mahsulotlarini sotishdan tushadi. O‘zbekiston Respublikasi mehant resurslarining 75 foizidan ko‘prog‘i, iqtisodiyotdagi asosiy fondlarning asosiy qismi agrosanoat majmuasida faoliyat ko‘rsatadi.

Iqtisodiyotning juda katta resurslari agrosanoat majmuasi tarmoqlarida joylashganligi uning ahamiyatini yanada oshiradi. Bu resurslarni takror ishlab chiqarish mamlakat agrosanoat majmuasining rivojlanishiga, mamlakat aholisi turmush darajasini oshirish to‘g‘ridan-to‘g‘ri shu majmuuaning faoliyati bilan bog‘liq. O‘zbekiston Respublikasi agrosanoat majmuasining faoliyati samarali bo‘lsa, xalqning turmush darjasini yuqori bo‘ladi yoki, aksincha. Shu sababli agrosanoat majmuasini rivojlantirish iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilangan.

Respublika kuchli ijtimoiy himoyaga asoslangan bozor iqtisodiyotiga o‘tish yo‘lidan bormoqda. 1991-2008 yillar ichida mamlakat agrosanoat majmuasini bozor iqtisodiyoti talablari asosida rivojlantirishni ta‘minlaydigan huquqiy baza yaratildi va takomillashtirilib borilmoqda. Agrosanoat majmuasida davlatning ulushi minimallashtirildi va nodavlat sektor hal qiluvchi asosiy kuchga aylandi. Hozirda mamlakat qishloq xo‘jaligida yetishtirilayotgan yalpi mahsulotning 87 foizidan ko‘prog‘i nodavlat sektorida ishlab chiqarilmoqda.

ASM tarmoqlari oldida quyidagi asosiy maqsadli vazifalar turibdi.

Qishloq xo‘jalik mahsulotlari miqdorini ko‘paytirish va turli assortimentini yaxshilash; mamlakat aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan tibbiyot me‘yoriga mos ravishda ta‘minlash, chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni keskin ko‘paytirish zarur. Mamlakatda don ishlab chiqarishni istiqbolda 10-12 mln. tonnaga yetkazish, go‘sht, sut yetishtirishni eng kamida 2, tuxum ishlab chiqarishni 3 marta ko‘paytirish talab qilinadi. Mamlakat aholisining asosiy qismi non va non mahsulotlari, kartoshka va mevalarni iste‘mol qiladi. Inson organizmi uchun balanslashgan oziq-ovqat mahsulotlari iste‘mol qilish talab qilinadi. Balanslashgan oziq-ovqat iste‘mol qilishda, hali jiddiy kamchiliklar mavjud. Ayniqsa, chorvachilik, asalarichilik, baliq mahsulolariga bo‘lgan talab juda qoniqarsiz ta‘minlanganligi uchun mamlakatda yer, suv, mehnat va boshqa resurslardan samarali foydalanish, ilm-fan, ilg‘or texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga qo‘llash orqali qishloq xo‘jalik mahsulotlarini yetishtirish, ulardan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish va assortimentini yaxshilash agrosanoat majmuasining asosiy vazifalaridan biridir. Agarda yer yuzi aholisining 2 mlrd.ga yaqini ochlik va ichimlik suvi tanqisligi sharoitida yashayotganligini hisobga olsak, bu muammo yanada keskinlashadi. Yer yuzi aholisi, jumladan, O‘zbekiston aholisining ko‘payib borishi hisob-kitoblarga qaraganda, 2030 - yilga borib 46 mln. kishini tashkil etar ekan.

Respublika agrosanoat majmuasi tarmoqlarida mehnat unumdorligining yuqori bo'lishi juda katta ijobiy natijalarga olib keladi. Mehnat unumdorligining oshishi mahsulot tannarxi pasayishini va resurslar tejalishini ko'rsatadi. Oxirgi yillarda agrar tarmoqda mehnat resurslari bo'shatildi. Bo'shagan mehnat resurslariga ko'p malaka va bilim talab qiladigan turli sanoat sohalarida ishlashi uchun imkoniyatlar yaratildi. AQSH, Germaniya, Gollandiya davlatlarida qishloq xo'jaligida band bo'lgan bir xodim mamlakat aholisining 90-110, bizda esa 8-9 taga mahsulot ishlab chiqaradi. Rivojlangan davlatlar agrosanoat majmuasi tarkibida asosiy mehnat resurslari agrosanoat majmuasining qishloq xo'jaligiga xizmat qiladigan yoki uning mahsulotini qayta ishlaydigan sohalarda ishlashadi.

Agrosanoat majmuasi tarmoqlari uchun ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi tarmoqlarning rivojlanish darajasi talabdagidan pastligi traktor, don kombaynlari, yuk avtomobilari, ishchi mashinalarning katta qismi import evaziga qoplanadi. Mamlakatda ana shu tarmoqlarni rivojlantirish eng ustuvor yo'naliishlardan biri sifatida qaralmoqda.

ASM qishloq xo'jalik tarmog'ini rivojlantirish uchun ta'minot va servis xizmat ko'rsatish sohasi faoliyatini har tomonlama kengaytirish, ilg'or innovatsion texnologiyalarni kiritish, zamonaviy texnikalarni, zavod, fabrikalarni ASM da joylashtirish, ixtisoslashtirishni yo'lga qo'yishni tashkil etish zarur.

Qishloq xo'jaligida inson omilini faollashtirishda gaz, suv, elektr ta'minoti, yashash turmush sharoitlari, maishiy xizmat sohalarini tubdan isloq qilish yo'li bilan qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmini oshirish zarur. Tayyor mahsulotlarni saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga yetkazish madaniyati yetarli rivojlanmagan. Shu sohalarni rivojlantirish orqali ASM faoliyati yaxshilanadi.

ASM xo'jalik mexanizmiga boshqarish, rejalashtirish, ish haqi, baho va baholash, pul va kreditlash, soliq, sug'urtalar kiradi. Majmuaning iqtisodiy faoliyatini yanada yaxshilashda xo'jalik mexanizmi har tomonlama takomilashtirilib borilishi zarur.

Qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlarning nobud bo'lmasligi ko'p jihatdan ularni tayyorlovchi, qayta ishlovchi, saqlovchi va iste'molchilarga yetkazib beruvchi tarmoq va xizmatlarning mavjudligiga, ularning jihozlanishiga va bir me'yorda yetarli quvvat bilan ishlashiga bog'liq. Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida yetishtirilgan ayrim mahsulotlarning 25-30 foizi ana shu tarmoqlardagi kamchiliklar sababli

nobud bo'Imoqda. Bu esa mahsulotlar taqchilligi sharoitida yo'l qo'yib bo'lmaydigan yo'qotish va iqtisodiyotga keltiradigan katta zarardir.

Qishloqda bozor munosabatlarini yanada chuqurlashtirish, mahsulotni qayta ishlash, saqlash va eksportini ko'paytirish, xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini o'rganish va ishlab chiqarishga joriy qilish, kadrlar malakasini oshirish, dehqonning turmush sharoitlarini yaxshilash masalalari ham majmuuning muhim vazifalari hisoblanadi.

Qisqacha xulosalar

Agrosanoat majmuasi ko'p tarmoqli yirik majmua bo'lib, o'z tarkibiga qishloq xo'jaligi, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish, unga xizmat ko'rsatuvchi, qayta ishlovchi, saqlash va sotuvchi korxonalarini o'z ichiga oladi. ASM faqat qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirib qolmay, balki tayyor iste'mol mollari, xomashyo, yarim tayyor xomashyo yaratib beradi. Bu agrar sohaning industrial sanoat sohasiga aylanishining asosiy omili ham bo'lib xizmat qiladi. ASM murakkab iqtisodiy tizim bo'lib, u 4 sohaga bo'linadi. Ushbu sohalarning hamjihatdagi faoliyatidan xalq xo'jaligi uchun zarur oziq-ovqat va ehtiyoj mollari ishlab chiqariladi.

Respublika qishloq xo'jaligida turli faoliyat yurituvchi subyektlar, soddalashtirilib ishlab chiqishning yirik 3 ta subyekti: shirkat, fermer, dehqon xo'jaliklari tashkil etilib, ularning faoliyati uchun huquqiy va iqtisodiy, ijtimoiy asoslar yaratilganligi sababli mahsulot hajmi ortmoqda. Mahsulot tovarliligini oshirishda investitsiyalarni jalb etish yo'li bilan ASM ni rivojlantirish mumkin.

Tayanch iboralar

Agrosanoat majmuasi, ASM vazifasi, konsepsiyalash, integratsiyalash, xo'jaliklararo korxonalar, birlashmalar, gorizontal va vertikal integratsiya, infratuzilma, sohalar, xususiyashtirish, mintqa, nodavlat sektori, mulkchilik shakllari.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *ASM deganda nima tushuniladi?*
2. *ASM sohalariga nimalar kiradi?*
3. *ASM ni rivojlantirishning asosiy yo'naliishlari nimalardan iborat?*
4. *ASM da qishloq xo'jalik sohasi qanday o'rinn egallaydi?*
5. *ASM da kooperatsiya tizimini shakllantirish zaruriyati nimada?*
6. *Qishloq xo'jaligini rivojlantirish yo'llari o'z ichiga nimalarni oladi?*

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. “O’zbekiston XXI asr bo’sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”. –T.: “O’zbekiston”, 1998.
2. Karimov I.A. “O’zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo’lida”. –T.: “O’zbekiston”, 1995.
3. O’zbekistonning yangi qonunlari. №19. –T.: “Adolat”, 1998.
4. Емельянов А.И. “Экономика сельского хозяйства”. –М.: “Экономика”, 1982.
5. Jo’raev F. “Qishloq xo’jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish”. -T.: “Istiqlol”, 2004, -343 b.
6. Abdug’aniyev A., Abdug’aniyev A.A. “Qishloq xo’jaligi iqtisodiyoti”. –T.: “TDIU”, 2004.
7. Umurzoqov O’.P., Toshboyev A.J., Toshboev A.A. “Fermer xo’jaligi iqtisodiyoti. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008, -273 b.
8. O’zbekiston iqtisodiyoti jurnalı. 2005. 8-son.

3-bob. YER FONDI VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH, YER KADASTRI

3.1. O'zbekistonning yer fondi va undan foydalanish

Qishloq xo'jaligida yer asosiy ishlab chiqarish vositasi mehnat predmeti (mehnat yo'naltiradigan obyekt sifatida) va mehnat quroli (yerda zarur biologik sharoitlarni tug'dirish natijasida o'simliklar rivojlanadi) sifatida xizmat qiladi. Yer har bir xalqning asosiy boyligidir.

3. 1. 1-jadval.

Respublika yer fonda tarkibining asosiy yer turlari bo'yicha taqsimlanishi

| T/r | Yer turlari | 2000y. 01.01. holati- dagi may- doni | 2003y. 01.01. holati- dagi may- doni | 2004y. 01.01. holati- dagi may- doni | 2005y. 01.01. holati- dagi may- doni | 2006 y. 01.01. holati- dagi may- doni | 2007y. 01.01. holati- dagi may- doni | 2006 y. 01.01. 2007y. 01.01. farqi+,- |
|-----|----------------------------------|---|---|---|---|--|---|---|
| 1 | Ekin yerlari | 4056,6 | 4052,7 | 4042,7 | 4049,0 | 4057,2 | 4064,2 | +7,0 |
| | shu jumladan, sug'oriladigani | 3313,6 | 3307,4 | 3297,7 | 3296,3 | 3303,6 | 3308,5 | +4,9 |
| 2 | Ko'p yillik daraxtzorlar, | 352,9 | 336,4 | 337,0 | 338,8 | 335,8 | 339,0 | +3,2 |
| | shu jumladan, sug'oriladigani | 339,7 | 323,1 | 323,5 | 325,3 | 322,7 | 325,5 | +2,8 |
| 3 | Bo'z yerlar | 80,7 | 85,0 | 84,5 | 83,9 | 83,6 | 82,6 | -1,0 |
| | shu jumladan, sug'oriladigani | 46,5 | 48,4 | 48,3 | 48,1 | 48,4 | 48,3 | -0,1 |
| 4 | Pichanzor va yaylovlar | 22263,4 | 21367,0 | 21217,1 | 21215,7 | 21207,3 | 20858,0 | -349,3 |
| | shu jumladan, sug'oriladigani | 44,1 | 43,9 | 43,9 | 43,9 | 43,4 | 43,3 | -0,1 |
| 5 | Qishloq xo'jalik yer turlari | 26753,6 | 25841,1 | 25681,3 | 25687,4 | 25683,9 | 25343,8 | -340,1 |
| | shu jumladan, sug'oriladigani | 3743,9 | 3722,8 | 3713,4 | 3713,6 | 3718,1 | 3725,6 | +7,5 |

| | | | | | | | | |
|----|---|---------|---------|---------|---------|---------|---------|--------|
| 6 | Tomorga yerlar | 642,9 | 667,3 | 677,3 | 679,7 | 691,3 | 691,6 | +0,3 |
| | shu jumladan, sug‘oriladiganı | 481,9 | 500,9 | 507,6 | 511,1 | 522,0 | 521,1 | -0,9 |
| 7 | O‘rmonzor va butazorlar | 1511,9 | 2375,4 | 2817,7 | 2808,1 | 2811,4 | 3219,6 | +408,2 |
| | shu jumladan, sug‘oriladiganı | 44,6 | 47,2 | 47,7 | 47,8 | 48,8 | 49,7 | +0,9 |
| 8 | Bog‘dorchilik- uzumchilik uyushmalari | 8,5 | 8,1 | 7,8 | 7,7 | 7,5 | 7,7 | +0,2 |
| | shu jumladan, sug‘oriladiganı | 7,2 | 7,1 | 6,6 | 6,5 | 6,4 | 6,6 | +0,2 |
| 9 | Meliorativ qurilish holatidagi yerlar | 79,3 | 79,5 | 79,5 | 78,7 | 78,6 | 77,1 | -1,5 |
| 10 | Boshqa yerlar | 15414,1 | 15438,9 | 15149,7 | 15148,7 | 15137,6 | 15070,5 | -67,1 |
| | Jami yerlar: | 44410,3 | 44410,3 | 44410,3 | 44410,3 | 44410,3 | 44410,3 | - |
| | shu jumladan, sug‘oriladiganı | 4277,6 | 4278,0 | 4275,3 | 4279,0 | 4295,3 | 4303,0 | +7,7 |

O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy chegarisidagi yer maydoni 44896,9 ming gektarni tashkil qiladi. 2000 yil holatiga respublika bo‘yicha korxona, tashkilot, muassasalar va fuqarolar foydalanishidagi jami yerlar 44410,3 ming gektarni tashkil etadi. Respublika bo‘yicha sug‘oriladigan erlar 4303,0 ming gektarni yoki umumiy maydonning 9,7 foizini tashkil qiladi. O‘zbekiston Respublikasida yerlardan foydalanishning belgilangan asosiy maqsadiga ko‘ra 8 ta toifaga bo‘linadi.

3.1.2-jadval Yer fondining toifalari bo‘yicha taqsimlanishi

| T/r | Yer fondining toifalari | Jami maydon | | Shundan sug‘oriladigani | |
|-----|--|-------------|------------------------------------|----------------------------|------------------------------------|
| | | ming,ga | Jami yerga nisbatan foizi | ming, ga | Jami yerga nisbatan foizi |
| 1 | Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar | 22338,3 | 50.29 | 4206.8 | 9.47 |
| 2 | Aholi punktlarining yerlari | 236,3 | 0.53 | 48.8 | 0.11 |

| | | | | | |
|---------------------|--|----------------|------------|---------------|------------|
| 3 | Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar | 1955.5 | 4.40 | 11.7 | 0.03 |
| 4 | Tabiatni muxofaza qilish, sog'iomlashtirish, rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar | 72.5 | 0.16 | 0.6 | 0.002 |
| 5 | Tarixiy-madaniy ahamiyatga moliq yerlar | 0.3 | 0.001 | 0 | 0 |
| 6 | O'rmon fondi yerlari | 8562.3 | 19.28 | 26.3 | 0.06 |
| 7 | Suv fondi yerlari | 827.2 | 1.86 | 4.3 | 0.01 |
| 8 | Zaxira yerlar | 10417.9 | 23.46 | 4.5 | 0.01 |
| Jami yerlar: | | 44410.3 | 100 | 4303.0 | 9.7 |

O'zbekiston Respublikasining jami yer maydoni 447,4 mln. hektar bo'lib, shundan qishloq xo'jaligiga yaroqli yer maydonlarining 81 foizi yoki 26,6 mln. hektari yaylov va pichanzorlar, yerlarning 16 foizi yoki 3,0-3,2 mln. hektari haydaladigan yerlarni tashkil etadi. Qolgan qismida namlikning juda kam bo'lganligi sababli foydalanilmaydi.

Respublika yer fondining asosiy qismi shahar va aholi punktlari yerlari, transport va kommunikatsiyalari, daryo va suv havzalarini bilan band bo'lgan yerlar, o'rmon xo'jaligi yerlari, harbiy maqsadlar uchun ajratilgan yerlar va davlat zaxirasidan iborat.

Qishloq xo'jaligida yer fondi asosiy ishlab chiqarish vositasi sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

1. Yer tabiatda chegaralangan. Uni insoniyat xohlaguncha ko'paytirish imkoniyatiga ega emas. Shuning uchun asosiy maqsad mavjud yer resurslaridan samarali foydalanishdir. Insoniyatning yerdan to'g'ri foydalanmasligi sababli yerlarni qishloq xo'jaligi oborotidan chiqib ketishi, tuproq erroziyasi, sho'r bosish, kasalliliklarga chalinishi kuzatilmoqda. Bularni bartaraf etish har bir davlatning va yerdan foydalanuvchilarning asosiy vazifasidir.

2. Yer – tabiat mahsuli.

3. Yer abadiy ishlab chiqarish vositasidir.

4. Davlatning har bir hududida yer maydonlari turli sifatga va unumidorlikka ega. Yerning tabiiy va sun'iy unumidorligi bir-biridan farq qiladi. *Tabiiy unumidorlik* - bu inson mehnati aralashuvizsiz tabiat in'om etgan yerning hosil bera olish qobiliyatidir. Inson mehnati natijasida yaralgan unumidorlik sun'iy unumidorlik deyiladi. Bu unumidorlikni oshirish imkoniyatlari katta.

5. Yerni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirib bo'lmaydi.

3.1.3-jadval

O‘zbekiston Respublikasi tuproqlarining sifat ko‘rsatkichi bahosi

| Viloyatlar | Yomon yerlar | | O‘rtachadan past yer | | O‘rtacha yerlar | | Yaxshi yerlar | | Eng yaxshi yerlar | | Jami | O‘rtacha ball | |
|---------------------------------|--------------------------|----------|----------------------|----------|-----------------|----------|---------------|------------|-------------------|---------|----------|---------------|----|
| | I klass | II klass | III klass | IV klass | Y klass | VI klass | VII klass | VIII klass | IX klass | X klass | | | |
| | B o n i t e t b a l l i. | | | | | | | | | | | | |
| | 0-10 | 11-20 | 21-30 | 31-40 | 41-50 | 51-60 | 61-70 | 71-80 | 81-90 | 91-100 | | | |
| 1. Qoraqalpoqiston Respublikasi | | 1919 | 29810 | 237202 | 69846 | 46458 | 24497 | 6801 | | | 416533 | 41 | |
| 2. Andijon | | 311 | 9593 | 34322 | 39801 | 45187 | 50547 | 38267 | 6015 | 35 | 224078 | 57 | |
| 3. Buxoro | | 1038 | 16521 | 57391 | 42070 | 55294 | 40843 | 19456 | 83 | | 232696 | 50 | |
| 4. Jizzax | | 105 | 3607 | 40717 | 143261 | 48533 | 30379 | 7413 | 2809 | | 276824 | 50 | |
| 5. Qashqdaryo | | | 3455 | 71977 | 198976 | 87416 | 50375 | 25003 | 8177 | | 445379 | 51 | |
| 6. Namangan | | 235 | 13499 | 45776 | 47117 | 36667 | 32553 | 33383 | 18181 | 1301 | 228712 | 59 | |
| 7. Navoiy | | 3358 | 9618 | 15253 | 17668 | 18200 | 20423 | 12853 | 2099 | | 99472 | 52 | |
| 8. Samarqand | | 41 | 2044 | 29478 | 72263 | 89756 | 57187 | 38321 | 16770 | 547 | 306407 | 57 | |
| 9. Surxondaryo | | 704 | 11047 | 43203 | 59838 | 79317 | 50049 | 20985 | 6915 | | 272058 | 56 | |
| 10. Sirdaryo | | | 1738,9 | 36343,9 | 93771,8 | 60918,1 | 51580,1 | 7694,3 | 8 | | 252055,1 | 51,5 | |
| 11. Toshkent | | | 2631 | 37586 | 86361 | 67968 | 74385 | 45380 | 14600 | 29 | 328940 | 59 | |
| 12. Farg‘ona | | | 1426 | 8043 | 59139 | 56142 | 58386 | 67580 | 33001 | 5570 | 289739 | 56 | |
| 13. Xorazm | | | 625 | 8839 | 46296 | 34932 | 82052 | 49291 | 11848 | 102 | | 233985 | 53 |
| Respublika bo‘yicha | | 9762 | 120446 | 754684 | 962047 | 776152 | 599689 | 300405 | 81329 | 2364 | 3606878 | 55 | |

6.Yer abadiy ishlab chiqarish vositasidir. Yerdan samarali foydalanish uchun uning iqtisodiy unumidorligini oshirish kerak. Unda almashlab ekish, ekinlarni to‘g‘ri joylashtirish, tarmoqlarni bir-biri bilan ixtisoslashtirilganda yerning fizik holati buzilmay, tuproq unumidorligi oshadi. Tuproq unumidorligi o‘z xususiyatiga qarab 3 ga bo‘linadi:

1. Tuproqning tabiiy unumidorligi – tuproqning nam sig‘imi, suv o‘tkazuvchanligi, mexanik, fizik, kimyoiy, biologik tarkibi, ozuqa moddalarining umumiyliz zaxirasi bilan o‘lchanadi.

2.Tuproqning tarkibiy unumidorligi - yerga vaqtincha dam berish, daraxt barglari, yovvoyi o‘tlar tanalari, ildiz chirishi, dukkakli ekinlar ekish bilan tuproq oziqasi boyitiladi.

3.Tuproqning sun‘iy unumidorligi - kishilarning o‘z mehnati, qo‘shimcha kapital mablag‘ sarflash yo‘li bilan tuproq oziqasini ko‘paytirishi tushuniladi.

Yerning unumidorligini oshirishda kompost, organik, mineral o‘g‘itlar, almashlab ekish, progressiv agrotexnologiyalarni qo‘llash, agrotexnika, mehnat va ishlab chiqarish vositalarini, biznes rejani to‘g‘ri tuzish, yerning sho‘rlanishiga yo‘l qo‘ymaslik kabi omillarga bog‘liq bo‘ladi.

Respublikada qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishga mo‘ljallangan yerlar quyidagi jadvalda keltirilgan.

3.1.4-jadval

2000-2007 yillarda qishloq xo‘jalik ekin maydonlari tarkibining o‘zgarishi (ming ga)

| | 2000 y | 2001 y | 2002 y | 2003 y | 2004 y | 2005 y | 2006 y | 2007 y |
|--------------------|--------|--------|--------|--------|--------|--------|--------|--------|
| Jami ekin maydoni | 3778,3 | 3444,6 | 3540,8 | 3790,1 | 3694,2 | 3646,3 | 3637,4 | 3561,0 |
| Shundan: | | | | | | | | |
| Jami donli ekinlar | 1614 | 1393,7 | 1533,4 | 1790,9 | 1667,1 | 1616,1 | 1618,0 | 1538,9 |
| Shu jumladan: | | | | | | | | |
| -bug‘doy | 1355,8 | 1219,8 | 1282,6 | 1507,6 | 1470,4 | 1439,7 | 1448,5 | 1382,8 |
| -guruch | 131,8 | 39,5 | 64,4 | 121 | 66,1 | 52,5 | 60,6 | 47,9 |
| -makka don uchun | 49,2 | 38,7 | 35,1 | 34,7 | 34,8 | 33,6 | 32,8 | 34,2 |
| Texnika ekinlari | 1512,5 | 1500,3 | 1462,2 | 1445 | 1518,5 | 1518,4 | 1478,2 | 1477,0 |

| Shu jumladan: | | | | | | | | |
|-----------------------------|--------|--------|-------|-------|--------|--------|--------|--------|
| - paxta | 1444,6 | 1452,1 | 1421 | 1393 | 1456,3 | 1472,3 | 1448,2 | 1451,6 |
| Kartoshka va poliz ekinlari | 222,8 | 219,3 | 216,1 | 237,7 | 224,4 | 221,4 | 244,4 | 253,9 |
| Shundan: | | | | | | | | |
| - kartoshka | 52,2 | 50,8 | 48,9 | 49,2 | 52,1 | 49,8 | 52,6 | 56,0 |
| - sabzavotlar | 130 | 131,2 | 127,5 | 145,6 | 137,6 | 137,7 | 154,4 | 159,8 |
| Poliz ekinlari | 37 | 35,6 | 37,3 | 41,3 | 34,7 | 33,9 | 37,4 | 38,1 |
| Em xashak | 429 | 331,3 | 329,1 | 316,5 | 284,2 | 290,4 | 296,4 | 290,3 |

Respublika qishloq xo'jaligida ekin ekilayotgan maydonlarning 2000-2006 yillarda joylashuvi o'zgargan. Paxta maydonlari qisqarib, don maydonlari oshgan. Chunki don mustaqilligiga erishish uchun don ekin maydonlari kengaytirildi. Sabzavot va poliz ekinlari ham oshgan, chunki aholining o'sishi hisobga olinib rejalashtirilgan.

O'zbekistondagi mavjud yer fondidan foydalanish bozor munosabatlarda olib borilmoqda. Yerlardan samarali foydalanish uchun istiqbolsiz shirkat xo'jaliklari o'rniда fermer xo'jaliklari tashkil etilib, yuqori sifatli mahsulot yetishtirilmoqda. Tuproqning iqtisodiy unumдорлиги yaxshilanib, mahsulot sifati va hajmi ortmoqda.

3.2. Yer monitoringi va yer kadastri

Yer xalqimiz milliy boyligi bo'lib, undan bugunning va kelajak avlodlarning manfaatini ko'zlab samarali foydalanish, uni muhofaza etish umummilliy dolzarb masala hisoblanadi. Bu vazifani hal etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2000 - yilning 23 dekabrida «Yer monitoringi to'g'risidagi Nizom»ni tasdiqladi.

Yer monitoringi yer tarkibidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlash, yerbarga baho berish, salbiy jarayonlarining oldini olish va oqibatlarini tugatish uchun yer fondining holatini kuzatib turish tizimidan iborat. Davlat yer kadastri yuritishni, yerdan foydalanishni, yer tuzishni, yer fondidan belgilangan maqsadda va oqilona foydalanish ustidan davlat nazoratini amalga oshirishni, yerlarni muhofaza qilishni axborot bilan ta'minlash yer monitoringi asosida amalga oshiriladi. Respublikamizning barcha yerlari monitoring obyekti hisoblanadi.

Yer monitoringi O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Geodeziya, kartografiya va davlat kadastrı" bosh boshqarmasi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi va tegishli vazirlik hamda tashkilotlarning bevosita ishtirokida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Yer resurslari davlat qo'mitasi yer monitoringi ma'lumotlarini umumlashtiradi. Monitoring tadqiqotlarini olib borishda asosiy maydonlarni tanlash, vaqt o'tishi bilan tuproqlarning asosiy xususiyatlari o'zgarishini tahlil etish; tadqiqot olib boriladigan ekologik maydonlarda tuproqlarning holatini isbotlovchi ko'rsatkichlarni asoslash, tuproqning holatini kuzatish va ma'lumotlarni to'plash hamda ularga o'zgartirishlar kiritish ishlarini olib boradi. Buning uchun qishloq xo'jalik yerlari tuproqlarini suv va shamol erroziyasi ta'siri oqibatida o'zgarishi monitoringi; qishloq xo'jalik yerlari tuproqlari sho'rlanganlik darajasining o'zgarish jarayoni monitoringi; yerlarning zaharlanganlik darajasining o'zgarishi monitoringi; qishloq xo'jalik yerlari tuproqlarining texnogen o'zgarishi monitoringi; o'simliklarning zaharli ximikatlar bilan zaharlanish darajasi monitoringi; organik va mineral o'g'itlardan foydalanish natijasida tuproq tarkibidagi o'zgarishlar monitoringi amalga oshiriladi.

Davlat yer kadastrı – yerlarning tabiiy, xo'jalik va huquqiy rejimi, ularning toifalari, sifat ko'rsatkichlari va bahosi, yer uchastkalarining joylashgan manzili va o'lchamlari, ularni yer egalariga, yerdan foydalanuvchilarga, ijara chilarga hamda mulkdorlarga taqsimlash to'g'risidagi zarur, ishonchli ma'lumotlar va hujjatlar tizimidan iborat. Davlat yer kadastrı yer munosabatlarini tartibga solish, oqilonqa foydalanish va uni muhofaza qilish, yer tuzishni tashkil etish, yer uchun to'lanadigan haq miqdorini asoslash, xo'jalik faoliyatiga baho berishga ma'lumotlar bilan ta'minlashga mo'ljallangan.

Davlat yer kadastrining ma'lumotlari yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilishda yer uchastkalari berish va ularni olib qo'yishda, yer uchun to'lanadigan haq miqdorlarini belgilashda, yer tuzish ishlarini o'tkazishda, xo'jalik faoliyatiga baho berishda hamda yerlardan foydalanish ularni muhofaza qilish yuzasidan boshqa tadbirlarni amalga oshirishda majburiy tartibda tatbiq etiladi. Davlat yer kadastrı respublikada yagona tizim asosida davlat byudjeti mablag'lari hisobidan davlat yer kadastrı va yer tuzish xizmati organlari tomonidan yuritiladi.

3.3. Yerdan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlari

Qishloq xo'jalik yerlarini iqtisodiy baholashda har bir gektar yerdan olingen hosilni keyingi yillarga solishtirish orqali yerni iqtisodiy baholashda yerning tabiiy iqtisodiy joylanishini, sifati, unumdarligi va iqtisodiy sharoitlarini hisobga olinadi. Yerni iqtisodiy baholash ikki maqsadda baholanadi:

1.Umumiy yerga iqtisodiy baho berish,

2.Qishloq xo'jalik ekinlarining samaradorligi va sof bahosi. Yerni sof baholashda alohida ekin turi bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlar, uning tuproqlari va bonitirovkasidan foydalanilanib baholashdir. Unda:

1. Ekinlarning hosildorligi, s/ga;

2. Yerning unumdarligi, yalpi mahsulot, kadastr bahosi, 1 gektarga so'm;

3. Mahsulot yetishtirish xarajatlari, so'm;

4. Differensial sof daromad – yerning sifati hisobiga qo'shimcha olingen daromad.

Qishloq xo'jalik yerlaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

1. Yerni iqtisodiy baholash:

$$Xq = \frac{YaM}{T};$$

Bunda: Xq-xarajatlarni qoplash:

YaM-yalpi mahsulot;

T-mahsulot tannarxi.

2. Sof foyda:

$$Sf=YaM-T;$$

bunda: YaM-yalpi mahsulot;

T-mahsulot tannarxi.

3. Qishloq xo'jaligida tovar qaytimi:

$$Tq = \frac{YaM; Tm}{Em};$$

bunda: YaM-yalpi mahsulot;

Tm-tovar mahsulot;

Em-ekin maydoni;

4. Qishloq xo'jaligida fond bilan ta'minlanganlik:

$$Ft = \frac{Af}{Em};$$

Bunda: Ft-fond bilan ta'minlanganlik;

Af-asosiy fond;

Qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishning natural ko'rsatkichlari: hosildorlik va yalpi mahsulotdir.

Qishloq xo'jalik yerlaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlariga:

1.Yer fondidan foydalanish darajasi. Bu ko'rsatkich qishloq xo'jalik yerining umumiy yer maydoniga nisbati bilan aniqlanadi;

2.Qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish darajasi. Bu ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ekin maydoniga nisbati bilan aniqlanadi.

Yerdan intensiv foydalanish orqali mahsulot ishlab chiqarish samaradorligi ortadi. Bu holatni qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanish koefitsienti bilan aniqlanadi.

1. Yer resurslaridan foydalanish koefitsienti:

$$ERFk^o = \frac{QXye}{Em};$$

Bunda:

QXye - qishloq xo'jalik yerlari;

Em - ekin maydoni;

2. Qishloq xo'jalik yerlaridan foydalanish koefitsienti:

$$QXYEFk^o = \frac{Hye}{QXye},$$

Bunda,

Hye-haydaladigan yer maydoni;

QXye-qishloq xo'jalik yerlari.

Qishloq xo'jalik yerlaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlari:

Yer qaytimi va sig'imi quyidagicha aniqlanadi:

1.Yer qaytimi:

$$YEQ = \frac{SF}{Yam};$$

2. Yer sig‘imi:

$$YES = \frac{YaM}{SF};$$

Qishloq xo‘jaligida foydalanidigan yerlardan intensiv samarali foydalanish ko‘rsatkichlari: ekin maydoni birligiga yetishtirilgan yalpi va tovar mahsulotining natura va puldag‘i ifodasidir.

Yerdan samarali foydalanish har bir hektar yerdan olingan hosil, bir hektar yerga to‘g‘ri keladigan sof daromad, rentabelligi va hokazo.

Yer fondidan samarali foylanish uchun qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishini yer resurslari bilan joylashtirish; mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash; mavjud resurslardan oqilona foydalanish, bozor talabi bo‘yicha mahsulotlar ishlab chiqariladi. Yer resurslarining holatini hisobga olmasdan ishlab chiqarishni tashkil etish salbiy oqibatlarga olib keladi.

Masalan, kuchli sho‘r bosgan yerlarda kuzgi don ekinlarini joylashtirish samaradorlikni pasaytiradi. Ayrim hollarda yerlar ishlab chiqarishga yaroqsiz holga kelishiga sabab bo‘ladi. Bunday yerlarda kuzgi va qishki sho‘r yuvish ishlarini olib borish mumkin emas. Respublikada jami sug‘oriladigan yerlarning 47,8 foizi sho‘rlanmagan, 30,8 foizi kam sho‘rlangan, 17,2 foizi o‘rtacha sho‘rlangan va 4,2 foizi kuchli sho‘rlangan yerlardir. O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan yerlarning meliorativ holati 38 foizi yaxshi, 53,4 foizi qoniqarli va 8,6 foizi qoniqarsiz bo‘lib, tuproqning yomonlashib ketishini oldini olish kerak.

Tuproq unumdorligining kamayishi natijasida yo‘qotilgan hosil quyidagicha aniqlanadi:

$$Yo‘h = \frac{O‘h \cdot Tukb}{Tubb};$$

Bunda: Yo‘h – tuproq unumdorligi pasayishi natijasida yo‘qotilgan hosil;

O‘h – joriy yilda ushbu yerdan olingan o‘rtacha hosildorlik;

Tukb – tuproq unumdorligining kamayish bali;

Tubb – tuproqning umumiy ball boniteti.

Yer transformatsiyasi - yerlarning bir sifat holatidan ikkinchi holatga o'tishidir. Yer transformatsiyasi ijobiy (yomon yerlarning yaxshi yerlar safiga o'tishi) va salbiy (yaxshi yerlarning yomon yerlar safiga o'tishi) bo'ladi. Salbiy yer transformatsiyasiga yo'l qo'ymaslik uchun yer bo'yicha islohotlarni to'g'ri o'tkazish, yerlarni ishslash tajribasiga ega, bilimdon tadbirkorlarga berish kerak.

Yerdan samarali foydalanishda tadbirdorning moddiy manfaatdorligini oshirishni yo'nga qo'yish kerak.

Ular mahsulot ishlab chiqarishda turli texnologiyalarni qo'llab, melioratsiya va irrigatsiya tizimi tadbirlarini o'z vaqtida samarali o'tkazib, yerdan foydalanish samaradorligini oshiradi.

Masalan, suvdan foydalanishda tomchilatib yoki yomg'ir usulida sug'orish oddiy bostirib sug'orishga nisbatan samarali bo'lib, suv resurslarini tejaydi. Respublikada suv resurslari cheklangan bo'lib, foydalanayotgan suvning 12-13 foizi mamlakat hududidan, qolgan qismi Qirg'iziston, Tojikiston davlatlaridan olinadi. O'zbekistonda Amudaryo va Sirdaryo suvlaridan va 50 dan ortiq daryolar, kanal va ariqlar orqali foydalaniladi. Irrigatsiya tizimini yaxshilash fan yutuqlarini ishlab chiqarishga joriy etish, ishlab chiqarishga paxta va bug'doyning tezpishar, suvsizlikka chidamli navlarini joriy etish, ekologik muhitni hisobga olib, kimyolashtirishni rivojlantirish yer resurslarining samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir etadi.

Qishloq xo'jaligiga yaroqli yerlarni suv va shamol erroziyasidan asrash ham juda muhim tadbirlardan biridir. Masalan, ekin maydonlarining 2,0 mln.dan ortiq hektar shamol, 0,7 mln. hektar suv erroziyasiga, 22,1 mln.hektar yaylovning 6 mln. hektari shamol, 3 mln. hektari suv erroziyasiga uchrangan. Bu holatning ko'payib borishini oldini olish asosiy vazifalardan biridir.

Qishloq xo'jalik yerlaridan samarali foydalanish, tuproqning sifat jihatdan baholanishiga bog'liq. Chunki tuproq unumdarligi yuqori bo'lsa mahsulot yetishtirish shuncha ko'p bo'ladi. Yerni sifat jihatdan baholash dalaning har bir kartasi bo'yicha sifat ko'rsatkichlari o'tgan 3-5 yilning yakunlariga solishtiriladi. Bu usul **yerni pasportlash** deyiladi. Yer kadastro deb dalalar kartalarini bir-biriga har tomonlama solishtirish asosida ularni iqtisodiy baholashga aytildi.

Yer kadastrini tuzishda dala uchastkalarining suv sharoitlari, tuproq holati, laboratoriya tahlili har tomonlama o'rganiladi.

Tuproq unumdorligini aniqlashda – hosildorlik, sotish, mahsulotni sotish bahosi, tannarx orqali aniqlanadi. Tuproq unumdorligini aniqlashda bonitet balliga qarab ham aniqlanadi.

Bonitet - tuproqning tabiiy unumdorligi bo'lib 100 ballik shkalada baholanadi.

Yerni iqtisodiy jihatdan baholash quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$B = \frac{H \cdot 100}{YaMQ}; ;$$

bunda: B - baholanadigan yerning bali;

H - 1 ga dan olingan hosil;

YaMQ - yalpi mahsulot qiymati.

Qisqacha xulosalar

O'zbekiston Respublikasida yer xalqning milliy boyligi bo'lib, davlat tomonidan boshqariladi. Yer ishlab chiqarish vositasi, mehnat quroli va mehnat predmeti vazifasini bajaradi. Respublikada yerkardan turli maqsadlarda foydalaniladi. Shundan qishloq xo'jaligida yerdan insoniyat uchun zarur oziq-ovqat va xalq iste'mol mollari yetishtirishda foydalaniladi. Har bir gektar yerdan samarali foydalanish uchun tuproq unumdorligini oshirib borish zarur. Tuproq unumdorligini oshirishga bozor islohotlarini to'g'ri joriy etish, melioratsiyalash, kemyolashtirish, sug'orish, almashlab ekish, ilg'or agrotexnologiyalarni qo'llash orqali erishiladi.

Tuproq unumdorligi qancha oshsa, yerning iqtisodiy bahosi ham shuncha oshadi. Yerni baholashda bonitet ball asos qilinib, oldingi yilga bir gektardan olingan hosil va iqtisodiy samaradorlik solishtirilib aniqlanadi. Yer resurslaridan samarali foydalanishda yer monitoringi olib boriladi. Unda tuproqning holati, o'zgarishi, uni yaxshilash uchun olib borilgan tadbirlar natijalari tahlil qilinadi.

Yer transformatsiyasi, ya'ni yerning sifatini aniqlab, uni yaxshilash tadbirlari ishlab chiqiladi. Tuproq sifatini yaxshilashda sho'r yuvish, ekologik kemyolashtirish, almashlab ekish ishlari olib boriladi. Bu tadbirlarni hisobga olib yerlar pasporti va yer kadastri tuziladi.

Tayanch iboralar

Yer resurslari, yer unumdorligi, tabiiy va sun'iy unumdorlik, tuproq unumdorligi, iqtisodiy baholash, bonitirovka, koeffitsiyent, yer monitoringi, transformatsiya, bostirib sug'orish, irrigatsiya tizimi, kimyolashdirish, yerni pasportlash, yer kadastro, bonitet ball, agrotexnologiyalar, almashlab ekish, yaroqli yerlar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Respublika yer fondidan foydalanish yo'llarini ayting.*
2. *Tuproq unumdorligi o'z xususiyatiga qarab, necha guruhga bo'linadi?*
3. *Yerni iqtisodiy baholash ko'satkichlarini ayting.*
4. *Yer monitoringi deganda nimani tushunasiz?*
5. *Yerdan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini ayting.*

Asosiy adabiyotlar

1. *O'zbekiston Respublikasining "Yer kodeksi" va boshqa qishloq xo'jaligiga oid qonun hujjatlari (yer kodeksi, shirkat xo'jaligi, fermer xo'jaligi, dehqon xo'jaligi, yer kadastro to'g'risidagi qonunlar).* –T.: Adolat 1999. 446 b.
2. *Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari".* –T., O'zbekiston, 1998 y.
3. *Tolipov T. va boshqalar. "O'zbekiston Respublikasi Yer kadastro".* –T.: "MSXRUz", 1994, -242.
4. *Salimov B.T. va boshqalar. "Fermer va dehqon xo'jaligi iqtisodiyoti"* –T.: TDIU, 2003, 142 b.
5. *Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. "Qishloq xo'jaligi iqtisodi".* –T.: 2004 y.
6. *Umurzoqov O'.P., Toshboyev A.J. va boshqalar. "Fermer xo'jaligini tashkil etishning huquqiy-iqtisodiy, ishlab chiqarish asoslari".* –T.: TIQXMII, 2004 y. 141 b.
7. *«Государственное регулирование развития АПК и земельные отношения в России»,* -M.: «ТЕИС», 2005, -221 cm.

4-bob. SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING TASHKILIY, IQTISODIY ASOSLARI

4.1. O‘zbekistonda suv resurslaridan foydalanishning holati va uning tashkiliy tuzilmasi

O‘zbekiston Respublikasi qurg‘oqchilik zonasida joylashgan bo‘lib, yoz oylari havosi haddan tashqari isib, tuproqdag‘i suv namlari parlanib havoga chiqib ketadi. Ekilgan ekinlar suvsizlikdan nobud bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Bu esa sug‘orib dehqonchilik qilish usulidan foydalanishni taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasi hududida ikki daryo Amudaryo va Sirdaryo oqib o‘tadi. Bu daryolarning yillik suv o‘tkazish quvvati 121690 mln.m³ bo‘lib, O‘zbekiston (63020 mln.m³), Qirg‘iziston (5140 mln.m³), Tojikiston (13230 mln.m³), Qozog‘iston (25010 mln.m³) suv iste’mol qiladilar. Bu suv resurslaridan qishloq xo‘jaligi uchun (85,6 %) sanoat va maishiy xizmatlarga 14,4% foydalanadi. O‘zbekiston Respublikasi yiliga 72,4 km³ suvdan foydalilib, shundan 61 km³ oqova suvlar, 11,3 km³ yer osti suvlarini tashkil etadi. Ob-havo haroratiga qarab respublikaning yillik suv zaxiralari ham o‘zgarib turadi. Eng suv kam bo‘lgan yillarda suvga bo‘lgan talabni 67 %ni qoplay oladi, xolos. Qishloq xo‘jalik ekinlari yetarli suv bilan ta’minlanmasa hosildorlik pasayib, turli kasalliklar ortib, mahsulot sifati yomonlashadi. O‘zbekistonda suvga bo‘lgan talabni qondirish muammolarini yechishda barcha korxonalar o‘z hissalarini qo’shishi zarur.

Respublikada suv muammolarini yechish va suvdan foydalanuvchilar uchun huquqiy asos sifatida O‘zbekiston Respublikasining «Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida»gi qonuni 1993-yilda qabul qilindi. Qonunda 29 bob 119 moddadan iborat bo‘lib, suvga doir munosabatlarni tartibga solish, suvdan oqilona foydalanish, suvni bug‘lanish, ifloslanib va kamayib ketishdan saqlash, suvning zararli ta’sirini oldini olish, suv obyektlarining holatini yaxshilash, shuningdek, suv ta’minoti korxonalari bilan suv iste’molchilarini o‘rtasidagi munosabatlarini yaxshilash suvdan foydalanishning huquqiy asoslaridan iborat.

Qishloq xo'jalik korxonalarini suv bilan ta'minlashda suv obyektlaridan svnni me'yorlar bo'yicha olishni tashkil etish va foydalanishni tartibiga solishdan iborat.

Sug'orish va suv bilan ta'minlashni magistral kanallar, suv omborlari va boshqa suv xo'jaligi obyektlari bajaradi. Suvlardan foydalanish ishlari ichki xo'jalik va suv tizimi rejalariga asosan amalga oshiriladi.

Suvdan maxsus foydalanish ruxsatnomasi bo'lganlarga suv limit bo'yicha beriladi. Suvdan foydalanish tartibi suv xo'jaligi organlari tomonidan ishlab chiqilgan.

Suv uchun haq to'lash, suvdan limit bo'yicha foydalanish, nazorat qilishni Vazirlar Mahkamasi belgilaydi.

Suv obyektlarining doimiy muddati avvaldan belgilanmagan holda undan foydalanish, vaqtincha foydalanishning muddati: uch yildan yigirma yilgacha bo'lishi mumkin.

Sug'oriladigan dehqonchilikda suv obyektlaridan foydalanish, suvlardan limit bo'yicha foydalanish belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Suv olish va uni hisob-kitobini qilish suv xo'jaligi organi bilan tuzilgan shartnomaga binoan amalga oshiriladi. Suv xo'jaligi korxonalarini va taskilotlari yer solig'idan ozod qilinadilar.

Suvdan foydalanuvchilar: sug'orishni ichki suv yo'llari, drenaj, suv chiqarish quduqlari yordamida amalga oshiradilar.

Qishloq xo'jaligidagi foydalaniladigan svnni monitoring qilish orqali salbiy jarayonlarning sabablari va oqibatlarini o'rganib, suvlardan foydalanish samaradorligini oshiriladi.

Suvdan foydalanuvchilar qonunlarda belgilangan tartibda irrigatsiya-melioratsiya ishlarni bajarishga jaib etiladilar.

Suv resurslaridan samarali foydalnishda suvning aniq hisob-kitobini joyiga qo'yish, suv o'lchash qurilmasi, ya'ni gidropostlar qurishni tashkil etish, xo'jalik ichki ariqlarini tozalash, suv sarfi isrofgarchiligini bartaraf etishdan iborat.

Xo'jaliklarda miroblarning roli pasayib xo'jaliklar boshliqlari irrigatsiya ishlarni to'g'ridan-to'g'ri o'zlarini bilganicha bajarishi oqibatida suv ta'minotining buzilishiga yo'l qo'yilmoqda. Xo'jalik ichidagi suv bo'linadigan inshootlarning darvozalariga e'tibor berilmayotganligi sababli ba'zilari umuman yaroqsiz holga kelib qolgan. Ayrim suv bo'linadigan joylar esa batamom yo'q bo'lib, suv yo'qotilmoqda.

Suv taqsimoti esa eski usulda taxminiy ko‘z bilan chamarlab taqsimlanmoqda. Natijada bosh mirob qishloq xo‘jaligiga suvni to‘g‘ri taqsimot qilolmaydi. Shuning uchun miroblar sonini ko‘paytirish va ularga shart-sharoit yaratib berish zarur.

Suv ta’minoti uchun asbob-uskunalar, elektr nasoslar, dvigatellar, suv o‘lchagich asboblari, xona va texnikalar bilan ta’minlanishi uchun mablag‘ni shakllantirish kerak.

Qishloq xo‘jaliklariga suvni o‘z vaqtida yetkazib berishni tashkil etish uchun boshqaruv tizimini bozor munosabatlarda shakllantirib, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish lozim. Suv ta’minoti korxonalarining asosiy vazifasi iste’molchilariga suvni o‘z vaqtida shartnoma asosida yetkazib berish va suv uchun sarf-xarajatlarni kamaytirishdan iboratdir:

Qishloq xo‘jalik korxonalariga suvni etkazib berish va undan foydalanishda erning meliorativ holatiga va irrigatsiya tizimiga e’tibor berish kerak.

Irrigatsiya-suv resurslari bilan ta’minlash va suv inshoatlari faoliyati kiradi. Melioratsiya erning tabiy unumдорligini yaxshilash chora tadbirlari yig‘indisi tushuniladi.

4.2. Suv xo‘jaligi bosh bashqarmasining asosiy vazifalari

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining Suv xo‘jaligi bosh boshqarmasi (keyingi o‘rinlarda matnda «Bosh boshqarma» deb ataladi) O‘zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi. Bosh boshqarma yer usti suvlaridan foydalanishni tartibga solish hamda respublika iqtisodiyoti va aholisini suv bilan ta’minlashga doir zarur tadbirlarni amalga oshiradi.

Suvdan foydalanishda bozor islohotlarini joriy etish, resurslardan maqsadli va samarali foydalanimishini tashkil etish;

Suv xo‘jaligida yagona texnika siyosatini o‘tkazish, suvni tejovchi ilg‘or texnologiyalarni joriy etish;

Iste’molchilarни suv bilan uzlusiz o‘z vaqtida ta’minlash;

Yakuniy hisobi va hisobotini ta’minlash;

Suv xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish, mulkchilikning turli shakllarini rivojlantirish ishlarini muvofiqlashtirish va ular amalga oshirilishining monitoringi ishlarini olib boradi;

Bosh boshqarma suv to'g'risidagi qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish, qonun buzilishiga yo'l qo'ygan shaxslarni belgilangan tartibda javobgarlikka tortilishini ta'minlaydi.

Suv resurslaridan foydalanish va drenaj-oqova suvlarini oqizib yuborish, yangi korxonalar qurish, ishlayotgan korxonalarini rekonstruksiya qilish loyihalari bo'yicha xulosalar beriilishini ta'minlaydi;

Suvdan foydalanish uchun maxsus ruxsatnomalar berishni va suv chiqarish inshootlarini ro'yxatga olish, suvdan foydalanuvchilar uyushmalari va ularni boshqa birlashmalarini tashkil etish va rivojlantirishda, ichki xo'jalik suv hisobini tashkil etishda uslubiy va amaliy yordam ko'rsatadi;

Suv resurslarini tartibga solish va ulardan foydalananish, suv xo'jaligini va yerlarni melioratsiyalash bo'yicha davlatlararo masalalarini muhokama qilish va hal qilishda respublika nomidan ishtirok etadi.

4.3. Irrigatsiya tizimida havza boshqarmasining vazifasi va funksiyalari

Respublikadagi mavjud suv xo'jalik tashkilotlari va xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalar hamda ularning hududiy bo'limnalari negizida Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tuzildi. Havza boshqarmasining vazifasi xalq xo'jalik tarmoqlari hamda qishloq xo'jalik korxonalarida mahsulot yetishtirish uchun suv bilan ta'minlash va suv xo'jaliklariga servis xizmat ko'rsatishdan iboratdir.

Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining suv xo'jaligi sohasidagi hududiy organi hisoblanib, suv resurslarini tartibga solish va foydalanishni amalga oshiradi.

Havza boshqarmasining asosiy vazifalari suvdan foydalanishning bozor mexanizmlarini joriy etish asosida suv resurslaridan maqsadli va samarali foydalanilishini tashkil etish; suvni tejash, ilg'or texnologiyalarni joriy etish asosida suv xo'jaligida yagona texnika siyosatini yuritish; iste'molchilarni suv bilan uzlusiz va o'z vaqtida ta'minlashni tashkil etish; suv inshootlarining texnik ishonchligini ta'minlash; suv resurslarini oqilona boshqarish va tezkorligini oshirish; suv iste'molchilari o'rtasida yillik hisobotini ta'minlash kiradi.

Havza boshqarmasining asosiy funksiyalari suvdan foydalanish bashoratini umumlashtirib, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga suv olish limitlari bo'yicha takliflar kiritib, tasdiqlangan limitlar asosida viloyatlar qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalari, irrigatsiya tizimlari boshqarmalari, magistral kanallar (tizimlar), suv xo'jaligi obyektlari, irrigatsiya tizimlari, viloyat va tumanlar bo'yicha suv olish limitlarini belgilaydi. Nasos stansiyalari ish rejimini belgilaydi;

Havza va irrigatsiya tizimlari bo'yicha yer usti suv resurslarini boshqaradi, ulardan maqsadli va oqilona foydalanishini tashkil etadi;

Suvdan foydalanishning ishonchligini ta'minlash va uni rivojlantirish, tejamli texnologiyalarni va bozor mexanizmlarini joriy etish chora-tadbirlarini ishlab chiqadi hamda Qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga takliflar kiritadi va ularning bajarilishini tashkil etadi; suv resurslaridan maqsadli foydalanilishini nazorat qiladi. Suv xo'jaligi va suvdan foydalanuvchilar o'rtaisdagi hisob-kitobni yuritadi. Suv resurslari balansini tuzadi, suv kadastrini yuritadi; suv xo'jaligi tizimlarida suv o'lhash vositalari ta'minoti, aloqa, avtomatika va telemexanikaning zamonaviy tizimlarini joriy etish va metrologik ta'minotini tashkil etadi; tizimlarni rivojlantirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi va ularni amalga oshiradi; havza suv xo'jaligini istiqbolli rivojlantirish strategik rejalarini tuzish, investitsiya kiritish, irrigatsiya tizimlari va inshootlarini jihozlash va rekonstruksiya qilish bo'yicha takliflar tayyorlaydi, ularni amalga oshirilishini tashkil etadi; viloyat, tuman qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalariga qarashli suv xo'jaligi korxonalarining asosiy fondlari, limitlari, moddiy - texnika resurslari, mexanizmlari, avtotransporti, xodimlar shtati, budjet mablag'larini belgilab beradi.

4.4. Magistral kanallarning vazifasi va funksiyalari

Magistral kanallar (tizimlar) boshqarmalari va irrigatsiya tizimlari va havza boshqarmasining tarkibiy bo'linmalari hisoblanib, yangi matnda Boshqarma deb yuritiladi. Suv resurslarini tartibga solish bo'yicha faoliyat yuritadi.

Boshqarmaning asosiy vazifalari:

- magistral kanallar, inshootlar va suv resurslarini oqilona boshqarish, uning tezkorligini oshirish;
- inshootlarining texnik ishonchligini ta'minlash, ishonchli foydalanish uchun ish holatida saqlash;

- suv bo'yicha hisob-kitob yuritish;
- svuni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish; ajratilgan mablag'lar, moddiy-texnika resurslari, asbob-uskunlardan samarali foydalanishdir.

Boshqarmaning asosiy funksiyalari:

- suv resurslarini boshqarishni va Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tomonidan belgilangan limitlarga muvofiq irrigatsiya tizimlari boshqarmalariga suv yetkazib berish; irrigatsiya tizimlari hamda nasos stansiyalari, energetika va aloqa boshqarmalari bilan suv berish bo'yicha shartnomalar tuzadi, tizimning ichki nasos stansiyalari va agregatlaridan foydalanish hamda suv berish jadvalini tuzadi; suvdan foydalanishda bozor mexanizmlari joriy etilishini suv ta'minotini yaxshilash uchun takliflarni tayyorlash va amalga oshirish; svuni olish va svuni berish bo'yicha suv resurslari balansini tuzadi; suv resurslari oqilona boshqarilishini nazorat qiladi; suv o'lchash qurilmalari, aloqa, avtomatika va telemexanikaning zamonaviy tizimlarini joriy etadi; kapital va joriy ta'mirlash bo'yicha kompleks tadbirlar tuzadi va mablag'lar sarfini nazorat qiladi; ta'mirlash ishlarida resurslarni tejaydigan texnologiyalarini va usullarini ishlab chiqadi va joriy qiladi; kanallar tizimlarda ishlarni tashkil etadi, tajribani va fan yutuqlarini joriy etadi; investitsiya dasturlarini tuzadi, inshootlarni rekonstruksiya qilish va texnika bilan qayta jihozlash bo'yicha takliflar tayyorlaydi, magistral kanal bo'yicha investitsiya dasturlarini bajarilishini tashkil qiladi; irrigatsiya tizimidagi suv xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi.

Gidrouchastkalar va gidrouzellar (yuridik shaxs maqomisiz) Boshqarmaning tarkibiy bo'linmalari bo'lib, o'z faoliyatini Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi tasdiqlaydigan Nizomga muvofiq yuritadi.

Suv resurslaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlari

Xalq xo'jaligida suvdan foydalanish asosan 4 ta turga bo'linadi.

1. Suvdan asosiy maqsadga muvofiq foydalanish, 2. Suvdan umumiyl va maxsus foydalanish, 3. Suvdan birgalikda va tanho foydalanish. 4. Suvdan birlamchi va ikkilamchi foydalanish. Suvdan umumiyl va maxsus foydalanishning ikki xili: Suvdan umumiyl foydalanish-suvning holatiga ta'sir qiladigan inshootlar yoki texnikaviy qurilmalarni qo'llamay turib foydalanish; ikkinchidan suvdan maxsus foydalanish-inshootlarni yoki qurilmalarni qo'llanish yo'li

bilan foydalanish. Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini aniqlashda bevosita qishloq xo'jalik korxonasida ishlatalgan suv ko'rsatkichlari aniqlanadi. SFU yoki irrigatsiya tizimi havza boshqarmalarida inshoot va qurilmalarni qo'llashdag'i ko'rsatkichlar asosida suv samaradorligi aniqlanadi.

Qishloq xo'jaligida Limit bo'yicha suv hajmi, m³; suvdan foydalanish darajasi, %; suv bilan ta'minlanganlik, %; suv bilan ta'minlash xarajatlari, so'm; suvg'orish uchun ajratilgan pul mablag'i, so'm; suvg'orish suvidan foydalanish unumdorligi sof foyda, so'm; rentabellik, %.

Qisqacha xulosa

Respublika xalq xo'jaligini suv resurslari bilan uzluksiz ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi va uning Bosh boshqarmasining asosiy vazifasidir. Suvdan samarali foydalanishning huquqiy asoslarini yaratish bo'yicha "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida"gi qonun qabul qiliingan. Qonunga asoslanib suv xo'jaliklari boshqariladi va suv bo'yicha limitlar tuzilib, uni iste'molchilarga shartnoma asosida yetkazib beriladi. Suv resurslari ta'minoti tizimi o'zgarib, irrigatsiya tizimida havza boshqarmasi, magistral kanallar, suv xo'jaliklari, gidrouchastkalar va gidropostlar orqali amalga oshirilmoqda. Bu tizimning to'liq huquqiy asosi, vazifasi va funksiyalari belgilab berilgan va ularning bajarilishi ustidan nazorat ishlari o'rnataligan.

Tayanch iboralar

Xo'jaligi, boshqarma, irrigatsiya tizimi, havza, limit, texnologiya, melioratsiya, drenaj, oqova suv, kanal, gidropost, gidrouzel, funksiyalar, suv obyekti, subyekti, suv omborlari, maxsus ruxsatnoma, nazorat, mirob, nasos stansiyalari.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Suv resurslaridan foydalanish yo'llarini aytинг.
2. Suv xo'jaliklari tuzilishidagi tarkibiy o'zgarishlar nimadan iborat?
3. Irrigatsiya tizimidagi boshqarmalarning vazifalari o'z ichiga nimalarni oladi?
4. Havza boshqarmasining funksiyalariga nimalar kiradi?
5. Magistral kanallarning faoliyatini qanday tushunasiz?
6. SFUlarni tuzishdan ko'zlangan maqsadni aytинг.

Asosiy adabiyotlar

1. *O'zbekiston Respublikasining "Yer kodeksi" va boshqa qishloq xo'jaligiga oid qonun hujjatlari (yer kodeksi, shirkat xo'jaligi, fermer xo'jaligi, dehqon xo'jaligi, yer kadastri to'g'risidagi qonunlar)*. -T.: "Adolat", 1999, -446.
2. *O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi) to'g'risida".* -T.: *Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashdirishga doir qonun va me'yoriy hujjatlar to'plami.* -T.: "Sharq" nashriyot-matbaa konserni, 1998, 1-tom, -416.
3. *O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida".* -T.:
4. Karimov I.A. "*O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari*". -T., "O'zbekiston", 1998.
5. Sultonov A., Xudoyberganov Z.Ya., Qo'chqorova S.A. "*Suv xo'jaligi iqtisodiyoti*". -T.: "Davronova D.K.", -310 b.
6. Попов Н.А. Экономика отраслей АПК. Курс лекции, 2002, <http://family.taukita.ru/item22219310.htm>
7. Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. "*Qishloq xo'jaligi iqtisodi*". -T.: "TDIU", 2004.
8. Соколова Ж.Е., Каменецкая О.В., «Эффективность использования водных ресурсов в мировом сельском хозяйстве (глобальные экономические и политические аспекты)» -М.: ЦИиТЭИ АПК ВНИИЭСХ, 2006, -111 см.
9. Umurzogov O'.P., Toshboev A.J., Toshboev A.A. "*Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti*". -T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008, -273 b.

5-bob. MEHNAT RESURSLARI BOZORI VA MEHNAT UNUMDORLIGI

5.1. Qishloq xo‘jaligida mehnat resurslari va undan foydalanish

O‘zbekiston Respublikasi aholisi soni 2006-yilning boshlarida 26 million kishi bo‘lib, undan 60,2 % i qishloqda yashaydi. Mehnat resurslari 9,9 mln. kishi, aholi yiliga 300-370 ming kishiga ko‘payib bormoqda.

Ishchi kuchi deb kishilarning mehnat qilish qobiliyati, ularda bo‘lgan jismoniy va ma’naviy qobiliyatlar yig‘indisiga aytildi.

Ish kuchi odamning mehnat qobiliyati bo‘lib, har qanday jamiyatda va ishlab chiqarishda turlicha faoliyat ko‘rsatadi.

Mehnat resurslari deb - mehnat qilish qibiliyatiga ega bo‘lgan fuqarolarga aytildi. Mehnat qilishning huquqiy asoslari Respublika Oliy Majlisini tomonidan qabul qilingan «Mehnat kodeksi»da (04.1996 y.), «Aholini ish bilan ta’minlash to‘g‘risida»gi (05.1998 y.) qonunlarida bataysil ko‘rsatilgan. Mehnat resurslari 16 yoshdan 60 yoshgacha bo‘lgan erkaklar, 16-55 yoshgacha bo‘lgan ayollar hisoblanadi. Shu bilan birgalikda, mehnat qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan o‘smlar va nafaqaxo‘rlar ham mehnat resurslariga kiradi.

O‘zbekiston agrar respublika bo‘lib, aholining 62 foizi qishloq joylarda yashab, qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirmoqda.

Qishloq xo‘jaligiga fan-texnika yangiliklari va chet el texnologiyalarining kirib kelishi natijasida oddiy mehnat, murakkab mehnatga, qishloq xo‘jalik mehnati esa intellektual mehnat turiga aylanmoqda. Bu esa bozor talabi bo‘yicha qishloqda mehnat resurslarining malakasini oshirishni talab etadi.

Hozirgi vaqtida O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi oliy o‘quv yurtlari kollej va ixtisoslashgan mutaxassislik kurslari faoliyat ko‘rsatib, malakali bozor iqtisodiyotiga asoslangan kadrlar tayyorlab borilmoqda. Kadr tayyorlash tadbirlarining asosiy maqsadi qishloq xo‘jaligini yanada sanoat usulida rivojlantirib, mexanizatsiyalash darajasini oshirishdir. Mehnat resurslaridan foydalanishning quyidagi ko‘rsatkichlari mavjud bo‘lib:

Mehnat resurslari balansi - mehnat resurslari soniga bajargan ishining to‘g‘ri kelishidir.

Xo‘jaliklarni mehnat resurslari bilan ta’minlanishi xo‘jalikdagi mavjud ekin maydonlarini mehnatga yaroqli xodimlar soniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

Mehnat resurslari bilan ta’minlanish darajasi mavjud mehnat resurslarining yillik ish vaqtini fondini, ishlab chiqarishning ish kuchiga bo‘lgan talabiga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi.

Xo‘jalikning ish kuchiga bo‘lgan talabi, texnologik karta bo‘yicha bajariladigan ish hajmiga qarab aniqlanadi. Qo‘l kuchi bilan bajariladigan ishlar kishi-kuni, kishi-soati hisobida belgilanadi. O‘zbekiston sharoitidagi ko‘p yillik metrologik kuzatishlarda, yilning 282 kunida dehqonchilik ishlarini bajarish mumkin. Ishlovchining yillik ish vaqtini fondini aniqlash uchun yilning ishga yaroqli kunidan dam olish (52 kun), bayram (19 kun), ta’til kunlarini chiqarib tashlash kerak 282-52-19 tunni tashkil etadi.

Mavjud mehnat resurslaridan foydalanish darajasi — mehnatga yaroqli erkak yoki ayolning yil mobaynida ijtimoiy ishlab chiqarishga qatnashgan ish kunini ularning yillik ish vaqtini budgetiga bo‘lish bilan aniqlanadi.

5.2. Mehnat resurslari bozori va uni shakllantirish

Respublika aholisining 10 milliondan ortig‘i mehnatga yaroqli bo‘lib, uning asosiy qismi qishloq xo‘jalik korxonalarida faoliyat ko‘rsatmoqda. Shuning uchun ishchi kuchi qishloq xo‘jaligidagi juda arzon bo‘lib, mahsulot tannarxi tarkibida ish haqi xaratatlari 35-40 foizni tashkil etadi. Yetishtirilgan mahsulot hajmi kamayib borishiga xaridorlar kamayishi sabab bo‘lmoqda. Shu munosabat bilan qishloq xo‘jaligidagi ishlovchilarning ishga bo‘lgan munosabati va moddiy manfaatdorligi keskin kamayib bormoqda. Chunki yetishtirilgan mahsuloti, birinchidan, yuqori bahoda sotilishi ta’minlanmay kelgan bo‘lsa, ikkinchidan, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning pastligi, mehnatga yaroqli shaxslarning keskin ortib borishi tufayli mehnatchining moddiy qiziquvchanligi kamayib, ishsizlar soni oshib ketishiga sabab bo‘lmoqda.

Jamoa xo‘jaliklari o‘rniga kooperativ shirkat, fermer xo‘jaliklari tashkil qilinishi sababli qishloq xo‘jaligidan ko‘plab mehnat resurslari bo‘shatilib, ishchi o‘rinlari qisqardi. Shu yo‘l bilan qishloq aholisini sanoat korxonalariga

ishlashga va sanoatni qishloqqa kiritishga manba yaratilmoqda. O'zbekiston agrar industrial davlatga aylanib bormoqda. Qishloq xo'jaligidan bo'sh qolgan mehnat resurslarini ish bilan muntazam ravishda ta'minlash uchun tumanlarda mehnat birjalarini faoliyat ko'rsatmoqda.

Mehnat bozori qishloq xo'jaligidagi fuqarolarning mehnat qilish qobiliyati taklifi hamda ularni ishga olish (sotib olish), ya'ni ish bilan ta'minlovchilar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimini amalga oshiradigan manzil (hudud). Mehnat bozorida o'zlarining mehnat qilish qobiliyatini taklif etuvchi fuqarolar bir tomonidan ularni iste'mol etuvchi ya'ni ishga oluvchi korxonalar, ikkinchi tomonidan, uchrashib mehnat almashuv (mehnatni oldi-sotdi) jarayonini amalga oshiradilar. Respublika qishloq xo'jaligidagi mehnat bozorlari tumanda tashkil etilgan "Mehnat birjaları" shaklida faoliyat ko'rsatmoqda.

Mehnat birjası ishchi-xizmatchi va korxona o'rtasida ish kuchini sotish, sotib olish bo'yicha kelishuvni amalga oshiradigan vositachi vazifasini o'taydigan muassasa. Mehnat bozorida har qanday bozordagidek, kishini mehnat qobiliyatini oldi-sotdi jarayoni erkin raqobaat asosida amalga oshirilishi (mehnat qilish qibiliyatini sotishni xohlaganlar uchun sotish (berish)ga, uni sotib oluvchi korxonalarga esa olishga sharoit yaratilishi) kerak.

Mehnat bozorining asosiy maqsadi aholini ish bilan ta'minlash bo'lib, aholining malakasi, mutaxassisligi, ma'lumot va ishbilarmonligiga qarab, uni u yoki bu hududlarda ishga joylashtirishdan iborat. Mehnat bozorlariga har bir ishsiz fuqaro o'z arizasi bilan murojaat qilib, bo'sh o'rnlarga qabul qilinadi. Mehnat bozorini shakllantirish, avvalo, qishloq xo'jaligi tarmoqlarini bir tekis rivojlantirishdan iboratdir.

Qishloq xo'jaliklari mehnat birjalaridan zarur bo'lgan mehnat resurslarini olishlari va undan shartnomaga asosida foydalanişlari mumkin. Aks holda, xo'jalikda ortiqcha ishlovchilar bo'lsa, mehnat bozorlariga ish bilan ta'minlash uchun tavsiya berishlari mumkin.

5.3. Mehnat unumdarligini oshirish omillari va ko'rsatkichlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat oldida turgan iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal qilishning asosiy omillaridan biri mehnat unumdarligini oshirish hamda ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini har tomonlama yuksaltirishga erishishdan iboratdir.

Ijtimoiy mehnat unumdorligini oshirishda ishlab chiqaruvchi kuchlar darajasi va ishlab chiqarish munosabatlarining xarakteriga bog'liq bo'lib, unga quyidagi omillar ta'sir etadi:

- 1) moddiy-texnika resurslari bilan qurollanish omillari (texnika progressi, ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalash, elektrlashtirish, avtomatlashtirish va boshqalar);
- 2) shaxsiy omil (xodimlarning ixtisosи, malakasi, qobiliyati);
- 3) ijtimoiy mehnatning qanday tashkil qilinganligini ko'rsatuvchi omillar (ixtisoslashtirish, kooperatsiyalash, ishlab chiqarishni kombinatsiyalash, korxonalarda mehnat bozorini shakllantirish);
- 4) tabiiy omillar (ob-havo sharoiti, suv, ekologiya, issiqlik harorati va boshqalar) guruhiga bo'lish mumkin.

Qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini oshirishda ishlab chiqarishni fan-texnika taraqqiyoti va ilg'or tajriba yutuqlarini hisobga olgan holda intensiv rivojlantirishga erishish asosiy rol o'yaydi.

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida fond va energiya bilan qurollanish darajasining pasayishi natijasida mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan ish vaqtি tejalib, mehnat sarfi kamaymoqda, shuning uchun ekin maydonidan olinadigan hosil miqdori va mehnat unumdorligi ortmoqda.

Qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligini oshirish uchun tuproq unumdorligini yaxshilash, yerni mineral va organik o'g'it bilan o'g'itlash, sug'orma dehqonchilik maydonlarini kengaytirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash, serhosil ekin navlari hamda hayvon zotlarini yaratish, almashlab ekish, fan-texnika va agrotexnika talablariga rioya qilinishi sababli tuproq unumdorligi ortib, hosil ko'payib, mahsulot sifati yaxshilanib, mehnat unumdorligi ortishiga olib keladi.

Chorvachilikda mehnat unumdorligini oshirishda chorva uchun oziqa bazasi yaratish va hayvonlarni ilmiy asoslangan oziqa ratsioni asosida boqishni tashkil etish hisobiga ortadi.

Mehnat unumdorligini oshirishga ta'sir etuvchi omillardan mehnat intizomini mustahkamlash bo'lib, mehnat intizomi buzilgan yerda ishlab chiqarishni yuksaltirish kunlik ish me'yorlarini o'z vaqtida bajarish mumkin emas.

Qishloq xo'jaligida mehnat intensivligini oshirish natijasida mahsulot ishlab chiqarish jarayonda jonli va buyumlashgan mehnat tejalmasdan, sarflangan vaqt qisqarib, mahsulot ishlab chiqarish hajmi ko'payadi, ishlab chiqarish vositalaridan unumli foydalaniлади. Mehnat unumdorligini oshirishda kunlik ish kuni davomida mehnat

resurslaridan unumli foydalanishga erishish muhimdir. Kunlik ish kunidan unumli foydalanishga erishishda me'yor, mehnatni ilmiy asosda me'yorlashtirish va me'yorlarni takomillashtirish orqali mehnat resurslaridan unumli foydalanimishiga hamda asosiy va aylanma fondlardan samarali foydalanishga imkon yaratadi.

Qishloq xo'jaligida mehnat jarayonlarini mexanizatsiyalashtirish, avtomatlashtirish, elektrlashtirish natijasida mehnatning unumdorligi oshadi hamda xo'jalikdagi mashina, traktorlarning ishga yaroqliligini oshirish; moliyaviy resurslar bilan ta'minlash; kadrlar malakasini oshirish, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, iqtisodiy siyosatni ommaga to'g'ri tushuntirish ham unumdorlikni oshiradi.

Mehnat unumdorligi – vaqt birligi ichida yetishtirilgan mahsulot, bajarilgan xizmatlardir.

Qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligi bevosita va bilvosita ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi.

Mehnat unumdorligi yalpi mahsulotning uni ishlab chiqarish uchun sarflangan ish vaqtiga (kishi-soat) nisbati bilan aniqlanadi. Bu mehnat unumdorligining bevosita ko'rsatkichi bo'lib, u quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Mu = \frac{YaM}{V};$$

Bunda:

Mu – mehnat unumdorligi;

YaM – yalpi mahsulot;

V – yalpi mahsulotni yetishtirish uchun sarflangan ish vaqt (kishi-soat).

Yalpi mahsulot miqdori qancha ko'p bo'lsa va uni yetishtirish uchun sarflangan ish vaqt kam bo'lsa, mehnat unumdorligi shuncha yuqori bo'ladi. Qishloq xo'jaligida ko'pgina mahsulotlar yilda bir marta ishlab chiqariladi. Shuning uchun mehnat unumdorligi bevosita ko'rsatkichlar: vaqt hisobiga bajarilgan qishloq xo'jalik ishlari hajmi, bir gektar maydonda ishlash uchun sarflangan mehnat, bir bosz hayvon boqish uchun sarflangan mehnat kabi ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi. Mehnat unumdorligining o'zgarishi va uning darajasini aniqlashda natural va qiymat ko'rsatkichlaridan ham foydalaniлади.

O'simlikchilik yoki chorvachilik bo'yicha natural ko'rsatkich o'rniqa qiymat ko'rsatkichidan foydalaniлади. Shuning uchun yetishtirilgan mahsulotlar qiymat ko'rinishida bo'ladi.

Qisqacha xulosa

Qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholi uning mehnat resurslarini tashkil etadi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni shakllantiruvchi kuch mehnat resurslari bo'lib, ularning unumdorligini oshirish orqali agrar sohani industrial sohaga aylantiramiz hamda davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlaymiz. Mehnat unumdorligini oshirishda, avvalo, mehnatni ixtisoslashtirish, joylashtirish, ilmiy asosda tashkil etish, moddiy va ma'naviy manfaatdorlikni oshirish, chet el texnologiyalari va tajribalarini amaliyatda qo'llash, kadrlar qo'nimsizligini ta'minlash, mehnat birjalari faoliyatini kengaytirish, mehnatchini ijtimoiy va iqtisodiy muhofazalash, ish stavkalarini, ishsizlik darajasini kamaytirib bandlikni oshirish, agrosohani industrial sanoat sohasiga aylantirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash va haq to'lashni takomillashtirish orqali mehnat unumdorligini oshirish mumkin.

Tayanch iboralar

Mehnat resurslari, mehnat unumdorligi, mehnat bozori, ishchi kuchi, mehnat birjası, unumdorlik, omillar, tuproq unumdorligi, ijtimoiy mehnat, kishi kuni, natural va qiymat ko'rsatkichlar, mehnat intensivligi, ishsizlik, bandlik, malaka oshirish.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Qishloq xo'jaligida mehnat resurslari va mehnat unumdorligi nima?*
2. *Mehnat birjalari faoliyati nimalarni o'z ichiga oladi?*
3. *Mehnat resurslarini ish bilan ta'minlashdagi chora-tadbirlarni ayting.*
4. *Qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar nimalardan iborat?*
5. *Mehnat unumdorligi qaysi yo'llar bilan oshiriladi?*

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadmiz". –T.: "O'qituvchi", 2000.

2. Karimov I.A. “O’zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo’lida”. –T.: O’zbekiston, 1995.
3. Коваленко Я.Н. “Экономика сельского хозяйства”. Москва: ЭКМОС, 1998.
4. Abdug’aniyev A., Abdug’aniyev A.A. “Qishloq xo’jaligi iqtisodiyoti”, -T.: “TDIU”, 2004.
5. O’zbekiston iqtisodiyoti. Jurnal 2006. 4-sون.
6. Umurzoqov O’.P., Toshboyev A.J., Toshboev A.A. “Fermer xo’jaligi iqtisodiyoti. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008, -273 b.

6-bob. ASOSIY VA AYLANMA FONDLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

6.1. Asosiy va aylanma fondlar tushunchasi hamda uning tarkibi

Qishloq xo‘jaligining moddiy-texnika resurslari hisoblangan yer, mashina-traktor, kombaynlar, kimyoviy vositalar, yoqilg‘i, yem-xashaklar, urug‘liklar va boshqa vositalarning qiymat holidagi ko‘rinishi tarmoq fondlarini tashkil etadi.

Asosiy vositalar iqtisodiy mohiyatiga ko‘ra, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish jarayonida bir necha yillar davomida qatnashib, qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulotlariga, bajarilayotgan xizmatlarga yilma-yil qisman o‘tkazib boradigan vositalardir. Bunday vositalar hozirgi davrda respublikada 15 (Rossiya federetsiyasida 50) o‘rtacha oylikdan yuqori qiymatga ega bo‘lgan va 1 yildan ko‘proq xizmat qiladigan ishlab chiqarish vositalaridir. Ularga qishloq xo‘jalik yerlari, mashinalar, traktorlar, binolar, inshootlar, transport vositalari, qurilmalar, stanoklar, ishchi, mahsuldor hayvonlar, ko‘p yillik mevali daraxtlar va boshqalar kiradi. Ularni iqtisodiy mohiyati, shakllanishi ishlab chiqarish jarayonida qatnashishiga ko‘ra ishlab chiqarish hamda noishlab chiqarish fondlariga bo‘linadi. Ular ayrim hollarda ishlab chiqarish jaryonida bevosita va bilvosita qatnashadigan fondlarga ham bo‘linadi. Mahsulotlar ishlab chiqarilishi iqtisodiy mohiyatiga va mahsulot ishlab chiqarish hamda ish bajarish jarayonida qatnashishiga ko‘ra asosiy va aylanma vositalarga bo‘linadi.

Ishlab chiqarish jarayonidagi faoliyatiga ko‘ra mehnat predmetlari hamda mehnat vositalariga bo‘linadi. Xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarida yaratilib qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda inson mehnati yordamida ishlab chiqish jarayonida bir marta qatnashib o‘z shaklini to‘liq o‘zgartiradigan predmetlar tarmoqning mehnat predmetlarini tashkil etadi.

Qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish jarayoni – mehnat predmeti, ish kuchi bilan ishlab chiqarish vositalarining birqalikda harakatidan

paydo bo'ladi. Ishchi kuchi deganda mehnatga yaroqli ishchilar tushunilsa, ishlab chiqarish vositalari keng ma'noda bo'lib, pul va natura shaklida ifodalanadi. Xo'jalikda barcha ishlab chiqarish vositalari natura va uning xo'jalik balansi hisobidagi pul ko'rinishida bo'ladi. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish vositalari xizmat qilish muddatiga qarab asosiy va aylanma fondlarga bo'linadi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari - qishloq xo'jaligida yetishtirilayotgan mahsulotga o'z qiymatini asta-sekinlik bilan o'tkazib boruvchi mehnat vositalariga aytildi. Masalan: transport vositalari, imoratlar, mahsuldor mollar, ko'p yillik daraxtlar va boshqalar.

Asosiy ishlab chiqarish vositalari turlicha bo'lib, ular doimo harakatda bo'ladi, ya'ni mehnat vositalari ko'rinishidan, mahsulot ko'rinishiga, undan so'ng pul shakliga o'tib, pul o'z navbatida, yana mehnat vositalarini tiklash va ko'paytirish uchun xizmat qiladi. Bunday harakatni *fondlarning aylanishi* deyiladi.

Xo'jalikning asosiy ishlab chiqarish vositalari, ya'ni mehnat vositalari asosiy ishlab chiqarish fondini, mehnat buyumlari aylanma fondni tashkil etadi.

Asosiy fondlar boshlang'ich, qoldiq va tiklash baholariga ega bo'lib *boshlang'ich qiymat* asosiy fondlarni tashkil etishdagi haqiqiy sarflangan xarajatlar; *goldik qiymat* - asosiy fondlar qiymatidan yeyilgan qiymat chiqimi; *tiklash qiymati* – bu mulklarni sotib olib to'ldirish qiymatidir.

Amaldagi klassifikatsiyaga asosan asosiy ishlab chiqarish vositalari ikkiga bo'linadi:

1. Qishloq xo'jaligiga bog'liq bo'lgan asosiy ishlab chiqarish vositalari, bunga yuqoridaqilar kiradi.

2. Qishloq xo'jaligiga bog'liq bo'lmagan ishlab chiqarish vositalari - sanoat inshootlari, qurilish, ovqatlanish, maktab, bog'cha, turar joy va boshqalar kiradi. Bu vositalar qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirishda qatnashmasa ham, ijtimoiy tomonidan mehnat unumdarligini muntazam oshirib boradi.

Asosiy ishlab chiqarish vositalari bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalikning imkoniyatlariga qarab o'sib boradi. Buni biz *kapital mablag'lar* deb ataymiz.

Asosiy ishlab chiqarish fondlari o'zining moddiy, natural xarakteriga va ishlab chiqarish jarayonida bajaradigan xizmatiga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi.

Ishlab chiqarishda foydalaniladigan binolar, inshootlar, uzatuvchi qurilmalar, chorvachilik binolari, qishloq xo'jalik mashinalarini saqlaydigan saroy va bostirmalar, omborlar va hokazolar kiradi. Bu guruhga kiradigan fondlar umumiy ishlab chiqarish fondlarining 60-65 % ini tashkil etadi.

Asbob uskunalar va kuch mashinalariga traktor statsionar va kuchma-kuch jihozlari, elektr dvigatellar kiradi. Ish mashinalari va asbob-uskunalariga transpot vositalari unga avtomobil va tirkama aravalari, ot arava transporti kiradi. *Ish hayvonlariga* katta yoshdag'i otlar ho'kizlar, tuyalar kiradi.

Mahsulor mollar - mahsulot yetishtirish uchun boquvdagi katta yoshdag'i hayvonlar kiradi.

Xo'jalikda asosiy fondlarni natura va pul shaklida hisobga olinadi va foydalanish rejalahtiriladi. Natura shaklida ko'rsatkich ishlab chiqarish fondlarining son va sifat holatini ko'rsatadi. Pul shaklidagi ko'rsatkich esa asosiy fondlarning o'sib borishi uchun sarflanib borilgan pul summasini va ularning eskirish qiymatini ko'rsatadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida asosiy fondlarning shakllanishi asosiy muammo bo'lib turmoqda. Chunki yiliga vositalarning qiymati stixiyali o'sishi sababli mavjud fondlardan samarali foydalanishga to'g'ri kelmoqda. Asosiy fondlarga pul manbasi, qishloq xo'jalik mahsulotini sotishdan, xo'jalikka berilgan kredit hisobidan, amortizatsiya mablag'idan, qimmatbaho qog'ozlar, ko'p yillik daraxtlar va boquvdagi qoramollarni sotishdan shakllanadi. Bu mablag' investitsiyani kiritishga sarflanadi.

6.2. Asosiy ishlab chiqarish fondlari va undan samarali foydalanish

Asosiy ishlab chiqarish fondlari ishlab chiqarish jarayonida eskirib, dastlabki sifatini yo'qotib, ma'lum muddat o'tgandan so'ng yaroqsiz bo'lib qoladi. Ularni yangisi bilan almashtiriladi. Asosiy ishlab chiqarish fondlari *jismoniy* va *ma'naviy* eskiradi.

Asosiy fondlarning ma'naviy eskirishi 1) unumli va tejamli mashinalar ixtiro etilishi va ularni ishlab chiqarishga joriy qilish natijasida eskirishi, jismoniy eskirishi muddati tugamasdanoq, *ma'naviy* eskirib qoladi; 2) texnika taraqqiyoti va mehnat unumdorligiining o'sishi ham, o'z navbatida, ishlab turgan mashinalar eskirishiga tushuniladi.

Jismoniy eskirish – ishlab chiqarish vositalarini ishlatalish davomidagi eskirishdir.

Bozor sharoitida qishloq xo'jaligida mashinalarning ma'naviy eskirish kategoriyasi juda muhim ahamiyatga ega. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining mahsulotga pul formasida o'tgan qiymatini *amortizatsiya fondi* deyiladi.

Asosiy vositalarning eskirishi ularning amaldagi eskirish me'yorlari yordamida aniqlash mumkin. Ularning eskirish qiymati *amortizatsiya summaları* deb ataladi. Asosiy vositalarning eskirish me'yorini belgilab beruvchi amortizatsiya me'yori asosida ularning eskirish qiymati (summasi) quyidagi formula yordamida aniqlanadi.

$$AVas = \frac{AVbq}{AVem} \cdot 100 \text{ yoki } \frac{AVbq}{AVem};$$

bunda:

AVas-asosiy vositalarning amortizatsiya summasi (so'm);

AVbq-asosiy vositalarning balans qiymati (so'm);

AVem-asosiy vositalarning eskirish me'yori (koeffitsiyentda, yilda).

Asosiy vositalarning eskirish me'yori (normativi) berilmaganda asosiy vositalarning balans qiymatini vositaning xizmat ko'rsatish muddatiga taqsimlash yo'li bilan eskirish me'yori aniqlanadi. Xo'jalikda uzoq yillar ishlatilganligi uchun kapital ta'mirlangan bo'lsa ular balans qiymatiga qo'shiladi.

Amortizatsiya ajratmalarning me'yoriga asosiy fondlarni tiklash va kapital ta'mirlash uchun zarur bo'lgan summalar kiradi.

1996 yilga qadar asosiy fondlardan amortizatsiya ajratmalari faqat jismoniy eskirish hisobidan olinib, ma'naviy eskirishga esa e'tibor berilmas edi. Oqibatda asosiy fondlarning xizmat qilish muddati sun'iy ravishda oshardi.

Asosiy fondlardan qay darajada foydalanilayotganidan qat'iy nazar amortizatsiya ajratmalari ajratiladi. Bu asosiy fondlardan unumli foydalanishni talab qiladi. Amortizatsiya ajratmalari bo'yicha belgilangan yangi me'yorlar oldingi me'yorlariga nisbatan yuqori belgilangan.

Amortizatsiya ajratmalarining yangi me'yorlarida traktor va kombaynlarni modernizatsiya qilish xarajatlari va ma'naviy eskirishi hisobga olingan.

6.3. Aylanma fondlar va undan foydalanish

Qishloq xo‘jaligida aylanma fondlar - bir ishlab chiqarish jarayonida qatnashib o‘z formasini to‘la yo‘qotib, qiymatini butunlay boshqa yangi mahsulotga o‘tkazadigan mehnat buyumlari kiradi. Ularga urug‘lik, o‘g‘it, yoqilg‘i, yem-xashak va boshqalar kiradi.

Aylanma fondlar ish jarayonida ikki xil bo‘lib, **birinchidan**, ishlab chiqarish jarayoniga vaqtincha qatnashmasdan, ishlab chiqarishni uzlusiz ta‘minlash uchun zaxira mehnat buyumlaridan; **ikkinchidan**, ishlab chiqarishda qatnashib o‘z qiymatini yangi mahsulotga o‘tkazuvchi vositalar bo‘lib, ularga yosh hayvonlar, boquvdagi mollar kiradi.

Aylanma fondlar aylanishi qancha sekin bo‘lsa yoki me‘yordan yuqori olinsa ishlab chiqarish samaradorligi shuncha past bo‘ladi. Korxonalar uzlusiz ishlashi uchun aylanma fondlari bilan bir qatorda muomala fondlariga ega bo‘lishlari kerak. *Muomala fondlari* – bu realizatsiya qilishdan tushgan pullardir. Aylanma fond bilan muomala fondi birgalashib xo‘jalikning aylanma mablag‘ini tashkil etadi. Aylanma mablag‘ning 75-80% aylanma fondini tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida fondlarning balans qiymati har xil bahoda baholanganligi sababli balans bahoga to‘g‘ri kelmay qoldi. Shuning uchun fondlarni qayta baholash fondlarning tiklash qiymatiga qarab belgilanadi.

Aylanma fondlar (vositalar)dan samarali foydalanish ko‘rsatkichlari quyidagilardan iborat:

Aylanma fondlarning aylanish koeffitsiyenti. Uni aniqlash uchun sotilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlarining, ko‘rsatilgan xizmatlarning, bajarilgan ishlarning umumiy qiymatiga asosiy podaga o‘tkazilgan yosh hayvonlarning qiymatini qo‘sib, undan asosiy podadagi hayvonlarni sotishdan tushgan mablag‘ni ayirgandan so‘ng qolgan qiymati. Aylanma fondlarning yillik o‘rtacha qoldiq summasiga taqsimlash lozim. U quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$AyFAk^o = \frac{Sqxm + YHQapo' - STTaph}{AyFyo'qq};$$

bunda:

AyFAk^o-aylanma fondlarning aylanish koeffitsiyenti;

Sqxm-sotilgan qishloq xo‘jalik mahsulotlari, (bajarilgan ishlar, xizmatlar) qiymati (so‘m);

YHQapo‘-asosiy podaga o‘tkazilgan yosh hayvonlarning qiymati (so‘m);

STTaph-asosiy podadagi hayvonlarni sotishdan tushgan tushum (so‘m);

AyFyo‘qq-aylanma fondlarning yillik o‘rtacha qoldiq qiymati (so‘m).

Bu ko‘rsatkich xo‘jalikdagi aylanma fondlarning bir yil davomida aylanish tezligini ko‘rsatadi. Uning miqdori birdan yuqori bo‘lgani ma‘qul. Bu ko‘rsatkichga asoslanib, aylanma fondlarning aylanish muddati ham aniqlanadi.

Yil davomida aylanma fondlar (vositalar) aylanishining o‘rtacha davrini yuqoridagi ko‘rsatkichdan foydalanib bir yildagi kalendar kunlari umumiyl sonini (365 yoki 366) aylanish koeffitsiyentiga taqsimlab, quyidagi tenglikdan foydalilanadi:

$$AyFam = \frac{365}{AyFak} ;$$

bunda:

AyFam - aylanma fondlarning aylanish muddati, kun;

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida aylanma vositalardan foydalanganlik darajasini aniqlash mumkin. Masalan, mineral o‘g‘it, yem-xashak va oziqa moddalar, yoqilg‘ilarni natura yoki qiymat holida aniqlash mumkin.

Mineral o‘g‘itlardan samarali foydalanish darajasini quyidagi formula yordamida aniqlash mumkin:

$$MO' s = \frac{YaM(YaMQ)}{MO' q} ;$$

bunda:

MO‘s - sarflangan mineral o‘g‘itlarning sof holdagi miqdori samaradorligi;

YaM - yalpi mahsulot (ekin bo‘yicha) tonna;

YaMQ - yalpi mahsulot qiymati, so‘m;

MO‘q - sarflangan mineral o‘g‘itlar, qiymati, kg/so‘m.

Bu formula yordamida, sarflangan sof holdagi bir kg (sent.) o‘g‘it hisobiga qancha hosil yoki mahsulot olinganligini aniqlash mumkin. Uning miqdori qanchalik yuqori bo‘lsa, mineral o‘g‘itlardan foydalanish samaradorligi ortganligini ko‘rsatadi.

Chorvachilikda esa ***sarflangan oziqa birligining samaradorlik darajasini*** quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$SOs = \frac{YMm (YMq)}{SOb};$$

bunda:

SOs - mahsulot yetishtirish uchun sarflangan oziqa miqdorining samaradorlik darajasi;

YMm - yetishtirilgan mahsulotning (go'sht, sut) miqdori, sent (kg).

Ymq - yetishtirilgan mahsulotning (go'sht, sut) qiymati, so'm.

SOb - sarflangan oziqa birligi.

6.4. Asosiy fondlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari

Qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini ko'p jihatdan asosiy fondlar bilan ta'minlanganligiga bog'liqdir. Xo'jalikda asosiy vositalar yetarli bo'lmasa, mahsulot hajmi, mehnat unumdarligi pasayib, sarf - xarajatlar keskin oshib ketishi mumkin. Agar talab darajasidan ortiqcha bo'lsa ham mahsulot tannarxining ortishiga sabab bo'ladi. Xo'jalikdagi mavjud asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanishning iqtisodiy ko'rsatkichlari: fond bilan ta'minlanish, fond bilan qurollanish, fond sig'imi, fond qaytimi, fond rentabelligi bilan izohlanadi.

1. Fond bilan ta'minlanish – fondlarni qishloq xo'jalik yer maydoniga nisbati bilan belgilanadi.

$$Ft = \frac{Af}{Em};$$

bunda:

Af-asosiy fond

Sug'oriladigan yerlarda olib borilayotgan dehqonchilik sharoitida xo'jalikning fondlar bilan ta'minlanish darajasini 100 ga sug'oriladigan yerlariga nisbati bilan hisoblash mumkin.

2. Mehnatni fond bilan qurollantirish – ishlab chiqarish fondlari qiymatini mehnatga qobiliyatli ishlovchilarining o'rtacha soniga nisbati

bilan belgilanadi. Mehnat resurslari bilan ta'minlanish darajasi yuqori bo'lsa, mehnatning fondlar bilan qurollanish darajasi shuncha past bo'ladi va, aksincha. Fond bilan qurollanish ko'rsatkichi:

$$F_{qur} = \frac{AF}{YIS};$$

bunda: AF -asosiy fond;
YIS - yillik ishlovchilar soni.

3. Fond qaytimi – yalpi mahsulot qiymatini asosiy fondlarning yillik o'rtacha qiymatiga nisbati bilan aniqlanadi:

$$F_{qayt} = \frac{YaMQ}{AF};$$

bunda: YaMQ-yalpi mahsulot qiymati.

4. Fond sig'imi – ishlab chiqarish fondlarining yalpi mahsulot qiymatiga nisbatidir:

$$F_{sig'} = \frac{AF}{YaMQ};$$

5. Fondlar bo'yicha rentabellik – sof foydani asosiy fondlarning yillik o'rtacha qiymatiga bo'lib, 100 ga ko'paytmasidir.

$$Fr = \frac{SF}{t} \cdot 100$$

bunda:
Fr-fond bo'yicha rentabellik darajasi, %;
SF-sof foya.
t-fondning qoplash muddati, yil.

6. Asosiy fondlarning qoplanish muddati – asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymatini foydasiga nisbati bilan aniqlanadi:

$$T = \frac{SF}{AF};$$

bunda:
T-fondning qoplash muddati, yil

Qisqacha xulosa

Asosiy fondlarga o'rtacha oylik ish haqining 15 barovaridan ortiqchasiiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish vositalari kiradi. Asosiy fondlar o'z mohiyatiga ko'ra asosiy ishlab chiqarish fondlariga va aylanma fondlarga bo'linadi. Qishloq xo'jaligida asosan ishlab chiqarish fondlari o'z qiymatini uzoq yillar mobaynida ishlab chiqarishga o'tkazib borsa, aylanma fondlar esa bir ishlab chiqarish jarayonida qatnashib, o'z qiymatini o'tkazadi. Keyingi paytlarda asosiy fondalarning balans qiymati oshib ketishi sababli, yangi zamonaviy texnikalar olishga moliyaviy sharoiti yetmay, eski texnikalardan samarali foydalanilmoqda. Aylanma vositalar ham talabga nisbatan 70-80 foizga ta'minlanmoqda. Avvalo, uning qiymati yuqori, uni sotib olishga mablag' yo'q bo'lsa, resurslarning o'zi yo'q. Shuning uchun ma'naviy eskirgan texnikaga va mahalliy resurslardan foydalanish samarali bo'ladi.

Fondlardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari fond bilan qurollanganlik, fond bilan ta'minlanganlik, fond sig'imi, fond qaytimi va fond rentabelliklari bilan aniqlanadi. Asosiy vositalarni to'ldirish uchun kapital mablag'larni shakllantirib, jismoniy va ma'naviy eskirgan vositalar o'rniiga yangilarini o'rnatish zarur.

Tayanch iboralar

Asosiy fond, asosiy ishlab chiqarish fondlari, aylanma fond, vosita, fond aylanishi, qoldiq qiymat, tiklash qiymati, boshlang'ich qiymat, kapital mablag'lari, jismoniy eskirish, ma'naviy eskirish, amortizatsiya summasi, muomala fondi, aylanma mablag', fondning aylanish koeffitsiyenti, yalpi mahsulot, fond samaradorlik ko'rsatkichlari, qoplash muddati.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Asosiy fondlarning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati nimadan iborat?
2. Asosiy fondlar tarkibi va ularga nimalar kiradi?
3. Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanish yo'llarini qanday izohlash mumkin?
4. Aylanma fondlar tarkibi va uning ko'rsatkichlari o'z ichiga nimalarni oladi?
5. Asosiy ishlab chiqarish fondlari samaradorlik ko'rsatkichlarini qanday tavsiflash mumkin?

Asosiy adabiyoilar

1. Karimov I.A. "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz". –T.: "O'qituvchi", 2000.
2. Karimov I.A. "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'llida". –T.: "O'zbekiston", 1995.
3. Добринин В.А. "Экономика сельского хозяйства". –М.: 1990, -47.
4. Петренко И.Я., Чужиков П.И., "Экономика сельскохозяйственного производства". -Алма-Ата: Кайнар, 1992.
5. Toshboyev A.J. "Qishloq xo'jaligi iqtisodi va menejment" fanidan amaliy mashg'ulot olib borish uchun uslubiy qo'llanma. – Т.: "TIQXMII", 1999, -38.
6. Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti", -Т.: "TDIU", 2004.
7. Коваленко Н.Я., Умурзоков У.П., Тошбоев А.Ж., Тошбоев А.А. "Экономика и организация фермерского хозяйства". -М.: "РГАУ-МСХА имени К.А. Тимирязева", 2008, -206 с.

7-bob. QISHLOQ XO'JALIGINING MODDIY-TEXNIKA RESURSLARI

7.1. Qishloq xo'jaligi moddiy-texnika resurslari tushunchasi, uning mohiyati va ahamiyati

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari deganda, xo'jalikdagi mavjud barcha asosiy fondlar, xo'jalik inventarlari yig'indisi tushuniladi. Agrosanoat majmuasi tarmoqlarining, ayniqsa, qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasini mustahkamlash katta ahamiyatga ega. Chunki ishlab chiqarishning mexanizatsiyalashganlik darajasi bevosita tarmoqda, xo'jaliklarda mavjud texnikaning miqdori va sifatiga bog'liq. Agar texnikalar yetarli miqdorda bo'lmasa qishloq xo'jaligi ishlarini agrotexnik muddatlarida bajarish mumkin emas. Bu, o'z navbatida, barcha natijaviy ko'rsatkichlarning pasayishiga olib keladi. Har qanday tarmoqning moddiy-texnika bazasi va asosiy fondlar, xomashyolar, mehnat resurslari, tadbirkorlik qobiliyatları birgalikda faoliyat ko'rsatadi.

Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy siyosat natijasida qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi keyingi yillarda yanada mustahkamlanib bormoqda. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga yuqori unumli, fermer va dehqon xo'jaliklariga kichik mini texnikalar olib kelinishi, qo'l mehnatini yengillashtirmoqda.

Qishloq xo'jalik koorxonalarining moddiy-texnika bazasiga quyidagi resurslar kiradi: **tabiiy resurslar** - yer, suv, o'rmon, chorva hayvonlari, issiqlik hamda yog'ingarchilik miqdoridan tashkil topadi. Ularning asosiy qismi davlat tasarrufida bo'lib, korxonalarga, fuqarolarga foydalanish uchun beriladi.

Iqtisodiy resurslar esa iqtisodiy potensialning tarkibiy qismi bo'lib moddiy, moliyaviy hamda mehnat resurslaridan tashkil topadi. Qishloq xo'jaligini:

Moddiy-texnika resurslariga – ishlab chiqarishning moddiy vositalari: binolar, inshootlar, mashinalar, traktorlar, kombaynlar, kimyoviy vositalar, o'g'itlar, urug'liliklar, yem-xashaklar, yoqilg'i, qurilish materiallari kiradi.

Moliyaviy resurslariga – davlat tomonidan ajratilayotgan kredit mablag'lar, valuta hisob raqamlaridagi mablag'lar, g'aznadagi pullari, amortizatsiya fondi, aksiyalardan olayotgan foydalari, bank kreditlari, ichki va tashqi investitsiyalarni amalga oshirish natijasida olayotgan mablag'lar, ta'sischilar va boshqa manbalardan kelib tushayotgan mablag'lar kiradi.

Qishloq xo'jaligining moddiy-texnika resurslari o'z mohiyatiga ko'ra foydalaniladigan va foydalanilmaydigan resurslarga bo'linadi. Tarmoqda foydalanilayotgan resurslarga tarmoqda mavjud bo'lib, ayrim sabablarga ko'ra, vaqtincha foydalanilmayotgan zaxira resurslari, foydalanilmayotgan resurslariga zaxiradagi meliorativ yerlar, ayrim suv havzalaridagi suvlar, o'rmonzorlar kiradi.

Tarmoq korxonalarida foydalanilayotgan moddiy-texnika resurslari ishlab chiqarish jarayonida qatnashishiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

Ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishlatiladigan, ishlab chiqarishda bilvosita qatnashadigan resurslar.

Ishlab chiqarishda bevosita ishlatiladigan resurslar yordamida turli mahsulotlar ishlab chiqariladi, ishlari va xizmatlar bajariladi. Ularga ekinlarni sug'orish uchun sarflanayotgan suvlar, mashina, yer haydayotgan, ekinlarga ishlov berayotgan traktorlar, kombayn, kimyoiy vositalar, o'g'itlar, yem-xashaklar, mevali daraxtlar va boshqalar kiradi. Bilvosita qatnashadiganlarga xo'jalikning, korxonalarining ombori, idora va binolari, inshootlar, aloqa vositalari, kompyuterlari, ijtimoiy obyektlar va boshqalar kiradi.

Moddiy - texnika resurslari asosan quyidagi manbalardan korxonaning mablag'lari va chetdan jalb etiladigan mablag'lardan barpo etiladi.

Korxonalarining mahsulot sotish, ish va xizmatlar bajarish natijasida olayotgan pul daromadlari, taqsimlanmagan foydadan ajratilayotgan mablag', amortizatsiya fondidan ajratilayotgan mablag', amortizatsiya fondi hisoblangan mablag', foydalanilmayotgan ayrim ishlab chiqarish vositalarini sotishdan, ijaraga berilayotgan vositalardan foydalanish natijasida va boshqa manbalardan olingan mablag'lari kiradi. Bunda xo'jaliklarning aksiyalar chiqarib sotishdan olayotgan pul daromadlari ham muhim manba hisoblanadi.

Chetdan jalb etiladigan mablag'larga investitsiya mablag'lari, homiy tashkilotlar va davlat mablag'lari kiradi.

Irrigatsiya-melioratsiya, ekologiya va ijtimoiy sohalarga davlat budgetini mablag'larini yoki boshqa manbalardan jalb qilinadi. Qishloq xo'jalik korxonalarini moddiy-texnika vositalarini birjalaridan, ko'rgazmalardan, auksionlardan, boshqa turli korxonalardan shartnoma asosida sotib oladi va ijaraga oladi.

7.2. Qishloq xo'jaligini moddiy - texnika resurslari bilan ta'minlash va ulardan samarali foydalanish

Qishloq xo'jalik korxonalarini moddiy-texnika resurslari bilan talab darajasida ta'minlansa, mehnat va mablag' xarajatlari kamayishi, mehnat unumдорлиги ошиши фойдани ко'пайтиш имконияти бўлади. Qishloq xo'jalik korxonalarini moddiy-texnika vositalari bilan ta'minlanish va ulardan foydalanish jarayonini bir qancha ko'rsatkichlar orqali bilish mumkin. Asosiy ko'rsatkich **resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi bo'lib**, u quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$MTR_{TD} = \frac{(QXEq + (AVo'yq - AA V o'yes) + Ay Vo'ys + BTo'ys)}{Em};$$

bunda:

MTR_{TD} -moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi, so'm.

$QXEq$ -qishloq xo'jalik yerlarining qiymati (so'mda);

$AVo'yq$ -asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati (so'mda);

$AVo'yes$ -asosiy vositalarning o'rtacha yillik eskirish summasi (so'mda);

$AyVo'ys$ -aylanma vositalarning o'rtacha yillik summasi (so'mda);

$BTo'ys$ -bog'lar, tokzorlarning o'rtacha yillik summasi (so'mda);

Em -ekin maydoni, ga.

Bu ko'rsatkich yordamida xo'jalikdagi mavjud ekin maydoniga to'g'ri keladigan moddiy-texnika resurslari aniqlanadi.

Qishloq xo'jaligini **energetik resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi**:

$$ERt = \frac{ERq}{Em};$$

Bunda:

ERq -jami energetik resurslar quvvati (ot kuchida);

Mehnatni energetik resurslar bilan qurollanganlik darajasi. U energetik resurslarni (ot kuchida) ishlovchilarning o‘rtacha yillik miqdoriga (kishilar) nisbati bilan aniqlanadi.

$$ERqur = \frac{ERq}{MRo'ys};$$

Bunda:

MRo'ys – mehnat resurslarining o‘rtacha yillik soni (kishi).

Bu ko‘rsatkichlar korxonada bajariladigan barcha ishlarning qaydarajada mexanizatsiyalashayotganligini yoki avtomatlashayotganlik holatini o‘rganishga yordam beradi.

Ishlab chiqarish jarayonlarining mexanizatsiyalashganlik darajasini - traktor mexanizmlar, mashinalar yordamida bajarilgan jami ish (etalon gektarda) miqdorini korxona bo‘yicha bajarilgan jami ishlar hajmiga (etalon ga) nisbatidir.

$$Md = \frac{MTybi}{XBjbi};$$

Bunda: Md-ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashganlik darajasi, foizda;

MTybi-mashina, traktorlar mexanizmlar yordamida bajarilgan ish (etalon ga);

XBjbi-xo‘jalik bo‘yicha jami bajarilgan ish miqdori (etalon ga);

Yangi texnikalardan, texnologiyalardan foydalanish darajasida yangi texnika, texnologiya joriy etilmasdan avvalgi xarajatlardan, joriy etilganidan keyingi xarajatlar ayirilib, uni dastlabki xarajatlarga bo‘linadi va 100 ga ko‘paytiriladi.

$$YTFD = \frac{X_1 - X_2}{X_1} \cdot 100\%;$$

Bunda: X_1 -yangi texnika, texnologiya joriy etilmasdan oldingi xarajatlar (so‘m);

X_2 -yangi texnika texnologiya joriy etilgandan keyingi xarajatlar (so‘m);

Yuqoridaagi ko‘rsatkichlar yordamida xo‘jaliklardagi mavjud moddiy-texnika resurslaridan foydalanish darajasi va samaradorligi ham aniqlanadi. Mashina-traktor parkidan foydalanish koeffitsiyenti

xo‘jalikda foydalanilgan mashina-tarktorlar sonini, xo‘jalikda mavjud bo‘lgan mashina-traktorlar soniga nisbati bilan aniqlanadi:

$$MTPFk^o = \frac{FMTs}{MMTs};$$

Bunda:

$MTPFk^o$ – mashina-traktor parkidan foydalanish koeffitsiyenti.

FMTs – foydalanilgan mashina-traktorlarning soni (dona);

MMTs-mavjud bo‘lgan mashina-traktorlarning soni (dona);

Mashina-traktor hamda kombaynlarning ishlab chiqarish jarayonida qatnashganlik darajasi – jami ishlagan mashina kunlari sonini ishlagan mashinalar soniga taqsimlash natijasida aniqlanadi.

$$Mik = \frac{\sum Mik}{Mis}; \quad \bar{T}k = \frac{\sum Tik}{Mis}; \quad \bar{K}k = \frac{\sum Kik}{Mis};$$

Bunda:

$\bar{M}k$ -bitta mashinaning (oyda, mavsumda, yilda) ishlagan (qatnashgan) o‘rtacha kuni;

-jami ishlagan mashina kunlari;

$$\sum Mik$$

-jami ishlagan traktor kunlari;

$$\sum Tik$$

-kombaynlarning ishlagan jami kunlari;

$$\sum Kik$$

Mis-ishlagan mashinalar soni;

Ts-traktorlar soni;

Ks-kombaynlar soni.

Bu ko‘rsatkich yordamida xo‘jalikda bitta traktor, kombayn yoki mashinaning yil davomida necha mashina-kun ishlaganligi aniqlanadi.

Texnikalardan foydalanish darajasi - texnikalar (mashinalar (t/km), traktorlar (et.ga), kombaynlar (gektar, tonna)) yordamida bajarilgan ish hajmini texnikalarning o‘rtacha soniga bo‘lish yo‘li bilan aniqlanadi:

$$TMKi = \frac{Ti}{Ts}; \frac{Mi}{Ms}; \frac{Ki}{Ks};$$

Bunda:

TMKi-traktor, mashina, kombaynlarning o‘rtacha bajargan ishi (1 smenada, 1 kunda, mavsumda, 1 yilda etalon gektarda, tonna/km, tonnada, gektarda).

Ti, *Mi*, *Ki* – traktorlar, mashinalar, kombaynlar yordamida bajarilgan jami ish hajmi (etalon gektarda, tonna/km, tonnada);

Ts, *Ms*, *Ks* -shu ishlarni bajarishda qatnashgan traktorlar, mashinalar, kombaynlarning o‘rtacha soni (dona).

Bu ko‘rsatkichlar yordamida, bitta traktorning ma’lum muddatda bajargan ish miqdori aniqlanadi.

Moddiy-texnika resurslaridan foydalanish samaradorligi – xo‘jalikda bajarilgan ishlarning (1 et.gektarning, 1 tonna km, 1 kVt soatning) tannarxini jami bajarilgan ish hajmiga nisbatidir.

$$Teg = \frac{\sum Mx}{\sum Jbih};$$

Bunda:

Teg – 1 etalon ga, tannarxi (so‘mda);

$\sum Mx$ – mexanizatsiya yordamida bajarilgan ishlarga qilingan jami xarajat (ming so‘m);

$\sum Jbih$ – jami bajarilgan ish hajmi (etalon ga).

Yangi texnika-texnologiyalarga qilingan investitsiyalarning samaradorligini aniqlashda investitsiyalarni joriy etish tufayli tejalgan xarajatlar hisobiga natijasida qo‘srimcha olingan sof foydani kiritilgan investitsiyalar summasiga taqsimlash yo‘li bilan aniqlanadi.

Yuqorida ko‘rsatilgan ko‘rsatkichlar orqali moddiy-texnika resurslari holati, darajasi, samaradorligi aniqlanib, tahlil qilinadi. Natijada ularga ta’sir etadigan omillar aniqlanib, kelajakda rivojlantirish chora-tadbirlari belgilanadi.

7.3. Fan - texnika taraqqiyoti va samarali texnologiyalar

Qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurslarining shakllantirilishi, rivojlantirilishi, ulardan samarali foydalanish masalalari fan-texnika taraqqiyotiga bevosita bog‘liq.

Fan-texnika taraqqiyoti deganda “Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti va menejmenti” fani bilan bog‘liq bo‘lgan barcha fanlarning rivojlanishi, taraqqiy topishi, bilimli, malakali kadrlar tayyorlash natijasida samarali yangi texnikalar yaratilishi, mavjudlari esa takomillashtirilishini nazarda tutish lozim.

Fan - texnika taraqqiyoti harakati – intellektual ong rivojlanishining mahsuludir. Buning uchun intellektuallarni tayyorlaydigan ta’lim, ixtirochilik tizimini yangi bosqichga ko‘tarishni taqozo etadi. Ular qishloq xo‘jaligi uchun zarur qulay bo‘lgan samarali mashina, traktor, mexanizm, uskunalar yaratish, mavjudlarini takomillashtirish, serhosil tezpishar ekin navlarini yaratish, sermahsul chorva zotlari, ilg‘or chet el texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishdan iborat.

Fan - texnika taraqqiyotining asosiy maqsadi – yangi, samarali qishloq xo‘jalik texnikalarini, ekologik talablarga javob beradigan kimyoviy vositalarni, yangi navlarni, zotlarni yaratish, mavjud vositalarni takomillashtirish, mehnatchining xarakterini o‘zgartirib, uning unumdoorligini oshirish, ishlab chiqariladigan mahsulotlar miqdorini ko‘paytirish, sifatini yaxshilash, ularni qayta ishlab, iste’molchilarga yetkazib berish orqali aholi, korxonalar va nihoyat davlatning iqtisodiyotini yuksaltirishdir.

Fan - texnika taraqqiyoti qishloq xo‘jaligida quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

- yangi yerlarni kompleks o‘zlashtirish, zax va sho‘rlangan yerkarning meliorativ holatini yaxshilash, sug‘orish vositalarni yaratish;
- tezpishar, kam suv talab etadigan, sifatli va serhosil urug‘ navlarini, sermahsul chorva mollrini yaratish;
- qishloq xo‘jalik ishlarini avtomatlashtirish, elektrlashtirish, kimyolashtirish hamda mexanizatsiyalashtirishni ta’minlaydigan vositalarni yaratish, mavjudlarini takomillashtirish;
- qishloq xo‘jaligiga servis xizmatlarini ko‘rsatish, mahsulotlarni qayta ishlash, sifatli saqlash, iste’molchilarga o‘z vaqtida yetkazib berish qobiliyatiga ega bo‘lgan tadbirkorlik subyektlarini shakllantirish;
- qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotini erkinlashtirilishini ta’minlovchi iqtisodiy mexanizmlarni yaratish va ularni hayotga izchillik bilan joriy etish;
- fan - texnika taraqqiyoti natijalarini qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining barcha sohalariga o‘z vaqtida joriy etish qobiliyatiga

ega bo‘lgan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, faoliyat ko‘rsatayotganlarini rag‘batlantirishni takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘lgan mexanizmlarni yaratish.

Fan - texnika taraqqiyotini shu yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshirilishi natijasida qishloq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan moddiy-texnika resurslarini yaratish, mavjudlarini esa takomillashtirishni ta’minlash bo‘yicha faoliyat yuritadi.

Fan - texnika taraqqiyoti natijasida moddiy-texnika resurslari, samarali texnologiyalar, ish jarayonlari belgilangan muddatda sifatlari bajarilishiga, mehnat unumдорligi oshishiga va xarajatlar kamayishiga olib keldi.

Gollandiyada yetishtirilgan kartoshka urug‘i ekilib, ularning texnikalari bilan ishlov berilib, yuqori hosil yig‘ishtirib olindi. Bu jarayonda mahalliy tajribalardan ham keng foydalanish natijada respublikada kartoshkachilik rivojlandi.

7.4. Yangi texnika va texnologiyalardan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini aniqlash

Fan-texnika taraqqiyoti ishlab chiqarishni intensivlash va uning samaradorligini oshirishning hal qiluvchi yo‘nalishlaridan biridir.

Qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishidagi texnika taraqqiyotining muhim yo‘nalishi bo‘lib, texnikani muntazam ravishda takomillashtirish, eskirgan texnikani yangi, tejamkor texnika bilan almashtirish, mashinalar, agregatlar va mexanizmlar quvvatini orttirish, ularni ishlash tezligini oshirish, moddiy mashinalardan yarim avtomat va avtomat mashinalar va liniyalarga, kompleks mexanizatsiyalashgan va avtomatlashgan sexlar va korxonalarga o‘tish yo‘lidan bormoqda.

Qishloq xo‘jaligida mahsulot ishlab chiqarish intensiv texnologiya asosida ishlab chiqarishga o‘tkazilmoqda, bu ishlab chiqarish samaradorligini oshishiga yordam beradi. Yangi texnologiyani ishlab chiqarishga joriy qilish natijasida iqtisodiy samaradorlikka erishilsa, bunday texnika va tenologiyalarni tezda amaliyatga joriy qilish kerak. Yangi texnika va texnologiyalardan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini quyidagi formula yordamida hisoblash mumkin:

$$Is = (B \times T) - (B \times C) \times Mh$$

Bunda:

Is - iqtisodiy samaradorlik, (foyda) so‘m;

B,T mahsulotning yangi texnikani qo'llashdagi "t" davridagi bahosi va tannarxi;

B,C – yangi texnikani qo'llashdan oldingi yalpi mahsulotning bahosi va tannarxi;

Mh – "t" davrdagi mahsulot hajmi.

Formuladan (B x T) > (B x S) bo'lganida yangi texnologiyani qo'llash qishloq xo'jaligi korxonasiga iqtisodiy samara berish tushuniladi.

Qisqacha xulosa

Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda moddiy resurslar orqali ta'minot va xizmatlar bajariladi. Moddiy - texnika resurslariga texnika, texnologiya, moddiy - texnika bilan xo'jaliklarni o'z vaqtida ta'minlash tushuniladi. Xo'jaliklarga eng zamonaviy texnikalar va texnologiyalar olib kirilib joriy etilmoqda. Ularni tabiiy va iqtisodiy resurslarga ajratib jalb etiladi. MTR bilan ta'minlash xo'jalikning moliyaviy holatidan kelib chiqib, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar shartnomaga asosida korxonalardan olish mumkin.

Fermer xo'jaliklarida MTR davlat buyurtmasi asosidagi mahsulotlarga limit orqali suv, o'g'it, yoqilg'i va urug'liklar beriladi. Bularni ko'paytirish uchun moliyaviy resurslarni ko'paytirish zarur. Moliyaviy resurslarni ishlatsizda MTR ning iqtisodiy ko'rsatkichlari asosida chuqur tahlil qilib, keyin foydalanish zarur.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda fan-texnika taraqqiyotining o'rni katta bo'lib, mahsulot yetishtirish, saqlash, qayta ishlash, sotish va ishlov berish bo'yicha yangi texnika va texnologiyalar yaratish va uni amaliyatga joriy qilishdan avval xo'jalikning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil etib o'rganishdan keyin amalga oshirish zarur.

Tayanch iboralar

Moddiy - texnika resurslari, moddiy - texnika bazasi, agrotexnika, mini texnikalar, tabiiy resurslar, iqtisodiy resurslar, texnologiyalar, energetik resurslar, mexanizatsiyalash, avtomatlashdirish, ta'minot, fan-texnika taraqqiyoti, kichik biznes, samaradorlik.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Qishloq xo'jaligiga moddiy-texnika resurslarining zaruriyati nimadan iborat?

2. Moddiy-texnika resurslariga qanday resusrlar kiradi?

- 3. Resusrlar bilan ta'minlanganlik va foydalanganlik darajasi qanday aniqlanadi?*
- 4. Fan-tehnika taraqqiyotini izohlab bering.*
- 5. Fan-tehnika taraqqiyotida qanday texnologiyalarni bilasiz?*

Asosiy adabiyotlar

- 1. Karimov I.A. "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'llida". –T.: O'zbekiston, 1995.*
- 2. Karimov I.A. "Dehqonchilik taraqqiyoti – farovonlik manbai". –T.: "O'zbekiston", 1993.*
- 3. Qishloqda ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish asoslari. –T.: "Ijod dunyosi", 2004, -318.*
- 4. Коваленко Я.Н. "Экономика сельского хозяйства". Москва: ЭКМОС, 1998.*
- 5. Abdug'aniyev A., Abdug'aniye A.A. "Qishloq xo'jaligi iqtisodi". –T.: 2004.*
- 6. Umurzoqov O'.P., Toshboyev A.J., Toshboev A.A. "Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. –T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008, -273.*
- 7. Фермер: сельское хозяйство, сельскохозяйственное оборудования, техника продаж... www.selhoz.net.ru*
- 8. ЛБР - сельскохозяйственная техника, комбайны, косилки, сеялки, запчасти к сельхозтехнике www.lbr.ru*

8-bob. QISHLOQ XO'JALIGIDA INVESTITSIYALAR

8.1. Investitsiya haqida tushuncha, uning mohiyati va ahamiyati

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda investitsiya faoliyati quyidagi yo'nalishlarda jismoniy shaxslar, fuqarolar, davlatga qarashli bo'limgan korxonalar, xo'jalik asotsiatsiyalari, jamoa va o'rtoqlik xo'jaliklari, jamoa mulkchiligi asosida tashkil etilgan tashkilotlar hamda boshqa yuridik shaxslar tomonidan; hukumatning ma'muriy boshqaruva boshqa ma'muriy bo'linma tashkilotlari, davlat korxonalari va muassasalari tomonidan, chet elliq jismoniy shaxslar, shaxsiy firmalar, asotsitsiayalari, kompaniyalari va boshqa yuridik shaxslari hamda boshqa davlatlar tomonidan; qo'shma ravishda mahalliy va chet el fuqarolari, yuridik shaxslar hamda davlat bilan hamkorlikda olib boriladi.

Bozor iqtisodi sharoitida investitsiyaning maqsadi yangi, samarali texnologiya hamda intellektual mulkni barpo etishga xizmat qiladi. Investitsiya mablag'lari doimiy va o'zgaruvchan kapitalni hamda intellektni barpo etish va ularni rivojlantirish uchun sarflanadi. Qishloq xo'jaligining asosiy vositalarini sotib olish, qurish hamda ularni kapital ta'mirlashga sarflansa, bu sarflar uzoq muddatga mo'ljallangandir. Ularni asosiy kapitalga sarflangan investitsiyalar deb ataladi. Bundan tashqari qishloq xo'jaligida investitsiyalar aylanma vositalariga ham sarflanadi. Investisiyalar qishloq xo'jaligini ishlab chiqarish vositalari barpo etish va ishga yaroqlilagini ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish vositalariga sarflanadigan barcha mablag'lar **investitsiyalar** deb ataladi. Ular qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasini yaratib, ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, kemyolashtirish, elektrlashtirish, irrigatsiya-melioratsiyalash natijasida sarf - xarajatlarni karmaytirib, mahsulotlar hajmini ko'paytirish va sifatini ýaxshilash orqali daromadni oshirishdan iboratdir.

Investitsiya mablag'laridan samarali soydalanishning tashkiliy, huquqiy asoslari yaratilib, O'zbekiston Respublikasining «Investitsiya

faoliyati to‘g‘risida»gi «Chet el investitsiyalari to‘g‘risida»gi (1998 y.) qonunlari qabul qilindi. Unda investitsiyalar maqsad va vazifalariga ko‘ra 3 ga bo‘linadi:

1. Kapital investitsiyalar, asosiy fondlarni barpo etishga, takror ishlab chiqarishga va moddiy ishlab chiqarishning barcha shakllarini rivojlantirishga sarflangan investitsiyalardir. **2. Innovatsiya investitsiyalari** deb, texnika, texnologiyalar, yangi avlodini yaratish va o‘zlashtirishga sarflangan investitsiyalarga aytildi. **3. Ijtimoiy investitsiyalar**, inson salohiyatini malakasini va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, moddiy iste’mollarning boshqa shakllarini rivojlantirishga sarflanadigan mablag‘lardir.

Investitsiyalar o‘z faoliyatiga qarab 2 ga bo‘linadi. Ular real hamda moliyaviy investitsiyalarga ham bo‘linadi. **1. Real investitsiyalar** moddiylashgan asosiy va aylanma vositalarga mablag‘lar. **2. Moliyaviy investitsiyalar** qimmatli qo‘zchlarni (aksiya, obligatsiya, veksel, sertifikat) shakllantirishga sarflangan mablag‘lar. Real investitsiyalarni kapital qo‘yilmalar, deb ham ataladi. Kapital qo‘yilmalar yalpi va sof kapital qo‘yilmalariga bo‘linadi. Real investitsiyalarning umumiyyatini summasi yalpi kapital qo‘yilmalarini tashkil etadi. Real investitsiyalarni sarflash natijasida ishga tushirilgan qismi sof kapital qo‘yilmalaridir. Sof kapital qo‘yılma yalpi kapital qo‘yılma summasiga teng yoki kam bo‘lishi mumkin. Qishloq xo‘jaligida yalpi kapital qo‘yilmani sof kapital qo‘yilmaga aylantirishga alohida e’tibor berilishi lozim. Sarflanayotgan real investitsiyalar moddiylashtirilishini, ya’ni ishga tushirilishini ta’minlash zarur.

Milliy hisoblar tizimida kapitalga hamda moddiy ishlab chiqarish vositalariga sarflangan mablag‘lar real investitsiyalar deb ham yuritiladi.

Kapital qo‘yilmalarning qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati yuqori bo‘lib, birinchidan, kapital qo‘yilmalar – jami xarajatlarning asosiy qismi hisoblanadi. Kapital qo‘yilmalardagi o‘zgarishlar jami talabga yetarlicha ta’sir ko‘rsatadi, shuningdek, aholining bandligi va yalpi milliy daromad (YAMD) hajmini ham o‘zgarishini ta’minlaydi.

Ikkinchidan, kapital qo‘yilmalar dehqonlarning asosiy fondlari jamg‘arilishiga, ya’ni ko‘payishiga olib keladi.

Uchinchidan, kapital qo‘yilmalarning noratsional sarf qilinishi ishlab chiqarish resurslari, xarajatlar o‘sishiga olib keladi, natijada YAMD qisqaradi.

Investitsiyalar (kapital qo'yilmalar) qishloq xo'jaligini har tomonlama rivojlantirib, moddiy - texnika bazasini mustahkamlaydi. Ulardan samarali foydalanish natijasida jonli mehnat xarajatlari qisqarib, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi ortib, sof foya summasi ko'payadi. Natijada qishloq xo'jaligini kengaytirilgan takror ishlab chiqarish asosida rivojlantirish imkoniyati kengayadi.

Qishloq xo'jaliklarining barcha investitsiyalari (kapital qo'yilmalar) ikkita manbadan: korxonaning o'z mablag'lardan va chetdan jalg qilingan mablag'lardan shakllanadi.

Xo'jalikning o'z mablag'lariiga quyidagilar kiradi:

- xo'jalikning sof foydasidan ajratilayotgan mablag'lar;
- amortizatsiya fondidagi mablag'lar;
- asosiy vositalarni tugatishdan, sotishdan kelib tushgan mablag'lar;
- chorva mollarini sotishdan tushgan mablag'lar;
- xo'jalikning qimmatli qog'ozlar sotish va sotib olishidan kelgan mablag'.

Chetdan jalg qilingan mablag'larga:

- qishloq xo'jaligiga davlat budgetidan ajratiladigan mablag'lar;
- hamkorlardan olinadigan mablag'lar;
- turli xil qarzlar va bank kreditlari;
- xo'jalik a'zolarining bo'sh mablag'larini jalg etish;
- xorijiy va shaxsiy korxonalar va fuqarolarning mablag'ları;
- xayriya homiyalar ajratayotgan mablag'ları va boshqalar.

Kapital kapital qurilishga va yangi texnikani joriy qilishda ishlatiladi. Kapital qo'yilmalarning asosiy vazifasi – tarmoq mahsulotini ko'paytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni ta'minlashdir.

Kapital - qishloq xo'jaligi moliyaviy natijalarining bir qismi bo'lib, aylanma fondlarga qo'yilib, daromad keltiradi. Kapitalning aylanma fondlarga qo'yilishi to'g'ri portfelli investitsiyalar orqali amalga oshiriladi.

Investitsiya qilishda qishloq xo'jaligi o'z mablag'lardan foydalanishi ikkita ustunlikka ega: qishloq xo'jaligida tashqi to'lovlar mavjud bo'lmaydi (olingan kreditlar bo'yicha foiz, aksiyalar bo'yicha dividendlar, ijara haqi va hokazo), shuningdek, qishloq xo'jaligini boshqarishda mustahkam pozitsiyani shakllantiradi.

Chetdan jalg etilayotgan investitsiyalar – chet davlatlarning, yuridik hamda jismoniy shaxslarning investitsiyalaridan tashkil topadi.

Xorijlik investorlar asosan daromad (foyda) olish maqsadida tadbirkorlik faoliyatini qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan obyektlariga qo'shadigan barcha turdag'i moddiy va nomoddiy boyliklar kiradi. Intellektual mulkka – chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad respublika hududida chet el investitsiyalari deb hisoblanadi. Ular O'zbekiston Respublikasi hududida quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

Fermer xo'jaligini boshqarishni takomillashtirishga va ishlab chiqarshini rivojlantirishga Jahon banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banklarining respublikadagi bo'limlari hamda AQSH, Germaniya, Isroil, Gollandiya, Fransiya va boshqa davlatlarning vakolatxonalari investitsiyalarni joylashtirish, sarflash bilan shug'ilanmoqda.

Qishloq xo'jaligida investitsiyalar quyidagi faoliyatda bo'ladi. Investitsiyalar – iqtisodiy va boshqa faoliyat obyektlariga kiritiladigan moddiy va nomoddiy ne'matlardir.

Investitsiya faoliyati – subyektlarining investitsiyalarini amalga oshirishi bilan bog'liq harakatlaridir.

Investor – o'z mablag'larini, qarzga olingan va jalb etilgan mablag'larini, mulkiy boyliklarni va ularga doir huquqlarni, shuningdek, intellektual mulkka doir huquqlarga ega investitsiya faoliyati subyekti hisoblanadi.

Investitsiya faoliyati ishtirokchisi – investorning buyurtmalarini bajaruvchi sifatida investitsiya faoliyatini ta'minlovchi investitsiya faoliyati subyektidir.

Reinvestitsiyalar – investor tomonidan kiritilgan investitsiyalarini boshqa davlatga yoki hududga berib yuborishdir.

8.2. Xorijiy investitsiyalarni jalb etish va undan foydalanish yo'llari

Respublika iqtisodiyotini rivojlantirishda yangi qishloq xo'jalik korxonalarini tashkil etish, mavjudlarini kengaytirish, qayta zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, texnik uskunalar, qurilish materiallari sotib olish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishslash, saqlash, realizatsiya qilish, yangi zamonaviy texnika, texnologiya, zavod, fabrikalarni sotib olish, bundan tashqari ishlab chiqarish sohasini rivojlantirish uchun uzlusiz moliyaviy

mablag'lar zarur bo'ladi. Bu mablag'lar sarmoya mablag'lar deb yuritiladi. Moliyaviy mablag'larni shakllantirish, xalq xo'jalik tarmoqlariga taqsimlash va ulardan samarali foydalanishni o'r ganish investitsiya siyosatining mohiyatini tashkil etadi.

Xalq xo'jaligini rivojlantirish uchun sarmoya mablag'larini tarmoqlarga, birlashmalarga, korxona va tashkilotlarga qaytarib berish sharti bilan beriladi. Asosiy kapitalga beriladigan investitsiyalar uchun pul mablag'lari hozirgi kunda quyidagi korxonalar tomonidan moliyalashtirilmoqda.

8.2. 1-jadval

Asosiy kapitalga investitsiyalarni moliyalashtirgan manbalar. (jamiga nisbatan % hisobida)

| | 2000 y | 2001 y | 2005 y | 2006 y | 2007 y |
|--|---------------|---------------|---------------|---------------|---------------|
| <i>Invetitsiya mablag'lari, mlrd. so'm</i> | 744,5 | 1320,9 | 1526,6 | 1978,1 | 2629,2 |
| <i>Jami</i> | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| <i>Davlat byudjeti</i> | 29,2 | 21,5 | 12,2 | 10,4 | 9,0 |
| <i>Korxonalarning o'z mablag'lari</i> | 27,1 | 31,0 | 46,0 | 48,4 | 47,6 |
| <i>Aholi mablag'lari</i> | 12,0 | 10,3 | 11,4 | 11,8 | 11,4 |
| <i>Hukumat kafolatidagi xorijiy investitsiyalar va kreditlar</i> | 23,2 | 28,0 | 21,7 | 18,5 | 22,8 |
| <i>Banklarning markazlashtirilgan kreditlari</i> | 6,9 | 8,1 | 3,5 | 3,7 | 5,0 |
| <i>Boshqa qarz mablag'lari</i> | 0,4 | 0,6 | 0,3 | 0,4 | - |
| <i>Nobyudjet jamg'armalar mablag'lari</i> | 1,2 | 0,5 | 4,8 | 6,8 | 6,1 |

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, asosiy kapitalga investitsiyalarni kiritishni moliyalashtirish manbalaridan davlat budgetida moliyalashtirish 2000 - yilda jami investitsyaning 29,2 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2005 - yilga 12,2 foizga kamayib, korxonalarning o'z mablag'lari 27,1-46,2 foizga oshdi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarning 3,4-14,9 foizga oshishi tadbirkorlarga chet el investitsiyalari bilan iqtisodiy hamkorlik qilishga hukumat tomonidan to'liq iqtisodiy, huquqiy kafolatlar berilganligi sabab bo'lmoqda.

Sarmoyaga muhtoj bo'lgan korxonalar soni asta-sekin kamayib, korxonalarning o'z mablag'lari ortib bormoqda. Davlat budgetidan

moliyalashtirish keskin kamaydi. Bu esa xo'jaliklarning iqtisodiy salohiyati yaxshilanganligidan dalolat beradi. Bu salohiyat xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida bir tekis rivojlantirilayotganligini va kiritilayotgan investitsiya mablag'lari qaysi tarmoqqa yo'naltirayotganligini quyidagi jadvaldan ko'ramiz.

8.2.2-jadval

Xalq xo'jalik tarmoqlariga kiritilgan asosiy kapitalga investitsiyalar (jamiga nisbatan % hisobida)

| | 2000 y | 2001 y | 2005 y | 2006 y | 2007 y |
|---------------------------|--------|--------|--------|--------|--------|
| Jami | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 |
| <i>Sanoat</i> | 29,7 | 38,9 | 32,6 | 34,3 | 36,8 |
| <i>Qishloq xo'jaligi</i> | 5,7 | 5,4 | 4,4 | 4,1 | 3,3 |
| <i>Qurilish</i> | 0,5 | 0,6 | 0,9 | 1,2 | 1,2 |
| <i>Transport va aloqa</i> | 16,7 | 14,0 | 24,1 | 21,9 | 22,8 |
| <i>Boshqa sohalar</i> | 47,4 | 41,1 | 38,0 | 38,5 | 35,9 |

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Asosiy kapitalga investitsiyalarning moliyalashtirilishi natijasida tarmoqlarga asosiy sarmoyalar kiritildi. Uning tarmoqlar bo'yicha holatini ko'rib chiqsak, ishlab chiqarishga 2000- yilda jami investitsiyaning 57,5 foizi berilgan bo'lsa, 2005 - yilda 67,4 foizi berildi. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishga esa 5,7-4,7 foizga kamaydi. Transport va aloqa hamda sanoatdag'i ulushi oshgan. Hukumatning asosiy e'tibori, avvalo, ishlab chiqarishni rivojlantirish, unda sanoatni, transport va aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi xalq xo'jaligini rivojlantirishi uchun ko'pgina xorijiy davlatlar hamda hamdo'stlik davlatlari, nufuzli banklar o'z sarmoyalarini kiritmoqda.

Halqaro moliya korporatsiyasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banklari, Osiyo «Krossroud 2 kredit kompaniyasi, O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki, O'zbekiston xususiyashtirish va investitsiyalar bo'yicha halqaro «O'zprivatbanki»

ABN AMRO bank, «Asaka» banki, aksiyadorlik-tijorat «Paxtabank», aksiyadorlik-tijorat «O'ztadbirkorbank» kabi qator moliya institutlari fermer xo'jaliklari loyihalarini moliyalash uchun qat'iy valutada kreditlar berishadi.

Halqaro moliya korporatsiyasi kreditlarni faqat milliy kompaniyalarga beradi va hozirgi paytda qo'shma korxonalarini tashkil etishga ko'proq e'tiborni qaratadi.

Shuningdek, halqaro moliya korporatsiyasi maslahat berishda va boshqa moliyalash manbalarini jalb etishda ishtirok etadi. Uning O'zbekistondagi strategiyasining muhim qismi xususiy sektor, tarkibiy yangilanishlar va xususiy lashtirish yo'nali shidagi aniq loyihalarini moliyalashtirishdan iborat.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Osiyo taraqqiyot banki tomonidan ochilgan kredit yo'nali shlari asosan Milliy bank va «Asaka» banki orqali amalga oshiriladi. Yaqin kunlarda ishlab chiqarishda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banking kredit yo'nali shlari aksiyadorlik tijorat «Paxtabank» orqali ochilishi kutilmoqda.

Kichik va o'rta biznes mezonlariga muvofiq keladigan xususiy, kichik, qo'shma, dehqon, fermer xo'jaliklari va aksiyadorlik jamiyatlari Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda Osiyo taraqqiyot banki kreditlarining oluvchilariga aylandilar.

Kredit yo'nali shlarning resurslaridan xorijiy uskunalar va texnologiyalarini xarid qilishni moliyalashtirish, qishloq xo'jalik mahsulotlari va mahalliy xomashyo resurslarini qayta ishlash, ishlab chiqilgan namunaviy yoki alohida loyihalar asosida eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar va halq iste'mol mollari ihlab chiqarishni ko'zda tutadigan investitsiya loyihalarini ta'minlash bilan bog'liq dastlabki ishchi kapitalini shakllantirish uchun foydalaniladi.

Zamonaviy investitsiya siyosatining muhim tamoyillaridan biri har turli kapitalni bir martalik imtiyozlar bilan jalb etishdan emas, barqaror va o'zaro manfaatli investitsiya tartibi hamda real kafolatlari berishdan iborat.

Hozirgi bosqichda halqaro xorijiy kapital harakatining shakllari turli - tuman bo'lgani holda bevosita xorijiy investitsiyalar ustuvor rol o'yaydi, binobarin, ular amalga oshiriladigan mexanizm va kanallar doimiy takomillashish hamda rivojlanish jarayonida bo'lib, jahon iqtisodiyotidagi tarkibiy yangilanishlar bilan birgalikda zamonaviy lashtiradi.

Zamonaviy jahon xo‘jaligi mintaqaviy va halqaro miqiyosda milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va faoliyat ko‘rsatishning yetarli darajada aniq qoidalarga ega. Tajriba shuni ko‘rsataiki, ularga oqilona rioya etilishi xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanishni ta’minlaydi va musobaqa tarzidagi raqobat tartibi muvaffaqiyatli faoliyat ko‘satishining garovi sanaladi.

8.3. Qishloq xo‘jaligida investitsiyadan foydalanishning samaradorlik ko‘rsatkichlari

Qishloq xo‘jaliklari mahsulot yetishtirish va xizmat ko‘rsatishni tashkil qilish uchun sarmoya sarf etadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida esa, har bir investor sarmoyasini sarflashdan oldin sarmoya sarflanadigan tadbir qanday natija berishini, uning iqtisodiy samarasini qanday bo‘lishini bilishni talab etadi. Qishloq xo‘jaligi ham sarflanadigan yoki yo‘naltiradigan kapital sarflarini, uzoq muddatga foydalilaniladigan vositalarni tashkil etishga qaratilgan mablag‘lar samarasini loyihalashtirish jarayonini ko‘zda tutadi.

Qishloq xo‘jaligi biron tadbirni amalga oshirish uchun tashqaridan mablag‘ jalb qiladigan bo‘lsa, tadbirni ifoda etuvchi loyihamda ko‘zda tilgan sarf-harajatlari iqtisodiy samaradorligi aniq hisoblangan bo‘lishi kerak. Bu loyihami texnik-iqtisodiy jihatdan asoslanganligini (TIA) ifodalovchisi hujjatda aks ettiriladi. Bu masalani hal qilishda kapital sarflar va investitsiyaning iqtisodiy samaradorligini aniqlash usulidan foydalaniadi.

Uzoq muddatga qilinadigan investitsiyaning mutlaq samaradorligi, qiyosiy eki nisbiy samaradorligi aniqlanadi.

Mutlaq samaradorligi qishloq xo‘jaligi sarf qilgan sarmoya natijasida qo‘shimcha natija, ya’ni sarf qilgan sarmoyaning bir birligiga olgan qo‘shimcha yalpi daromad va foyda bilan ifodalanadi. Qishloq xo‘jaligi bo‘yicha bu quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Ms = \frac{Fqo}{Io'q};$$

Bunda:

Ms – mutlaq samaradorlik;

Fqo – qo‘shimcha olingan foyda;

Io‘q – investitsiyaning o’sgan qismi.

Masalan, fermer xo'jaligi bozor iqtisodi talablari darajasida bo'lishini ta'minlash uchun kompleks tadbirlarni amalga oshirish xo'jalik foydasini har yili 8 mln. so'mga oshirish imkoniyatini beradi. Bunda sarf - harajatlarning samaradorlik koeffitsiyenti – 0,27 ni tashkil etadi.

$$S_k = \frac{8 \text{ mln}}{30 \text{ mln}} = 0,27$$

Investitsiya ayrim vositalalar va yo'naliishlar bo'yicha sarflanganda mutlaq samaradorlikni aniqlashda quyidagi formuladan foydalaniлади:

$$\text{Im } s = \frac{(I_1 - T) \cdot I_2}{I_0 \cdot q},$$

Bunda: I_1 – sarmoya sarflangunga qadar bo'lgan davrdagi mahsulot birligi;

T – sarmoyaning sarflangandan keyingi tannarx;

I_2 – sarmoya sarflanilishi natijasida olingan mahsulot yoki ish hajmi.

Masalan, fermer xo'jaligi sigirlaridan sut sog'ib olishni mexanizatsiyalash uchun sog'ish agregatlarini sotib olib o'rnatdi. Bu tadbirlarga 15 mln. so'm sarf - harajat qildi. Natijada 100 bosh sigirning har biri 3000 kg (30 sentner) sut beradigan, qo'lda sog'iladigan sigir mashinalar yordamida sog'iladigan bo'ldi. Sigirlar qo'lda sog'ilganda 1 sentner sut tannarxi – 1300 so'm bo'lgan bo'lsa, ularni mashinada sog'ish natijasida 1 sentner sut-tannarxi 1200 so'mni tashkil etdi. Shu tariqa har bir sentner sutni sog'ib olishdan – 100 so'm tejashta erishildi. Ma'lumotlarni yuqoridagi formulaga qo'yish orqali bu tadbiriga qilingan sarflar investitsiya iqtisodiy samaradorligini aniqlaymiz:

Bu tadbiriga qilingan sarf-harajat mutlaq samaradorlik koeffitsiyenti – 0,2 ga teng bo'ldi. Sarmoya sarflarining me'yoriy samaradorlik koeffitsiyenti – 0,14 so'mga teng. Endi sarf-harajatlarning samaradorligini yanada to'liqroq tushunish uchun ularni qoplash muddatini bilish kerak, ya'ni bu sarflar o'z qiymatini olingan qo'shimcha daromadlar bilan necha yilda qoplaydi? Sarf-harajatlarni qoplash muddati quyidagicha aniqlanadi:

Korxona bo'icha:

$$Qm = \frac{I}{F} = \frac{30000000}{8000000} = 3,7 \text{ yil}$$

Ayrim yo‘nalishlar:

$$M = \frac{I}{(YaM - T) \cdot 3000} = \frac{15}{3} = 5 \text{ yil}$$

Sarmoya turi bo‘yicha me’yori:

$$Sm = \frac{1,0}{0,14} = 7,14 \text{ yil}$$

Har ikkala tadbirda ham qoplash muddati me’yoriy muddatdan kam bo‘lganligi sarf-harajatning iqtisodiy samarali ekanligini ko‘rsatadi.

Qiyosiy eki nisbiy samaradorlik.

Bu usuldan biror - bir tadbirni bir necha yo‘lda amalga oshirish mumkin bo‘lgan taqdirda foydalananadi. Bu usulda iqtisodiy baho berishning asosiy mezoni eng kam harajat qilish hisoblanib, quyidagi formula bilan ifodalananadi:

$$QNs * Jx * Imd * I$$

Bunda: QNs - qiyosiy va nisbiy samaradorligi;

Jx - mahsulot yoki ish birligi uchun qoplangan joriy harajatlar;

Imd - kapital sarflar yoki investitsiyaning me’yoriy darajasi;

I - u yoki bu yo‘nalishdagi kapital sarflar yoki investitsiya.

Masalan, qishloq xo‘jaligi boshoqli don ekinlari hosilini o‘rib-yig‘ib oluvchi kombayn xarid qilmoqchi. Ishlab chiqarish omillari bozorida 3 xil rusumdag‘i kombayn mavjud bo‘lib, biri Rossiya Federatsiyasida ishlab chiqarilgan «Yenisey» kombayni, bahosi 16 mln. so‘mni, ikkinchisi AQSH da ishlab chiqarilgan «Keys» kombayni, bahosi 22 mln, uchinchisi Germaniyada ishlab chiqarilgan «KSA» kombayni, bahosi 19 mln.so‘m.

Kombaynlar pasportida ko‘rsatilagn texnik ma'lumotlarga ko‘ra mavsumda «Yenisey» - 600 tonna, «Keys» - 1200 tonna, «KSA» kombayni esa ~840 tonna boshoqli donni o‘rib-yig‘ib olishi mumkin.

Har bir rusumdag‘i kombayn bilan o‘rib-yig‘ib olishga ketgan joriy harajatlar 1 tonna hisobiga «Yenisey» kombaynida – 50 ming so‘mni, «Keys» kombaynida – 35 ming so‘mni, «KSA» kombaynida

– 40 ming so‘mni tashkil etgan. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarni nisbiy (taqqoslama) samaradorlikni aniqlash formulasiga qo‘yish orqali qaysi rusumdagি kombaynni sotib olish fermer xo‘jaligi uchun iqtisodiy samarali ekanligini aniqlaymiz:

«Yenisey» $50+0,16*26,6=54,2$ ming so‘m;

«Keys» $35+0,16*18,3=37,9$ ming so‘m;

«KSA» $40+0,16*22,6=43,6$ ming so‘m.

Hisoblardan ko‘rinib turibdiki; qishloq xo‘jaligi «Yenisey» rusumli kombaynni sotib olganda 1 tonna boshoqli donni o‘rib-yig‘ib olishga bir xillikka keltirilganda – 54,2 ming so‘m, «KSA» kombaynini xarid qilganda – 43,6 ming so‘m, «Keys» kombaynidan foydalanganda – 37,9 ming so‘m sarf qilgan bo‘lardi. Yoki «KSA» kombaynidan foydalangandan ko‘ra – 5,7 mingga «Yenisey» ga nisbatan esa – 16,3 ming so‘m kam sarf qilishga erishadi. Shuning uchun fermer xo‘jaligi «Keys» rusumli kombaynni sotib olgani ma’qul.

Qisqacha xulosa

Investitsiya qishloq xo‘jaligida kapital mablag‘ni to‘ldirish, intellektual mulkni barpo etish, ijtimoiy sohani rivojlantirishdan iborat. Investitsiya mablag‘lari o‘zgaruvchan bo‘lib, o‘z maqsad vazifalariga ko‘ra kapital, innovatsiya va ijtimoiy investitsiyalarga bo‘linadi. Bozor munosabatlari sharoitida investitsiya kirituvchi va undan foydalanuvchilarga to‘liq hukumat tomonidan huquqiy asoslar yaratib berilgan. Davlai ichidagi va chet el investitsiyalari uchun to‘liq iqtisodiy va huquqiy imkoniyatlar yaratilib yildan-yilga uning salmog‘i ortib bormoqda. Korxonalar o‘z mablag‘idan ko‘ra chetdan jalb etilgan investitsiya mablag‘laridan keng foydalanmoqda. Bu esa davlatning jahon bozoriga o‘z tovarlari bilan kirib borishga imkoniyat yaratmoqda.

Investitsiya mablag‘lari bilan ta‘minlash va investitsiyalarni ishlatalishi nazorat qilish bo‘yicha tashqi iqtisodiy vazirligida respublika investitsiyalardan samarali foydalanishning iqtisodiy ko‘rsatkichlari va uni tahlil qilish yo‘llari ham ishlab chiqilgan.

Tayanch iboralar

Investitsiya, intellektual, mablag‘, mulk, kapital, innovatsiya, ijtimoiy, moliyaviy investitsiya, sof kapital, real investitsiya, milliy hisob tizimi,

resurslar, chetdan jalb etilgan mablag', moliya korporatsiyasi, investor, reinvestitsiya, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, mutlaq samaradorlik, sarmoya, texnik iqtisodiy asoslash, biznes reja.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Investitsiya tushunchasi o'z ichiga nimalarni oladi?*
2. *Investitsiyaning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati nimada?*
3. *Investitsiya necha turga bo'linadi?*
4. *Qishloq xo'jaligida investitsiya kim tomonidan foydalaniladi?*
5. *Investitsiyadan foydalanishning iqtisodiy ko'rsatkichlarini izohlang.*

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadmiz". –T.: "O'qituvchi", 2000.
2. Karimov I.A. "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'liga". –T.: O'zbekiston, 1995.
3. Abdug'aniyev A., Abdug'aniye A.A. "Qishloq xo'jaligi iqtisodi". –T.: 2004.
4. Qishloqda ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish.
5. O'zbekiston iqtisodiyoti. Jurnal, 2006. 4-sor.

9.-bob. QISHLOQ XO‘JALIGINING ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASI VA UNDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

9.1. Ishlab chiqarish infratuzilmasining qishloq xo‘jaligida tutgan o‘rni

Infratuzilma (lotincha infra - quyi, struktura-joylashuv, tuzilish) - turli-tuman xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlar transport, aloqa, savdo, moddiy-texnika ta’mnoti, suv bilan ta’minlash, fan, ma’orif, sog‘liqni saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va boshqalarni o‘zi ichiga oladi.

Ma’lumki, ishlab chiqarish hajmi o‘sishi bilan qishloq xo‘jaligida moddiy-texnika resurlari, elektroenergiya, transport, aloqa vositalariga, mahsulotni saqlash joylariga bo‘lgan talab oshadi. Qishloq xo‘jaligining ta’mirlash – texnik, moddiy-texnika ta’mnoti, zooveterinariya, agrokimyo servis xizmati kabi xizmatlar darajasi o‘sadi. Bu jarayondan samarali foydalanish tarmoqlari va xizmatlari iqtisodiyotda infratuzilma deb yuritiladi.

Infratuzilma bu – iqtisodiy va ijtimoiy ishlab chiqarish uchun me’yoriy shart-sharoitlarni ta’minlovchi majmuadir. Majmua ishlab chiqarish uchun texnologik, iqtisodiy va tashkiliy aloqalarni samarali ishlashini ta’minlaydi. Infratuzilma fermer xo‘jaliklari mablag‘lari, mehnat resurslari, xizmat qiluvchi tuzilmalarning rivojlanishiga hissa qo’shamdi. Ular jumlasiga agrokimyo, zooveterinariya, axborot konsalting xizmatlariga katta e’tibor beriladi. Infratuzilma fermer xo‘jalik ishlab chiqarishini intensivlashtirish va samaradorligi o’sishining eng muhim omili hisoblanadi.

Qishloq xo‘jaliklarini sanoatlashtirish, kimyolashtirish, melioratsiya va ishlab chiqarishning boshqa asosiy omillarini tez sura’tda o’sishigiga mablag‘ resurslaridan samarali foydalanish tizimi tashkil etilishi hisobiga erishiladi. Bozor munosabatlari rivojlangan shart-sharoitda infratuzilmaning ahamiyati kattadir. Qishloq xo‘jaligi uchun material, resurslar, texnika bilan ta’minlovchi davlat tuzilmasi yo‘q.

Shuning uchun moddiy ishlab chiqarish infratuzlmaning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qilish faoliyati kamayib bormoqda. Infratuzilma ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Lekin, mahsulot ishlab chiqarmaydigan tarmoqlarda samaradorligini kamaytiradi. Infratuzilma qishloq xo'jaliklari uchun kadrlar tayyorlashga ham yordam beradi.

Infratuzilmaga kiradigan tarmoqlar ishlab chiqarish jarayoniga bir xilda ta'sir ko'rsatmasada, lekin ishlab chiqarishda o'ziga xos o'rinni egallaydi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarilishini industrlashtirish va ixtisoslashtirishning rivojlanib borishi natijasida qishloq xo'jalik korxonalarida moddiy resurslar bilan ta'minlanish, texnikani ta'mirlash va unga xizmat ko'rsatish, o'g'it solish, melioratsiya ishlarini bajarish, qishloq xo'jalik mahsulotlarini tashish, saqlash va qayta ishlash bo'yicha tarmoqlar vujudga keldi. Qishloq xo'jaligini barcha tarmoqlarini to'liq industrlashtirish, kompleks mexanizatsiyalash, elektrlashtirish va kimyolashtirish, fan-teknika taraqqiyotini jadallashtirish, melioratsiyalash ishlari amalga oshirilmoqda.

Qishloq xo'jaligi tarmoqlariga ko'p qirrali xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalarini rivojlantirib bozor iqtisodiyotiga mos quyidagi muammolar hal etilmoqda.

1. Tuproq unumdonorligini oshirish; 2. Seleksiya ishlarini tashkil etishni tubdan yaxshilash; 3. Har bir ekin o'z tabiatiga mos ravishda tegishli agrotexnologiyaga amal qilishini talab etadi; 4. Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muammolarini ko'rib chiqish.

Agrasohani zamонавиу yuqori samarali qishloq xo'jalik texnikasi bilan ta'minlash maqsadida (1998-2000 yillarda) aniq dastur ishlab chiqilib, uni amalga oshirildi. «KEYS» g'alla o'rish kombayinlari, «MAGNUM» haydov traktorlari olindi. Qishloq xo'jaligi mashinasozligi korxonalarida «KAMINS» firmasi dvigatellari bilan ishlaydigan traktorlar, «KEYS» firmasining haydov va paxta terish mashinalari, «MARAL» oziqa yig'ish kombaynlari, shuningdek, plug, g'alla ekish seyalkalari va ko'plab qishloq xo'jalik texnikalarini birligalikda ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Bu esa qishloq infratuzilmasini yaxshilash imkonini yaratdi.

Qishloq xo'jaliklariga agrotexnika xizmat ko'rsatishni yaxshilash, texnikalardan samarali foydalanish maqsadida, MTP - Muqobil

mashina - traktor parklari tuzildi. Bu parklarda barcha haydov traktorlarining 43%, don va sholi o'rish kombayinlarining 48%, bugungi kunda yer haydash bo'yicha 60% g'alla yig'ib olish bo'yicha 55% ishlarni bajarmoqda. Hozircha parklar qudratli kuchga aylangani yo'q. Shuning uchun mashina-traktor parklari tizimining faoliyatini yanada takomillashtirish, raqobat muhitini vujudga keltirishda servis xizmat ko'rsatish shohobchalarini tuzish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo'jaliklarida mahsulot yetishtirish samaradorligini oshirishda, infratuzilmalarni qayta bo'lib, fermer xo'jaligida xizmat ko'rsatuvchi infratuzilmalar faoliyatini yanada takomillashtirish zarur. Xizmatlar bozoridagi infratuzilmalar quyidagilardan iborat bo'lib: agorkimyo xizmati; seleksiya xizmatlari; urug'chilik; MTP xizmatlari; yoqilg'i - moylash va ehtiyyot qismlar bilan ta'minlash; transport xizmatlari; uskunalar lizingi; ulgurji birjalar; birjalar bozori; moliya-kredit tizimi va boshqalar.

Qishloq xo'jaliklarini rivojlantirish davlat dasturida infratuzilma tarmoqlarini yanada takomillashtirish, ular o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni chuqurlashtirish va kelgusida servis xizmatlarini yaxshilash orqali mahsulot hajmini oshirishga qaratilgandir.

9.2. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlarining rivojlanishi

Qishloq xo'jaligida islohotlar bozor tamoyillariga binoan bosqichma-bosqich o'tkazilib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida xususiy sektorning rivojlanishiga qulay imkoniyat va imtiyozlar yaratildi.

Qishloqda kichik, o'ita va yirik mulkchilik shakllarining faoliyati uchun qulay hamda ularga yaqin bo'lgan hududlarda ishlab chiqarish va bozor infratuzilma obyektlarining shakllantirilishi, birinchidan, qishloq xo'jalik korxonalarining bevosita ishlab chiqarish bilan mashg'ul bo'lishlariga imkoniyat yaratса, ikkinchidan, ular tomonidan yetishtirilayotgan mahsulot tannarxining arzonlashuviga olib keladi.

Infratuzilma tushunchasi so'nggi 5-10 yil mobaynida jamiyatda va umuman qishloq xo'jaligida ko'proq foydalilaniladigan bo'lib qoldi.

Vazirlar Mahkamasining 2003 - yil 30 - oktabrdagi "2004-2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"ga 476-sonli, 2004 - yil 24 dekabrdagi

“2005-2007 yillarda fermer xo‘jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 607-sonli qarorlarida istiqbolsiz shirkat xo‘jaliklari negizida tashkil etilgan fermer xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatuvchi, ularni moddiy-texnika resurslari bilan ta‘minlovchi infratuzilma obyektlarini tashkil etish belgilab berildi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilariga turli xizmatlar ko‘rsatuvchi infratuzilmalar tashkil etildi.

1. Muqobil mashina-traktor parki (Muqobil MTP) – qishloq xo‘jalik korxonalarida shartnoma asosida mexanizatsiya ishlarini amalga oshirish;

2. Suvdan foydalanuvchilar uyushmasi (SFU) qayta tashkil etilayotgan qishloq xo‘jaligi korxonalarini hududida o‘zaro suv xo‘jaligi munosabatlарини тартибга солишни та’минлаш;

3. Yonilg‘i-moylash materiallarini sotish shohobchasi (shohobcha) viloyat va tuman hokimlarining qarori hamda joylardagi neft baza unitar korxonalarining buyrug‘i asosida fermer xo‘jaliklariga aylantirilayotgan shirkatlarning yonilg‘i-moylash materiallari saqlanadigan ombori negizida fermerlarga xizmat ko‘rsatish;

4. Mineral o‘g‘it va o‘simliklarni himoya qilish vositalari sotish shohobchasi, hokimlar qarori hamda viloyat va tuman “Qishloqxo‘jalikkimyo” hududiy birlashmalarining buyrug‘i asosida fermer xo‘jaliklariga aylantirilayotgan shirkatlarning mineral o‘g‘it saqlanadigan ombori negizida fermerlarga xizmat ko‘rsatish;

5. Mini-bank fermerlarga, dehqonlarga, tadbirkorlarga yaqin hududlarda xizmat ko‘rsatish hamda moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirishda qulayliklar yaratish;

6. “Naslii mollarni sotish va zooveterinariya xizmati ko‘rsatish” shohobchasi, Respublika davlat veterinariya Bosh boshqarmasining litsenziyalash to‘g‘risidagi hujjatiga asosan chorvadorlarga xizmat ko‘rsatish;

7. Axborot ta‘minoti va konsalting shohobchalari joylarda tovar ishlab chiqaruvchilar palatasi, Davlat Mulk qo‘mitasining hududiy boshqarmalari va tuman qishloq va suv xo‘jaligi bo‘limlari hamkorligida ushbu sohada qulaylik yaratish;

8. Qishloq xo‘jalik mahsulotlari tayyorlov tarmoqlari shohobchalarini mahalliy hokimliklar tomonidan yetishtirilgan mahsulotni sotish maqsadlarida tashkil etish va ularni kelgusida rivojlantirish dasturlari tuzilgan.

Istiqbolsiz shirkat xo‘jaliklari o‘rnida tashkil etilayotgan fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini tashkil etish hukumat tomonidan belgilab berilgan.

9.3. Qishloq xo‘jaligida infratuzilmani rivojlanishi

Respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan fermerlar soni va uning ekin maydonlari hajmi tez sur’atlarda o‘sib bormoqda. Bunday vaziyatda davlat mulki bo‘lgan yerdan oqilonqa va samarali foydalanishning yanada ixcham, samarali va fermer xo‘jaliklari uchun qulay bo‘lgan usullarini topish va amaliyotga joriy etishni talab etmoqda. Buning uchun, birinchi navbatda, fermer xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilmalar faoliyatini rivojlantirish lozim bo‘ladi.

Fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasining asosiy mohiyati har bir fermer faoliyatidagi infratuzilmani rivojlantirish ustuvor vazifa bo‘lib, uni rivojlantirish to‘g‘risida katta ijobiy ishlar olib borilmoqda. Fermerlarga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilma faoliyatida ham katta o‘zgarishlar yuz bermoqda.

9.3. I-jadval

Fermer xo‘jaliklariga xizmat ko‘rsatuvchi infratuzilma ko‘rsatkichlari tahlili

| | 2002 yilda | 2003 yilda | 2004 yilda | 2005 yilda | 2006 yilda | | Jami |
|---|---------------|---------------|---------------|---------------|--------------------|----------------------|------|
| | | | | | Dastur bo‘yicha | Amalda 27.12.2005 | |
| Mini banklar | 141 | 105 | 196 | 260 | 190 | 105 | 922 |
| Muqqobil MTP lar | 129 | 168 | 282 | 402 | 420 | 0 | 1401 |
| Mineral o‘g‘itlar sotish shoxobchalari | 128 | 135 | 208 | 168 | 198 | 71 | 837 |
| Neft mahsulotlari sotish shoxobchalari | 140 | 138 | 236 | 321 | 280 | 62 | 1115 |
| Suvdan foydalanuvchilar uyushmalari | 141 | 152 | 223 | 379 | 294 | 0 | 1189 |
| Qishloq xo‘jalik mahsulotlari sotish shoxobchalari | - | - | 88 | 136 | 85 | 55 | 309 |
| Chorva mollari sotish va zooveterinariya xizmati ko‘rsatish shoxobchalari | - | - | 91 | 116 | 130 | 104 | 337 |
| Axborot ta‘minoti va konsalting xizmati ko‘rsatish shoxobchalari | - | - | 60 | 102 | 85 | 55 | 247 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, 2002-2005 yillarda mini banklar soni 922 taga, muqobil MTP lar 1401 taga, Suvdan foydalanuvchilar uyushmasi 1189 taga yetdi. Ushbu infratuzilma fermer xo'jaliklar faoliyatini yaxshilashga zamin yaratadi. Sarf- xarajatlar keskin kamayib, mahsulot hajmi ortadi. Biz fermer xo'jaliklarini rivojlantirishda infratuzilma, ya'ni xizmat ko'rsatuvchi korxonalarini qo'llab-quvvatlash, zamnaviy ish usullaridan foydalaniш sifatli va arzon mahsulot yetishtirishdan iborat bo'ladi.

2000-2005 - yillarda respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan dehqon va fermer xo'jaliklariga turli servis xizmatlari ko'rsatuvchi 702 ta mini banklar, 835 ta yoqilg'i, 639 ta mineral o'g'itlar va kimyoviy vositalar sotish shohobchalari, 891 ta muqobil MTP lar, 895 ta suvdan foydalanuvchilar uyushmalari, 136 ta qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish, 207 ta chorva mollarini sotish va zooveterinariya xizmati ko'rsatish va 162 ta axborot ta'minoti va konsalting xizmati ko'rsatish shohobchalari tashkil etildi. Lekin, fermer xo'jaliklariga ko'rsatilayotgan xizmatlar to'liq talabga javob bermaydi, chunki 2004 - yilda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiya dasturida belgilanganiga nisbatan 8 ta neft mahsulotlari sotish, 10 ta mineral o'g'it sotish, 10 ta muqobil MTP, 33 ta SFU, 11 ta qishloq xo'jalik mahsulotlarini sotish, 1 ta konsalting va axborot xizmati ko'rsatuvchi shohobchalar tashkil etilmasdan qoldi. Fermer xo'jaliklari bilan xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar o'rtasida tuzilgan shartnoma shartlari to'liq bajarilmasdan qolmoqda. Masalan, 2004 - yil yakunida fermer xo'jaliklari yoqilg'isi 10,3 ming tonna, mineral o'g'itlar, 14,1 ming tonna paxta shroti va 16,8 ming tonna sheluxa sotib olingan bo'lsa, fermerlar birjalar orqali sotib olgan yoqilg'i va moylash materiallari, mineral o'g'itlar ta'minot bozorlari tomonidan o'z vaqtida bajarilmay qoldi. Oqibatida birja xizmati uchun to'langan mablag'lariga, agroteknik tadbirlarni o'z vaqtida bajarilmaslikka olib kelib, fermer faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun fermerlar xo'jaliklari 2004 - yilda 9000 dan ortiq fermer xo'jaliklari davlatga don sotish bo'yicha shartnomaviy rejani bajara olmadilar. Ular tomonidan 90,7 ming tonna don topshirilmasdan qolgan. Shartnomani bajarmagan fermerlardan xo'jalik sudsari orqali 3 mlrd. 274 mln.so'mlik zarar undirildi. Fermerlar tomonidan ixtiyoriy ravishda 20 ming tonna don va 632 mln.so'm mablag'lar topshirildi. Umuman don topshirmagan 289 ta fermerning yer ijara shartnomasi bekor qilindi. Joriy yil hosili uchun 62 mingga yaqin fermerlar 1805 ming tonna paxta xomashyosini sotish uchun shartnoma tuzgan bo'lsa,

shartnoma rejasini ortig'i bilan bajardilar. Ular tomonidan sotilgan mahsulot xomashyo miqdori 1773 ming tonnani tashkil etgan. Ammo 13,5 ming ta shartnoma rejasini bajara olmagan. 333 ta fermerlarning 11 ming gektar yer ijara shartnomasi o'z arizalariga asosan bekor qilindi.

Suvdan foydalanuvchilar uyushmalari (SFU) moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, uchun fermer va dehqon xo'jaliklariga ko'rsatilgan xizmatlar uchun mablag' shakllanishi ko'zda tutilgan. 2004 - yilda SFU lar tomonidan 17788 ta 4848 mln.so'mlik shartnomalar xizmat ko'rsatish uchun tuzilgan bo'lib, ularning 15208 tasiga 1576 mln.so'mlik yoki 48 foiz xizmat ko'rsatilgan. Shartnomani bajarilmasligiga asosiy sabab, SFU larning moddiy-texnika bazasi shakllanmaganligi va malakali mutaxassislar jalb etilmaganligidir. Fermer xo'jaliklari faoliyatidagi infratuzilmalarni rivojlantirish fermer xo'jaliklarini rivojlanish konsepsiyasiga binoan olib borilishini tashkil etishdan iborat.

9.4. Infratuzilma xizmatidan foydalanish samaradorligi

Respublika qishloq xo'jaligini rivojlantirishda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar barcha mulkchilik shakllarida izhil amalga oshirilib, qishloqda haqiqiy mulkdorlarning iqtisodiy salohiyati yaxshilanmoqda. Bunda, avvalo, islohotlarning to'g'ri olib borilganligi, qishloqda mulkchilikka asoslangan subyektlarning shakllanishi, mahsulot ishlab chiqaruvchilarga qishloq xo'jalik infratuzilmasi obyektlarini bosqichmabosqich tashkil etilishi sababdir.

Qishloq xo'jaligida bozor infratuzilmasi – savdo-soti q korxonalar, birjalar, auksionlar, tashqi savdo firmalari, banklar, investitsion kompaniyalar, auditorlik kompaniyalari, axborot-maslahat markazlari, sug'urta kompaniyalari orqali faoliyat yuritadi. Ishlab chiqarish infratuzilmasi esa mahsulot ishlab chiqarish uchun moddiy ta'minot va servis xizmat ko'rsatishdan iborat. Ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda barcha hududlarda shu tarmoqni rivojlantirish uchun uning obyektlari tashkil etildi va uni moddiy-texnika, moliyaviy mablag' bilan ta'minlash muammolari hududlarda tezkor hal etildi. Bu mablag'larning sarflanishi obyektlar ochilishiga bog'liq. Obyektlar esa tovar ishlab chiqaruvchi subyektlar soniga qarab rivojlanmoqda.

Shuning hisobiga fermer va dehqon xo'jaliklari soni va mahsulot yetishtirish hajmi ortib bormoqda. Xo'jalik rahbarlari asosiy e'tiborni

mahsulot yetishtirish hajmini oshirishga va uni qimmat bahoda sotishga, unga sarflanayotgan xarajatlarni kamaytirishga e'tiborni qaratgan. Sarf-xarajatlarning asosiy salmog'i ishlab chiqarish infratuzilmasi zimmasiga to'g'ri keladi. Shuning uchun xo'jaliklarga xizmat ko'rsatayotgan infratuzilma obyektlari faoliyatidan samarali foydalanish zarur. Bu esa, o'z navbatida, mulkdorga mahsulot yetishtirish samaradorligini oshirish imkoniyatini oshiradi.

Angor tuman xo'jaliklarida paxta yetishtirish tannarxi turlicha bo'lib, unga servis xizmat ko'rsatish tarmoqlari ko'rsatgan servis xizmati hajmiga qarab turlichadir, masalan, "Qorasuv" shirkat xo'jaligida 1s paxtaning tannarxi 22,4 so'm bo'lgan bo'lsa, sotish bahosi 24,8 so'm yoki sof foyda 2,40 so'mni, rentabelligi 10,7 foizni tashkil etdi. 2004 yilda paxta yetishtirish bo'yicha 10,7 foiz rentabellikka erishgan bo'lsa, bug'doy yetishtirishda 24,6 foizni tashkil etdi. Demak, qishloq xo'jalik korxonalarida mahsulot yetishtirishda ishlab chiqarish infratuzilma obyektlarini to'g'ri tashkil etish va uning faoliyatini yaxshilashdan iborat.

Qisqacha xulosa

Respublika qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish infratuzilmasi korxonalariga, xo'jaliklarga moddiy ta'minot, servis xizmat ko'rsatish va boshqa ko'plab tarmoqlarni o'z ichiga oladi. Infratuzilma qishloq xo'jaligi uchun iqtisodiy va ijtimoiy ishlab chiqarish uchun me'yoriy shart-sharoitni ta'minlovchi majmua bo'lib, ishlab chiqarishni intensivlashdiradi.

Hukumat tomonidan farmer xo'jaligida ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish to'g'risida konsepsiya ishlab chiqilib, joylarda ularni tashkil etish jadal olib borilmoqda. Infratuzilma obyektlari bilan qishloq xo'jaligi o'rtaqidagi iqtisodiy munosabatlар takomillashib, mahsulot yetishtirishda samarali faoliyat ko'rsatmoqda. Ayrim hududlarda farmerlarga yetarli darajada infratuzilma tuzilmasi faoliyat ko'rsatmay kelmoqda. Bunga // zamona viy texnika, texnologiya, bino, inshootlar hamda malakali kadrlar yetishmasligi ham sabab bo'lmogda. Shuning uchun ishlab chiqarish infratuzilma sohasini rivojlantirishga asosiy e'tiborni berib, undagi ishlab chiqarish va iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish zarur.

Tayanch iboralar

Infratuzilma, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, servis xizmat, moddiy ishlab chiqarish, bozor infratuzilmasi, raqobat muhiti, seleksiya, agrokimyo xizmati, birjalar, infratuzilma obyekti, moliyaviy mablag'.

**Angor tuman xo'jaliklarida paxta tannarxida texnik servis
xizmat ko'rsatuvchilar ulushi**

46

| Ko'rsatkichlar | “Qorasuv” shirkat xo'jaligi | | Tallimaron shirkat xo'jaligi | | Farqi | | T.Himmatov fermer xo'jaligi | | I.Valiv fermer xo'jaligi | | Farqi | |
|-------------------|-----------------------------|------|------------------------------|-------|-------|-------|-----------------------------|-------|--------------------------|-------|-------|-------------|
| | Ming so'm | % | Ming so'm | % | (+;-) | % | Ming so'm | % | Ming so'm | % | (+;-) | % |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 |
| Paxta xon ashyosi | Is mahsulot tannarxi | 22.4 | 100 | 25,6 | 100 | +3,2 | 114.3 | 21,3 | 100 | 20.1 | 100 | -1,2 94,4 |
| | SH.j.-texnikaviy xizmatlar | 1,6 | 7.2 | 3,4 | 13,4 | +1,8 | 212.5 | 2,4 | 11.5 | 1,1 | 5.4 | -1,3 45,8 |
| | agrokimyo viy xizmatlar | 0,3 | 1,2 | 0,2 | 0,9 | -0,1 | 66,6 | 0,4 | 2,1 | 0,5 | 2,4 | +0,1 125 |
| | YOMM uchun xarajat | 3,0 | 13,5 | 4,04 | 15,8 | +1,04 | 134.6 | 2,3 | 10,8 | 3,2 | 15,9 | +0,9 139,1 |
| | axborot-maslahat xizmatlari | 0,1 | 0,5 | 0,08 | 0,3 | -0,02 | 80,0 | 0,09 | 0,4 | 0,12 | 0,6 | +0,03 133,3 |
| | SFU xizmatlari | 0,04 | 0,2 | 0,05 | 0,2 | +0,01 | 125 | 0,04 | 0,2 | 0,04 | 0,2 | - - |
| | transport xizmatlari | 1,26 | 5,6 | 1,5 | 5,9 | +0,24 | 119 | 1,34 | 6,3 | 0,9 | 4,7 | -0,44 67,1 |
| | boshqa xarajatlar | 16,1 | 71,8 | 16,33 | 63,5 | +0,23 | 101,4 | 14,63 | 68,7 | 14,24 | 70,8 | -0,39 97,3 |
| | Is mahsulotni sotish bahosi | 24,8 | X | 23,8 | X | -1,0 | 95,9 | 23,6 | X | 24,9 | X | +1,9 105,5 |
| | Foya (zarar)x | 2,4 | X | -1,8 | X | -4,2 | X | 2,3 | X | 4,8 | X | +2,5 208,7 |
| | Rentabellik | 10,7 | X | -7 | X | -17,7 | X | 10,8 | X | 23,9 | X | +13,1 221,3 |

| | 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 |
|---------|---|-------|------|------|------|-------|-------|------|------|------|------|-------|-------|
| Bug'doy | Is mahsulot tannarxi | 11,4 | 100 | 7,1 | 100 | -4,3 | 62,3 | 6,9 | 100 | 7,2 | 100 | +0,3 | 104,3 |
| | SH.j.-texnikaviy xizmatlar | 3,4 | 29,6 | 1,5 | 21,5 | -1,9 | 44,1 | 1,6 | 23,5 | 1,6 | 22,6 | +- | 100 |
| | mineral o'g'itlar va agrokimyoviy xizmatlar | 1,2 | 10,5 | 1,2 | 16,8 | - | 100 | 1,02 | 14,8 | 0,8 | 11,4 | -0,22 | 78,4 |
| | YOMM uchun xarajat | 0,9 | 7,9 | 0,95 | 13,4 | 0,05 | 105,5 | 0,6 | 8,4 | 0,6 | 7,6 | +- | 100 |
| | axborot-maslahat xizmatlari | - | - | 0,04 | 0,5 | +0,04 | X | 0,03 | 0,4 | 0,04 | 0,6 | +0,01 | 133,3 |
| | SFU xizmatlari | 0,05 | 0,4 | 0,04 | 0,5 | -0,01 | 80,0 | 0,03 | 0,5 | 0,03 | 0,4 | +- | 100 |
| | transport xizmatlari | 1,85 | 16,5 | 1,27 | 17,2 | -0,58 | 68,8 | 1,0 | 14,5 | 0,73 | 10,2 | -0,27 | 73,0 |
| | boshqa xarajatlar | 4,0 | 35,1 | 2,1 | 30,1 | -1,9 | 52,5 | 2,62 | 37,9 | 3,4 | 47,2 | +0,78 | 129,8 |
| | Is mahsulotni sotish bahosi | 8,6 | X | 7,5 | X | -1,1 | 87,2 | 8,1 | X | 7,5 | X | -0,6 | 92,6 |
| | Foyda (zarar) | -2,8 | X | 0,4 | X | 3,2 | X | 1,2 | X | 0,3 | X | -0,9 | 25,0 |
| | Rentabellik | -24,6 | X | 5,6 | X | 30,2 | X | 17,4 | X | 4,2 | X | -13,2 | 241,4 |

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Qishloq xo'jaligida infratuzilma deganda nimani tushunasiz?*
2. *Servis xizmatlarini tashkil etish zaruriyati nimada?*
3. *Infratuzilnani rivojlantirish tadbirlarini izohlang.*
4. *Qishloq xo'jaligida qanday servis xizmatlari mavjud?*
5. *Servis xizmatidan foydalanish samaradorligi qanday aniqlanadi?*

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. “*Qishloq xo'jaligi taraqqiyoti - to'kin hayot manbai*”. –T.: “O'zbekiston”, 1998.
2. *O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 - yil 24 - dekabrdagi 607-sonli “2005-2007 yillarda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori.*
3. Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A, “*Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti*”. –T.: “TDIU”, 2004.
4. Xusanov R.H., Hamdamov A.N., Rafiqov I.E. “*Qishloq xo'jaligida servis xizmati muqobil mashina-traktor parklarini rivojlantirish masalalari*”. –T.: “Yangi asr avlod”, 2001, -124 b.
5. Тошибоев А.Ж. “Повышение эффективности агрохимического обслуживания в хлопкосеющих хозяйствах”. –Т.: “Мекнам”, 1991, 154 б.
6. Umurzoqov O'.P., Toshboyev A.J., Toshboev A.A. “*Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti*”. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008, -273.
7. Фермер: сельское хозяйство, сельскохозяйственное оборудование, техника продаж... www.selhoz.net.ru
8. Приамурский Институт Агроэкономики и Бизнеса www.admin.ru
9. Московская сельскохозяйственная академия. www.ecfak.timacad.ru

10.-bob. MASHINA-TRAKTOR PARKI (HOVLI) SERVIS XIZMATIDAN FOYDALANISH IQTISODIYOTI

10.1. Qishloq xo'jaligida mashina-traktor parkining vazifasi

Qishloq xo'jalik subyektlarida mashina-traktor parki barcha mexanizatsiya yordamida bajariladigan ishlarni bajarishdan iborat.

Xo'jalikda traktor va qishloq xo'jalik mashinalariga bo'lgan talab yerning – iqlim sharoitiga, xo'jalikning yo'nalishiga, dehqonchilik va chovachilikdagi mahsulot ishlab chiqarish hajmiga va ish jarayonlarining mexanizatsiyalash holatiga, texnologik jarayoniga asoslanib aniqlanadi.

Mashina-traktor parkidan (MTP) foydalanishda shirkat xo'jaliklari uyushmasining biznes rejasи, fermerlarning texnologik kartalari, ekin maydonlari va ularning tarkibi, haydaladigan yerlar, mollar va parrandalarning soni, melioratsiya va irrigatsiya ishlarining hajmi, o'g'itlash, yuklarni tashishda foydalaniladi.

MTP xo'jalik hisobi usulida faoliyat ko'rsatadi. MTP ning tashkiliy tuzilmasi traktor, avtomobil, kombayn va qishloq xo'jalik mashinalari parklari, ta'mirlash ustaxonasi, diagnostika markazi, texnikalarni saqlash omborlari, ta'minot, yoqilg'i quyish bo'limi, dispecherlik xizmati va hokazolardan iboratdir. MTP da boshqarish bosh muhandis tomonidan olib boriladi. Ish hajmi bilan ta'minlashni bosh hosilot olib boradi.

Moddiy—texnika resurslari asosiy va aylanma kapital (fond) ko'rinishida amalga oshiriladi. Agrar sohada moddiy - texnika resurslari asosan MTP yordamida foydalaniladi, xo'jaliklar bilan MTP o'rtaida tuzilgan shartnomalar asosida faoliyat yuritadi.

Respublika agrar sohasida texnikalardan samarali foydalanish maqsadida chet el tadbirkorlari bilan hamkorlikda texnika vositalari ishlab chiqarish, servis xizmatlari ko'rsatish, ta'mirlash, lizing asosida katta ishlar qilindi. Masalan, «O'zagromashservis» uyushmasini tarkibida 184 ta MTP mayjud bo'lib, unda 5500 ta fizik markadagi traktorlar («Magnum—7240», «Magnum—8940», «Keys—2166», «Keys—2366», «Marol—125») faoliyat ko'rsatmoqda. Ular 2002 - yili 5,5 milliard so'mlik ish bajardilar. Bu birlashmada 78 ta

ixtisoslashtirilgan ustaxona, 97 ta umumiy ta'mirlash, 180 ta texnik moy almashtirish punktlari bo'lib, ustaxonalarda har yili 13330 dona traktor, 3380 dona haydov traktori, 9950 dona g'ildirakli traktorlar, 3458 dona g'alla o'rim kombaynlari va boshqa turdag'i qishloq xo'jalik texnikalari ta'mirlab chiqariladi. Ustaxonalarda 7,1 milliard so'mlik ta'mirlash ishlari bajarildi.

Qishloq xo'jaligida texnikadan unumli foydalanish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 - yil 24-martdag'i «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish—texnika xizmatini ko'rsatish sohasida shartnomaviy munosabatlarini rivojlantirish chora-tadbirlar to'g'risida»gi 152-sonli qaroriga asosan «O'zqishxo'jta'minotta'mir» davlat kooperativ qo'mitasi hozirgi «O'zagromashservis» davlat aksiyadorlik jamiyati (DAJ) tizimida Mashina-traktor parklari tashkil etildi.

Tugatilayotgan shirkat xo'jaliklari MTP si o'mida muqobil MTP tashkil etildi.

10.2. Texnika — ta'mirlash xizmatini tashkil etish

Texnikani eskirgan, ishdan chiqqan qismlarini almashtirish, yangilash va ta'mirlash texnikadan foydalanuvchilar uchun qo'shimcha mehnat va moddii resurslar, ehtiyoj qismlar, ta'mirlash materiallari, binolar, asbob—uskunalar va boshqa turdag'i xarajatlarni talab etadi. Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan texnika va qishloq xo'jalik mashinalarini tiklash maqsadida texnika-ta'mirlash xizmat ko'rsatish korxonalari tashkil etildi.

Texnika-ta'mirlash xizmati bazasi obyektiga: xo'jaliklarning markaziy ta'mirlash ustaxonasi; avtomobil saroyi; mashinalar hovlisi; neft omborlari; benzin quyish joylari; harakatdag'i texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash avtomashinasini ustaxonalari; MTP qoshidagi texnik xizmat ko'rsatish punktlari; chorva fermalariga texnik xizmat ko'rsatish punktlari; umum xizmatlar ko'rsatish texnik stansiyalari; traktorlarga va chorvachilik texnikasiga texnik xizmat ko'rsatish stansiyalari; kombayn va boshqa murakkab mashinalarni ta'mirlash sexi, ta'mirlash zavodlari; murakkab turdag'i texnikalarni kapital ta'mirlashga ixtisoslashgan ustaxonalar va sexlar; yoyilgan detallarni qayta aniqlash ustaxonalaridan tashkil topadi. Bu texnika-ta'mirlash xizmati bazasi o'z xizmat qilish doirasiga ko'ra uch

bosqichga; korxona, tuman va viloyat mashina-traktor birlashmalariga bo‘ysunadi.

Masalan, xo‘jalikning markazlashgan ta’mirlash ustaxonasi xo‘jalikka; (Shirkat xo‘jaligi), avtomobilarning texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari-tumanga, ta’mirlash zavodlari esa viloyat, yoki yirik birlashmalarga bo‘ysunadi.

Texnika-ta’mirlash xizmatlari ko‘rsatish bazasining asosiy vazifalari – barcha markadagi qishloq xo‘jalik mashinalarini yil mobaynida har qanday sharoitda ham qishloq xo‘jalik ishlarini bajara olish qobiliyati jihatidan shay turish, texnika holatida yuz bergen har qanday kamchiliklar, nosozliklarni oldini olish va tuzatish, ularga qisqa muddatida texnik servis xizmatlarini ko‘rsatishdir.

Qishloq xo‘jalik mashinalari ishlab chiqaruvchi korxonalar, servis xizmatini jahon andozasiga mos holda bajara oladigan, ta’mirlash ishlarini talab darajasida amalga oshira oladigan ustaxonalar barpo etish, zamonaviy asbob-uskunalar, ehtiyoq qismlar, detallar va boshqa xomashyo resurslari va mutaxassis ish kuchi bilan ta’mirlash zarurligini hisobga olib, Respublikada «O‘zqishloqxo‘jalikta’mir» davlat kooperativ qo‘mitasi tizimi tashkil etildi.

«O‘zqishloqxo‘jalikta’mir» davlat kooperativ qo‘mitasi tizimining asosiy vazifasi qishloq xo‘jaligini moddiy bazasini yaratish, uni hozirgi zamon bozor talabiga moslash, ish faoliyatini tashkil etish, qishloq xo‘jaligidagi texnik vositalardan unumli foydalanishda hali o‘z yechimini topolmagan masalalar va muammolarni hal qilishdir.

Respublikada barcha turdag'i texnika servis vositalariga egalik qilish huquqi tuman hissadorlik MTP lari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi «Agroxorijtexnika» jamiyati qishloq va suv xo‘jaligi vazirligiga qarashli Xorazm viloyati texnik markaziga berilgan bo‘lib ular shirkat, fermer xo‘jaliklari hamda barcha tumanlardagi muqobil MTP larga xizmat ko‘rsatadilar. Ular bu texnikalardan faqat foydalanibgina qolmasdan ularga servis xizmatlari ko‘rsatish hamda barcha turdag'i ta’mirlash ishlarini ham olib boradilar.

Hozirgi vaqtida yangidan tashkil etilayotgan fermer xo‘jaliklariga 6967 ta traktor, 152 ta don o‘rish va yanchish kombayinlari, 316 ta pichan o‘rvuchi kosilkalarga, 3117 ta har xil qishloq xo‘jalik mashinalari, 328 ta yuk hamda 4300 ta yengil avtomashinalar sotib olindi. Fermer xo‘jaliklari texnikaga ega bo‘lishida lizing usuli qo‘l kelmoqda.

Ishlab chiqarilgan texnikani zavod tomonidan uni foydalanuvchilarga (sotib oluvchilarga) sotishni «O'zselxozmashholding» kompaniyasi, «O'zkeys mash», «O'zkeystraktor», «TashximDegapiya» qo'shma korxonalarini «Keys Nyu-Xolland» texnika sotib oluvchi kompaniya «O'zel'xozlizing» kompaniyalari bajaradi.

10.3. Texnik xizmat ko'rsatish turlari

Traktor agregatini ishlatish davomida uning texnik holati detallarning yejilishi, ezilishi, mexanizmlar, rostlanishining buzilishi, zanglash va hokazolar natijasida yomonlasha boradi. Bunday o'zgarishlar natijasida traktorning asosiy ko'rsatkichlari bo'lmish tortish quvvati, yonilg'i tejamkorligi, mustahkamlik pasaya boradi.

Mashina-traktor parkini turli texnik xizmat ko'rsatish ishlarini, texnik ko'riklar va diagnostikani, ishlatish sharoitida ta'mirlash va saqlash ishlarini bajaradi.

Traktorga kundalik texnik xizmat ko'rsatish (KTXK) traktor 10 soat ishlagandan so'ng, ya'ni har kuni bajariladi. Bunda quyidagi ishlarni amalga oshirish kerak:

- 1) traktorni chang va loydan tozalash. Tashqi qotirish detallarining mahkamligini tekshirish;
- 2) dvigatelni eshitib ko'rish, dvigatelda, transmissiya agregatlarida va yurish qismida begona shovqinlar va taqillashlar yo'qligiga ishonch hosil qilish;
- 3) nazorat asboblarining ishlashi, yoritishini va signal sistemalarini tekshirish;
- 4) gidrosistemaning ishlashini tekshirish;
- 5) yonilg'i, moy va sovitish suyuqligini oqmayotganligiga ishonch hosil qilish;
- 6) shinalarning (gusenitsalarning) holatini tekshirish;
- 7) yonilg'i sathini tekshirish, agar zarur bo'lsa, qo'shimcha yonilg'i quyish;
- 8) moy sathini tekshirish, agar zarur bo'lsa, qo'shimcha moy quyish;
- 9) sovitish suyuqligining sathini tekshirish, agar zarur bo'lsa, qo'shimcha suyuqlik quyish;
- 10) uch smenada bir marta havo tozalagichning chang tutib qoluvchi qismini tozalash va uning tagligidagi moyni almashtirish.

Kundalik texnik xizmat ko'rsatish ishlari oddiy bo'lganligi uchun ularni ish bajarish paytida o'tkazish mumkin. Bu traktor bajaradigan ish hajmiga ta'sir qilmaydi. Mazkur ishlar traktorda nosozliklar sodir bo'lishining oldini olish maqsadida o'tkaziladi. Kundalik texnik xizmat ko'rsatish ishlarining bir qismini ish boshlashdan oldin, ikkinchi qismini esa ish tamom bo'lgandan so'ng o'tkazish kerak.

10.3.1. Traktor texnik holatini diagnostika qilish

Mashinalarni texnik ishlatishdan asosiy maqsad mashina-traktor parkining texnik jihatdan soz holda ish bajarishga layoqatliligini ta'minlashdan iboratdir. Texnik diagnostikani amalga oshirishdan maqsad kam mehnat va mablag' sarflanishda nazariy foydalanish kerak. Texnik diagnostikaning asosiy vazifasi mashina va uning elementlari (agregatlar, sistemalar va b.)ning texnik holatini diagnostik ko'rsatkichlar bo'yicha aniqlashdan iborat.

Diagnostikaning birinchi turi bilan mashinaning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha ish bajarishga layoqatliligi (dvigatelning quvvati, tirsakli valning aylanish chastotasi, yonilg'ining solishtirma sarfi va b.) aniqlanadi. Diagnostikaning ikkinchi turi orqali birikmalardagi tirqishlar, rostlanishlarning buzilishi aniqlanadi. Diagnostikaning uchinchi turi bilan mashina, uning uzellari, agregatlari va mexanizmlarining qoldiq resursini oldindan aytib berish va ularning yejilish darajasi bo'yicha ishlatishni davom ettirish mumkinligi yoki mumkin emasligi aniqlanadi.

Bajariladigan ishlarning hajmiga ko'ra diagnostika to'liq va qisman amalga oshirilishi mumkin. Qisman diagnostika qilish, odatda, birinchi va ikkinchi texnik xizmat ko'rsatish ishlari oldidan, to'liq diagnostika esa uchinchi texnik xizmat ko'rsatish ishlari oldidan bajariladi. Diagnostika qilish sabablariga ko'ra ular reglamentlashtirilgan (rejalashtirilgan texnik xizmat ko'rsatishlarda bajariladigan) va to'satdan sodir bo'ladigan (ish ko'rsatkichlarining pasayishi yoki buzilishi natijasida bajariladigan) xillarga bo'linadi.

Keyingi paytlarda mashinalarni texnik diagnostika qilish imkoniyatlari ancha oshdi, bu yo'nalishda diagnostik asboblar to'plami va datchikli universal asboblar o'rniiga mashinalar diagnostikasining avtomatlashtirilgan tizimi yaratildi.

Qishloq xo'jaligida texnik diagnostika xizmati uch turga bo'linadi:

- 1) traktor va kombaynlarni diagnostika qilish; 2) yurgizish jihozlarini va chorvachilik fermalari jihozlarini diagnostika qilish; 3) avtomobilarni diagnostika qilish.

Mashinalarga texnik xizmat ko'rsatishning TXK-1, TXK-2 va TXK-3 turlari bor. Texnik xizmat ko'rsatishning bu turlari ma'lum miqdordagi ish bajarilgandan so'ng o'tkaziladi. Traktorlar uchun quyidagichadir: TXK-1 60 moto-soatdan so'ng; TXK-2240 moto-soatdan so'ng; TXK-3960 moto-soatdan so'ng.

GOST 20793-81 ga muvofiq, 01.01.82 yildan so'ng ishlab chiqarilgan traktorlar uchun bu davriylik TXK-1 uchun 125 moto-soatni, TXK-2 uchun 500 moto-soatni, TXK-3 uchun 1000 moto-soatni tashkil qiladi.

Bunday davriylikdan TXK-1 va TXK-2 uchun 10% va TXK-3 uchun 5% chetga chiqish ruxsat etiladi.

Texnik xizmat ko'rsatishdagi mehnat sarfi traktoring xiliga va uning tuzilishiga bog'liq, masalan MTZ-80X traktoriga TXK-1 o'tkazish uchun 30, TXK-2 uchun 128,4 va TXK-3 uchun esa 387,4 odam-minut mehnat sarf bo'ladi.

Mashinalarga mavsumiy texnik xizmat ko'rsatish yiliga 2 marta o'tkaziladi. Mavsumiy texnik xizmat ko'rsatish kuzgi-qishki va bahorgi-yozgi ishlatish sharoitiga o'tishdagi texnik xizmat ko'rsatish ishlaridan iborat. Bir mavsumiy ish sharoitidan ikkinchisiga o'tishdagi chegara havo haroratining muayayn qiymati (kuzda -5° , bahorda $+5^{\circ}$) hisoblanadi.

Mavsumiy texnik xizmat ko'rsatish ishlaridan ko'zlangan maqsadni tushunish uchun traktorlarni qish va yoz fasllarida ishlatish xususiyatlarini bilish lozim.

10.4. Texnik xizmat ko'rsatishning tashkiliy asoslari

Mashinalarning moddiy - texnik bazasi ularga texnik xizmat ko'rsatish uchun kerak bo'ladigan texnik vositalarning barchasini o'z ichiga oladi. Ularning tarkibiga markaziy ta'mirlash kompleksi, qo'zg'almas texnik xizmat ko'rsatish posti, harakatlanuvchan texnik xizmat ko'rsatish ustaxonasi, yonilg'i va moy bilan ta'minlash posti, harakatlanuvchan avtomobil asosida tuzilgan yonilg'i-moylash materiallari bilan ta'minlovchi agregatlar, traktor va qishloq xo'jalik mashinalarini joriy ta'mirlash ustaxonasi, avtomobil asosida tuzilgan

harakatlanuvchan ta'mirlash ustaxonasi va traktorlani qo'yish (saqlash) uchun mo'ljallangan joylar kiradi.

Markaziy ta'mirlash kompleksida texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlashga taalluqli asosiy ishlar bajariladi. U, odatda, markaziy ta'mirlash ustaxonasi, xo'jalikning neft mahsulotlari omborxonasi, markaziy mashina hovlisi va avtomobillar garajidan iborat bo'ladi. Markaziy kompleksda texnik xizmat ko'rsatish vositalari ham joylashgan bo'limlarga borib kelishi mumkin.

Harakatlanuvchi mexanizatsiyalashgan vositalar. Tezniq xizmat ko'rsatish agregatlari avtomobil shassisiga yokii traktor pritsepi shassisiga o'rnatilgan bo'ladi.

Texnik xizmat ko'rsatish agregatlari yordamida dala sharoitida traktor va boshqa qishloq xo'jalik mashinalariga TXK-1 va TXK-2 ishlarini mexanizatsiyalashgan holda o'tkazish mumkin. Avtomobil shassisiga o'rnatilgan agregatlar 25-30, traktor pritsepiga o'rnatilgan agregatlar esa 10-15 traktorga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan.

Texnik xizmat ko'rsatish bo'g'inlari. Traktorlarga texnik xizmat ko'rsatish ishlarining barcha turlari traktorchilar tomonidan o'tkaziladi. Mashinaga smenalik texnik xizmat ko'rsatishni bajarish traktorchining vazifasi hisoblanadi. Traktorlarga rejali va mavsumiy texnik xizmat ko'rsatish hamda mashinalarni ishlatish jarayonida sodir bo'ladigan nosozliklarni ta'mirlash ishlari texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ixtisoslashgan zvenolar tomonidan bajariladi, bunda shu mashinada ishlovchi traktorchi ham ishtirok etadi.

10.5. Texnikalarni saqlash turlari va ularni tashkil qilish

Qishloq xo'jaligida yil davomida traktorlardan boshqa mashinalarga qaraganda ko'proq foydalilanadi. Ammo ularning ham vaqtinchalik ishsiz davri bo'ladi, bu davrda ular kelgusi mavsumda uzlusiz ishlashi uchun saqlanishi kerak.

Mashinalar noto'g'ri saqlanganda ularning tabiiy yejilishi (korroziyaga uchrashi, chirishi, eskirishi va boshqa xildagi buzilishlar) jadallanishi mumkin. Metalldan tayyorlangan detallar korroziya ta'sirida yemiriladi. Mashina detallari yuqori namlikda saqlansa, yerga va ximikatlarga bevosita tegib tursa hamda ularning yuzasida korroziyaga qarshi qatlam yoki moy qatlamni bo'lmasa, korroziyalanish jarayoni jadallahshadi.

Metallmas detallar quyosh nuri, havodagi namlik, haroratning o'zgarib turishi hamda yonilg'i-moylash materiallari ta'sirida eskiradi.

Lak, bo'yq va polimer qatlamlari metall va mazkur qatlamlarga taalluqli kengayish koeffitsiyentlarining farqi hisobiga yemiriladi.

Saqlashni to'g'ri tashkil qilish mashinaning butligini ta'minlaydi, yemirilish va shikastlanishlarning oldini oladi, texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash xarajatlarini kamaytiradi.

Mashinalarni saqlash tartiblari va texnik shartlari GOST bilan belgilangan. Saqlash quyidagi elementlardan iborat: saqlash joyini tayyorlash; mashinani saqlashga tayyorlash va saqlashga qo'yish; mashinani texnik xizmat va nazoratdan o'tkazish; saqlashda texnika xavfsizligi va yong'inning oldini olish tadbirlarini amalga oshirish.

Traktorlarni saqlash ikki turga: qisqa va uzoq muddatga bo'linadi.

Qisqa muddatli (ikki oygacha) saqlash vaqtinchaligi foydalanimaydigan yoki ta'mirlash talab qilinadigan mashinalar uchun tashkil qilinadi.

Uzoq muddatli saqlash mavsum tugagandan so'ng yoki mashinadan kamida ikki oy foydalanimaydigan hollarda tashkil qilinadi. Traktorlarni saqlashning yopiq, ochiq va aralash usullari mavjud bo'lib, ular mashinaning konstruktiv xususiyatlari, tabiat-iqlim sharoitlari bilan izohlanadi.

Ochiq maydonchalarda saqlash joylari (maxsus jihozlangan mashina hovlilari, shiyponli maydonchalar, ochiq maydonchalar) boshqa binolardan yong'in xavfi bo'limgan masofalarda joylashgan va yong'inga qarshi vositalar bilan jihozlangan bo'lishi kerak. Suv zaxirasiga ega bo'lish maqsadida maydonchalarda temir-beton rezervuarlar, qum solingen qutilar va yong'inni o'chirish vositalari bo'lishi lozim. Maydonchalarning sathi harakatlanish uchun zarur moslashgan bo'lishi lozim. Qattiq qoplamali maydonchalar bo'limgan xo'jaliklarda mashinalarni saqlashda beton plitalar qo'llaniladi (tuproq cho'kishining oldini olish maqsadida)

Mashinalar ochiq maydonchalarda aralash usulda saqlanganda ularning rezina, yog'och detallari, yonilg'i sistemasi va elektr jihozlarining tez yemiriladigan va qimmat turadigan detallari yechib olinib, zarur shart-sharoitlar ta'minlanadigan xonalarda saqlanadi. Traktorlar orasidagi masofa kamida 1 m, qatorlar orasidagi masofa esa kamida 6 m bo'lishi kerak.

Tarktorlarni qisqa muddatli saqlash texnologiyasi. Traktorlardan biror sababga ko‘ra vaqtincha foydalanimaydigan hollarda ular qisqa muddatli saqlashga qo‘yiladi. Bunda traktordan agregat, uzel va detallar yechib olinmaydi, biroq ular texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

Saqlash muddati tugagan traktorlar changdan, saqlash moyidan tozalanadi, tinqinlar olib tashlanib, yechib olingan uzel va detallar joy-joyiga o‘matiladi. So‘ngra traktor taglikdan tushiriladi, transmissiya agregatlari, yurish qismlari va boshqarish mexanizmlari moylash materiallari bilan ta‘minlanadi.

10.6. MTP dan foydalanishning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari

MTP dan foydalanishda tarktor va avtomashinalarning qishloq xo‘jalik korxonalariga shartnomaga asosida ko‘rsatgan servis xizmatlari uchun daromad oladi. Bu daromad umumpark daromadi bo‘lib, shu daromadni ko‘paytirish yoki daromadni shakllantirishdagi sarf-xarajatlarni kamaytirish har bir mehnatchining asosiy vazifasidir. Xarajatlarni kamaytirishda tarktorlarni ekspluatatsiya qilishdagi sarf-xarajatlarni kamaytirish orqali bajarilgan ish samarali bo‘ladi.

MTP iqtisodiy faoliyatini tahlil qilishda jami bajarilgan mashina kунлари, mashina smenalari, yillik ish vaqtidan foydalanish koeffitsiyenti, shartli etalon gektar hisobiga bajarilgan ish hajmi, olingan mahsulot, xarajat, foya ko‘rsatkichlaridan foydalaniladi.

1. Ekinzorlarning bir shartli etalon traktorga to‘g‘ri kelishi – ekinzor yer maydonini o‘rtacha yillik shartli etalon traktorga bo‘linadi;

2. Fizik traktorlarning o‘rtacha nominal quvvati – jami traktorlarning nominal quvvatini fizik traktorlarga nisbati;

3. Traktorchi-mashinistrning o‘rtacha oylik ish haqi – o‘rtacha yillik traktor-mashinistlar sonini mavjud traktorchi-mashinstlar soniga nisbati;

4. 1 gektar ekinzorda traktor ishlaring bajarilishi – bajarilgan ish hajmini ekinzorlar maydoniga nisbati;

5. Bir shartli traktorning bajargan ish smena-me’yori – jami bajarilgan smena-me’yorini MTP bo‘yicha shartli traktorlar soniga nisbati;

6. Bir shartli traktorning ish unumi – jami traktor ishlaringi o‘rtacha yillik shartli traktor ishlaringi o‘rtacha yillik shartli traktorlar soniga nisbati;

7. Bir shartli traktorga ekspluatatsiya xarajatlarining to‘g‘ri kelishi – jami ekspluatatsiya xarajatlarini traktor bajargan ish hajmiga nisbati;

8. Traktorlar yordamida jami bajarilgan ish hajmidan transport ishlari salmog‘i – transport ishlarini traktor bajargan ish hajmiga bo‘lib 100 ga ko‘paytmasi.

10.7. Energetik vositalar va ulardan foydalanish samaradorligi

Qishloq xo‘jaligida turli mulkchilik shakllari faoliyat yuritayotgan bir paytda texnika va ilg‘or texnologiyalarga bo‘lgan talab tez sur’atlarda ortib bormoqda. Har qanday xo‘jalikda texnika hamda energetika vositalarisiz ishlab chiqarishni shakllantirish mumkin emas. Shuning uchun mulkdorlarni texnika va energetik vositalar bilan qurollantirish holatini, undan samarali foydalanish va turli mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini hisobga olinadi. Unda energiya resurslari bilan ta’minalash darajasi, resusrlardan tejamli foydalanish uchun asosiy tarmoqqa nisbatan yordamchi tarmoqlarni rivojlantiriladi. Asosiy tarmoq dehqonchilik, chorvachilik bo‘lsa xo‘jalikda yordamchi tarmoq mahsulotlarni qayta ishlash jarayoni tushuniladi.

Qishloq xo‘jaligida elektroenergiya ta’mnoti bevosita elektrostansiya yoki transformatorlar orqali bajariladi. Energetik quvvatdan hozirgi kunda dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlashda, saqlashda, transport ehtiyyot qismlari va ta’mirlashda (ustaxonalarda), sug‘orishda, suv nasoslaridan foydalanishda, paxta tozalash zavodlarida va ijtimoiy sohalarda foydalaniladi. Elektr quvvatidan statsionar holatidagi ishlarda foydalaniladi.

Xo‘jaliklarda statsionar holatda bajariladigan ishlarga sarflanadigan elektr quvvati ot kuchi bilan hisoblanadi. Elektr dvigatellarining quvvatini aniqlash uchun ot kuchi bilan hisoblangan elektr quvvatini “kilovatt” mashinalarning foydalangan elektr quvvatiga yoki ularning elektr quvvatidan foydalanish koeffitsiyentiga bo‘linadi. Bu hisobni chiqarishda quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$Teq = \frac{Tqq \cdot 0,736}{K};$$

Bunda:

Teq — elektr dvigatelining elektr quvvatiga bo'lgan talab;

Tqq — mashinani ishlatishda talab qilinadigan quvvat (ot kuchi hisobida 0,736 kVt – 1,36 ot kuchiga teng);

K — elektr quvvatini o'tkazuvchi mexanik o'tkazgichlarning foydali ish koefitsiyenti.

MTP quvvati — traktor va mashinalarning ot kuchi hisobidagi quvvatiga qarab belgilanadi.

Kombayn quvvati — dvigatellarning kuchiga qarab belgilanadi.

Avtomobil dvigatellarining quvvati — har bir markadagi avtomobillar sonini dvigatel quvvatiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

Elektr qurilmalarining quvvati — elektr energiya manbai quvvatining yig'indisi sifatida belgilanadi.

Elektrogeneratorlar va dvigatellar quvvati — ularning xo'jalikda bo'lish vaqtiga qarab belgilanadi. Bunda elektr quvvati kVt miqdorini aylantirish koefitsiyenti (1,36)ga ko'paytirilib ot kuchiga aylantiriladi.

Xo'jalikda energetik quvvatdan samarali foydalanishda, avvalo, tejamkor texnologiyalarni olish, kam quvvat sarflaydigan uskunalarни va texnikalarni olishga e'tiborni qaratish, quvvatdan foydalanishda bozor talabi bo'yicha mahsulot yetishtirish, qayta ishlash va saqlash uchun energetik xarajatlarni kamaytirish, elektr quvvatidan maksimal foydalanish zarur.

Energetikadan maksimal foydalanishga 2 xil yo'nalish ta'sir qiladi:

- 1) mashina va elektr dvigatellarining ish bilan band bo'lishi;
- 2.) elektr energiyasining uzlusiz kelib turishi (berilib turishi).

Har xil tarmoqlarning elektr quvvatidan maksimal foydalanishini quyidagi formuladan aniqlasa bo'ladi:

$$EQmf = Edv \times EQtk$$

Bunda:

$EQmf$ — tarmoqlarda (xo'jaliklarda) elektr quvvatidan maksimal foydalanish;

Edv — xo'jalikda o'rnatilgan elektr dvigatellar;

$EQtk$ — elektr quvvatiga bo'lgan talab koefitsiyenti.

Energetik resurslardan samarali foydalanish koeffitsiyentlariga energiya bilan ta'minlanish, energiya bilan qurollanish, energiya qaytimi, energiya sig'imi kiradi. Bu ko'rsatkichlar orqali qishloq xo'jaligida foydalaniladigan energetik vositalaridan foydalanish samaradorligi aniqlanadi.

Qisqacha xulosa

Qishloq xo'jalik korxonalarida asosiy ishlar turli texnikalar yordamida bajariladi. Texnikalardan samarali foydalanish uchun yirik xo'jaliklarda MTP, fermerlar uchun muqobil MTP lar tashkil etilmoqda. MTP xizmatidan foydalanishda xo'jaliklar shartnomaga asosida, zarur bo'lgan mexanizatsiya ishlarini bajartirmoqda. Hozirgi kunda MTP tuman markaziy ta'mirlash ustaxonasi bilan birgalikda faoliyat yuritmoqda. Unda asosan chet el texnikalari lizingga olingan va korxona texnikalari faoliyat yuritmoqda.

Texnikalarni ta'mirlash MTP da olib borilib, uni tashkil etishda ko'plab zavod va qo'shma korxonalar birgalikda faoliyat yuritadi. Har bir texnika MTP rahbarlari tomonidan texnik ko'rikdan o'tkaziladi. Texnik holatini diagnostika qilishda texnikalarni saqlash ishlari ham amalga oshiriladi. Har bir texnikadan foydalanishni iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida tahlil qilinadi. Qishloq xo'jalik vositalarini energetik vositalar bilan ta'minlash va uni ishlatishtirish samaradorligini oshirish bo'yicha asosiy yo'nalishlar ko'rsatilgan.

Tayanch iboralar

MTP, servis xizmati, mexanizatsiya, muqobil MTP, fizik markadagi traktorlar, ta'mirlash xizmati, tortish quvvati, diagnostika qilish, mashinalarga texnik xizmat ko'rsatish, markaziy ta'mirlash kompleksi, traktorlarni saqlash, texnologiya, energetika vositalari, qurilma, dvigatellar, maksimal foydalanish.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Qishloq xo'jaligida MTP ning vazifasi nimadan iborat?*
2. *Texnikalarni ta'mirlash xizmati qanday tashkil etiladi?*
3. *Texnik xizmat ko'rsatish turlarini ayting.*
4. *Traktorlar nima uchun diagnostika qilinadi?*
5. *Texnikalar qanday usullarda saqlanadi?*
6. *MTP dan foydalanish ko'rsatkichlarini ayting.*

7. Energetika vositalariga nimalar kiradi?

Asosiy adabiyotlar

- 1. Karimov I.A. “Qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti-to‘kin hayot manbai”. –T.: “O‘zbekiston”, 1998.*
- 2. Qishloqda ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish asoslari. –T.: “Ijod dunyosi”, 2004, -318 b.*
- 3. Конюкин Ю.А. “Экономика ремонта сельскохозяйственной техники”. –М.: “КОЛОС”, 1983, -415 см.*
- 4. Коваленко Я.Н. “Экономика сельского хозяйства”. Москва: ЭКМОС, 1998.*
- 5. Ikromov U., Ergashev A., Saylikov M. “Traktorlarni ishlatalish va ta‘mirlash asoslari”. –T.: “O‘qituvchi”, 1995, -224 b.*
- 6. Xusanov R.H., Hamdamov A.N., Rafiqov I.E. “Qishloq xo‘jaligida servis xizmati muqobil mashina-traktor parklarini rivojlantirish masalalari. –T.: “Yangi asr avlod”, 2001, -124 b.*
- 7. Коваленко Н.Я., Умурзаков У.П., Тошбоев А.Ж., Тошбоев А.А. “Экономика и организация фермерского хозяйства”. -М.: “РГАУ-МСХА имени К.А.Тимирязева”, 2008, -206 см.*

11-bob. QISHLOQ XO'JALIGIDA LIZING VA UNDAN FOYDALANISH YO'LLARI

11.1. Lizing tushunchasi va uning vazifalari

Respublikada lizing qishloq xo'jalik korxonalariga 1994 - yil oxiridan kirib kelgan. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda lizing - biznesning bir turi bo'lib, tarmoqlarda lizingni rivojlantirish, qishloq xo'jaligi korxonalaridagi mavjud moliyaviy qiyinchiliklarni bartaraf etish, ishlab chiqarishni yangi texnologiya va zamonaviy texnikalar bilan qurollantirish imkoniyatini yaratadi.

Lizing - yordamida nafaqat asosiy vositalarni, balki hamkorlarnikini ham yangilash tushuniladi.

Lizng beruvchi va lizing oluvchi o'rtasidagi munosabatlар xarakteriga ko'ra - «toza» lizing va keng lizingga bo'linadi. Bundan tashqari, «xo'l» lizing ham mavjud. Bu holatda lizing oluvchining obyekti bilan birga unga texnik xizmat ko'rsatish, uni ta'mirlash, sug'ortalash unda ishlovchi kadrlarni tayyorlash, marketing xizmatini tashkil etish, tayyor mahsulot reklamasi, xomashyo bilan ta'minlash kabi xizmatlarni ham o'z ichiga oladi.

Lizing obyektini taqdim etish sohasiga ko'ra - ichki va tashqi lizingga, xalqaro lizingda esa eksport va import lizinglarga bo'linadi. Bundan tashqari, xalqaro lizingda sublizing ham keng qo'llaniladi. Bunda asosiy lizing beruvchi bir mamlakatda vositachilik qilib, boshqa mamlakatda ro'yxatga olingan bo'ladi.

Lizing munosabatlari muhim funksiyalarni bajaradi.

- Moliyaviy funksiyasi - mulk ishlab chiqaruvchilarga ishlab chiqarish vositalar qiymatini bir vaqtida to'liq to'lab berish;

- Ishlab chiqarish funksiyasi - qimmat turdag'i va ma'naviy eskirgan mashinani sotib olmasdan, ishlab chiqarishda vaqtinchalik foydalanish yo'lini operativ hal qiladi.

- Xomashyo funksiyasi - yangi bozor xomashyosini yoki mulknini bordan sotib olish emas, balki takror ishlab chiqarishni kengaytiradi.

- Soliq va amortizatsiya imtiyozlari olish funksiyasi.

Demak, lizingni asosiy mohiyati qisqacha qilib aytiganda mol-mulkni ijara berish bilan daromad manbaiga ega bo'lishdir.

Lizing ijara munosabatlarining alohida turi bo'lib, unda bir taraf (lizing beruvchi) ikkinchi tarafning (lizing oluvchining) topshirig'iga binoan uchinchi tarafdan (sotuvchidan) haq evaziga egalik qilish va foydalanish uchun lizing shartnomasida belgilangan sharoitlar berib qo'yish maqsadida mol-mulkni (lizing obyektini) oladi.

Lizing uch taraflama (sotuvchi – lizing beruvchi – lizing oluvchi) yoki ikki taraflama (lizing beruvchi – lizing oluvchi) lizing shartnomasi bo'yicha amalga oshiriladi. Lizing beruvchi va sotuvchi o'rtasida ikki taraflama lizing shartnomasi tuzilayotganida qo'shimcha ravishda lizing obyektining oldi-sotdi shartnomasi tuziladi.

Lizing obyektlariga tadbirdorlik faoliyati uchun foydalilaniladigan korxonalar, mulkiy majmualar, binolar, inshoot, uskuna, transport vositalari, ko'char va ko'chmas mulk kiradi.

Lizing subyektilariga lizing beruvchi, lizing oluvchi va sotuvchi kiradi.

Lizing turlari bo'yicha moliyaviy va operativ lizinglarga bo'linadi.

Operativ lizing – asosiy vositalarni qisqa muddatga ijara berish usulidir. Mulk egasi o'z mulkini foydalanishni hohlagan shaxsga (lizing oluvchiga) bir yilga qadar muddatga shartnoma asosida lizingga beradi.

Shartnomada operativ lizing bilan bog'liq bo'lган barcha xuquqiy, iqtisodiy, tashkiliy masalalar to'la o'z aksini topadi. Mulk ijara berilgan muddat davomida foydalilaniladi. mulkning ijara muddati tugashi bilan shartnoma bekor qilinadi.

Operativ lizing bilan bog'liq bo'lган barcha turdag'i texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash, sug'urta va to'lov xarajatlari lizingga beruvchi tomonidan to'lanadi.

Lizing shartnomasi muddati tugashi bilan ijara dagi mulk egasi ixtiyoriga o'tadi.

Operativ lizing o'zining oddiyligi, bajariladigan operatsiyalarni soddaligi, hisob-kitoblarning aniq va yengilligi nuqtai nazardan barcha quayliklarga ega.

Lizing shartnomasi asosida olingan uskunalar bo'yicha jadallashtirilgan amortizatsiya ajratmasi va taklifidan kelib chiqqan holda ishlab chiqarilgan mahsulot narxlarini va olinadigan foya hajmini tartibga solish imkoniyati qo'lga kiritiladi.

Moliyaviy lizing—uskunalarini ma'lum muddatga o'z qiymatini to'la qoplash imkoniyatini yarata olgan holda beriladigan ijara

munosabatiga aytildi. Moliyaviy lizingda uskunalarni ijara berган vaqtда ularni qiymatini to‘la yoki katta qismini ishlatilish, foydalanish, yejilish (amortizatsiya) muddatiga yaqinlashib qoladi. Moliyaviy lizing ijara shartnoma muddati operativ lizingga nisbatan uzoq bo‘ladi. Moliyaviy lizingda lizing beruvchi shartnoma muddati davomida o‘z mulkiy qiymatini to‘la qaytarib olish imkoniyatiga ega. Moliyaviy lizingda ijara berilgan texnika yoki uskunalarini, tuzatish, servis xizmatlari ko‘rsatish, sug‘urta to‘lovlarini lizing oluvchi zimmasiga yuklatiladi.

Moliyaviy lizingda - lizing shartnomasi bo‘yicha shartnoma muddati tugashi bilan lizing obyekti, qoldiq qiymati bo‘yicha lizing oluvchining qo‘liga o‘tadi;

Lizing shartnomasi muddati lizing obyektining xizmat muddati 80% dan ortiq yoki lizing shartnomasi muddati tugagach, lizing obyektining qoldiq qiymati uning boshlang‘ich qiymatining 20 % dan kamroqini tashkil etishi kerak;

Lizing oluvchi lizing obyektni qat’iy belgilangan bahosi yoki shartnomasi muddati tugagandan aniqlanadigan bahoda sotib olish huquqiga ega. Lizing shartnomasi davridagi to‘lovlarining umumiyo so‘mmasi lizing obyekti qiymatining 90 % dan ortiq bo‘ladi.

Moliyaviy lizing obyekti – lizing oluvchi balansida hisobga olinadi. Ijaraga oluvchi mulk uchun bir vaqting o‘zida to‘lash majburiyatidan ozod etiladi. Ijaraga oluvchi lizing kontraktida aniqlangan to‘lovlarining muddatida amalga oshirish majburiyatlarini o‘z zimmasiga oladi.

Lizing faoliyati – lizing shartnomasi bo‘yicha lizing beruvchining o‘z mablag‘i va (yoki) qarz mablag‘larini investitsiyalashga qaratilgan tadbirkorlik faoliyatidir.

Lizing shartnomasi yozma shaklda, qonun hujjalarda belgilangan tartibda tuziladi.

Agar lizing oluvchi jismoniy shaxs bo‘lsa, lizing shartnomasi notariai idoralar tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Lizing shartnomasi bo‘yicha lizing oluvchi to‘laydigan lizing to‘lovlarini lizing obyekti amortizatsiyasining tegishli qismi qiymatini va lizing shartnomasi bo‘yicha lizing beruvchi tomonidan qilingan xarajatlarni, shuningdek, uning daromadi (marja)ni o‘z ichiga oladi.

11.2. Lizing kompaniyalari faoliyatidan foydalanish

Respublikada bevosita xizmat ko'rsatayotgan lizing kompaniyalariga: «O'zKeysagrolizing», «O'zbeklizing Interneyshnl», «Sof lizing», «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» kiradi.


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 - yil 2 - noyabrda «Qishloqni lizing shartlarida qishloq xo'jalik texnikasi bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi 424-sonli qaroriga asosan lizing faoliyatini rivojlantirish maqsadida «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» kompaniyasining viloyat markazlarida filiallarda tuzildi.

Lizing operatsiyalarida qatnashuvchi barcha subyektlar – kompaniya (lizing beruvchi), qishloq xo'jaligini texnika bilan ta'minlashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasi (kompaniya kreditori), «Paxtabank» (moliviy agent), qishloq xo'jalik korxonalari va mashina-traktor parklari (lizing oluvchilar) o'rtaida tashkiliy, iqtisodiy, texnikaviy va huquqiy munosabatlarni ifodalovchi o'zaro shartnomalar aniq belgilab olindi.

Bir tomondan «O'zqishloqxo'jalikmashxolding» kompaniyasiga qarashli mashinasozlik korxonalarining mavjud quvvatlaridan foydalanish darajasini keskin oshirish, ikkinchidan esa, mamlakatimiz qishloq xo'jalik mashinalari parkini yil davomida zamonaviy texnikalar hisobiga yangilab borish imkoniyatlarini yaratib berdi. 2001 - yilda «O'zqishloqxo'jalikmashxolding» kompaniyasi korxonalarini tomonidan dvigatelning quvvati 60 dan 135 ot kuchiga ega bo'lgan 101 turdag'i yangi texnika vositalarini, 2000 - yilda 471 dona har xil turdag'i qishloq xo'jalik mashinalari, 2001 - yilda 2933 dona, shu jumladan, shirkat xo'jaliklari 2055 ta, fermer xo'jaliklari 735 ta, aksiyadorlik va Muqobil mashina-traktor parklariga 123 ta yangi zamonaviy texnikalar buyurtma asosida yetkazib berildi.

Qishloq xo'jaligida lizing ustunligi davlat manfaatlarini ko'zlaydi, ya'ni soliq tizimini, amortizatsiya va kredit imtiyozlarini kafolatlaydi.

Chet davlatlarda lizing kompaniyalari turli shakkarda faoliyat yuritadi. Bizda ko'proq tezkor va kompensatsiya lizingga to'g'ri keladi. *Kompensatsiya lizingi* – mahsulotlarini ishlab chiqarishga ko'rsatilgan lizing xizmatlaridir. Bular uchun hisob-kitoblar nafaqat fermerlarni balki, davlat manfaatini ko'zlaydi.



Hukumat qarorlariga muvofiq, Moliya vazirligi huzurida Lizing faoliyatini moliyaviy jihatdan qo'llab - quvvatlash maqsadida maxsus jamg'arma tuzilgan. Respublika AT «Paxtabank»i lizing kompaniyasining moliya agenti, «O'zagrosug'urta» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi esa sug'urta agenti etib belgilandi. O'zaro munosabatlar shartnomaga asosida tashkil etildi. Qishloq xo'jalik texnikasini lizing asosida yetkazib berishning tashkiliy, huquqiy, moliyaviy, iqtisodiy asoslari yaratildi.

«O'zqishloqxo'jalikmashxolding» kompaniyasi orqali 29478,9 mln. so'mga moliyalashtirildi, shundan 25351,8 mln. so'mi (86%) «Jamg'arma» mablag'lari va 4127,1 mln. so'mi (14%) esa lizing oluvchilarning 15 foizli avans to'lovlarini hisoblanadi.

11.3. Lizing obyektlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash ko'rsatkichlari

Mamlakatimizda yangi shakllanayotgan lizing kompaniyalar faoliyatini samaradorligini quyidagi ko'rsatkichlar yordamida aniqlash mumkin: lizing obyektining qiymati; lizing shartnomasi muddati; lizing obyektining yillik ish unumdorligi; obyektdan foydalanish ko'rsatkichlari; lizing to'lov tarkibidagi harajat turlari va miqdori, shu jumladan: amortizatsiya ajratmalari; bojxona to'lovlari; kredit resurslariga to'lovi; sug'urta to'lovi; soliq va boshqa imtiyozlar; boshqaruv (bilvosita) harajatlar; boshqa harajatlar; 1 ga, 1 s mahsulotga qilingan harajatlar; lizing obyektiga sarflangan investitsiyani qoplash muddati; lizing obyektdidan foydalanish natijasida ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati va boshqalar.

Lizing samaradorligi tushunchasi – bu o'z ichiga lizing amaliyoti subyektlari tizimidagi barcha korxonalarining moddiy-texnika ta'minotini barqarorlashushi va rivojlanishini o'zida mujassamlashtiradi. Lizing obyekti qiymatining barqarorlashishi va undan foydalanishda foydalilik darajasini oshirish evaziga erishiladi hamda milliy valutamizning barqarorlashushi va lizing obyektining ish unumdorligini oshirishda namoyon bo'ladi, bu esa bevosita yakuniy natija bilan bog'liqdir.

Lizing kompaniyasi faoliyatining samaradorligi foyda me'yori bilan belgilanadi. Foyda me'yori umumiy foydani sarflangan sarmoya miqdoriga nisbatining foizdagi ifodasıdır.

Foyda me'yoriq(umumiy foyda/sarflangan sarmoya miqdori)*100 %

Lizing samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar bir-biri bilan uzviy bog'liq va bevosita ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodchi olimlar S.G'ulomov, R.Varaksina va T.Akromov tomonidan tavsija etilgan lizing samaradoligiga qo'shimcha ravishda lizing samaradorligini oshirishning omili nazariy asosda aniqlab chiqildi. Masalan Qoraqalpog'iston Respublikasi «Paxtabank» boshqarmasining To'rtko'l tuman bo'limi, shu tumandagi, Sh.Rashidov nomli shirkat xo'jaligi negizidagi Muqobil MTP bilan «Maral-125» oziqa o'rish kombayni keyinchalik sotib olish sharti bilan lizing shartnomasini tuzgan.

«Maral-125» oziqa yig'uv kombayni qiymati 150 mln.so'm, 5 yil mobaynida lizing hisobi grafigi bo'yicha lizing to'lovlari va texnika qiymati bilan 342368400 so'm to'lashligi hisoblangan. Ma'lumot uchun, tijorat

«Paxtabank» aksionerlik jamiyati boshqarmalarida o‘rtacha muddatli kreditning ustama foizi 2000 - yil may oyida 5 foizni tashkil qilgan bo‘lib, lizingning samaradorligini quyidagicha aniqlash mumkin.

Kredit miqdori (texnika narxiga teng) – Km, kredit qaytarish muddati – Kqm va kredit bo‘yicha foizlar ustamasi – Kf=10%, foydadan olinadigan ustama Fu=3,5 % bo‘lganda qishloq xo‘jaligi korxonasi bankka har yil to‘lanadigan kredit miqdori quyidagicha bo‘ladi;

$$\begin{aligned} \text{Yillik to‘lov} &= \text{Km}/\text{Kqm} + \text{Fu}/100 = 150000000/5 + \\ &150000000 * 10/100 = 45000000 \text{ so‘m} \end{aligned} \quad (1)$$

Amaldagi qonunga muvofiq uzoq muddatli qarzlarni va ular bo‘yicha foizlarni korxona barcha soliqlarni to‘lagandan keyin qolgan foyda hisobidan to‘laydi.

$$\begin{aligned} \text{Foya miqdori} &= S \text{ Km}/\text{Kqm} + \text{Fu}/100 : (1 - \text{Fu}/100) = \\ &150000000 / 5 + 150000000 * 10/100 : (1 - 45/100) \\ &= 81818180 \text{ so‘m} \end{aligned} \quad (2)$$

«O‘zbekiston Respublikasi korxonalarida mahsulot (ishlar va xizmatlar) tannarxiga kiritiladigan xarajatlar bo‘yicha asosiy qoidalar»ga asosan ayrim obyektlarning ijarasini uchun lizing to‘lovi tannarxga kiritiladi. Lizing shartnomasida xarajatlarga kiritilgan yillik lizing haqi quyidagicha hisoblanadi.

$$\begin{aligned} \text{Lizing haqi} &= Lq/Lxqm + Fsu = 150000000/5 + 150000000 * \\ &35/100 = 82500000 \text{ so‘m} \end{aligned} \quad (3)$$

Bunda:

Lq - lizingga berilgan lizing vosita qiymati;

Lxqm - lizing vositasining xizmat qilish muddati;

Fsu=45% - foydadan olinadigan soliq ustamasi;

Vhuq=35% - lizing ustama qiymati.

Amaliyotida lizing to‘lovlari hisoblab chiqish uslubiyati bo‘yicha umumiy miqdori 2002 - yil Isentabrigacha quyidagicha hisoblab chiqildi:

$$LH = A + KRfh + Vh + Lxh + Qqs + Bt$$

Hozirgi davrda lizing haqi quyidagi formula orqali topiladi:

$$LH = A + Kf_q + Vh + Lxh$$

Bunda:

A – amortizatsiya ajratmalar;

KR_fh – kredit resurslaridan foydalanish haqi;

Vh – vositachilik haqi;

Lxh – lizing beruvchi ko'rsatgan xizmatlarining haqi;

Qqs – qo'shimcha qiymat solig'i;

Bt – bojxona to'lovi.

a) amortizatsiya ajratmasi quyidagicha hisoblanadi:

$$A = (Lbq * AKm / 100) * Lm$$

Bunda:

Lbq – lizing obyektining balans qiymati;

AKm – me'yoriy amortizatsiya koeffitsiyenti;

Lm – lizing shartnomaning amal qilish muddati.

b) foydalanadigan kredit resurslari uchun to'lanadigan haq miqdori:

$$Kr_h = (Km * Kuqf) / 100$$

Bunda:

Kr_h – foydalanadigan kredit resurslar haqi;

Km – jalb etiladigan kredit miqdori;

Kuqf – kredit resurslaridan foydalanishning ustama qiymati, yillik foizi.

v) vositachilik haqini hisoblash quyidagicha:

$$Lv_x = Luq * Kr / 100, \%$$

Bunda:

Lv_x – lizingga vositachlik haqi;

Luq – vositachilik haqining ustama qiymati.

Kr – kredit resursi.

g) lizing beruvchining qo'shimcha xizmatlarining miqdori quyidagicha hisoblanadi:

$$Lbkh = X_{xc} + X_{kx} + M_{ih} + R_x + L_t \text{ va boshqalar}$$

Bunda:

$Lbkh$ – lizing beruvchi ko'rsatgan xizmatlarining haqi;

X_{xc} – lizing beruvchi xodimlarining xizmat safari xarajatlari;

X_{kx} – ko'rsatilgan xizmatlar haqini to'lash xarajatlari;

M_{ih} – «Xo'l» lizing shartnomasiga binoan ishlatilayotgan mutaxassislarining haqi;

R_x – reklama xarajatlari;

L_t va boshqalar – lizing beruvchiga ko'rsatilagan xizmatlar haqini to'lash uchun qilingan boshqa to'lovlar.

ASM korxonasi tomonidan lizing asosida to'lanayotgan miqdori bilan ASM korxonasi kreditni to'lash uchun ishlab topishi lozim bo'lgan foyda miqdorini tenglashtirish zarur bo'ladi. Ya'ni,

$$\frac{L_q / L_{xqm} + L_g * V_{huq}}{(L_u / L_{xqm} + A_q * F_u / 100)} : (1 - F_u / 100) \quad (4)$$
$$8250000 \text{ so'm} = 8181818 \text{ so'm}$$

shundan agrosanoat majmui korxonasi uchun lizing shartnomasi va qarz olish, agar lizing bo'yicha ustama quyidagi teng bo'lsa, bir xilda foyda ya'ni,

$$V_{huq} = ((1) L_{xqm} + F_u / 100) / (1 - F_{su} / 100) - 1 / L_{xqm} \quad (5)$$

Lizing va kreditning bir xil foydali bo'lganidan lizing stavkasi foizi quyidagi darajada belgilanishi mumkin.

$$(1+5+0,1):(1-0,45)-1/5=0,35$$

bu hisob bo'yicha lizing foiz stavkasi 3,5 martagacha ortiq belgilash lizing va kredit olish ASM korxonalari uchun teng foydalidir. Ma'lumki, ushbu tahlillar hisoblari bo'yicha lizing ustama foizini quyidagi 10% <NI> 35% hisoblangan oraliqda belgilash mumkin.

"O'zqishloqxo'jalikmashlizing" kompaniyasi daromadi (marjas) ning imtiyozli stavkasi Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasining

50 foizidan yuqori bo'lmasligi belgilab berilgan. Bu ko'rsatkich 2001 - yil mart oyiga qayta moliyalashtirish stavkasi 24 foiz bo'lib, yuqorida ko'rsatilgan kompaniyaning daromadi 12 foizni tashkil qilgan. Har qanday lizing oluvchi lizing operatsiyasining iqtisodiy samaradorligidan kelib chiqib shartnomaga tuzishi maqsadga muvofiqdir.

Qisqacha xulosa

Bozor munosabatalarida rivojlanayotgan agrar sohaga ko'plab mablag' va vositalar zarur bo'lib, ularni ta'minlash uchun katta miqdorda moliyaviy mablag'ni talab etadi. Shuning uchun jahon tajribasidan kelib chiqib, lizing faoliyatidan foydalanish samarali yo'l ekanligi o'z aksini topdi. Respublikada ko'chmas mulk, texnika va texnologiyalar lizing kompaniyalaridan ijara shartnomasi bo'yicha olinmoqda. Lizing o'z faolyaitiga ko'ra 2 xil bo'lib, opreativ va moliyavyi lizingga bo'linadi. Bu lizing turlaridan moliyaviy lizing tadbirkorlar uchun qulay bo'lib, davlat ehtijni qondirishda asosiy rol o'ynaydi. Respublikada 1994 - yildan boshlab lizing kompaniyalari faoliyat yuritmoqda. Ular yordamida ko'plab texnika va texnologiyalar qishloq xo'jalik subyektlariga yetkazib berildi. Lizing bo'yicha tuzilgan shartnomadagi ijara haqi boshqa qo'shimcha to'lov hisob-kitob mexanizmi yaratilgan bo'lib, samarali faoliyat yuritmoqda.

Tayanch iboralar

Lizing, ijara, lizing beruvchi, lizing oluvchi, shartnomaga, oldisotdi, ko'chmas mulk, lizing obyekti, lizing subyekti, operativ lizing, moliyaviy lizing, sug'urta, aksiya, moliyalash, lizing kompaniyasi, samaradorlik ko'rsatkichlari, foyda me'yori, yillik to'lov, foyda miqdori, lizing.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Lizing va uning vazifasi nimadan iborat?*
2. *Lizing nechaga bo'linadi?*
3. *Luizing beruvchi va uni oluvchi o'rta sidagi faoliyat qanday munosabatda olib boriladi?*
4. *Lizing kompaniyasi faoliyatini qaynday baholaysiz?*
5. *Lizing samaradorligini aniqlashda qanday ko'rsatkichlardan foydalaniлади?*

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. “*Qishloq xo’jaligi taraqqiyoti - to’kin hayot manbai*”. –T.: “O’zbekiston”, 1998.
2. *Qishloqda ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni chukurlashtirish asoslari*. –T.: “Ijod dunyosi”, 2004, -318 b.
3. Конюкин Ю.А. “Экономика ремонта сельскохозяйственной техники”. –М.: “КОЛОС”, 1983, -415 ст.
4. Коваленко Я.Н. “Экономика сельского хозяйства”. Москва: ЭКМОС, 1998.
5. Ikromov U., Ergashev A., Saylikov M. “Traktorlarni ishlatish va ta’mirlash asoslari”. –T.: “O’qituvchi”, 1995, -224 b.
6. Xusanov R.H., Hamdamov A.N., Rafiqov I.E. “*Qishloq xo’jaligida servis xizmati muqobil mashina-traktor parklarini rivojlantirish masalalari*. –T.: “Yangi asr avlodni”, 2001, -124 b.
7. Umurzoqov O’P., Toshboyev A.J., Toshboev A.A. “*Fermer xo’jaligi iqtisodiyoti*”. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008, -273.

12-bob. TRANSPORT XIZMATIDAN FOYDALANISH IQTISODIYOTI

12.1. Qishloq xo‘jaligida transport xizmatining tashkiliy tuzilmasi

O‘zbekiston Respublikasida umumiy foydalaniadigan yuk va yo‘lovchilar tashuvchi transportning barcha temir yo‘l, avtomobil, aviasiya, shahar elektr transporti, daryo, truboprovod transporti, shuningdek, umumiy foydalanilmaydigan – temir yo‘l, avtomobil, tasmali transport, osma arqon transporti rivoj topgan.

Transport asosiy vosita bo‘lib, yuk va yo‘lovchilarni tashishdan ibortdir. Har qanday jamiyatda transportning o‘rni turlicha bo‘lib, bugungi kunda respublikada asosan 4 ta transport turlari faoliyat yuritmoqda. Ularga temir yo‘l, avtomobil, quvur yo‘l va havo transporti kiradi.

Temir yo‘l transporti. 1994 - yil noyabrida respublikadagi temir yo‘l korxonalari negizida “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat aksiyadorlik kompaniyasi tashkil etildi. Temir yo‘l transporti yo‘lovchilar va yuk tashishga mo‘ljallangan bo‘lib, joriy yilda 66,2 mln.tonna yuk tashildi. Tashilgan yuklarning asosiy qismini qurilish materiallari, tashilgan yuk hajmining (21%), paxta tolasi (3%), neft va nest mahsulotlari (35%), g‘alla, kimyoziy vositalar, mineral o‘g‘itlar, sabzavot va boshqa yuklar tashildi.

Avtomobil transporti. 1992 - yil fevralda “O‘zbekiston avto yo‘llarni qurish va undan samarali foydalanish” davlat aksiyadorlik konserni, “O‘zavtoyo‘l” tuzilib, uning tarkibida 532 ta avtomobil yo‘llari boshqarmasi, “O‘zyo‘lloyiha” respublika yo‘l va inshootlar qurish, qayta qurish va ta‘mirlash bo‘yicha loyiha qidiruv instituti, ko‘priq temir-beton qurilmalar va boshqa korxonalar kiradi. Respublikada 53,4 ming km avto yo‘llar bo‘lib, shularning 3843 km xalqaro, 1980 km davlat ahamiyatiga, 23439 km mahalliy yo‘llar hamda shirkat xo‘jaliklari, fermer va dehqon xo‘jaliklariga qarashli yo‘llar ham mavjud.

O'zbekistonda ishlab chiqarilgan xalq xo'jalik va qishloq xo'jalik mahsulotlarini qo'shni davlatlarga chiqarish uchun Sobiq Buyuk Ipak Yo'li tiklanib, 1997 - yil 21 - iyunda Andijon-O'sh-Ergaitom-Qashqar avtomobil yo'li ishga tushirildi. Hind okeaniga chiqish uchun Termiz-Hirot-Karachi va Qo'ng'irot-Denov avtomagistrallari qurilishlari olib borilmoqda.

Respublika jami yo'llarining 95,6% qattiq qoplamlalar yotqizilgan bo'lib, shundan cement-beton qoplamlari yo'llar 0,8% (336 km), asfalt-beton qoplamlari yo'llar 49,6% (21819 km), qora shag'al va qora qoplamlari yo'llar 40,6% (17796 km)ni tashkil etadi.

Havo transporti – 1992 - yilda “O'zbekiston havo yo'llari” milliy aviakompaniyasi tashkil etildi. Kompaniya fuqaro va yuklarni tashiydi hamda qishloq xo'jalik ekinlarini parvarishlashda AN-2 samolyotlari orqali don ekish, o'g'it va pestitsidlar sepishda faoliyat yuritadi.

Suv transporti – Orol dengizidagi suv yo'llari orqali yuklar va yo'lovchilar kema, qayiqlar bilan tashilgan. 1994 - yil may oyida O'zbekiston Respublikasida joylashgan daryo porti, Qoraqalpog'iston daryo porti ishlab chiqarish birlashmalari tashkil etildi. Ular ishni muvofiqlashtirish bo'yicha “O'zavtotrans” kompaniyasi Bosh boshqarma vazifasini olib bormoqda. Suv yo'llarining uzunligi 1000 km bo'lib, xalq xo'jalik yuklari tashilmoqda.

Trubaprovod transporti – suyuq va gaz shaklidagi tovarlarni quvurlar orqali tashishdan iborat. Trubaprovod transportida gaz, neft, suv, qishloq xo'jaligida mahsulotni qayta ishlash zavodlaridagi xomashyoni tashish quvurlari, chorvachilik fermalaridagi sut sog'ish quvurlari va hokazolar.

12.2. Qishloq xo'jaligida transport vositalaridan foydalanish

Qishloq xo'jaligining ko'p tarmoqli xo'jalikka aylanib, yildan-yilga ko'p mahsulot yetishtirishi munosabati bilan har xil yuklarni tashish miqdori ham ko'payib, transport vositalariga bo'lgan talab borgan sari ortmoqda.

Qishloq xo'jaligida yuk tashish ishlariда keng tarqalgan transport vositalari – ot-ulov, traktor va avtomobil transportlaridir. Keyingi yillarda havo, temir yo'l, suv transportlarining ham roli ortib bormoqda. Ot-ulov transportlarida tashilgan yuklar traktorda

tashilgan yuklarga qaraganda 1,5 marta, avtomobilarda tashilganga qaraganda 3 marta qimmatga tushadi. Shu sababli qishloq xo'jaligida yuklar birinchi o'rinda avtomobil, ikkinchi o'rinda traktor va uchinchi o'rinda ot-ulov transportlarida tashilishi ma'qul ko'riladi.

Xo'jaliklarda traktor transportlarining roli ortib bormoqda, yuk tashishda o'ziyurar shossilarning keng qo'llanishi transport xarajatlarini arzonlashtirishga olib kelmoqda. Yuklarni xo'jalik ichida tashishda ot-ulov va traktor transportlaridan foydalanish, uzoq masofaga tashishda esa avtomobil transportlaridan foydalanish iqtisodiy tomondan samarali bo'ladi.

Yuklarning xilma-xilligi va tashish masofasining o'zgaruvchanligi, transport vositalarining nisbatan yomon yo'llarda ishlatalishi va yil davomida yuk bilan bir me'yorda ta'minlanmaganligi bilan qishloq xo'jaligidagi transport ishlari sanoatdagidan farq qiladi. Transport ishlari yuklash, yukni tashish va yukni tushirish operatsiyalaridan iborat. Yuklarni ortish, tashish va tushirish vositalariga qo'yilgan asosiy talab: yuklar shikastlanmasligi, o'zining tashqi ko'rinishini buzmasligi lozim. Transport ishlarini qoniqarsiz tashkil qilish yoki transport vositalarining yetishmaslagi, qishloq xo'jaligini kompleks mexanizatsiyalashga to'siq bo'lib, yangi qishloq xo'jalik mashinalaridan samarasiz foydalanishga olib kelishi mumkin.

Sanoat korxonalarida transport vositalaridan yil davomida uzlusiz foydalanish mumkin, qishloq xo'jaligida bunday emas. Xo'jaliklarda transport vositalariga talab ko'proq hosil pishib yetilganda bo'ladi. Shuning uchun transport vositalariga bo'lgan talabni aniqlash va rejalashtirishga o'tishdan oldin xo'jalikda tashiladigan yuklarning umumiy miqdorini hamda mavsumga qarab tashish kerakligi aniqlanadi. Shundan so'ng tashiladigan yuklar texnikalarning ayrim turlari bo'yicha taqsimlanadi. Transport vositalarining turlari bo'yicha ularning iqtisodiy afzalligini aniqlash kerak.

Qishloq xo'jaligida transport ishlarini tashkil qilish hosildorlikka bevosita (ekin maydonining buzilishi) yoki bilvosita (yig'im-terimda hosilning isrof bo'lishi) ta'sir qilishi mumkin.

Bajariladigan ishning turiga ko'ra transport vositalari qo'rg'on doirasida, xo'jalik doirasida va xo'jalikdan tashqarida ishlataladigan xillarga bo'linadi.

Traktorlar asosan, qo'rg'on va xo'jalik ichidagi yuklarni tashishda ishlataladi. Xo'jalikdan tashqariga chiqariladigan yuklar esa asosan avtomobillar bilan tashilishi kerak.

Yuk tashish jarayoni ma'lum ko'rsatkichlar bilan baholanadi. Ularning asosiysi tonnada ifodalangan yuk tashish hajmi yoki killometrda ifodalangan bosib o'tilgan yo'l, ya'ni tonna-kilometrda ifodalanadigan transport ishi hisoblanadi. Vaqt biriligi ichida bajarilgan transport ishi transport vositasining (traktorning) ish unumi deyiladi. U transport vositasining yuk ko'taruvchanligi, harakat tezligi va ish vaqtining davomiyligiga bog'liq.

Traktordan transport ishlarida tortish vositasi sifatida foydalaniladi, u transport ishini yuklangan pritsep, yarim pritseplar yordamida bajaradi. Traktordan transport vositasi sifatida dala ishlaridan bo'sh vaqtarda foydalanish uning yillik ish bajarish hajmini oshiradi. Traktor bilan transport vositasi (pritsep) birgalikda **traktor-transport agregati** (TTA) deyiladi.

Transport vositalarini iqtisodiy baholashda: a) ish unumдорлигi; b) tonna-kilometrning tannarxi; v) kapital sarflar miqdori asos qilib olinadi.

Qishloq xo'jaligida transport vositalaridan foydalanishda yuklar quyidagicha klassifikatsiya qilinadi:

1. Xo'jalikning o'z hududi va chetdan keltiriladigan hamda chetga chiqariladigan yuklar. Xo'jalikning o'z hududida tashiladigan yuklarga ombordan bo'limlarga, fermalarga, fermerlarga olib boriladigan va ulardan olib kelinadigan yuklar kiradi. Chetga chiqariladigan yuklarga tayyorlov korxonalariga, bozorlarga yuboriladigan mahsulotlar kiradi. Chetdan esa xo'jaliklarga neft mahsulotlari, mineral o'g'itlar, qurilish materiallari keltirilishi mumkin.

2. Kichik va katta hajmli yuklar. Kichik hajmli – yuklarga don, kartoshka, mineral o'g'itlar, urug'liklar va shu kabilar kirsa, katta hajmli yuklarga – paxta, jun, pichan, somon va boshqalar kiradi.

3. Tez buziladigan yuklar. Bunga sut, go'sht, sabzavot, meva va hokazolar kiradi.

Transportning boshqa moddiy ishlab chiqarish sohalardan farqi shundaki, u yangi mahsulot yaratmaydi, balki ishlab chiqarilgan moddiy boylikni iste'molchilarga yetkazib beradi.

Transport yordamida sohalar, soha ichidagi tarmoqlar, tarmoq ichidagi korxonalar bir-biri bilan bog'lanib, ishlab chiqarilgan jarayoni normal kechishi uchun barcha sharoitlar yaratiladi. Transport ishlab chiqarish bilan iste'mol o'rtaqidagi aloqani ta'minlaydi. Ish kuchi, mehnat qurollari va mehnat buyumlarini bir joydan ikkinchi

joyga ko'chirib, jami iste'mol ko'lamiga bevosita ta'sir etadi. Transport vositalari yordamida moddiy boyliklar bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish natijasida iste'molchiga yaqinlashadi. Iste'mol qiyamatining tashkil topishi tezlashadi.

Transport vositalarining o'ziga xos bu xususiyatlari undan moddiy boylik ishlab chiqarishning hamma sohalarida keng ko'lamda foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Transport vositalaridan foydalanish mahsulot ishlab chiqarish va uni realizatsiya qilish uchun sarflanadigan vaqt ni qisqartiradi, mehnat unumдорligini oshiradi, mahsulot tannarxini kamaytiradi.

Qishloq xo'jaligidagi asosiy transport ot-ulov, traktor va avtomashina bo'lib, ulardan samarali foydalanish uchun shirkat xo'jaliklari negizida mashina-traktor hovlisi faoliyat yuritmoqda. Fermer xo'jaliklariga xizmat qiluvchi transport vositalari turli shakldagi korxonalarda bo'lib, ulardan asosiysi muqobil MTP lardir. Muqobil MTP, istiqbolsiz shirkat xo'jaliklari fermer xo'jaliklariga aylantirilgandan so'ng uning tarkibidagi MTP o'mida tashkil etilgan.

Muqobil MTP yuridik maqomga ega, davlat ro'yxatidan o'tgan, o'z hisob raqamini banklarda ochgan mustaqil xo'jalik hisobida faoliyat yurituvchi subyektdir. Ularning ta'sischilari asosan fermer xo'jaliklari rahbarlari va homiy tashkilotlar bo'lishi mumkin.

Muqobil MTP tashkiliy tuzilmasi, MTP tuzilmasi singari faoliyat yuritadi. Unga rahbarlikni korxonani tashkil etuvchi yoki ta'sischi bo'lishi mumkin. Asosiy vazifasi fermer xo'jaliklariga texnik servis xizmat ko'rsatishdan iborat bo'lib, xo'jaliklardi barcha agrotexnik tadbirlarni yer haydash va uni ekishga tayyorlash, agrotexnik ishlarini bajarish, yuklarni tashish va hokazolardir.

Fermer xo'jaliklari muqobil MTP lar bilan shartnomaga asosida faoliyat yuritadi. Shartnomaga shartlari bo'yicha qilingan xizmat va tashilgan yuk uchun o'z vaqtida banklardan olingan kredit mablag'laridan to'lab boradi.

Hozirgi kunda xo'jaliklarga texnik servis xizmat ko'rsatishda baho tizimi to'liq shakllantirilmagan. Baholar MTP tomonidan belgilangan bo'lib, barcha fermerlarni qoniqtirmaydi. Shuning uchun ba'zi joylarda fermerlar bu xizmatdan foydalanmay kelishmoqda. Masalan, 1 hektar bug'doy dalasini "Keys" kombaynida o'rib-yig'ishtirilgani uchun o'rtacha 63 ming so'mdan haq olmoqda. Bu esa fermerning sarf - xarajatlarini oshib ketishiga olib kelmoqda. Shuning uchun mexanizatsiya ishlarini baholashning quyidagi usulini qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Agrokimyo xizmati ishlardida texnika xizmatiga me'yoriy baho belgilash

| Ko'rsatkichlar | Organik o'g'itlarni tashish, 12 km/t, masofasi 6 km | Organik o'g'itlarni solish, 15 ga/t | Mineral o'g'itlarni tashish, 0,460 t., masofasi 4 km | Mineral o'g'itlarni solish, 0,400 ga/kg | Ekinzorlarni pestitsidlar bilan ishlash, ga |
|---|---|--|--|--|---|
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
| 1.Bajariladigan ish hajmi | 150 t | 150 ga | 1000 t | 400 ga | 300 |
| 2.Ta'rif razradi | II | IV | II | IV | VI |
| 3.Agregatlar tarkibi: | | | | | |
| Traktor | MTZ-80x | MTZ-80 | MTZ-80x | T28x4m | T28x4m |
| Qishloq xo'jalik mashinalari | 2PTS-4793 | RTO-4 | 2PTS-4793 | RUM-5 | OVX-14 |
| 4.Ish kunlari soni | 10 | 15 | 20 | 10 | 20 |
| 5.Agregatning mehnat unumдорлигি | 2,0 t | 1,03 ga | 2,80 t | 2,34 ga | 3,24 |
| 6.Ish smenasingin davomiyligi, soat | 7 | 7 | 7 | 7 | 4 |
| 7. Agregatlarning smenalik mehnat unumi (5qat.*6qat.) | | | | | |
| 8.Jami me'yor smena (1 qat.*7qat.) | | | | | |
| 9.Umum ish hajmiga vaqt sarfi, soat (1q.:5q.) | | | | | |
| 10.Yonilg'i sarfi me'yori (dizel yoqilg'isi – 18 so'm 1 km) | | | | | |

| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
|--|------|------|------|-------|-------|
| 11.Traktorming balans qiymati, ming so'm | 3500 | 3500 | 3500 | 3500 | 3500 |
| 12.Amortizatsiya ajratmasi summasi: | | | | | |
| a) to'liq tiklash (11q.*amortizatsiya ajrat:100) | 10% | 10% | 10% | 14,3% | 14,3% |
| b) kapital ta'mirlash (11q.*15 amort.aj.:100) | | | | | |
| v) joriy ta'mirlash (11q.*9,7 amor.ajr.*100) | | | | | |
| 13. traktorlarning yil davomida yuk bilan yurishi, soat | 1570 | 1622 | 1570 | 1392 | 1392 |
| 14.Qishloq xo'jalik mashinalarining balans qiymati, ming so'm | 1206 | 1375 | 1206 | 1980 | 1848 |
| 15.Amortizatsiya ajratmasi summasi: | | | | | |
| a) to'liq tiklash (14q.*amor.aj.*100) | 14,2 | 20,0 | 14,2 | 20,0 | 20,0 |
| b) kapital ta'mirlash (14q.*amor.aj. 100) | | | | | |
| v) joriy ta'mirlash (14q.*amor.aj.x:100) | 13% | 11% | 13% | 11,0 | 11,0 |
| 16.Qishloq xo'jalik mashinalarining yillik yurishi, soat | 420 | 150 | 420 | 120 | 310 |
| 17.Ish hajmini bajarishda traktorlar amortizatsiyasi (12a12b):13q.*9q. | | | | | |
| 18.Ish hajmini bajarishda qishloq xo'jalik mashinalari amort.summasi (15bq.:16q.*9q.) | | | | | |
| 19.Ish hajmi uchun jami arnaor. Summasi (17q.:18q.) | | | | | |
| 20.Traktorlarni joriy ta'mirlash xarajatlari (12v:14q.*9q.) | | | | | |

| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 |
|---|---|---|---|---|---|
| 21.Qishloq xo'jalik mashinalarini joriy ta'mirlash sarfi (15v:16q *9q.) | | | | | |
| 22.Jami joriy ta'mirlash sarfi, so'm (20q.:21q.) | | | | | |
| 23.Ish hajmi uchun yoqilg'i sarfi, so'm (1q.*10q.*18) | | | | | |
| 24.Jami ish haqi qo'shimchalari bilan (8q.*33q.) | | | | | |
| 25.Ta'rif bo'yicha ish haqi, so'm | | | | | |
| 26.Qo'shimcha so'm -klasslari uchun (1klass-20%) -zaharligi uchun (10%) -xizmat safari uchun (10%) | | | | | |
| 27.Jami asosiy ish haqi (25q.*26q.) | | | | | |
| 28.Staj uchun (10%) | | | | | |
| 29.Jami, so'm | | | | | |
| 30.Ta'til uchun (7%) | | | | | |
| 31.Jami, so'm | | | | | |
| 32.Ijtimoiy sug'urta va soliq aj. 37% | | | | | |
| 33.Jami ish haqi | | | | | |
| 34.Nakladnoy xarajatlar (32%) so'm (19+22+23+24)*32:100 | | | | | |
| 35.Jami xarajatlar, so'm (19+22+23+24+34) | | | | | |
| 36.Rejali qoplama, 15% (35*15%:100) | | | | | |
| 37.Umumiy ish hajmining qiymati, so'm (35+36) | | | | | |
| 38.Ish birligiga ratsenka (bahos) (37:1q.) | | | | | |
| 39.Nakladnoy xarajatlar, 32% so'm (19+22+23+24)*32%:100 | | | | | |
| 40.Ish hajmini bajarish uchun jami xarajatlar, so'm (19+22+23+24+34) | | | | | |
| 41.Umumiy tannarxga nisbatan rejali qoplama, 15% (35*15%:100) | | | | | |
| 42.Umumiy ish hajmi, so'm (35+36) | | | | | |
| 43.Ish birligining bahosi, so'm (37:1) | | | | | |

Respublika Prezidentining 2003 - yil 24 - martdagi “Qishloq xo‘jaligida iqtisodiy islohotlarini chuqurlashtirishning asosiy yo‘nalishlari” Farmoniga asosan “Fermer xo‘jaliklarini 2004-2007 yillarda rivojlantirish konsepsiysi” ishlab chiqildi. Unda asosan fermer xo‘jaliklarida ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishga e’tibor berilgan. Hozirgi kunda fermer xo‘jaliklariga agroservis xizmat ko‘rsatish yaxshi yo‘lga qo‘ylgan.

Fermerga to‘liq ta’minot, xizmat ko‘rsatish yaxshi yo‘lga qo‘yilsa mahsulot yetishtirish samaradorligi yuqori bo‘ladi.

Tuman MTP (hovlisidan) servis xizmatidan qishloq xo‘jalik subyektlari keng foydalinilmoqda. Ular asosan kontraktatsiya shartnomasi asosida zamonaviy texnikalardan (Magnum, Keys) foydalanmoqda. Lekin ularning xizmati qimmatligi uchun Muqobil MTP dan foydalanish foydali bo‘lmoqda.

12.3. Qishloq xo‘jaligida transport vositalaridan foydalanishning iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Qishloq xo‘jaligiga texnik servis xizmat ko‘rsatilganda, avvalo, xo‘jalik hamda xizmat ko‘rsatuvchi daromad oladi. Bu daromadni yanada oshirish va sarf - xarajatlarni kamaytirish uchun unga bog‘liq bo‘lgan ko‘plab iqtisodiy ko‘rsatkichlarni o‘rganish va ular yordamida tahlil qilishdan iboratdir. Traktor vositasiga iqtisodiy baho berishda mehnat unumдорлиги, bajarilgan ish hajmi tonna-kilometrning tannarxi va kapital sarflar miqdori bilan ham aniqlanadi. Fermerlarga ko‘rsatilayotgan xizmatlar samaradorligi quyidagi iqtisodiy ko‘rsatkichlar bilan izohlanadi.

Har xil markali mashinalarning ish hajmini aniqlashda: a) avtomashinalarning yillik o‘rtacha soni; b) mashinalarning bir yildagi ish kunlari soni; v) bir mashinaning kunlik bosishi (km); g) avtomashinaning yuk ko‘tarishi (tonna); d) avtomashina parkidan foydalanish koeffitsiyenti; ye) yuklarning holati va boshqalar.

Avtomashina parkidan foydalanish koeffitsiyenti – mashinalarning ish kunlari kalendar kunlarga bo‘linadi:

$$Mfk = \frac{TVik}{Kk};$$

Bunda:

Mfk – parkdagi mashinalardan foydalanish koeffitsiyenti;

TVik – transport vositalarining ish kunlari;

Kk – kalendar kunlar.

Parkdagi transport mashinalarining ishga tayyorgarlik koeffitsiyenti – transport vositalarining ish kunlaridan ta'mirlash va texnik qarovlarda band bo'lgan mashina kunlarini ayiramiz, qolgan ish kunlarini transport vositalarinining ish kunlariga bo'lamiz:

$$Mtk = \frac{TVik - K_k}{K_k};$$

Bunda:

Mtk – mashinalarning ishga tayyorgarlik koeffitsiyenti;

K_k – ta'mir va texnik qarovlarda band bo'lgan kunlar.

Mashinalarning o'rtacha yurish tezligi – avtomashina yoki pritsepli traktorlarning o'rtacha bir soatda bosib o'tgan yo'li olinadi:

$$Q = \frac{Z}{t_{yu}};$$

Bunda:

Q – mashinaning bir soatda o'rtacha bosib o'tgan yo'li (km);

Z – ma'lum vaqt ichida bosib o'tilgan yo'l (km);

t_{yu} – yo'l yurishga sarflangan vaqt (soat);

Har t/km ga sarflanadigan yonilg'i miqdori

$$1tkmYoM = \frac{YoM}{YoM \cdot Ayufk \cdot Afk} \cdot Aosb,$$

Bunda:

1tkmYoM – bir t/km ga sarflanadigan avtobenzin me'yori (g);

YoM – har 100 km ga sarflanadigan avtobenzin me'yori (l);

Ayufk – yuk ortilgan avtomashinadan foydalanish koeffitsiyenti;

Afk – avtomashinadan yuk tashishda foydalanish koeffitsiyenti;

Aosb – yuk bilan yurgandagi bir t/km ga ortiqcha sarflanadigan benzин (g).

Temir yo'l transporti texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlariga ko'ra quyidagilarga bo'linadi: a) 1-vagonga to'g'ri keladigan statistik va dinamik og'irlik; b) vagonlarning aylanish vaqt; v) texnik va uchastka tizimi; g) yuk vagonlarining o'rtacha sutkalik mehnat unumdorligi.

Transport vositalaridan foydalanishni to‘g‘ri tashkil qilish ularga sarflanadigan yonilg‘i va moylash materiallarining miqdorini to‘g‘ri aniqlash, haydovchi va yukchilarning mehnat unumini oshirishda, yuk tashishni arzonlashtirishda katta ahamiyatga egadir.

Mashinalarning tortadigan yuki hajmiga qarab har 100 km yurishga sarflanadigan yonilg‘i me’yori quyida berildi: ZIL-150 – 32,5 l, ZIL-164 – 31 l, ZIL-5 – 30 l, GAZ-63,63, A-27,5 l, Gaz 51, 51A-19 l, GAZ-450 – 17 l, ZIL-157 – 40 l, MOZ – 200 D-29,5, GAZ-93 – 25,5, ZIL-5 (samosval)-34 l, MAZ-205 YAAZ, 210YE-222 – 57 l va boshqalar.

Qisqacha xulosa

Transport vositalarining vazifasi xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarini bir-biri bilan uzyiy bog‘lashdan iborat. Uning tarkibiga temir yo‘l, avtomobil, havo va quvur transportlari kiradi. Ularning faoliyatini yaxshilash to‘g‘risida Respublika Prezidenti tomonidan farmonlar qabul qilinib, ular tarmoqni kompleks rivojlantirishga qaratilgan.

Qishloq xo‘jaligida transport vositalarinining asosiy vazifasi, maqsadli ishni tashkil etish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan. Qishloq xo‘jaligida ichki tizimida asosan ot-ulov va traktor pritseplari bilan oziq-ovqat mahsulotlari, mineral o‘g‘it, paxta, chorvachilik yem-xashklari tashilmoqda. Tashilayotgan yuklarning tashish tezligini va unga sarf - xarajatlarni kamaytirish uchun iqtisodiy ko‘rsatkichlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Tayanch iboralar

Transport, temir yo‘l, avtomobil, quvur, havo, daryo, “O‘zavtoyo‘l”, “O‘zyo‘lloyiha”, yuk, yo‘lovchi, “O‘zavtotransport”, truboprovod, MTP, Muqobil MTP, ta’sischi, baho, masofa, texnik servis.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Transportning xalq xo‘jaligida tutgan o‘rnini qanday?
2. Transport xizmatidan foydalanish yo‘llari nimalardan iborat?
3. Transport turlariga nimalar kiradi?
4. Xo‘jaliklarda transportdan qanday foydalilanildi?
5. Transport vositalaridan foydalanishning iqtisodiy ko‘rsatkichlari.

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. "Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz". –T.: "O'qituvchi", 2000.
2. Karimov I.A. "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashitirish yo'liga". –T.: O'zbekiston, 1995.
3. Xo'jayev B.A. "Avtomobil transporti iqtisodiyoti". –T.: "O'qituvchi", 1992, -268
4. Кошкун Ю.А. "Экономика ремонта сельскохозяйственной техники". –М.: "Колос", 1983, 413
5. Toshboyev A.J. "Qishloq xo'jaligi iqtisodi va Menejment" fanidan bosqich ishini bajarish uchun uslubiy qo'llanma. –T.: "TIQXMI", 1999.
6. Синюкова М.И. "Организация производства на сельскохозяйственных предприятиях. –М.: 1989, -511.
7. Toshboyev A.J. "O'zbekiston milliy iqtisodiyoti fanidan leksiyalar kursi". –T.: "TIMI", 2006, -142 b.
8. Коваленко Н.Я., Умурзоков У.П., Тошибоев А.Ж., Тошибоев А.А. "Экономика и организация фермерского хозяйства". -М.: "РГАУ-МСХА имени К.А. Тимирязева", 2008, -206 ст.

13-bob. QISHLOQ XO'JALIGIDA AGROKIMYO XIZMATI VA UNDAN FOYDALANISH

13.1. Qishloq xo'jalik korxonalariga agrokimyo xizmati ko'rsatish tushunchasi

Agrokimyo servis xizmat ko'rsatish korxonasining vazifasi qishloq xo'jalik subyektlariga shartnoma asosida xizmat ko'rsatishdan iboratdir. Qishloq xo'jalik mahsulot ishlab chiqarishning natijasi unga juda bog'liq.

Qishloq xo'jaligini bozor iqtisodiyotiga o'tishida agrokimyoiy xizmat ko'rsatish darajasiga e'tibor beriladi. Yangi shakldagi qishloq xo'jaligini kimyolashtirish bevosita yerlarni rejali unumdonligini oshirish bilan bog'liq. Mineral o'g'itlarni iste'molchisi bo'lgan o'simlikchilik tarmog'ining asosiy bir turi – paxtachilikdir. Paxta ko'p mineral o'g'it talab etuvchi o'simlikdir. O'zbekiston Respublikasida bu 1965 - yilda paxta bo'yicha – 2072,5 ming tonna fizik og'irlilikda, 2000- yilga kelib azotli o'g'itlar – 303,0, fosforli o'g'itlar – 88,0, kaliyli o'g'itlar – 37,0 ming tonna sarflandi.

Yerga ishlov berishda yuqori samara bersa ham, mineral o'g'itlar to'liq yetkazib berilmaydi. Yerga ishlov berish va pestitsidlarni ishlatalish xususiyati qishloq xo'jaligiga agrokimyoiy xizmat ko'rsatish yo'nalish tartibini asoslab beradi. Bu jarayon barcha ko'rildigan chorralarga bog'liqdir. Rivojlangan davlatlarning ilmiy agrokimyoiy ta'minoti ilmiy-tekshirish tashkilotlari, xususiy tashkilotlar, davlat budjeti va fermerlar moliyalashtiradi. Agrokimyoiy ishlab chiqarish xizmatini ixtisoslashtirgan kimyoviy kompaniya va tashkilotlar, qishloq xo'jalik korxonalari va bevosita fermerlarga xizmat ko'rsatadi.

MDH davlatlarida agrokimyoiy xizmat ko'rsatishni davlat va kooperativ agrokimyoiy markaz rivojlanishiga bog'liqdir. Davlatimizning katta e'tibori asosida kimyolashtirish, kimyoviy o'g'itlarni ishlab chiqarish oxirgi ikki o'n yillikda yetarjada darajada rivojlandi.

AQSH da o'g'it ishlab chiqarish darajasi MDH davlatlariga nisbatan 15 yil ko'proq tajribaga ega. 1972 – yilda MDH davlatlari jahonda o'g'it ishlab chiqarish bo'yicha mutlaq birinchi o'ringa chiqib

oldi. MDH davlatlaridagi kimyolashtirishning katta qismi qishloq xo‘jaligiga agrokimyoviy xizmat ko‘rsatishni ixtisoslashtirish va biriktirishni talab qildi. Bu davlat chiqargan qishloq xo‘jalik texnika tizimining birinchi bosqichi qishloq xo‘jalik korxonalarini kimyolashtirish vositalari va ta’minot funksiyasi bilan shug‘ullanuvchi uncha katta bo‘lmanag agrokimyoviy ishlarni ta’minlaydi. Davlat qishloq xo‘jalik texnika ishlari tizimi agrokimyoviy xizmat xodimlari qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish natijasiga qiziqishi bor. Kimyolashtirish ishlari sifati, ishning eng past sifatini, muddatlarning buzilishi, kuchi, o‘g‘itlarni tashish imkoniyati, uni saqlash va joylashtirish, muammolari hal etilmasa o‘g‘itni ishlatish samaradorligi (qaytimi)ga ta’sir etadi.

Yana bitta katta mavjud bo‘lgan yetishmovchilik bor va bu o‘g‘itni yo‘qolishiga olib keladigan ombor hajmining yetishmovchiligidir.

Davlat qishloq xo‘jalik texnika tizimi faoliyatida agrokimyoviy xizmat ko‘rsatuvchi ishchilarida qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish natijasiga bo‘lgan qiziqishini shakllantira olmadi. Bular agrokimyoviy xizmatlarni past darajaga olib keldi. Muddatlarning buzilishi, kuchining pastligi, o‘g‘itlarni yetkazib berish, ularni saqlash va yetkazish sharoitlari davomida vositalarni qabul qilingandan keyingi qaytimining unchalik katta emasligiga olib keladi. Undan tashqari, kimyoviy vositalarni yetkazib berish hajmi va ulardan foydalanish uchun bazaga yetkazib berish o‘zaro mos kelmadı. Kimyoviy o‘g‘itlarni solish ishlarini mexanizatsiyalash muammosi sekin hal qilinmoqda. O‘g‘itni aralashmasini to‘liq yetkazib berish yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi ham ma’lum, u o‘g‘itdan foydalanish samarasini sezilarli oshiradi va material zaxiralariga mehnat xarajatini kamaytiradi.

Kimyolashtirishning moddiy texnikaviy bazasini shakllantirishdagi yetishmovchilikdan tashqari, uning nihoyatda samarasiz ishlatilishining hammasi ko‘proq o‘simplikchilikda agrokimyoviy xizmat ko‘rsatishni tashkil etishni kuchsizligiga bog‘liq.

Agrokimyoviy xizmat ko‘rsatuvchi tizimdagи uzoq bo‘lmanag vaqtga amal qiluvchi o‘zaro idoralararo aloqa boshqarishda qiyinchilik tugdiradi, vositalarni sotish vazifasini bajarish va qishloq xo‘jaligini kimyolashtirishni barcha jarayonida oxirgi natija samarasini pasytirishga olib keladi.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligidagi islohotlar sharoitida agrokimyoviy xizmatning roli pasaymadi. Regional kimyoviy

vositalardan foydalanishning javobgarligining barchasi Alrokimyoviy ta'minotga yuklandi.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini mineral o'g'itlar va boshqa kimyoviy vositalar bilan ta'minlash qishloq xo'jaligiga agrokimyoviy xizmat ko'rsatishning ilmiy-uslubiy ta'minoti bilan birikishi asosida amalga oshiriladi, ishni sezilarli qismi qishloq xo'jalik korxonalariga agrokimyoviy ishlab chiqarish xizmatini amalga oshiruvchilar hissasiga to'g'ri keladi. Ko'p shakldagi funksiyani, bevosita ishtirok etuvchi texnologik operatsiyalarini bajarilishida Agrokimyo ta'minot bilan qishloq xo'jalik korxonalarini o'rtasidagi alohida ishlab chiqarish iqtisodiy aloqasi orqali amalga oshiriladi. Agrokimyota'minot birlashmasi qishloq xo'jalik korxoansiga ilmiy ishlab chiqarish va ishlab chiqarish agrokimyoviy xizmatini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish, yetishtirish operatsiyalari ichidagi eng muhimlari quyidagilar:

- organik va mineral o'g'itlarni, o'simliklarni himoyalash vositalarini tashish va yetkazib berish;
- yem ishlab chiqarishni kimyolashtirish;
- omborxona, fermalarni dezinfeksiyalash;
- zavod yetkazib beruvchidan kimyoviy vositalarni qabul qilib olish, nazorat qilish va saqlashni ta'minlash;
- yetkazib beruvchi xo'jaliklardan shartnomaga bo'yicha franko shartli asosida kimyaviy vositalarni temir yo'l vagonlaridan o'zining transportigacha yetkazib berish.

Haydaladigan yer va boshqa qishloq xo'jaligiga foydali bo'lgan tuproqni ekishni loyiha-smeta hujjatlarini, me'yor va mineral hamda organik ishlarning qabul qilingan me'yordagi Agrokimyota'minotning kimyolashtirish va agrokimyo labarotoriyasidagi loyiha qidiruv stansiyasida amalga oshiriladi. Uzbekiston Respublikasida kimyoviy loyiha qidiruv stansiyalari va laborotoriyalarida amalga oshiriladigan agrokimyoviy ilmiy- ishlab chiqarish xizmatlari davlat budgeti hisobidan shakllanadi.

Shuning uchun Agrokimyota'minot xo'jaliklari bilan , maydonning tarkibiy kafolatini yaxshilanishi, berilgan tuproq unumdarligi ko'rsatkichiga erishish bo'yicha shartnomaga tuzadi. Agrokimyota'minot birlashmasi shartnomaga asosan tuproq unumdarligini oshirish bo'yicha kompleks choralar amalga oshiriluvchi aniq maydonga xizmat qilishga biriktiriladi. Mutaxassislar

o'simliklarni yuqori aniqlikdagi programmalashtirish imkonini beradigan o'g'itli aralashmaning ratsionalroq bo'lgan normasini har bir maydon bo'yicha agrokimyoviy kartaga va maydon pasportiga tayanib asoslab beradi.

Agrokimyoviy ta'minot birlashmasi qishloq xo'jalik korxonalariga agrokimyoviy xizmat ko'rsatuvchi tuman (tumanlararo) ishlab chiqarish birlashmasini va xo'jalik xizmat bazasidagi kimyolashtirish punktlarini tuzishga javobgarlikni oladi.

Agrokimyoviy xizmat ko'rsatuvchi pastki (quyi) ishlab chiqarish bo'gini bu – xo'jalik kimyolashtirish punktidir. Ular o'zlarida qishloq xo'jalik korxonalarida kimyoviy vositalarni ishlatishda kerak bo'lgan asosiy va aylanma vositalar, ishchi kuchi bilan ta'minlangan ixtisoslashtirilgan ajratilgan bo'limni ifodalaydi. Kimyolashtirish punkti ishlab chiqarish punkti yoki sexlari kabi yaratiladi. U hozirgi vaqtida davlatning agrokimyoviy xizmat takliflarini asosiy ishlab chiqaruvchi zvenosidir. Shuningdek, hozirgi vaqtida yirik xo'jaliklarda kimyolashtirish bo'limi mavjud, boshqalari faqat hosildorlikka ajratish uchun tashkil qilinadi, asosan uchastka va bo'limmalar soniga bog'liq, bir bo'linma har doim barcha ishlab chiqarish brigadalarida xizmatni sifatli tashkil etishga qodir.

O'zbekistondagi qishloq xo'jalik korxonalarida tuzilgan kimyolashtirish punkti ishlab chiqarishga kimyolashtirish vositalarini qo'llash xarajatlarini qisqartirish imkonini beradi. Mamlakatimizning bir qancha tumanlarida xo'jaliklararo kimyolashtirish punktlariga va o'z faoliyatini to'liq xo'jalik hisobi asosida tashkil qilgan Agrokimyota'minot aksiyanterlik jamiyatining tuman (tumanlararo) filialining rivojlanishiga ega bo'ldi. Kimyolashtirish punktlariga asosisy vositalar, omborxonalar, o'lchash qurilmalari, shiyponlar, texnika, qishloq xo'jalik aviatsiyasi uchun uchish-qo'nish yo'lakchalari, jihozlar, texnik xizmat ko'rsatish uchun yuvish joyi va boshqalar biriktiriladi.

Xo'jaliklararo kimyolashtirish punkti tarkibida bir yoki bir necha mexanizatsiyalashgan bo'limmalar tashkil qilinadi, ulardan har biri komplekslashgan va ixtisoslashgan bo'limlardir (zvenolar):

- kimyoviy vositalar omborlarida tayyorlash va ortish-tushirish ishlari bo'yicha bo'lim;
- organik o'g'itlarni qollash bo'limi;
- mineral o'g'itlarni qo'llash bo'limi;

- o'simliklarni himoya qilish vositalarini qo'llash bo'limi;
- traktorlarga, avtomobil va qishloq xo'jalik mashinalariga texnik xizmat ko'rsatish punktlari.

Agrokimyota'minot aksiyadorlik jamiyatni ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish yo'naliшини yaratadi, ya'ni viloyat va tuman darajasidagi kimyoviy vositalardan samarali foydalanishga muhim zamin yaratadi.

Yagona ixtisoslashgan agrokimyoviyo xizmat ko'rsatish maqsadida bozor munosabatlariiga o'tish sharoitida qishloq xo'jaligiga agrokimyoviy xizmat ko'rsatishni xo'jalik hisobiga o'tishi hamda samara va sifatni oshirishga yo'naltirilishi, yuqori yakuniy natijaga erishishga iqtisodiy qiziqishni oshirish, kimyoviy vositalarni yo'qolishini kamaytirish imkonini beradi. Buning barchasi qishloq xo'jalik ekinlari hosilini keyinchalik ham o'sishini va qishloq xo'jalik ishlab chiqarish mahsulotlari hajmini oshirishni ta'minlashi shart.

Agrokimyoviy xizmat ko'rsatish turli shakllarining rivojlanishi uning xo'jalik bilan o'zaro aloqasini o'ziga xos xususiyatini, ya'ni yer usti va aviatsiya agrokimyoviy ishlar va ularni agrokimyoviy vositalar bilan ta'minlovchi tomonlar bilan tuzilgan shartnomalarni boshqarishni yaratdi. Shartnomada birgalikda bajariladigan barcha turdag'i ishlab chiqarish va qidiruv ishlari, ularning hajmi va qiymati, moliyalashtirish manbalari ko'rsatiladi (ohak bilan o'g'itlash, fosforlash va texnikaviy ishlar budget mablag'lari hisobidan bajariladi).

U yoki bu xo'jalikdagi ishlarning bajarilish muddati grafik bo'yicha amalga oshiriladi. Odatda, har bir xo'jalikda bo'limning ish muddati 2-3 haftadan oshmaydi. Agrokimyota'minotni saqlab turgan vositalar manbai, uning shartnomasi bo'yicha bajargan ish va xizmatlaridan olingan daromad hisoblanadi. ish natijasi shartnomasi bo'yicha olingan pul vositalari va agrokimyoviy xizmat va faoliyatni ta'minlash xarajatdari farqi sifatida aks ettiriladi. Agrokimyoviy ishlardan olingan daromad va foydani tuman birlashmalarining asosiy fondlarini shakllantirishning yagona manbai bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun o'z vaqtidagi o'zaro hisob-kitob hamda birlashma oladigan bajarilgan ish va foyda hajmiga bahoni asoslash tizimini boshqarish asosida shartnomalar sifatlari yakunlanishi mumkin.

Rejali iqtisodiyot davrida qishloq xo'jaligini kimyolashtirish bo'limlari yirik qishloq xo'jalik tarkibida tuzilgan va kimyolashtirish xizmatlari ichki xo'jalik tizimi asosida amalga oshirilgan. Agroximservis korxonalarasi esa "ta'minotchi" sifatida faoliyat ko'rsatgan. Endilikda

agroximservis xizmatlari turli mulkchilikka asoslangan xo‘jalik shakllari talabidan kelib chiqqan holda quyidagicha ta’riflanadi.

Agroximservis xizmati-qishloq xo‘jalik korxonalariga shartnoma asosida organik va mineral o‘g‘itlar, biologik va kimyoviy vositalarni yetkazib berish, qo‘llash, ishlov berish, sepish, shuningdek, agrokimyo kartogrammalari asosida solish va kimyoviy vositalarni qo‘llash bo‘yicha ilmiy asoslangan maslahatlar berish, tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan turli tadbirlarni o‘z ichiga olgan holda barcha agrokimyoviy xizmatlar majmuidir.

13.2. Mineral o‘g‘it ishlab chiqarish va uni iste’molchiga yetkazib berish yo‘llari

Kimyo sanoat korxonalari va tashkilotlarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda ular faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish tarmoq korxonalarini aksiyalashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish; mineral o‘g‘itlarni ishlab chiqarishni rivojlantirish; texnika bilan qayta jihozlash va zamонавиляштириш учун xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish maqsadida 2001 - yil 13 - martda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi «Kimyo sanoatini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida»gi qarorini qabul qildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 - yil 27 - dekabrdagi F-1313 – son farmoyishi bilan tuzilgan kimyo tarmog‘ini boshqarish tizimini va qishloq xo‘jaligini kimyoviy preparatlar bilan ta’minlashni takomillashtirib ochiq aksiyadorlik jamiyati shaklidagi «O‘zkimyosanoat» davlat aksiyadorlik kompaniyasi tashkil etildi.

O‘zbekiston kimyo sanoati korxonalari uyushmasi o‘rniga «O‘zkimyosanoat» davlat aksiyadorlik kompaniyasi faoliyat yuritadi. «O‘zkimyosanoat» DAK ning asosiy vazifasi:

- kimyo sanoati korxonalarini chuqur isloh qilish va xususiyashtirish, ushbu maqsadlar uchun chet el va mamlakatimiz investorlarini keng jalb etish;
- tarmoqni rivojlantirishning kimyo sanoatini barqaror rivojlantirishga, respublikaning mineral o‘g‘itlarga hamda kimyo mahsulolarining boshqa turlariga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlashga yo‘naltirilgan o‘rtacha va uzoq muddatli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- kimyo mahsulotlari tashqi bozorining marketing tadqiqotlarini amalga oshirish hamda shu asosda eksport salohiyatini kengaytirishni ta'minlash, jahon bozorlarida raqobatga bardoshli mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish va ularni eksportga yetkazib berish;

- kimyo sanoatini zamona viylashtirish, rekonstruksiya qilish va texnika bilan qayta jihozlashga yo'naltirilgan yagona texnika siyosatni o'tkazish, resurslarini tejaydigan samarali texnologiyalarini joyriy etish, ishlab chiqarishni va butlovchi buyumlar tayyorlashni mahalliylashtirishni rivojlantirish;

- menejmentning zamona viy usullarini egallagan va bozor sharoitlarida samarali ishlashga qodir bo'lgan muhandis-texnik va boshqaruvi kadrlari malakasini oshirish hamda ularni qayta tayyorlash kabi vazifalar yuqoridaq qarorda belgilab berildi.

Kompaniya korxonalarini xorijiy investorlarni jaib qilgan holda bosqichma-bosqich ochiq aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirish tadbirlarini belgilangan tartibda amalga oshirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasi va «O'zkimyosanoat» DAKga kimyo sanoati korxonalarini xususiy lashtirish uchun xorijiy konsalting va baholash kompaniyalari, moliyaviy agentliklar jaib etilib, buning uchun zarur mablag'lar ajratildi. «O'zkimyosanoat» DAK ga maqsadli Kimyo sanoati tashkilotlarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash jamg'armasini tashkil etish huquqi berildi.

13.3. Agrokimyo xizmati korxonasi haqida tushuncha

Qishloq xo'jalik korxonalariga mineral o'g'it, organik o'g'it va o'simliklarni himoya qilish kimyoviy vositalarini yetkazib berish va servis xizmatlari ko'rsatish 2004 - yillargacha «O'zqishloqxo'jalikkimyo» hududiy aksiyadorlik kompaniyasi va ularning viloyat, tuman va tumanlararo birlashmalari zimmasida edi.

Mineral o'g'itlar va o'simliklarni himoya qilish kimyoviy vositalarini ishlab chiqarish va sotilishini yaxlit tuzilmasini yaratish ularning qishloq xo'jaligiga yetkazib berilganligi uchun hisob-kitoblarning o'z vaqtida va to'liq amalga oshirilishini ta'minlash, hududiy agrokimyo xizmatlarining mas'uliyatini oshirish, ular va ishlab chiqarish korxonalari o'rta sidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilash maqsadida 2004 - yil 23 - yanvarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kimyo sanoati korxonalarini boshqarish tuzilmasini

takomillashtirish va qishloq xo‘jaligiga agrokimyo xizmati ko‘rsatishni yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi.

Bu qarorga ko‘ra «O‘zqishloqxo‘jalikkimyo» DAK tugatildi. «Qishloqxo‘jalikkimyo» hududiy aksiyadorlik birlashmaları «O‘zkimyosanoat» DAK tarkibiga berilib, «Qishloqxo‘jalikkimyo» hududiy aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirildi. «Qishloqxo‘jalikkimyo» hududiy aksiyadorlik jamiyatlarining vazifasi qilib quyidagilar belgilab berildi:

- o‘z tumanlararo va tuman filiallari orqali tegishli hudud bo‘yicha haqiqiy talabni o‘rganishni buyurtmanomalarini umumlashtirish hamda pirovard iste’molchilar – qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilar bilan mineral o‘g‘itlar va o‘simliklarni kimiyoiy himoya qilish vositalarining aniq turlarini yetkazib berish yuzasidan shartnomalar tuzish;

- har yili 1 oktabrdan kechiktirmay, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilarining buyurtmanomalarini umumlashtirish asosida respublika viloyatlari bo‘yicha mineral o‘g‘itlar va o‘simliklarni kimiyoiy himoya qilish vositalariga bo‘lgan ehtiyoj prognozini shakllantirishni hamda mineral o‘g‘itlar va o‘simliklarni kimiyoiy himoya qilish vositalarini ishlab chiqarvchi korxonalarida ishlab chiqarish bo‘yicha kelgusi yil dasturini o‘z vaqtida tayyorlash uchun «O‘zkimyosanoat» DAKga taqdim etadi;

2004 - yildan boshlab ishlab chiqarvchi korxonalar tomonidan mineral o‘g‘itlarning asosiy turlarini va defoliyentlarni ulgurji sotish yuzasidan tashkil etiladigan yarmarka savdolarida «Qishloqxo‘jalikkimyo» hududiy atsiyadorlik jamiyatları ulgurji xaridorlar sifatida ishtirok etadilar.

«O‘zkimyosanoat» DAK ning mineral o‘g‘itlar ishlab chiqaruvchi korxonalari tomonidan vositachilik shartnomalari bo‘yicha va «Qishloqxo‘jalikkimyo» hududiy aksiyadorlik jamiyatlarining omborlarida javobgarlik ostida saqlash uchun mineral o‘g‘itlar jo‘natish ta’qiqlangani uchun, «O‘zkimyosanoat» DAK tarkibiga kiruvchi mineral o‘g‘it ishlab chiqqaruvchi korxonalarga maxsus jihozlangan omborxonalar ajratib berildi. Shuningdek, yuqorida qarorga binoan «Qishloqxo‘jalikkimyo» hududiy aksiyadorlik jamiyatlarining chakana savdo tarmog‘i orqali dehqon va fermer xo‘jaliklariga sotiladigan mineral o‘g‘itlar va kimiyoiy preparatlarga qo‘shilgan qiymat solig‘ining olib tashlanishi «Qishloqxo‘jalikkimyo» hududiy aksiyadorlik jamiyatining huquqiy asosini kuchaytirdi.

Korxonani boshqarishning asosiy maqsadi eng yuqori foyda olish. Boshqaruv apparatining tuzilishi deganda boshqaruv apparati va uning tarkibidagi bog'lanish tushuniladi. Boshqaruv apparatining tarkibi bir-biri bilan bog'langan birikmalar va bo'g'inlar bilan to'ldirilishi uning tashkiliy tizimi deyiladi. **Tashkiliy tizim** bu boshqaruv tizimining asosiy tarkibiy qismalaridan biri bo'lib, boshqaruvchi tizim, boshqaruv subyekti tashkiliy tuzulish shakli demakdir. Boshqaruv tizimi tashqi va ichki omillarning ta'siri ostida tarkib topadi. Boshqaruv bo'g'inlari o'rtaqidagi aloqalarning turiga qarab tizimlarni 3 ta asosiy turga ajratish mumkin, ya'ni, lavozimi, vazifaviy va aralash, ya'ni kombinatsiyali muntazam tizimlardir.

Rahbar ishining asosiy omillariga quyidagilar kiradi: boshqaruv faoliyatining mohiyati, boshliqning roli, boshqarish funksiyalari va muvaffaqiyatga qaratilgan boshqaruv.

Rahbarning roli quyidagilardan iborat: shaxslararo informatsion va qaror qabul qilish.

Korxonani boshqarishda qo'llaniladigan usullar:

1. Iqtisodiy usullar – xodimlarning moddiy manfaatdorligi bilan bog'liq;

2. Tashkiliy-ma'muriy boshqaruv usuliga yakkaboshchilik munosabatlari, intizom va mas'uliyatga asoslanadi;

3. Ijtimoiy psixologik usullar;

Boshqaruv tizimining quyidagi 3 xil sistemasi mavjud bo'lib:

1. Chiziqli boshqarish sistemasida har bir xodim faqatgina bitta boshliqqa bo'y sunadi;

2. Funktsional boshqarish sistemasida boshqarish sistemasi 2-3 rahbar o'rtaSIDA ixtisosiga qarab taqsimlanadi. Bu sistemada boshqarish ancha ixtisoslashgan bo'ladi.

3. Murakkab boshqarish sistemasi – funksional va chiziqli boshqarish sistemasining yig'indisidan tashkil topadi.

Qishloqda iqtisodiy islohotlarni jadal suratlar bilan amalga oshirilishi, mulkdorlir sinfining shakllanishi, xo'jalik yuritish shakllarining ko'payishi sharoitida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining asosiy omillaridan biri bo'lgan agroximservis xizmatini tashkil etish va takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Qishloq xo'jaligiga mineral o'g'it va o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalarini yetkazib berish, tuproq unumdarligini saqlash va oshirish, yuqori hosildorlikka erishish, mahsulot sifatini yaxshilash,

o'simliklarni zararkunanda, kasallik va begona o'tlardan himoya qilish agroximservis xizmatini tashkil etishga bog'liq. Bugungi kunda "O'zkimyosanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasi va Respublika o'simliklarni himoya qilish va agrokimyo markazi tarkibiga ki puvchi tuzilmalar va boshqa bir qator xususiy korxonalar qishloq xo'jaligiga agroximservis xizmati ko'rsatib kelmoqda.

Qishloq xo'jalik korxonalariga agroximservis xizmat ko'rsatuvchi "O'zkimyosanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasi va uning tarkibidagi korxonalarning vazifalari quyidagilardan iborat:

- mineral o'g'it va boshqa kimyoviy vositalarni ishlab chiqarish va uni sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan yagona texnik siyosat o'tkazish, resurslarni tejaydigan samarali texnalogiyalarni joriy etish;

- marketing tadqiqotlari olib borish hamda mineral o'g'it va kimyoviy vositalarga bo'lgan talabni o'rGANISH;

- qishloq xo'jaligiga mineral o'g'it va kimyoviy vositalarni belgilangan talab asosida yetkazib berish uchun buyurtmalar qabul qilish va shartnomalar tuzish;

- raqobatbardoshli kimyo vositalarini ishlab chiqarishni ko'paytirishga, eksport salohiyatini kengaytirishga qaratilgan o'rta va uzoq muddatli dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- mineral o'g'it va kimyoviy vositalarni ishlab chiqarish va taqsimlashning yillik balansini ishlab chiqish;

- mineral o'g'it va defoliantlarni soitshda har yilgi yarmarka savdolari o'tkazilishini tashkil etish;

- sohada kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash.

"O'zkimyosanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasining tarkibiga mineral o'g'it va defoliantlar ishlab chiqaruvchi zavodlar, viloyat "Qishloqxo'jalikimyo" hududiy aksiyadorlik jamiyatlari, ularning tuman va tumanlararo filiallari hamda mineral o'g'it va boshqa kimyoviy vositalar sotuvchi do'kon va shoxobchalar kiradi.

Viloyat "Qishloqxo'jalikimyo" hududiy aksiyadorlik jamiyatlarining tuman va tumanlararo filiallari orqali tegishli hudud bo'yicha mineral o'g'it va boshqa kimyoviy vositalarga bo'lgan talabni o'rGANADILAR hamda buyurtmalarni umumlashtirgan holda qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari bilan shartnomalar tuzadilar. Tuzilgan shartnomalar asosida umumlashtirilgan buyurtmanomalar viloyat "Qishloqxo'jalikimyo" hududiy aksiyadorlik jamiyatiga, bu yerdan esa "O'zkimyosanoat" davlat aksiyadorlik kompaniyasiga taqdim

etiladi, kompaniya o‘z navbatida kelib tushgan buyurtmanomalarini zavodlarga joylashtiradi.

Kimyo zavodlari hamda mineral o‘g‘it va o‘simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalarini import qiluvchi firmalar va mahsulotlarni ulgurji-savdo yarmarkasida tovar xom-ashyo birjasiga qo‘yadi.

13.4. Mineral o‘g‘itlardan foydalanish va agrokimyo servis xizmat ko‘rsatishning iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari

O‘simlik uchun yorug‘lik, issiqlik, havo, suv va oziq moddalari talab darajasida bo‘lsa, uning rivojlanishi va hosil to‘plashi yuqori bo‘ladi. Shulardan biri mineral oziq moddalari azot, fosfor, kaliy, magniy, kalsiy, oltingugurt, temir moddalari kiradi. Mikroelement oziq moddalariga bo‘r, marganes, rux, mis, molibden, kobalt va boshqalar kiradi.

O‘simliklarning asosiy oziq elementi azot, fosfor va kaliy bo‘lib, o‘simlik ildizlari orqali mineral o‘g‘it holida, ba’zan esa organik holida oziq moddalarini tuproq orqali oladi. Dchqonchilikda foydalanilayotgan oziq moddalar mineral va mahalliy o‘g‘itlardan iborat bo‘lib, qattiq va suyuq holida ishlataladi.

13.5. I-jadval

Asosiy qishloq xo‘jalik ekinlariga beriladigan madaniy o‘g‘itlarning ilmiy asoslangan o‘rtacha me’yorlari, (kg/ga)
100 % sof modda hisobida

| Nº | Ekin turлari | Azot | Fosfor | Kaliy |
|----|---------------------------------------|---------|---------|---------|
| 1 | Boshqoli don ekini: sug‘oriladigan | 150-200 | 100-120 | 50 |
| | Lalmi | 50-60 | 40-50 | - |
| 2 | Makkajo‘xori (don uchun) | 180-220 | 120-140 | 85-90 |
| 3 | Sholi | 200-220 | 140-145 | 150-180 |
| 4 | G‘o‘za, sh.j. o‘rtacha tolali | 215-240 | 145-165 | 95-100 |
| | Ingichka tolal i | 230-250 | 155-165 | 100-110 |
| 5 | Kanop | 160-180 | 130-140 | 80-90 |
| 6 | Tamaki | 120-150 | 80-100 | 40-45 |
| 7 | Kartoshka | 120-150 | 85-100 | 60-75 |
| 8 | Sabzavot | 145-200 | 100-110 | 70-75 |
| 9 | Poliz | 50-75 | 100-110 | 45-50 |
| 10 | Oziqabop ildizmeva | 220 | 90 | 60 |
| 11 | Makkajo‘xori (silos uchun) | 200 | 90 | 60 |
| 12 | Eski beda | 100 | 90-100 | 50-60 |
| 13 | Meva beruvchi bog‘ | 120-130 | 85-90 | 65 |
| 14 | Meva beruvchi tokzor | 135-140 | 90-95 | 70 |
| 15 | Tuzorlar | 100 | 60 | 40 |

O'zbekiston sharoitida qishloq xo'jalik ekinlariga ma'dan o'g'itlarni ishlatishda o'ziga xos har bir ekin turining marfalogik xususiyati bo'lib, unga yer sharoiti, ob-havo, iqlim, relyef va atrof-muhit hisobga olinib rayonlashtiriladi. Ilmiy tekshirish institutlarining olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarining natijalaridan kelib chiqib o'simlik turi bo'yicha o'g'it me'yorlari ishlab chiqiladi. O'g'it me'yorlari o'g'it turlari bo'yicha ta'sir etish oziq birligida ishlab chiqilib ta'minot tashkilotlari orqali o'g'it bilan ta'minlash fondlari belgilanganadi. Bu me'yor va fond direktiv tashkilotlar tomonidan tasdiqlanib, dastur tuziladi. Masalan: 2-jadvalada boshoqli don uchun 150-200 kg azot, 100-120 kg fosfor, 50 kg kaliy o'g'it berish me'yori belgilangan bo'lib, har bir tovar ishlab chiqaruvchi subyekt mazkur ko'rsatkich orqali mahsulot yetishtirishni rejalashtiradi. Ushbu me'yori ko'rsatkichlardan o'g'it kam yoki ko'p bo'lsa, xo'jalik faoliyatiga katta zarar yetkazishi mumkin. Shuning uchun me'yor bo'yicha o'g'it ishlatilsa, o'g'it hisobiga hosil shuncha yuqori bo'ladi. Ma'dan o'g'itlarni ishlatishda har bir ekinga shudgorlashda, ekin oldidan, ekish bilan birga va oziqlantirish davrlariga ajratib o'g'itni ishlatish me'yorlari ham ishlab chiqilgan.

Organik o'g'itlar tarkibida azot, fosfor, kaliy, kalsiy va o'simliklarni oziqlantirish uchun kerak bo'lган boshqa elementlar, shuningdek, tuproqning xossalariiga ijobji ta'sir etadigan organik moddialar bo'ladi. Organik o'g'itlar tarkibida azot, fosfor va kaliy miqdori mineral o'g'itlar tarkibidagi qaraganda kamroq bo'ladi, shunga ko'ta ularni uzoqqa tashib bo'lamydi, to'plangan joyidan olib foydalilanildi va shuning uchun ham mahalliy o'g'itlar deb ham yuritiladi. Organik o'g'itlarga hayvonlar go'ngi, turli xil kompostlar, ko'k o'tlar kiradi.

O'g'itlarning iqtisodiy samaradorligi quyidagi ko'rsatkichlar bilan taqqoslanishi lozim: qoplanuvchanlik, rentabellik, tannarxi, sof daromad, mehnat unumdorligi.

Shuningdek, o'g'itlarning iqtisodiy samaradorligini hisoblashda qo'shimcha mahsulot yetishtirish va sotish uchun sarflangan qo'shimcha xarajatni o'g'itlanmagan variant bilan taqqoslanadi. Eng optimal variant uchga bo'linadi:

1. Qilingan xarajatlarning eng yuqori rentabelligi;
2. 1 hektar yerdagi eng ko'p sof daromad olish;
3. 1 hektar yerdan eng arzon mahsulot olish.

O‘g‘itlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichlarini hisoblashda ishlab chiqarish va buxgalteriya hisobi materiallaridan quyidagi ma‘lumotlarni olish lozim: “Qishloqxo‘jalikkimyo” XAJ ning 1 tonna fizik hajimdagi va so‘f holdagi mineral o‘g‘itga qo‘ygan narxi va ustamasi; “Qishloqxo‘jalikkimyo” XAJ ga to‘lanmaydigan mineral o‘g‘itlarni xo‘jalikka tashish bo‘yicha qo‘srimcha transport xarajatlari; mahalliy ombotlarga mineral o‘g‘itlarni tushirish xarajatlari; o‘g‘itlarni saqlash, ortish-tushirish ishlariga tayyorlash, dalagacha tashish va solish xarajatlari; mahsulot birligiga qilingan terish, qayta ishlash, saqlash va qayta ishlash korxonalarini tomonidan qoplanmagan sotish xarajatlari; 1 etalon gektar, tonna-kilometr va ot-kuchi tannarxi; qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotib olish preyskuran narxi; o‘g‘itlarni ortish-tushirish, tayyorlash, tashishi va hosilni yig‘ish bilan bog‘liq bo‘lgan mexanizatsiyalashgan va qo‘l mehnatlarining bajarilish me’yori va baholanishi; xo‘jalikning dehqonchilik mahsulotining tannarxiga kiruvchi ish haqi (hisoblangan, qo‘srimcha va mukofotlar) va nakladnoy xarajatlarining o‘rtacha foizi; xo‘jalikning 1 gektraiga qilingan barcha ishlab chiqarish xarajatlari pulda va mehnat sarfi kishi-soatda, shuningdek, 1 s. asosiy mahsulotning tannarxi va ish haqi xarajati; xo‘jalikning mahsulot turlari bo‘yicha o‘rtacha hosildorligi va o‘g‘itlarni sarflash me’yori. O‘g‘itlardan foydalanish hisobiga hosildorlik xajmining ortishi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Ho = (Hh * Uhoh) : 100;$$

Bu yerda: Hh – xo‘jalikdagi haqiqiy hosildorlik, s/ga.

Uhoh - o‘g‘itlarning haqiqiy sepilish me’yordan kelib chiqqan holda hosilni yetishtirishda tutgan ulushi, %.

O‘g‘itni jami hosildagi tutgan salmog‘i quyidagicha aniqlanadi:

$$US = \frac{Qh}{Uhoh} \cdot 100;$$

Bu yerda:

Qh - tajribadagi o‘g‘it sarfi hisobiga olingan qo‘srimcha hosil, s/ga.

Uhoh – o‘g‘it hisobiga olingan hosil, s/ga.

Mineral o‘g‘itlarning iqtisodiy samaradorligini aniqlash ko‘rsatkichlari quyidagilar: hosildorlik (H), s/ga – SSU – 29 s.x ning hisob-kitob formulasiga muvofiq

$$H = \frac{YaH}{Em};$$

formulasi bo'yicha aniqlanadi.

Bu yerda:

YaH — yalpi hosil, s.

Mineral o'g'itlar ishlatalish tufayli hosildorlikning o'sishi (MO'hho), s/ga formula bo'yicha hisoblanadi.

$$MO'hho = \frac{H \cdot YaM}{100};$$

Bu yerda:

YaM — hosildorlik (yoki yalpi mahsulot) normativlar bo'yicha belgilangan o'g'itning qo'shimcha hissasi.

Mineral o'g'itlardan olinadigan hosilga ketgan mablag'lar A, formula bo'yicha aniqlanadi.

$$A = A_1 + A_2$$

Bu yerda:

A₁ — me'yorlar bo'yicha hisoblangan sotib olish, transport vositasida tashish, saqlash, tayyorlash va yerni o'g'itlashga mo'ljallangan ishlab chiqarish xarajatlari. A₂ — yig'ib-terib olish, kam-ko'stini tamomlash va qo'shimcha hosilni realizatsiya qilish (sotish) bilan bog'liq bo'lgan ortiqcha chiqimlar.

Butun maydonda yoki 1 gektardan olingan sof foyda, (SF) quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi.

$$SF = Qh - A$$

Bu yerda,

Qh — hozirgi baho bo'yicha o'g'it ishlatalish natijasida olingan qo'shimcha hosil bahosi.

Tuman «O'zqishloqkimyo» aksiyadorlik jamiyatining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlri quyidagilardan iboratdir:

1) xizmat qiluvchi korxonaga xizmat ko'rsatish sohasining iqtisodiy samaradorligi va mehnat unumdarligi;

2) o'g'it hisobiga olingan hosilning faoliyatdagi xo'jalikning 5 yillikning o'rtachasiga solishtirilgan farqi;

- 3) kapital qo'yilmalarning qoplanishi;
- 4) tuman agrokimyo xizmatining o'g'it hisobiga olingan hosili, hosilni ortishi, xizmat tannarxining pasayishi; yukni tashish, yuk oboroti, saqlash xaratjlarining kamayishi.

Agrokimyo xizmatining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari:

- 1) o'g'it hisobiga olingan hosil s/ga.

$$Uoh = (YaM * Muqu) / 100$$

Uoh – o'g'it hisobiga o'g'it miqdori;

Yam – haqiqiy hosildorlik yoki yalpi mahsulot;

Muqu – o'g'itning qatnashish ulushi, hosil bo'yicha.

- 2) o'g'it hisobiga olingan hosilning puldagi ifodasi;
- 3) agrokimyo xizmati hisobiga tannarxning pasayishi;
- 4) agroximiya xizmati tomonidan bajarilgan ishlar qiymatini (hajmini) rejaga nisbatan o'zgarishi;
- 5) xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarga mineral o'g'itlarni rejaga nisbatan yetqazib berish ko'rsatkichi;
- 6) kapital mablag'larni qoplash muddati.

Yuqoridaagi ko'rsatkichlar orqali agrokimyo xizmatining va o'g'itdan foydalanish samaradorlik ko'rsatkichlarini hisoblashdan iboratdir.

Qisqacha xulosa

Agrokimyo servis xizmat ko'rsatish – qishloq xo'jalik korxonalariga mineral va organik o'g'it hamda kimyoviy vositalar bilan ta'minlash, yetkazib berish hamda agrokimyo servis xizmat ko'rsatishdan iboratdir.

Respublika qishloq xo'jaligi "O'zkimyosanoat" DAK tomonidan viloyat, tuman va tumanlararo hududiy bo'linmalar o'g'itlarni yetkazib beruvchi shohobchalar orqali xizmat ko'rsatadi. Servis xizmatlar shartnoma asosida amalgga oshiriladi.

O'g'itlar bilan ta'minlash belgilangan fond bo'yicha, agrokimyo servis xizmatlari esa kelishuv asosida amalgga oshiriladi. Respublikada yagona bo'lgan agrokimyo servis xizmat ko'rsatish tizimida qishloq xo'jalik korxonalarini, jumladan, fermer xo'jaliklarini o'g'it bilan ta'minlashda olib borilayotgan islohotlar shu tarmogni rivojlantirishda katta samara bermoqda.

Tayanch iboralar

Agrokimyo servis xizmati, O'zkimyosanoat, Qishloqxo'jalikkimyo, shohobcha, birja, savdo do'konlari, mineral o'g'it, organik o'g'it, kimyoviy vositalar, ta'minot, zavodlar, azot, fosfor, kaliy, yadoximikatlar, o'g'it, kimyo sanoati, tuproq unumdorligi, omborxona, samolyot, temir yo'l yo'lakchasi, shartnoma, kompost.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Agrokimyo servis xizmat ko'rsatishning zaruriyati nimada?*
2. *Agrokimyo servis xizmatlariga nimalar kiradi?*
3. *O'g'itlar qanday usulda xo'jaliklarga yetkazib beriladi?*
4. *Qishloq xo'jaligiga agrokimyo xizmatining asosiy vazifalarini ayting.*
5. *Mineral o'g'it va agrokimyo servis xizmat ko'rsatishning qanday iqtisodiy ko'rsatkichlari mavjud?*

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chiqurlashtirish yo'lida". –T.: O'zbekiston, 1995.
2. Farmonov T.X. "Fermer xo'jaliklarini rivojlantirish istiqbollari". –T.: "Yangi asr avlodni" 2004. 143 b.
3. Тошибоев А.Ж. "Повышение эффективности агрохимического обслуживания в хлопкосеющих хозяйствах". –Т.: "Меҳнат", 1991, -154 ст.
4. Хасанжанов К.А. Эффективность средств химии в земледелии. –Т.: Узбекистан, 1980 г. 204 сmp.
5. "Kimyo sanoati korxonalarini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish va qishloq xo'jaligiga agrokimyo xizmati ko'rsatishini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2004- yil 23- yanvar, №33.
6. «Государственное регулирование развития АПК и земельные отношения в России» под редакцией профессора Киселева С.В. –М.: «ТЕИС», 2005, -221 сm.
7. Umurzoqov O'.P., Toshboyev A.J., Toshboev A.A. "Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. –T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008, -273 b.

14-bob. QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA UNI BAHOLASH

14.1. Iqtisodiy samaradorlikning mohiyati va mezoni

Bozor iqtisodi sharoitida fermer xo'jaliklarining samarali ishlashi cheklangan resurslardan oqilona foydalanish orqali yuqori natijaga erishishga bog'liq. Ishlab chiqarish samaradorligi – juda murakkb iqtisodiy kategoriyadir. U obyektiv iqtisodiy qonunlar, ijtimoiy ishlab chiqarishning asosini ifoda etuvchi – natijani, ya'ni oqibatni aks ettiradi. Oqibat yoki natija har qanday faoliyatning maqsadidir. Samara tushunchasi bilan iqtisodiy samara tushunchasini farqlash kerak.

Samara bu keng tushuncha bo'lib, har qanday tadbir yoki faoliyatning oshishida, yem-xashak samarasи, chorva mahsuldorligi oshishida ifodalanadi. Ammo bu samara, ya'ni hosildorlikning va mahsuldorlikning oshishi bu tadbirdarning qanchalik foydaliligini ko'rsatmaydi. O'g'it va yem-xashaklardan foydalanish bilan bog'liq xarajatlarning qoplanganlik darajasi shu xarajatlar bilan olingan natija daromad bilan taqqoslangandagina ma'lum bo'ladi. O'g'it va yem-xashakdan foydalanish natijasida ekinlar hosildorligi, chorva mollarining mahsuldorligini oshirish bu tadbirni **texnik samaradorligini** ifoda qilsa, tadbirni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar bilan, buning natijasida olingan daromadni taqqoslash **iqtisodiy samaradorlikni** ifodalaydi.

Iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish vositalari va jonli mehnatni qo'llash orqali olingan foydali natijani yoki jami resurslar birligiga olingan natijani ifoda etadi.

Har qanday faoliyat va ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi xo'jalikni, shu jumladan, fermer xo'jaliklari daromadini orttiradi, ijtimoiy xarajatlarni yaxshilashga olib keladi. Bu jarayon nafaqat korxonalarga manfaatli, davlatga ham foydalidir. U yoki bu tadbirga baho berishda yoki uning o'lchamlarini aniqlashda iqtisodiy samaradorlik mezonini bilish kerak. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir korxona to'la iqtisodiy va huquqiy mustaqillikka ega bo'lganligi uchun asosiy maqsadi o'ziga biriktirilgan resurslardan to'la va samarali foydalanishga qaratilgan

bo'lib, shu resurslar birligiga qancha ko'p daromad va foyda olsa, raqobat kurashida shuncha ustunlikka ega bo'ladi. Fermer va dehqon xo'jaligi mohiyatiga ko'ra, ular faoliyatini baholashda iqtisodiy samaradorlikning asosiy mezoni sifatida xo'jalik resurslari birligiga olingan yalpi daromadni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Yalpi daromad kategoriyasining afzalligi shundaki, bunda ham mahsulot miqdori, sifati, qanday bozorda va qanday bahoda sotilganligi moddiy xaratjatlar qanchalik tejalganligi o'z aksini topadi. Korxona, fermer xo'jaligi qancha ko'p yalpi daromad olishga erishsa, turli to'lovlarini (soliq va yig'imlar) to'lagandan keyin o'z ehtiyojlarini ko'proq qondirishga, korxonani kengaytirishga imkon beradigan mablag'ga ega bo'ladi.

14.2. Qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirish va uning iqtisodiy ko'rsatkichlari

Qishloq xo'jaligi — yerga dehqonchilik qilib, qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtiruvchi huquqiy maqomga ega bo'lgan subyektlar faoliyatidir. Qishloq xo'jalik mahsulotlari inson uchun oziq-ovqat, sanoat uchun xomashyo bo'lib xizmat qiladi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari tabiiy holda va yarim, to'liq qayta ishlash orqali iste'molchilar talabini qondiradi.

Qishloq xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish jaryoni mehnat predmeti, mehnat vositalari va mehnat qurollarining harakatidan shakllanadi. Ishlab chiqarish o'z jarayoniga qarab ikkiga: oddiy ishlab chiqarish va kengaytirilgani takror ishlab chiqarishga bo'linadi. Oddiy ishlab chiqarishda ekin maydoni, hosildorligi va yalpi hosil hajmi yillar davomida o'zgarmagan hajmda mahsulot yetishtirish tushunilsa, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishda mahsulot hajmi, turi, assortimenti, sanoat usulida qayta ishlanishi, sof holda iste'molchilarga yetkazilishi bilan ifodalananadi.

Yerga dehqonchilik qilishda donchilik, paxtachilik, g'allachilik, polizchilik, sabzavotchilik, kartoshkachilik, sholichilik va boshqa tarmoqlar bo'yicha faoliyat yuritiladi.

Dehqonchilik qilinadigan maydonni **ekin maydoni deb yuritiladi**. Bir gektardan olinadigan hosil, shu ekinning hosildorligi deb aytiladi. Ma'lum ekin maydonlaridan olingan hosilni yalpi mahsulot deb aytiladi. Yalpi mahsulot qancha ko'p bo'lsa hosildorlik shuncha ortadi. Yalpi mahsulotni hisoblashda ekin maydonini hosildorlikka ko'paytmasi bilan aniqlanadi.

Hosildorlik – yalpi hosilni ekin maydoniga nisbati bilan, ekin maydoni esa yalpi hosilni hosildorlikka nisbati bilan aniqlanadi.

Qishloq xo'jalik mahsulotlariga bo'lgan talabni to'laroq qondirish uchun mahsulot hajmini yanada ko'paytirish kerak. Qishloq xo'jaligida yalpi va tovar mahsuloti miqdori ortishi qishloq xo'jaligi bilan sanoat, shahar bilan qishloq o'rtasidagi iqtisodiy aloqalar rivojlanadi.

Yalpi mahsulot - bu (qishloq xo'jaligida) bir yil ichida ishlab chiqilgan jami mahsulotga aytildi. Ekin turlari bo'yicha ma'lum ekin maydonidan yetishtirilgan mahsulot miqdori ham tushuniladi.

Yalpi mahsulot asosan dehqonchlik (o'simlikchilik) va chorvachilik sohasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan tashkil topadi.

Chorvachilikda yalpi mahsulot esa chorvachilikdan olinadigan jami mahsulotlar (hayvonlarni yetishidan tashqari), yangi tugilgan xayvonlar, ularning o'sish hisobiga olingan vazni va qo'shimcha mahsulotlardan tashkil topadi. Yalpi mahsulotlarga xo'jaliklarning yordamchi korxonalarida qayta ishlangan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlari, ustaxonalarda tayyorlangan mahsulotlar, xo'jalik doirasidagi tabiat tomonidan tayyor beriladigan mahsulotlar, o'rmonlar kiradi.

Qishloq xo'jaligidagi yalpi mahsulot natural va qiymat ko'rinishida bo'ladi.

Qishloq xo'jaligida yalpi mahsulot foydalanish xarakteriga qarab ikki qismga: bir qismi ishlab chiqarishni kengaytirilgan tarzda o'zluksiz davom ettirish maqsadida va boshqa maqsadlar uchun xo'jalik ichida iste'mol qilinadi. Qolgan qismi esa oldi - sotdi jarayoniga qatnashib tovar mahsulotiga aylanadi.

Tovar mahsuloti - yalpi mahsulotning sotiladigan qismi tovar mahsuloti deyiladi. Tovar mahsuloti hajmi yalpi mahsulot hajmiga teng yoki undan kam bo'lishi mumkin. Tovar mahsuloti hajmi yalpi mahsulot hajmidan ortiq bo'lishi mumkin emas. Qishloq xo'jaligida quyidagi ekinlar paxta, tamaki, qand lavlagi, chorvachilikda pilla, qorako'l terisi, tovar mahsuloti bo'lib, bu mahsulotlar to'liq davlatga sotiladi. Agar xo'jalikniing tarkibida qayta ishlash zavodlari bo'lsa, xo'jalik o'zi foydalanishi mumkin.

Tovar mahsulotining samarasи tovarlilik darajasi bilan harakterlanadi. Tovar mahsulotining yalpi mahsulotga nisbati tovarlilik darajasini ko'rsatadi. Tovar mahsulotining yalpi mahsulotga foizi deyiladi. Har ikkala ko'rsatkich yalpi mahsulotning qancha qismi yoki necha foizi tovar mahsulotiga aylanishini ko'rsatadi. Misol

keltiraylk. Tovar aylanishi qancha tez bo'lsa, xo'jalikga pul tushuvi shuncha tez va yalpi mahsulot hajmi ortib boradi.

$$Td = \frac{Tm}{Yam} \cdot 100 ;$$

Bunda: Td -tovarlilik darajasi;

Tm -tovar mahsuloti.

Mahsulotning tovarlilik darajasini oshirishda mahsulot sifatiga, qadoqlanhishiga va standartga javob berishiga e'tibor beriladi.

Yalpi daromad - yalpi mahsulot qiymatidagi ishlab chiqarish harajatlari chegirilgandagi qolgan mahsulotdir.

Mahsulot tovarliligin oshirish uchun mahsulot sifatini yaxshilash lozim. Shuning uchun mahsulot hajmini va tovarliligin oshirish orqali yuqori samaradorlikka erishiladi.

14.3. Iqtisodiy samaradorlikni aniqlash usullari

Fermer xo'jaliklarini rivojlantirishda uning faoliyatiga baho bermasdan uning iqtisodiy samaradorligini ta'minlab bo'lmaydi. Iqtisodiy samaradorlikning asosiy mezoni to'la va aniq jarayonni hamda ishlab chiqarishni hisob - kitob qilishdan iborat.

Fermer xo'jaligining yalpi daromadi yetishtirilgan mahsulotni puldagi ifodasi bo'lib yildan - yilga o'sib bormoqda. Bu xo'jalik faoliyati ijobjiy yo'nalishda borayotganligini ko'rsatadi. Shuning uchun xo'jalik faoliyatiga ta'sir etuvchi har bir omil harakatini ifoda etuvchi o'ziga xos ko'rsatkichlarni bilish kerak. Fermer xo'jaliklari iqtisodiy samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishlarini kompleks tahlil qilish va ishonchli xulosalar chiqarish, to'g'ri qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Fermer xo'jaligi faoliyati va ishlab chiqarishi iqtisodiy samaradorligini aniqlashda qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari bo'lib unga biologik jarayon va turli tabiiy iqlim sharoitlari ishlab chiqarish natijalariga turlicha ta'sir etadi. Fermer xo'jaliklari bir xil mehnat sarf qilingan holda turli shakllarda va turli yillarda turli natjalarga erishishi mumkin. Fermer xo'jaliklari faoliyatiga baho berishda hamma ko'rsatkichlarni ikki guruha: **natura ko'rsatkichlariga va qiymat ko'rsatkichlariga bo'lish mumkin.**

Natura ko'rsatkichlari iqtisodiy samaradorlikni bevosita ifoda qilmasa-da, bu ko'rsatkichlarsiz tadbiriga to'la baho berib bo'lmaydi. Chunki natura ko'rsatkichlari jarayonning intensivligini ifodalaydi.

Qishloq xo'jaligini xususiyatiga ko'ra, yer asosiy vosita bo'lganligi, uni tabiatdan cheklanganligi, boshqa vositlar kabi inson uni xohlaganicha ko'paytira olmasligi qishloq xo'jaligini rivojlantirishni intensiv bo'lishini zaruriyat qilib qo'yadi. Shuning uchun 1 hektar yerdan olingan mahsulot, ya'ni hosilni, chorva mahsuldarligini oshirish, har bir fermer xo'jaligining asosiy vazifasi hisoblanadi. Fermer xo'jaligida olingan mahsulot va daromad turli ishlab chiqarish omillarining o'zaro integral (funktional) aloqasi natijasi bo'lganligi uchun qiymat ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

Mehnat unumdarligi bu ko'rsatkich fermer xo'jaligida mehnatni samaradorligini ko'rsatadi. Fermer xo'jaligida o'rtacha yillik xodim, sarflangan kishi-kuni, kishi-soatiga yetishtirilgan yalpi mahsulot va yalpi daromad miqdori bilan ifodalanadi.

Mahsulot tannarxi bu ko'rsatkich ishlab chiqarishga va fermer xo'jaliqi faoliyatiga iqtisodiy baho berishda juda katta ahamiyatga ega bo'lib, bir yilda yetishtirilgan mahsulotiga qancha joriy xarajatlar qilinganligini ifoda etadi. Erkin raqobat amal qilgan bozor iqtisodi sharoitida har bir korxona mahsulotining narxi bozor bahosiga katta ta'sir etolmaydi. Ammo yetishtirayotgan mahsulotiga qilinayotgan xarajatlar darajasi, ya'ni mahsulot tannarxi korxona faoliyatiga bevosita bog'liq. Shuning uchun korxona xarajatlarini kamaytiradigan texnologiyalarni qo'llashi, ekinlar hosildorligining, chorva mahsuldarligining ustun darajada o'sishini ta'minlashi, mahsulot birligiga xarajatlarni kamaytirishga, tannarx pasayishiga va natijada yalpi daromad hamda foya oshishiga olib keladi.

Fermer xo'jaligida ishlab chiqarishning samaradorligini tahlil etishda ishlab chiqarishni asosiy resurslari (omillari) bo'lgan asosiy va aylanma fondlardan samarali foydalanishni ifoda etuvchi ko'rsatkichlardan ham foydalanish mumkin. 1 ga qishloq xo'jaligiga yaroqli yerga yetishtirilgan yalpi mahsulot va yalpi daromad, 1 so'mlik asosiy va aylanma fondlarga yetishtirilgan yalpi mahsulot (fond qaytimi) yoki 1 so'mlik yalpi mahsulotga to'g'ri keladigan fondlar (fond sig'imi) aylanma fondlarning aylanish koeffitsiyenti va hokazolar.

Misol uchun, Surxondaryo viloyatidagi fermer xo'jaliklari faoliyati samaradorligining ayrim tomonlarini tahlil qilamiz.

Surxondaryo viloyat fermer xo‘jaliklarining yalpi daromad tahlili

| Ko‘rsatkichlar | Yillar | | | | | 2004 yil 2000 yilga nisbatan, % |
|-----------------------|---------|---------|---------|---------|---------|---------------------------------------|
| | 2000 | 2001 | 2002 | 2003 | 2004 | |
| Olingen yalpi daromad | 10678,3 | 16766,6 | 22570,2 | 32671,4 | 51338,1 | 480,1 |
| shu jumladan: | | | | | | |
| a) paxtadan | 7847,9 | 11734,7 | 14918,3 | 22831,2 | 36547,7 | 466,0 |
| b) g‘lladan | 2830,4 | 5032,2 | 7651,9 | 9840,5 | 14790,4 | 522,6 |
| Jami sarf-xarajat | 9605,5 | 15033,6 | 18003,8 | 25972,4 | 36324,0 | 378,2 |
| shu jumladan: | | | | | | |
| a) paxtadan | 7452,8 | 11163,5 | 12183,2 | 18150,6 | 25464,0 | 341,7 |
| b) g‘lladan | 2152,7 | 3870,1 | 5460,7 | 7821,8 | 10860,0 | 504,5 |
| Jami olingen foyda | 1072,8 | 1733,0 | 4566,4 | 6699,0 | 15014,1 | 1399,5 |
| shu jumladan: | | | | | | |
| a) paxtadan | 395,1 | 571,2 | 2735,1 | 4680,6 | 11083,7 | 2805,3 |
| b) g‘lladan | 677,7 | 1162,1 | 2191,2 | 2018,7 | 3930,4 | 580,0 |
| Rentabellik darajasi | 11,2 | 11,5 | 25,4 | 25,8 | 41,3 | 30,1 punkt |
| шу жумладан | | | | | | |
| a) paxtadan | 5,3 | 5,1 | 22,4 | 25,8 | 43,5 | 38,2 |
| b) g‘lladan | 31,5 | 30,0 | 40,1 | 25,8 | 36,2 | 4,7 |

Keltirilgan ma'lumotlar natijasidan ma'lumki, 2000 - yilda viloyat bo'yicha fermer xo'jaliklarining yalpi daromadi 10678,3 mln.so'm bo'lgan bo'lsa, 2004 - yilga kelib bu ko'rsatkich 51338,1 mln.so'm yoki 480,1 foizga oshdi. Daromad oshishi bilan bir paytda sarf xarajatlar kamayib sof foyda 139,9 foizga, paxtachilikda 280,6, g'ällachilikda 580 foizga oshdi. Bu esa o'z-o'zidan xo'jalikning rentabellik darajasini oshirish imkoniyatini beradi.

Viloyat fermer xo'jaliklarining mahsulot yetishtirish rentabelligi 2000 - yilda 11,2 foiz bo'lgan bo'lsa, 2004 yilga kelib 41,3 foizga yoki 30,1 punktg'a, g'ällachilikda 31,5-36,2 yoki 4,7 punktg'a oshdi. Tahlillardan ma'lumki fermer xo'jaliklari har bir imkoniyatdan tejamlı va oqilona foydalanganligi sababli yuqori samaraga erishgan. Fermerlar mulkchilik munosabatlарини to‘g‘ri yo‘lga qo‘yib tadbirkorlik faoliyatini to‘liq amaliyotga joriy etganligini ko‘rsatmoqda. Fermer xo'jaliklari viloyat xo'jaliklarining o‘rtachasiga shirkat xo'jaliklari faoliyatiga nisbatan har xil tarmoqdagi fermerlar o‘zining iqtisodiy ko‘rsatkichlari bilan ajralib turganligini quyidagi jadvaldan ko‘rib chiqamiz.

2004 - yilda Surxondaryo viloyat qishloq xo'jalik subyektlarida mahsulot yetishtirish samaradorligi

| Ko'rsatkichlar | Viloyat bo'yicha o'rtacha | Shu jumladan | | | | |
|---|---------------------------|----------------------|---------------------|------------------|--------|------------|
| | | Shirkat xo'jaliklari | Fermer xo'jaliklari | Ilg'or fermerlar | | |
| | | | | Baxriddin | Lochin | Qoraqasmoq |
| Hosildorlik s/ga | | | | | | |
| Paxtachilik | 27,7 | 26,5 | 28,4 | 45,1 | 40,2 | 38,4 |
| G'allachilik | 38,0 | 36,3 | 41,1 | 91,0 | 89,7 | 63,0 |
| Mahsulot tannarxi, 1 s so'mda | | | | | | |
| Paxta xomashyosi | 18560 | 19750 | 16450 | 13320 | 13480 | 14080 |
| Don | 7200 | 8100 | 6410 | 5130 | 5148 | 5490 |
| Sotish bahosi, 1 so'm | | | | | | |
| Paxta xomashyosi | 21500 | 20300 | 23740 | 25790 | 2556 | 24006 |
| Don | 8370 | 7870 | 8730 | 9830 | 9728 | 91310 |
| 1 k.ni sotishdan olingan foyda (K) | K2940 | K550 | K7200 | K12470 | K11770 | K9926 |
| Ko'rnilgan zarar (-) | -170 | -397 | K2320 | K4700 | K4580 | K3641 |
| Rentabellik (K) yoki zarar (-) darajasi (%) | | | | | | |
| Paxtachilik | K15,8 | K2,8 | K43,5 | K95,6 | K87,3 | 70,5 |
| G'allachilik | -2,3 | -4,9 | K36,2 | 91,6 | 89,0 | 66,3 |

2004 - yilda Surxondaryo viloyati bo'yicha paxta hosildorligi 27,7 s/ga bo'lган bo'lsa, shirkat xo'jaliklari 26,5 s/ga, fermer xo'jaliklari 28,4 s/ga ishlab chiqqagan bo'lsa, ilg'or fermer xo'jaliklaridan Denov tumanidagi Bahriiddin fermer xo'jaligi 45,1 s/ga, Lochin 40,2 s/ga, tuproq sharoiti og'ir suv ta'minoti past ta'minlangan Qiziriq tumanidagi Qoraqasmoq fermer xo'jaligi 38,4 s/ga hosil olishdi. Demak, ilg'or xo'jaliklar viloyat o'rtachasidan 1,5-2 baravarga gektaridan yuqori hosil olishga erishdi. Bir sentner paxta xomashyosidan olingan daromad viloyat bo'yicha 21500 so'mni tashkil etgan bo'lsa, fermer xo'jaliklari bo'yicha 23740 so'mni, ilg'or Bahriiddin fermer xo'jaligi 25790 so'mni tashkil etdi. Bu esa viloyat o'rtachasiga nisbatan 3,6 ming so'm farq qilmoqda. Rentabellik ko'rsatkichlari viloyat paxtachiligidagi 15,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, u fermer xo'jaliklarida 43,5 foizni, Bahriiddin

fermer xo'jaligida 95,6 foizni tashkil etdi. O'z-o'zidan ko'riniib turibdiki, har bir qilingan sarf xarajatlari so'm uchun 15,8-95,6 tiyinga foyda olinmoqda. Bu holat yuqoridagi ko'rsatkichlardan emas viloyatning yerlarida ham ijobjiy natijalarga erishmoqda.

Shunday qilib, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan qishloq xo'jalik subyektlaridan eng yuqori samaraga erishgan xo'jalik shakli fermer xo'jaligi ekanligini amaliyotda o'z tasdig'ini ko'rsatdi.

14.4. Foyda va rentabellik

Foyda va foydalilik - barcha korxonalar kabi qishloq xo'jalik korxonalari faoliyatining eng asosiy va yakuniy ko'rsatkichidir.

Hozir amalda qo'llanilayotgan Nizomga ko'ra, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati moliyaviy natijalarini shakllantirishda foydaning quyidagi ko'rsatkichlari qo'llaniladi:

1. Mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda. Bu mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi.

$$YaF=ST\cdot Mt;$$

Bunda: YaF – yalpi foyda;

ST – sotishdan olingan sof tushum;

Mt – sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.

2. Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda. Bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o'rtasidagi tafovut va plus asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa daromadalar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi.

$$Faf=YAF-DX+Daf-Zaf$$

Bunda: Faf – asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX – davr xarajatlari;

Daf – asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

Zaf – asosiy faoliyatdan ko'rilgan boshqa zararlar.

3. Umum xo'jalik faoliyatidan olingan foyda yoki zarar. Bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plus moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar va minus ko'rilgan zararlar sifatida aniqlanadi.

$$Fux=AFF+Dmf-Zmf$$

Bunda: Fux – umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda;

Dmf — moliyaviy foliyatdan olingen daromad;

Zmf — moliyaviy faoliyatdan ko‘rilgan zararlar.

4. Soliq to‘langungacha olingen foyda. Bu umumxo‘jalik faoliyatidan olingen foyda plus favqulodda (ko‘zda tutilmagan) vaziyatlardan ko‘rilgan foyda va minus zararlar sifatida aniqlanadi.

$$Fst=F_{\text{ux}}+F_{\text{fv}}-Z_{\text{fv}}$$

Bunda: Fst — soliq to‘langungacha bo’lgan foyda;

Ffv — favqulodda vaziyatlardan olingen foyda;

Zfv — favqulodda vaziyatlardan ko‘rilgan zarar.

5. Yilning sof foydasi. Bu soliq to‘lagandan keyin xo‘jalik yurituvchi subyekt, ya’ni korxona (firma) ixtiyorida qoladigan hamma xo‘jalik subyekti mustaqil tasarruf etadigan foyda. Uni soliqlar to‘langunga qadar bo’lgan foydadan, daromaddan soliqni hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to‘lovlarni chiqarib tashlagan holda aniqlanadi.

$$SF=Fst-DS-BS$$

Bunda: SF — sof foyda;

DS — daromad (foyda)dan to‘lanadigan soliqlar;

BS — boshqa soliqlar va to‘lovlari.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar, ya’ni korxona (firma)lar tomonidan ular xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish natijasida olinadigan daromadlarning manbalari quyidagilar:

- sotishdan olingen sof tushum;
- asosiy faoliyatdan olingen boshqa daromadlar (operatsiya daromadalari);
- moliyaviy faoliyatdan olingen daromadlar;
- favqulodda daromadlar.

Korxona daromadining asosiy manbasi — mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan kelib tushadigan pul tushumidir.

6. Sof pul tushumi bu — umumiy pul tushumidan qo‘shilgan qiymat, aksiz solig‘i va eksport boji olib tashlangandan qolgani.

7. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olinadigan boshqa daromadlarga undirilgan yoki e’tirof etilgan qarzlar, hisobot yilida olingen o‘tgan yilgi foyda, oshxonalar va yordamchi xizmat daromadlari, asosiy vositalarni tugatishdan kelgan daromadlar, davlat subsidiyalari, holisona moddiy yordam va boshqa daromadlar kiradi.

8. Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarga – olingan daromad transferti, qimmatli qog'ozlar bo'yicha daromadlar, mol-mulkni uzoq muddatli ijaraga berishdan olingan daromadlar (lizing to'lovini olish), valuta schotidagi ijobjiy kurs tafovutlari, qimmatli qog'ozlarni qayta baholashdan olingan va boshqa daromadlar kiradi.

9. Favqulodda foyda – bu ko'zda tutilmagan, tasodifiy tusga ega bo'lgan, hodisa yoki xo'jalik yurituvchi subyektning odatdag'i faoliyati doirasidan chetga chiqadigan tusdagi operatsiyalar natijasida paydo bo'ladigan va olinishi kutilmagan foydalar.

10. Sotilgan mahsulot rentabelligi (R) yoki yalpi foyda bo'yicha rentabellik

$$R = \frac{YaF}{T};$$

Bunda: R – sotilgan mahsulot rentabelligi.

Sotilgan mahsulot rentabelligi sotilgan mahsulotning har bir so'mi qancha yalpi foyda keltirganini ko'rsatadi.

11. Sof foyda bo'yicha rentabellik (R).

$$R = \frac{SF}{T};$$

Bunda: R – sof foyda bo'yicha rentabellik.

Sof foyda bo'yicha rentabellik har bir so'm sotilgan mahsulot korxona uchun qancha sof foyda keltirishini yoki sotilgan mahsulot tarkibida qancha sof foyda keltirishini yoki sotilgan mahsulot tarkibida qancha sof foyda borligini ifoda qiladi.

Yuqorida keltirilgan moliyaviy ishlab chiqarish ko'rsatkichlari korxona faoliyatini tahlil qilish, tadbirkorlikni maqbul va samarali yo'llarini belgilash, investitsiyalarni jalg qilish imkonini beradi.

14.5. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishda baho va baholash

Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirishda va uning iqtisodiy samaradorligini aniqlashda baho va baholash muhim o'rinn tutadi. Qishloq xo'jaligida yerni iqtisodiy jihatdan baholashda o'rtacha bir gektardan olingan yalpi mahsulot, sof daromat, foyda miqdoridan foydalinadi. Demak, baho tovar qiymatining pul shakli, bozor iqtisodi mavjud jamiyat xo'jalik mexanizmida amal qiluvchi iqtisodiy

quroldir. Bozor iqtisodida baho ulgurji, chakana, ichki, xalqaro, shartnama erkin narxlarda shakllanadi. Bozor iqtisodida narx uch xil vazifani bajaradi.

1. Qiymat o'lchovi - qilingan xarajatlar va olingen natija biron - bir narx yordamida hisob-kitob qilinadi.

2. Raqobatlashtirish omili - foyda tovar narxi bilan uni ishlab chiqarish uchun ketgan harajatlar o'rtasidagi farqqa teng bo'ladi.

3. Daromatlarni qayta taqsimlash vositasi bozor iqtisodi sharoitida 2 xil narx amal qiladi.

1. Erkin bozor narxlari.

2. Davlat boshqarib turadigan narxlari.

Tovar ishlab chiqarish sakllanib qolar ekan, u bilan bog'liq bo'lgan qiymat va baho kategoriyalari ham saqlanib qoladi. Qiymat tovar ishlab chiqaruvchilarning tovorda buyum shaklida gavdalangan ijtimoiy mehnatdir. Tovar bahosi uni ishlab chiqarish uchun sarflangan ijtimoiy zaruriy mehnatni o'z ichiga oladi. Bahoning reja asosida tashkil topishi sarflangan ijtimoiy mehnatni o'lchash, ishlab chiqarishni o'stirishda yuksak ko'rsatkichlarga erishishini, moddiy rag'banlantirish, texnikaviy rivojlanadir, milliy daromadlarni oshirish maqsadlarida baholardan tartibili foydalanish imkonini yaratadi.

Baholash sistemasiga quyidagilar:

1. Sanoat yoki ayrim ishlab chiqarish korxonalaridan ulgurji bahosi.
2. Davlat sotish bahosi va qo'shimcha (qishloq xo'jalik mahsulotlarni sifatiga qarab).

3. Kelishilgan (shartnama) baho.

4. Qayta ishlash sanoatlarining ulgurji bahosi.

5. Savdo korxonalarining ulgurji bahosi.

6. Harid qilish bahosi.

7. Hisob-kitob bahosi.

8. Dehqon bozori bahosi.

Hozirgi baholash sistemasi teng va proporsional rivojlanishga to'la javob bermaydi. Shu sababli korxonada qayta ishlash tashkilotlari: baho budgetiga sotish va ulgurji baholarda bo'linadi.

Davlat budgetiga foydaning asosiy qismi, yil oxirida qolgan qoldiqlarning bir qismi va amortizatsiya ajratmalarning qolgan qoldiq qismlari o'tkaziladi. Qarama - qarshi budget to'lovlar va budget jamgarmalari xo'jalik tarmoqlararo rivojlanishiga xalaqit beradi. Bahoga aloqador bo'lgan mexanizmlarni aynan sotish bahosi, ulgurji baho, harid qilish bahosi va tariflarni qayta ko'rib chiqishni taqozo qiladi.

Tovar ishlab chiqaruvchi korxonalarda iqtisodiy islohotlarni iqtisodiy qo'llanilishi.

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarning borishi bilan mahsulot ishlab chiqarish mehnatchilar o'z xohishi bilan mo'l — ko'l qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarmoqda. Mahsulot ishlab chiqarish jarayonida mehnatni texnika va ilg'or tajribalarni qo'llash bilan bog'liq bo'lgan muammolar oldinga suriladi. Mulk davlat tasarrufidan chiqarib xususiyashtirildi, qishloqda ko'p ukladli iqtisodiyot vujudga keldi, mahsulot yetishtirish asosan nodavlat sektori zimmasiga yuklatildi, mahsulot yetishtirishga keng erkinliklar berildi, mulkchilikning va xo'jalik yuritishning turli shakllari sinab ko'rildi, ulardan yaxshilari sinab ko'rildi va qishloqda mulkdorlar sinfi paydo bo'ldi. Shu bois iqtisodiy islohotni chuqurlashtirishning 4 omillari ajratib olindi.

1. Islohotlarni chuqurlashtirishning huquqiy omillari.

2. Tashkiliy omillar.

3. Iqtisodiy omil.

4. Texnoloik omil.

Yuqoridagilar hisobga olinib:

U.O. 11 sesiyasida qabul qilingan qarorida yer kodeksi, qishloq xo'jalikni kooperativlashtirish, fermer xo'jaliklari to'g'risida, dehqon xo'jaliklari to'g'risida qaror qabul qilindi.

Qisqacha xulosa

Fermer xo'jaligida mahsulot ishlab chiqarish, avvalo, uning samaradorligini oshirishga qaratilgandir. Iqtisodiy samaradorlik fermer ishlab chiqarish vositalari va jonli mehnatni qo'llash orqali olingan foydali natija yoki jami resurslar birligiga olingan pirovard natijadir. Xo'jalikning ishlab chiqarish faoliyatiga baho berganda iqtisodiy ko'rsatkichlar yalpi mahsulot, yalpi daromad (foyda)ni nazarda tutamiz. Shu iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida fermerning yillik mahsulot ishlab chiqarish birligiga yetishtirilgan yalpi daromad, yalpi mahsulot, foyda va rentabellik ko'rsatkichlari asosida iqtisodiy samaradorligi aniqlanib uni oshirish yo'llari bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Qishloq xo'jaligida iqtisodiy samaradorlik tushunchasini ayting.
2. Iqtisodiy ko'rsatkichlarga nimalar kiradi?
3. Iqtisodiy ko'rsatkichlarni aniqlashda qanday usullarni bilasiz?
4. Fermer xo'jaligini iqtisodiy samaradorligini oshirishda qanday tartib qo'llaniladi?

Asosiy adabiyotlar

1. Емельянов А.М. Экономика сельского хозяйства. Москва. 1982, -550 б.
2. Коваленко Я.И. Экономика сельского хозяйства. Москва: ЭКМЭС. 1998.
3. Abdug‘aniyev A., Abdug‘aniyev A.A. “Qishloq xo‘jaligi iqtisodi”. –T.: TDIU, 2004.
4. Salimov B.T. va boshqalar. “Fermer va dehqon xo‘jaligi iqtisodiyoti” –T.: TDIU, 2003, -142 b.
5. Toshboyev A.J. “Qishloq xo‘jaligi iqtisodi va Menejment” fanidan amaliy mashg‘ulot olib borish uchun uslubiy qo‘llanma. –T.: TIQXMII, 1999, -38 b.
6. Попов Н.А. Экономика отраслей АПК. Курс лекции, 2002, <http://family.taukita.ru/item22219310.htm>
7. Umurzoqov O‘.P., Toshboyev A.J., Toshboev A.A. “Fermer xo‘jaligi iqtisodiyoti. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2008, -273 b.

15-bob. DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIK MAHSULOTLARI YETISHTIRISH SAMARADORLIGI

15.1. Dehqonchilik tarqmoqlari va unda mahsulotlar yetishtirish

Respublika qishloq xo'jalgida dehqonchilik yetakchi o'rinda turadi. Dehqonchilikning qishloq xo'jaligi yalpi mahsulot tarkibidagi hisasi 2004 - yilda 30 % ni tashkil etdi. Respublikada agrotexnikaning ilg'or usullarini qo'llash, ekinlarning hosildor navlarini yaratish, navlarni mustaqil yangilash va nav almashtirish hisobiga dehqonchilikda yuqori ko'rsatkichlarga erishiladi. Adir zonalarda lalmikor dehqonchilik (bugdoy, arpa, zigir, kunjut, no'xat, oziqbop ekinlar, bog'dorchilik) qilindi. Sug'orma dehqonchilikda lalmikor dehqonchilkka nisbatan 3-4 marta ko'proq hosil olinadi. Mamlakatimizda dehqonchilik yalpi mahsulotining 98,5 % sug'orma dehqonchilikdan olinadi. Sug'oriladigan yerlarga texnika ekinlari, don ekinlari, sabzavot, kartoshka, poliz ekinlari, yem-xashak ekinlari, meva, uzum yetishtiriladi. Keyingi yillarda ekin maydonlari tarkiblari keskin o'zgardi, go'za maydonlari qisqardi, oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirish yaxshilandi.

O'simlikchilik-qishloq xo'jalikning asosiy tarmog'i bo'lib, qishloq xo'jalik ekinlarini dalachilik, sabzavotchilik, mevachilik, paxtachlik va hokazo faoliyat ko'rsatadi. Inson o'simlikchilikdan oziqa olsa, sanoat ham ashyo bilan ta'minlanadi. O'simlik har bir inson uchun zaruriyat bo'lib busiz hayo't yo'qligi ma'lum. Yer yuzida 500 mingdan ortiq o'simlik bo'lib, inson shundan 23 ming xilini o'zlashtirgan, shulardan 6 mingi madaniy o'simliklardir. O'zbekistonda 400 xil, shundan 120 xil dalada madaniylashtirilgan o'simlik bo'lib uning 5300 navi bor. O'simlik chorvachilikning asosiy oziqa bazasi bo'lib, dagal, shirali va ko'k massa holatida bo'ladi. Qishloq xo'jaligidagi yalpi mahsulot hajmining 45-50 % ini o'simlikchilik beradi.

Paxta O'zbekistonda 2,5 ming yildan ko'proq vaqtidan beri yetishtiriladi. Endilikda respublika bo'yicha 1,5 mln.ga yerga paxta ekilib, uning hosildorligi 20-30 s, yalpi mahsulot 4 mln. tonnaga, tola chiqishi

1,5 mln.tonnani tashkil etmoqda. Sobiq sovet tizimi davrida 5,5-6,0 mln tonna paxta yetishtirilgan bo'lsa, uning 10% ga yaqini respublikada qayta ishlanardi va past bahoda sotilardi.

1991 - yildan boshlab go'za maydonlari qisqarib don, sabzovot va boshqa ekin maydonlari kengaytirildi. Paxta yetishtirishni ko'paytirish hosildorlik va tola chiqishini oshirish asosiy vazifa qilib qo'yilib, unda almashlab ekish, sara urug va texnologiyalarni takomillashtirish orqali hosildorlikni 30-35 s ga yetkazishdan iborat bo'lmoqda.

Donchilik - dehqonchilikda muhim o'rinni eg'alib, aholini oziq-ovqat, chorvani yem-xashak bilan ta'minlaydi. Donchilik g'allachilik, sholichilik asosida rivojlanadi. 1995 - yilda mamlakat g'alla mustaqilligini ta'minlash maqsadida respublika jami ekin maydonining 40 %, ya'ni 1300 ming hektar -ga yetkazildi. Shundan 62 % i sug'oriladigan yerlardir. Hosildorligi 20-40s/ga bo'lib, 3 mln tonnaga yaqin don yetishtirilmoqda.

Sholichilik bilan respublikaning barcha viloyatlari shugillanadi. 2003 - yilda respublika bo'yicha sholi ekilgan maydonlar 180 ming hektarga yetdi.

Makkajo'xorichilikdan don, silos bostirish maqsadida ikki marta hosil olish mumkin. 2003 - yilda 181 ming hektar yerga makka don uchun ekilib hosildorligi 38,4 s/ga, silos va ko'k oziqa uchun 182 s/ga ni tashkil etdi.

Sabzovotchilik, polizchilik va kartoshkachilik bo'yicha respublikaning sug'orma dehqonchilik sharoitlarida yuqori hosil olish mumkin. 2003 - yilda 72 ming ga sabzovot, 18 ming ga poliz, 28 ming ga yerga kartoshka ekilib yuqori hosil olishga erishildi. Hozirgi kunda respublika iqlim sharoitiga moslashgan istiqbolli navlar ustida ishlar olib borilmoqda. Bog'dorchilik va tokchilik, yem-xashak ekinlari ko'plab ekilmoqda.

Dehqonchilik mahsulotlarining samaradorlik ko'rsatkichlari. Dehqonchilik mahsulotdarini yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini ikki xil yo'il bilan natura va pul ko'rinishida baholanadi. Samarasi olingan mahsulot qiymatidan, ishlab chiqarishga ketgan harajat bilan ifodaolanadi. Dehqonchilik iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi pul ko'rinishida baholanib, bu quyidagi ko'rsatkichlaridan iborat:

1. Yalpi mahsulot qiymati.
2. Ihlab chiqarish harajatlari
3. Rentabillik darajasi

4. Foyda

Dehqonchilikning baza ekinlarida natural va pul ko'rinishidagi ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat:

1. Hosildorlik s/ga

2. Yalpi mahsulot t,s

3. Ishlab chiqarish harajatlarining 1ga ekin maydoniga,1 s mahsulotga,1 so'mlik mahsulot qiymatiga to'g'ri kelishi.

4. 1 s sotish bahosi

5. 1 ga,1 s mahsulotga foyda

6. Rentabillik darajasi bilan aniqlanadi.

Amaliyotda dehqonchilikda mahsulot yetishtirishga kompleks baho-mehnat unumdarligi,tannarx va rentabellik bilan aniqlanadi. Natural ko'rsatkichlar,kg,s,t ko'rinishidagi sof mahsulot tushuniladi.

Agrotexnika qoidalariga rioya qilish va undan samarali foydalanganlikni iqtisodiy baholashda quyidagi ko'rsatkichlardan foydalilanadi. 1ga ekin maydoniga to'g'ri keladigan yalpi mahsulot natural va pul ko'rinishida;mehnat unumdarligi, 1 ga ishlab chiqarish harajatlari sarfi, qo'shimcha sarflarni qoplash, qo'shimcha va sof foyda,tannarx,yalpi daromad va rentabellik darajasi bilan aniqlanadi.

15.2. Dehqonchilik mahsulotlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari

Dehqonchilik mahsulotlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun sars - harajatlar bilan bog'liq bo'lgan barcha tashkiliy ishlab chiqarish va tayyor mahsulotni sotishga qadar bo'lgan barcha ish jarayonlarini yaxshilashdan iborat bo'ladi.Masalan, biznes rejani tu'zish yo'llari:

- tarmoqni boshqarish;
- shartnoma tuzish;
- ekin ekishga kirishishni;
- dehqonchilikdagi texnologik jarayonlar;
- pul - kredit mexanizmi;
- moddiy va ma'naviy qiziquvchanlik;
- servis xizmatlardan foydalanish;
- almashlab ekish;
- ishlab chiqarish shakllari;
- mahsulotni qayta va takror ishlab chiqarish;

- sotsial - ijtimoiy rivojlanish;
- marketing faoliyati bo'yicha barcha iqtisodiy ish yuritish, harajatlarni tanlash yo'llari to'g'risida tushuntiriladi.

15.3.Chorvachilik tarmoqlari haqida tushuncha

Chorvachilik sistemasini yaxshilash podani takror ishlab chiqarish, naslchilik, oziqa, veterinariya xizmatlarini tashkil etishga bog'liq. Chorvachilikning quyidagi sistemalari hayvonlar yil mobaynida molxonada boqish, molxona - yaylov va yaylov formasi mavjud. Hayvonlar bog'lanib va bog'lanmay boqiladi.

Qoramolchilik chorvachilikda asosiy tarmoq bo'lib, kishilar uchun oziq-ovqat (go'sht, sut, yog, pishloq, qatiq, suzma) mahsulotlari yetkazib beradi. Inson tomonidan iste'mol qilinadigan mahsulotlar raqamda 400 ni qoramol mahsuloti tashkil etadi. Meva-cheva normalari ortib odam normal rivojlanishi uchun yiliga 405 kg sut mahsulotlari, shu jumladan, 128 kg sut, 18 kg yogi olingan sut 9,1 kg suzma, 6,6 kg pishloq, 6,6 kg qaymoq va 5,5 kg satre iste'mol qilish kerak. Jon boshiga 82 kg go'sht, 36 kg mol go'shti iste'mol qilinishi lozim.

Bir qoramoldan eng yuqori mahsulot olish 4% tashkil etadi, 5000 - 9000 kg sut olish mumkin. O'rtacha bir sigirdan sutkasiga 25-40 kg sut sog'ib olish mumkin. Chorvachilikdagi tayyorlangan go'shtning 43% i, sutning 98,5 o\o qoramoldan olinadi.

Cho'chqachilik aholiga go'sht, yog', teri, beradigan qoramoldan keyingi o'rinni eg'allaydi. Cho'chqa sergo'sht, u 9-10 oyda semiradi. Cho'chqa yiliga ikki marta bolalab, 18-24 bola berishi mumkin. Cho'chqani 7-8 oy boqilganda uning ogirligi 100-110 kg ga boradi. Bir ona cho'chqa yil davomida 2-2,5 t tirik vaznda go'sht berishi mumkin. Qoramolning tirik vazniining 55-65 foizi go'sht chiqsa, cho'chqada 70-80% ni tashkil etadi.

Respubshlikada 120 qorako'lchilikka ixtisoslangan xo'jalikning 18 tasi naslchilik zavodlari, 9 tasi naslchilik xo'jaliklaridir. Naslchilik zavodlari turli rangdagi qo'ylarni ko'paytirish va qorako'l teri yetishtirishni yo'lga qo'ymoqda. Qo'ylarning go'shtdor-serjun zoti yarim mayin jun va go'shti uchun boqiladi.

Qo'ychilik qishloq xo'jaligida muhim ahamiyatga ega. Aholi uchun, sanoat uchun xomashyo (jun, teri, qorako'l teri) yetkazib beradi. Qo'yning asosiy mahsuloti jundir. Shuning uchn jun

etishtirishning 98% i qo'ychilikka to'g'ri keladi. Tivitli va yarim tivitli qo'y juni yengil sanoat uchun eng qimmatbaho xomashyodir. Undan junli kiyim - kechak olinadi. Qorako'l terisi eng qimmat ashyo bo'lib, undan palto, po'stin va boshqalar olinadi.

Parranda - aholi uchun foydali oziq-ovqat hisoblanadi. Undan tuxum va go'sht olinadi. Parrandachilikda patli yostiq va ko'rpa tayyorlanadi. Parranda mahsuloti yetishtirish uchun tovuq, xo'roz, g'oz, o'rdak, indyuk va boshqalar boqiladi. Tuxum eng kaloriyalı mahsulot bo'lib, uni tarkibida oqsil, vitamin va moylar mavjud. Parranda tez ko'payuvchi bo'lib, 6-7 oydan so'ng tuxum bera boshlaydi. Bir tovuqdan 1 yilda 300 tagacha tuxum olinadi.

Pillachilik - qishloq xo'jaligining assosiy tarmog'i bo'lib, undan qimmatbaho i paktolasi olinadi. Mustaqillikdan keyin pilla yetishtirish davlat buyurtmasidan chiqarilib, uni sotish erkin kelishilgan narxlarda olib boriladi. Har yili respublikamizda 30 ming tonna atrofida pilla yetishtiriladi.

Baliqchilik bilan suv havzalarida shug'ullanib kelingan. Respublikaning daryo va ko'llarida 62 xil baliq turi yashaydi. Hozir "O'zbaliq" korxonasi tizimida 8 birlashma, 7 kombinat, 10 baliqchilik xo'jaligi va Chinoz baliq aralash yem ishlab chiqish korxonasi va ulgurji savdo omborlari mavjud.

Korporatsiya tizimidagi xo'jaliklarda 12 ming ga sun'iy ko'l va hovuzlar bo'lib, ulardan yiliga 104 mln. dona baliq sovoqlari va 22 ming t tovar baliq mahsulotlari yetishtirish imkoniyati yaratilgan.

Asalarichilikda assosan qimmatbaho asal, asalari mumi, propolis (asalari yelimi) asalari suti, zahari, asalari yig'adigan gulchanlar (percha) mahsulotlar olinadi. O'zbekistonda 48 asalarichilik xo'jalighi, shu jumladan, "Asal" ishlab chiqarish uyushmasi tarkibida 22 asalarichilik xo'jaligi (88 ming asalari oilasi) mavjud. Respublika bo'yicha 154 ming asalari oilasi (qutisi) bor. Asalarichilik bilan 20-50 (90%), yoki 50-150 (10%) quti asalari bo'lgan xususiy asalarichilar ham shug'ullanadi. Asal 2 marta may-iyun (bahori) va avgust-sentabr (yozgi) olinadi.

15.4. Chorvachilikda mahsulot yetishtirish

Respublikada chorvachilikni rivojlantirish uchun tuproq, iqlim sharoitlari, unumdor sug'oriladigan yerlar, bepayon qir-adirlar, dasht-cho'l va tog oldi yaylovlari mavjuddir. Sug'oriladigan yerlarda

asosan, qoramolchilik, cho'chqachilik, parrandachilik, qurtchilik, asalarichilik, qir-adirlarda va tog oldi yaylovlarda qo'ychilik, suv havzalarida baliqchilik rivojlangan.

Chorvachilik qishloq xo'jaligida o'simlikchilikdan keyin 2 - o'rinni eg'allaydigan soha bo'lib, yalpi mahsulotlarning asosiy salmogini eg'allaydi. Chorvachilik aholi uchun yuqori kaloriyalı oziq - ovqat (go'sht, yog, pishloq, v.b) yetkazib beradi. Odamning yashashi uchun zarur bo'lgan sutkalik ovqatning 30% dan ortig'i va ovqat resurslaridagi oqsilning 60% dan ortig'i chorva mahsulotlari zimmassiga to'g'ri keladi.

Chorvachilik yengil va oziq-ovqat sanoatini homashyo bilan (jun, teri, go'sht, sut, yog, qorako'l teri, par v.b) ta'minlaydi, sanoatning bu tarmoqlarini rivojlantirish bevosita chorvachilikning yuksalish darajasiga bog'liqdir.

Chorvachilik dehqonchilik bilan o'zviy boglangan bo'lib, mahsulot qonunlari (poxol, somon, kartoshka, sabzi, piyoz, qand lavlagi ekinlari poyasi v.b.) almashlab eqiladigan ekin mahsuloti (beda, makkajo'xori ekinlar) tabiyi yaylovlar va pichanzorlardan olinadigan oziqalar, sanoat korxonalaridan chiqariladi (ko'pchilik, shulxa, kepak, beda, non v.b) umumiy ovqatlantirish korxonaning mollari uchun oziqa yetkazishda ishlataladi.

Chorvachilikni rivojlantirishning asosiy manbai yem-xashak bazasini yaratishdan iboratdir. Yem - xashak ekinlari maydoni respublika jami qishloq xo'jalik ekinlarining 7,7% ini tashkil etadi. Ularga beda, makkajo'xori, oziqabob lavlagi ekiladi. Respublika bo'yicha har yili 10 mln t pichan va silos tayyorlanadi. Yog-moy sanoat korxonalaridan kunjara, shulxa, aralash yem, ishlab chiqarilib beriladi. Chorvachilik asosan dag'al, shirali va konsentrat oziqalar hisobiga rivojlanadi . O'zbekiston sharoitida ushbu oziqa turlari mavjud va uning to'yimlilik proteyin miqdori yetarli darajada ta'minlangan.. Bozor iqtisodiyoti sharoitida chorva uchun yem - xashak bazasini yaratish, ekin maydonlarida yem - xashak beradigan ekinlar hissasini oshirish, har bir gektar yerdan olinadigan oziqa miqdorini ko'paytirish, uning sifatini oshirish, tannarxini kamaytirish, isrofgarchilikni tejab, yetarli darajasida oziqa ekinlar sifatli urugini tayyorlash, oziqa to'yimliligini ta'minlab, ular tarkibidagi moddalar hissasini oshirish ko'zda tutiladi. Chorva mollatini oziqa bo'yicha 1 kg so'mni biz oziqa birlik qilib shartli qoramollar uchun yil davomida 25-35 s oziqa birligi hisobida boqiladi. Agar oziqa yetarli bo'lmasa, chorvachilik samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuning uchun chorva mollari uchun zarur ekinlardan makkajo‘xori assosiy o‘rinni eg‘allab, uning oziqa birligi 1 kg arpgaga nisbatan 13,5% ko‘p bo‘lib, 1,34 oziqa birligiga teng. 1 kg kepak tarkibida 0,35 - 0,4, lavlagi tarkibida 0,26, pulat somonida 0,23, ko‘k beda 0,17, pichanda 0,47, qizil setargada 0,52 oziqa birligiga ega.

Oziqa birligi asosida chorvani boqish natijasida yuqori mahsuldorlikka erishish mumkin. Chorva mollari yem-xashagiga har xil moddalar qo‘silib ham mahsuldorlikni oshirish mumkin. Yem - xashakka qo‘silgan 1 tonna karbalit qo‘sishimcha 10 tonna sut, 500 kg go‘sht beradi va 2,5 tonna tabiiy oqsil o‘rnini qoplaydi.

O‘zbekiston Respublikasining 1998 - yil fermer xo‘jaliklari to‘g‘risidagi qonunga muvosiq chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo‘jaligiga kamida 30 shartli bosh chorva mollari, har bir shartli qoramol va otlar uchun - 1,0, yosh qoramollar uchun 0,6, qo‘y - echkilalar uchun 0,1, cho‘chqalar uchun 0,3, parranda uchun 0,025 hektar, fermer xo‘jaliklariga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o‘lchami bir shartli bosh chorva moliga kamida 0,30 - 0,45 hektar, sug‘orilmaydigan namlikroq yerlarda kamida 2 hektarni tashkil etadi.

Chorvachilikni rivojlantirish uchun shunday imkoniyatlar va iqtisodiy qonunlar qabul qilinishi, nodavlat sektorini, mulkdorlar sifining yanada ko‘paytirishga va mahsulot hajmini ko‘paytirishga qaratilmoqda. Chorvachilik tadbirdorlarini qo‘llab - quvvatlash yo‘lida past foizli kredit berish, chet el investitsiyasini kiritish, ikki yilgacha soliqqa tortmaslik chora- tadbirdorlari ishlab chiqilgan. Maqsad har bir tadbirdor kam material, pul sarflab ko‘proq mahsulot yaratishga o‘z imkoniyatlarini qaratishdan iboratdir.

15.5. Chorvachilik mahsulotlari yetishtirishning iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini baholash ham o‘simlikchilik mahsulotlarini yetishtirish kabi natural va pul ko‘rinishidagi ko‘rsatkichlardan iboratdir. Chorvachilik mahsulotlari samaradorligi asosan pul ko‘rinishida hisoblanadi.

1. Yalpi mahsulot qiymati, yalpi daromad va foydani ishlovchiga 7 odam-soatiga 1 shartli qoramolga 100 so‘m, asosiy ishlab chiqarish fondlariga;

2. Ishlab chiqarish harajatlarini 1 so'm mahsulot bahosiga;
3. Rentabellik darajasi.
4. Foyda.

Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish davomida uning samaradorligiga baho berish natural ko'rsatkichlar bilan amalga oshiriladi.

1. Qishloq xo'jaligidagi hayvonlarning mahsuldarligi.
2. Yalpi mahsulot yetishtirish natura va pul ko'rinishida hisoblanib, ular ishlovchiga, odam-soatiga va bir bosh qoramolga qarab;
3. Ishlab chiqarish harajatlari summasining bir bosh qoramolga, 1 u mahsulotga, 1 so'm yalpi mahsulotga;
4. 1 s mahsulotning sotish bahosi;
5. Foydaning bir bosh qoramolga, 1 u mahsulotga to'g'ri keladi.
6. Mahsulot yetishtirish rentabelligi bilan harakterlanadi.

Chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish va uni zooveterinariya qoidalari assosida boqish jarayonida quyidagi iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi (podaning nasli, tarkibi, tipi, normativi, ovqatlantrish, ratsion vah.k), qoramol mahsuldarligi hamma mehnat unumdarligi, bir boshga ishlab chiqarish harajatlari, qo'shimcha harajatlarni qoplash, mahsulot tannarxi, fond va rentabellik ko'rsatkichlaridir.

Qisqacha xulosa

Qishloq xo'jaligining asosiy taromg'i dehqonchilik va chorvachilik bo'lib, u aholini oziq-ovqat mahsulotlari, sanoatni xomashyoga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan respublika va hamdo'stlik davlatlarining aholisini ta'minlab kelmoqda. Qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmini oshirishda hukumat tomonidan tub islohotlar olib borildi. Qishloqda mulkchilikka asoslangan tizim shakllandi. Yer va mol-mulkka bo'lgan munosabatlar dehqonlarda tubdan o'zgardi. Natijada xususiy mulkdorlar salmog'i ortib, mahsulot assortimenti oshmoqda.

Qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishdan tashqari bozor talabi bo'yicha mahsulotni sanoat usulida qayta ishlash orqali fermerlar o'z daromadlarini oshirishga erishdi. Choryachilik bilan asosan dehqon xo'jaliklari shug'ullanib, ular uchun katta bank kredit imtiyozlari berilganligi sababli sanoat usulida chorva mahsulotlari hajmi oshmoqda.

Chorva mahsulorligini oshirish uchun yem-xashak bazasi yaratilib, u shartnoma asosida va birjalarda sotilmoqda. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtiruvchilarga to'liq huquqiy va iqtisodiy asoslar yaratilgan.

Tayanch iboralar

Qishloq xo'jaligi, dehqonchilik, chorvachilik, shirkat, fermer, dehqon, ekin maydoni, hosildorlik, chorva, mahsulorlik, yem-xashak, veterinariya, naslchilik, agrotexnika, yalpi mahsulot, tannarx, islohot, mulkchilik, subyekt, samaradorlik.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Xalq xo'jaligida dehqonchilikning o'rmini izohlang.*
2. *Dehqonchilik tarmog'iga nimalar kiradi?*
3. *Qishloq xo'jalik ekinlari hosildorligi qanday oshiriladi?*
4. *Chorvachilikni rivojlantirish zaruriyati nimada?*
5. *Chorvachilik tarmoqlarini aytинг.*
6. *Dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlariga nimalar kiradi ?*

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida". -T.: O'zbekiston, 1995.
2. *Qishloqda ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish asoslari.* -T.: "Ijod dunyosi", 2004, -318.
3. Коваленко Я.Н. "Экономика сельского хозяйства". Москва: ЭКМОС, 1998.
4. Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti", -T.: TDIU, 2004.
5. Salimov B.T. va boshqalar. "Fermer va dehqon xo'jaligi iqtisodiyoti" -T.: TDIU, 2003, 142 b.
6. Устойчивое развитие агропродовольственного сектора как важнейший фактор социально-экономической стабильности России. (Материалы Второго Всероссийского конгресса экономистов – аграрников (13-15 февраля 2006 г., Москва)). Часть I, II. -M.: ФГНУ «Росинформагротех», 2006.

16-bob. QISHLOQ XO‘JALIGINI BOSHQARISHDA MENEJMEHT

16.1. Qishloq xo‘jalik korxonalarini boshqarish tizimi va usullari

Har qanday davlat islohot olib borishning dastlabki kunlarida mustahkam, har tomonlama asoslangan boshqaruvga, mamlakatda ishlab chiqarishni va iqtisodiy o‘sishni yo‘lga qo‘yish zaruratini sezadi. Buning uchun esa, avvalo, yuqori malakali, boshqaruv qonun – qoidalarini mukammal biladigan professional boshqaruvchilar, menejerlar tayyorlash zarur bo‘ladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining bozor munosabatlariiga o‘tishi, o‘z navbatida, korxona va tashkilotlarning boshqaruv tizimini takomillashtirishni talab etadi. Chunki korxona va tashkilotlarning samarali ishlashini malakali rahbar xodimlar ta’minlaydi. Bu borada Respublika Prezidenti bozor iqtisodiyotiga o‘tish, iqtisodiy munosabatlarni yangilash institutsional o‘zgarishlarni amalga oshirishni boshqarishning tegishli strukturasini yaratishni taqozo etishligini alohida uqtiradi.

Menejmentning mazmunini ochish bilan birga uning ikki tomonini farqlash zarur. Ya’ni, texnik va ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarni boshqarish. Ko‘p usullar amaliy tajriba shunday natija chiqarishga undaydiki, ishlab chiqarishning faoliyat samaradorligi faqat texnik, texnologik, tashkiliy rejalashtirish va boshqa omillarga bog‘liq bo‘lib qolmasdan, balki, sezilarli darajada ish bajaruvchilar ishlarining sifatiga ham bog‘liqidir. Faoliyat sifati ancha keng tushuncha. Bu ishlab chiqarishni aniq tashkil qilish, mehnat jarayonining aniq maromiga yetkazishni ta’minalash, texnologiyaga rioya qilish, moddiy – materiallarni tejab ishlatish, o‘zaro talabchanlik, o‘zaro yordam berish va boshqalar.

Menejmentning oldidagi asosiy masala zamонавиј bilimlar majmuasini ijodiy ishlatalishiga imkon yaratishdir. Bu belgilarni iqtisodiy munosabatlar birlashmasi hisoblanadi, ya’ni ular rahbar va ish

bajaruvchilar orasidagi munosabatdir. Bu, o‘z navbatida, ishlab chiqarishdagi muammolarni yechish jarayonida vujudga keladi.

Menejmentning mazmuni ishlab chiqarish usuli, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar darajasi, ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishiga bog‘liq holda o‘zgaradi. Ishlab chiqarish rivojlanishi va iqtisodiy aloqalar murakkablashuvi bilan boshqaruv ham murakkablashadi. Ishlab chiqarish vositalariga mulkchilikning turli shakllari mayjud bo‘lgan sharoitda tovar ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida raqobat vujudga kelib, u ishlab chiqarishni boshqarish, foydani ko‘paytirishga yo‘naltiriladi.

Menejmentning asosini obyektiv iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa qonunlarga asoslanuvchi huquqiy ilmiylik tashkil etadi. Bu qonunlarni o‘rganish va ularning aniq vaziyatlarda namoyon bo‘lishini hisobga olgan holda xo‘jalik rahbarlari qishloq xo‘jaligini boshqarishning strategiya va taktikasini belgilaydilar.

Jamiyat hayotining barcha tomonlari demokratik yangilanishi sharoitida asosiy masala iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy taraqqiyotni rag‘batlantirish,boshqariladigan bozor bilan shaxs va jamoa manfaatlarini samarali bog‘lash masalalaridan iboratdir. Nazariy va amaliy nuqtai nazardan ishlab chiqarish egalari bo‘lgan mehnatkashlar manfaatlari eng muhim manfaat ekanligi, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni jadallashtiruvchi qudratli harakatlantiruvchi kuch ekanligi shubhasizdir. Boshqaruvni isloh qilishning strategik g‘oyasi mehnatkash kishining obro‘sini ko‘tarishdir. Chunki, vijdonan va ma’suliyat bilan mehnat qilish iqtisodiyotni sog‘lomlashtirish uchun xizmat qiladi. Xodimning mehnatdan manfaatdorligini keskin oshirish,uning o‘z qobiliyatini to‘liq namoyon etishiga sharoit yaratish, jamiyatni harakatlantiruvchi kuchlarning umumiyligi tizimiga qo‘yishdan iborat. Bunga faqat xodim ishlab chiqarishning haqiqiy egasi sifatida mehnat qilgan holdagini erishish mumkin. Kishilar o‘rtasidagi iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarni aks ettiruvchi manfaatlar ularning maqsadlari, mehnat intizomi, faolligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi va harakatlarini tartibga soladi.

Bozor munosabatlariga o‘tish ishlab chiqarish va bozorning samarali o‘zaro ta’sirini, davlat boshqaruvi va korxonalarining o‘z-o‘zini boshqarishning mutanosib nisbatda bo‘lishini ta’minlovchi takomillashgan xo‘jalik mexanizmini yaratishga yo‘naltirilgandir. Mamlakatda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asl maqsadi

barqaror ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishdan iboratdir.

16.2. Qishloq xo‘jaligini boshqarishda menejment va uning vazifalari

Menejmentning mazmunini iqtisodiyotni boshqarishning, menejment tizimlari va uni tuzishning tashkiliy shakllari, xo‘jalik mexanizmi va boshqaruv uslublari, boshqaruv texnika va texnologiyasining nazariy va metodologik asoslarini o‘rganish tashkil etadi. Menejment boshqaruv faoliyatining umumiy qonuniyatları va tamoyillari, boshqaruv tizimiga ta’sir usullarini shakllantiradi, boshqaruv apparatining aniq vaziyatlardagi harakatlari va o‘zini tutish hollarini umumlashtiradi. Boshqarishning nazariy va amaliy tomonlarini o‘rganadi. Shuningdek, boshqaruv faoliyatining qirralarini butun bir majmua ko‘rinishida, nazariy tahlil va mantiqiy uslub asosida boshqarishning asosiy qonuniyatları va usullarini ajratib o‘rganadi.

Menejmentning amaliy tomonlari bir qator aniq vazifalarni hal etishga, jumladan, iqtisodiyotni bozor munosabatlariga o‘tishiga, foyda olishga, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, aholi ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga, kishilar ma’naviy darajalarini o‘stirish va boshqalarga qaratilgandir.

Qishloq xo‘jaligida menejmentning asosiy vazifasi jamiyat rivojlanishining obyektiv qonunlari talablarini hisobga olgan holda va menejment amaliyotini umumlashtirish asosida agraiqtisodiyotni samarali boshqarish uchun zarur bir maqsadga yo‘naltirilgan harakatlar tamoyillarini ishlab chiqishdan iborat.

16.3. Menejmentning obyekti va subyekti, ularning o‘zaro aloqadorligi

Menejment mehnati hamkorlik bilan uzlusiz bog‘liqdir. Har qanday boshqaruv tizimi qo‘yilishi va yechishi kerak bo‘lgan masaladan qat’iy nazar ikkita tizimni birlashishini bildiradi: boshqariluvchi (boshqaruv obyekti) va boshqaruvchisi (boshqaruv subyekti).

Menejment obyekti deganda ishlab chiqarish jarayonlari elementlari majmuasini ko‘z oldiga keltirish mumkin. Bunga texnik, iqtisodiy va ijtimoiy elementlar kiradi. Masalan, texnik elementlar o‘z ichiga asosan texnikani,

ishlab chiqarish texnologiyasini iqtisodiy elementlar – rejalar, moliya, moddiy rag‘batlantirishlar, ijtimoiy elementlar xodimlar va ular o‘rtasidagi munosabatlardir. Bu esa bir butun tartibga solingenan o‘zaro bog‘liq elementlar birlashmasi bo‘lib, bir butun tizimni tashkil qiladi.

Menejment sohasida odamlarni murakkab va ko‘p qirrali mehnat faoliyatini ikki yirik turga ajratish mumkin: ishlab chiqarish jarayonini bevosita amalga oshiruvchi mehnat va ushbu jarayonlarni boshqarishga yo‘naltirilgan faoliyat. Menejment faqatgina boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimlar orasidagi munosabatni o‘z ichiga olmasdan, balki, ular orasidagi o‘zaro bog‘liq ishlab chiqarish munosabatlariga maqsadga yo‘naltirilgan ta’sir ko‘rsatish hamdir.

Menejment subyekti – bu barcha ishlab chiqarish saviyadagi majburiyat va huquqlarga ega muntazam, vazifaviy boshqaruvchilardir.

Menejment tizimida subyekt qo‘yilgan maqsadga erishish uchun qarorlar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish mas‘uliyatini oladi. Boshqaruvchi tizimning samaradorligi menejment subyektining ishni tashkil qilish saviyasiga, turli menejment usullarini oqilona ishlatishga va boshqa omillarga bog‘liqidir.

Menejmentning obyekt va subyektidagi munosabatlar bir-biriga yaqin, egiluvchan va organik o‘zaro aloqada va o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lmog‘i kerak. Bu esa ularning samarali taraqqiyotini belgilaydi. Bu degani eng avval boshqaruv tizimdagisi barcha o‘zgarishlar o‘z vaqtida menejment obyektida ham o‘z aksini topmog‘i kerak. Bu vaqtida boshqaruvchi tizim o‘zidagi elementlarda bo‘lib turadigan o‘zgarishlarni ziyraklik bilan sezalish zarur.

Menejmen obyekti va subyekti o‘rtasidagi o‘zaro aloqa va o‘zaro bog‘liqlik amaliyotda ba zida shunda namoyon bo‘ladiki, agar boshqaruvchi tizimni ko‘lamni kengaytiriladigan bo‘lsa, menejment obyektining o‘lchamini ko‘payishiga olib keladi.

Shunday qilib, menejmentning obyekti va subyekti asosiy elementlari o‘zaro bog‘liq turli bo‘linmalar va xizmatlarning ishlab chiqarishdagi jamoalardir.

16.4. Boshqaruv konsepsiyalari va ularning asoschilar

Menejment asosini tashkil etgan qonun-qoidalalar xususiyatiga bog‘liq ravishda xorijiy boshqaruv maktablari turli guruhlarga bo‘linadi. Klassik maktab namoyandalari amerikalik muxandis va

tadqiqotchi F. Teylor, fransuz olimi A. Fayol, ingliz L. Urvin, nemis iqtisodchilari M. Veber, G. Ford, G. Emersonlardir. Boshqaruvning klassik maktabi to'rt muhim element - mehnat taqsimoti, boshqaruvning tabaqlanishuvi va ko'p bo'g' inliligi, tashkil etish tarkibi, boshqaruvning mumkin bo'lgan chegaralarini o'rganadi. Shunday qilib, boshqaruvning «klassik» maktabi uning insonning turli-tuman faoliyatini boshqarishga qo'llash mumkin bo'lgan tamoyillarini asoslab berishga harakat qilgan. U boshqaruvni tashkil etishning qator tamoyillarini o'rgangan. Bu maktab haqiqiy ilmiy boshqaruv nazariyasi darajasiga ko'tarila olmadi.

«Klassik» maktabga xos bo'lgan inson omilini hisobga olmaslik, kishilar faoliyati sabablariga soddalashtirilgan nuqtai nazaridan yondashish amerika menejment nazariyasida yangi yo'naliш - «inson munosabatlari» maktabi vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Bu yo'naliшning asoschilari - amerikalik olimlar E. Meyo, F. Rotlisberger, Dj. Lizli va boshqalardir.

Garvard universiteti professori E. Meyo «Inson munosabatlari» nazariyasini ilgari surgan. Uning g'oyalarining mohiyati shundaki, mehnat jarayonida psixologik va ijtimoiy omillar yetakchi ahamiyatga ega. Shu sababli, Meyo fikriga binoan ishlab chiqarish va boshqaruvning barcha muammolariga inson munosabatlari nuqtai nazaridan qarash lozim. Bu nazariya insonning ma'lum ijtimoiy va psixologik ehtiyojlarini qondirish yo'li bilan uni yanada unumli mehnat qilishi mumkin degan g'oyaga asoslangan.

Lekin bu nazariyaning asosiy jihatni shundaki, «Inson munosabatlari» maktabi vakillari ijtimoiy muammolarni butun jamiyat miqyosida emas, balki alohida korxona miqyosida hal etadilar. Mehnatkashlar ijtimoiy ahvoliga kompleks ravishda hal etilishi lozim bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida emas, balki kishilarning guruhiy munosabatlari sifatida qaralgan.

«Emperik» maktab menejment zarurligini umuman inkor etib, ochiq emperizmni targ'ibot qiladi. U menejmentning maqsadi - rahbarlik qilish bo'yicha ijobjiy tajriba va aniq xatolarni o'rganishdan iborat deb ta'kidlaydi. Bu maktab vakillari kamroq nazariy maslahatlar berib, ko'proq aniq vaziyatlarni tahlil etish bilan shug'ullanish kerak deydilar, albatta, tajriba o'rganish juda muhim. Lekin faqat amaliyotga asoslanib menejmentni shakllantirish mumkin emas. «Emperik» maktabning eng yorqin namoyondalari - T. Draker, R. Devis, L. Nyuman, D. Miller va boshqalardir.

Yuqorida sanab o'tgan xorijiy menejment maktablarining eng asosiy kamchiligi har tomonlama chuqur o'rganilmaganligidir. Bu yangi yo'naliш «Ijtimoiy tizimlar» maktabi vujudga kelishiga turtki bo'ldi. Uning eng taniqli namoyandalari D.March, G.Saymon, A.Etsioni va boshqalardir. «Ijtimoiy tizimlar» maktabi «inson munosabatlari» maktabi xulosalariga asoslanib, korxonaga o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi omillar majmuidan iborat kompleks tizim sifatida qarab, inson bu omillarni biri deb hisoblaydi. Sotsioglarning katta guruhi sanoat sotsiologiyasi sohasida tadqiqot olib bordilar. «Ijtimoiy tizim» maktabi o'zidan avvalgi maktablarga nisbatan keng ko'lAMDAGI muammolarni hal etishga, menejment nazariyasini yaxlit holga keltirishga intilgan.

Agar «klassik» maktab namoyandalari nizolarni moddiy rag'batlantirish yoki jazolash yo'li bilan, «inson munosabatlari» maktabi ishlab chiqarish jarayonini adolatli qilish yo'li bilan hal qilishni taklif etgan bo'lsalar, «ijtimoiy tizimlar» maktabi tashkilotda nizolarning mavjud bo'lishi uning tabiatidan kelib chiquvchi holat deb hisoblab asosiy vazifa nizolar va ularning oqibatini yumshatishdan iborat deb ta'kidlaydilar.

50-yillarning boshida menejment nazariyasi rivojlanishiga «yangi» maktab katta ta'sir ko'rsatgan. U menejmentga aniq fanlar uslub va usullari - qarorlar qabul qilishni matematik modellashtirish, matematik mantiq, dasturlash, iqtisodiy jarayonlarni matematik modellashtirish usullarini joriy qilish bilan ajralib turadi. «Yangi» maktabning eng yorqin namoyondalari - R.Akkof, L.Kleyn, V.Lyus va boshqalardir. Bu maktabning shakllanishi kibernetika va jarayonlarni o'rganish rivojlanishi bilan bog'liqdir. Jarayonlarni o'rganish zahiralar, resurslar taqsimoti, eskirgan uskunalarini almashtirish, maqbul ravishda rejalashtirishni boshqarishni matematik modellashtirish bilan bog'liqdir. Keyinchalik «yangi» maktab tarkibida mustaqil fan - boshqaruva qarorlarini qabul qilish nazariyasi shakllangan.

Qisqacha xulosa

Menejment boshqaruv faoliyatining umumiyl qonuniyatları va tamoyillari, boshqaruv tizimiga ta'sir usullarini, boshqaruv apparatinig aniq vaziyatlardagi harakatlari, boshqarishning nazariy va amaliy tomonlarini o'rganadi. Shuningdek, boshqaruv faoliyatining qirralarini butun bir majmua ko'rinishida, nazariy tahlil va mantiqiy uslub asosida boshqarishning asosiy qonuniyatları va usullarini ajratib o'rganadi.

Tayanch iboralar

Menejment, menejer, menejment obyekti, menejment subyekti, konsepsiya, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, bozor munosabatlari, nazariya, amaliyat, klassik maktablar, ijtimoiy tizimlar maktabi, insoniy munosabatlar maktabi, yangi maktab.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Menejment nima?*
2. *Menejmentning asosiy maqsad va vazifalari nimalardan iborat?*
3. *Menejment obyekti va subyekti nima?*
4. *Menejment obyekti va subyekti qanday o'zaro aloqada?*
5. *Boshqaruv konsepsiyaning qaysi asoschilarini bilasiz?*
6. *«Klassik» maktab namoyandalari kimlar va unda nima ilgari surilgan?*
7. *«Inson munosabatlari» nazariyasini kimlar ilgari surgan va asosiy mazmuni nimadan iborat?*
8. *«Emperik» maktab namoyandalari kimlar va unda nima ilgari surilgan?*

Asosiy adabiyotlar


1. *Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashhtirish yo'lida. T.: O'zbekiston , 1995.*
2. *Зайнутдинов Ш.Н., Муракаев И.У. Основы менеджмента. Т.: O'qituvchi, 1996.*
3. *Мескон М., Альберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента. Пер.с англ. М.: Дело, 1995.*
4. *Герчикова Н.И. Менеджмент. М.: 1995.*
5. *G'ulomov S.S. Menejment asoslari. T., 1997.*
6. *Фатхутдинов Р.А. Система менеджмента. М.: 1997.*

17-bob. QISHLOQ XO‘JALIGIDA MENEJMENT JARAYONI, MAQSADI VA FUNKSIYALARI

17.1. Qishloq xo‘jaligida menejment jarayonining mazmuni

Qishloq xo‘jaligida menejment butun boshqaruv tizimining uzlusiz amal qilishi jarayonini ifodalaydi. U mehnat jarayonining barcha xususiyatlariga ega. Umuman menejment jarayonini texnologiya (qanday amalga oshiriladi), tashkil etish (kim va qanday tartibda) nuqtai nazaridan tavsiflash mumkin. Qishloq xo‘jaligida menejment jarayoni mazmunining uch jihatini ajratish mumkin: texnikaviy, ishlab chiqarish, iqtisodiy va ijtimoiy. Texnikaviy jihatdan bu mahsulot yetishtirishni boshqarish, ishlab chiqarishda - bu ishlab chiqarishni tashkil etish jarayoni, ya’ni bo‘linma, korxonalar o‘zaro ta’sirini boshqarish, iqtisodiy jihatdan ishlab chiqarish, ish kuchi va butun iqtisodiy munosabatlar tizimiga rahbarlik qilish, ijtimoiy jihatdan - bu mehnat jamoasi ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish, insonni tarbiyalashdir. Menejment jarayoni texnologiyasi boshqaruv xodimlari tomonidan bajariladigan operatsiya va amallardan iboratdir.

Qishloq xo‘jaligida menejment jarayonini bir necha davrlarga bo‘lish mumkin. Jumladan, maqsad qo‘yish, axborot faoliyati, tahliliy faoliyat, boshqaruv tizimida tashkiliy amaliy faoliyat va harakatlar variantlarini tanlash. Qishloq xo‘jaligida menejment jarayoni bosqich va davrlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni quyidagi chizmada aks ettirish mumkin.



Boshqaruv operatsiyalari - rahbar va boshqaruv apparatining oddiy harakatlari bo'lib, ular tartibi va birikishi natijasida menejment jarayoni tashkil topadi. Masalan, tahliliy faoliyat uchun korxonaning yillik va oylik hisobotlarini olish, ular asosida tadbirlar ishlab chiqish hamda ularni menejment jarayoniga tatbiq qilish lozim. Menejment jarayonini amalga oshirish vositalariga, eng avvalo, axborotni kiritish lozim. Boshqaruv operatsiyalarining katta qismi axborot bilan ishlashdan iboratdir. Boshqaruv apparati ishida keng qo'llaydigan texnika vositalari ham shular jumlasiga kiradi. Bular axborot olish va qayta ishlash vositalari va an'anaviy tashkiliy texnika vositalaridir. Boshqaruv operatsiyasini amalga oshirish usullari - axborot-tahlil va tashkiliy faoliyatdir. Axborot-tahlil faoliyat axborot yig'ish, saqlash, tarqatish va qayta ishlash, tahlil, hisob, qarorlar variantlarini ishlab chiqishdan iborat, tashkiliy faoliyatga - tushuntirish, ishontirish, rag'batlantirish va vazifalarni taqsimlash usullari, faoliyatni nazorat qilish, majburlash va hisob-kitoblar kiradi. Korxonada menejer uchun faqat nimani qanday qilishni hal etish emas, balki tashkil etish, qiziqtirish, ishontirish, tushuntirish, nazorat qilish ham zarur. Ayni shu operatsiyalar yig'indisidan rahbarning tashkiliy faoliyati tashkil topadi.

Shunday qilib, menejment jarayoni rahbar va boshqaruv apparatining qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun kishilarning birgalikdagi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha maqsadli harakat qilishidir. Boshqaruv faoliyatini amalga oshirish tartibiga ko'ra uni bir necha bosqichlarga bo'lish mumkin. Bular maqsad, vaziyat, muammo, qaror qabul qilish.

Har bir ta'sir etishni amalga oshirishdan avval uning maqsadi aniqlanishi lozim, chunki boshqaruv ma'lum maqsadga erishish uchun amalga oshiriladi. Menejmentning keyingi bosqichi menejment jarayonidagi vaziyatni tahlil etishdan iborat. U tizimning holatini baholash, uni yaxshilash yo'llarini izlash yoki undagi salbiy xislatlarni bartaraf qilish bilan bog'liq ishlarni tavsiflaydi. Muammo bosqichida tizimning hozirgi holati, uni rivojlantirish maqsadiga nisbatan u qarama-qarshiliklarini aniqlash ko'zda tutiladi. Qaror qabul qilish bosqichi rahbarning amalda tashkiliy faoliyatiga o'tishini ifodalab, qaror qabul qilish bilan boshqariladigan tizimga ta'sir o'tkaziladi.

17.2. Menejmentning maqsadi va ularga qo‘yiladigan asosiy talablar

Menejmentning maqsadi-ko‘zlangan natijalarga erishish uchun talab etiladigan kuch-g‘ayratni va tashkiliy harakatlarni o‘z ichiga qamrab olishi lozim. Amaldagi holatdan ko‘zlangan maqsadga erishish uchun korxona barcha imkoniyatlaridan oqilona foydalanishga, birmuncha tadbirkorroq bo‘lishga, o‘zining moliyaviy ko‘rsatkichlari va ish faoliyatini maqsadli amalga oshirishga intiladi.

Rejalashtirilgan maqsadlar qisqa muddatga, shuningdek, uzoq muddatga mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin. Qisqa muddatga mo‘ljallangan maqsadlar istalgan natijalarga tezda erishish uchun yo‘naltirilgan bo‘ladi. Uzoq muddatlisi esa firma faoliyatini mustahkamlash uchun hozirgi kunda qanday ishlarni amalga oshirish va uzoq kelajakda qilinadigan ishlar ko‘rsatkichlarini yaxshilash ustida o‘ylab ko‘rishni talab etadi. Qisqa yoki uzoq muddatli maqsadlarni tanlashda, uzoq muddatli maqsadni tanlash doimo ustun bo‘lishi lozim. Agar menejer faqat bugungi kun muvaffaqiyatlarini o‘ylab ish yuritsa, firma kelajagini xavf ostida qodirsa juda kamdan-kam hollardagina korxona ravnaq topadi.

17.3. Menejment maqsadining turlari

Ma’lumki, menejmentning maqsadi korxonani yuqori natijaga erishishini ta’minalashdir. Joriy maqsadlar o‘z ichiga shunday maqsadlarni oladiki, ularni amalga oshirilishi rahbar va hizmatchilarni kundalik hizmat burchi hisoblanadi. Bu kabi maqsadlarga erishishning usullari, vositalari va uslublari asosan ma’lum. Istiqboldagi maqsadlar esa korxonaning kelajakda erishishi va qo‘lga kiritishi lozim bo‘lgan natijalar, imkoniyatlar uchun ishlab chiqiladi.

Muammoviy va innovatsion maqsadlar oddiylardan sezilarli darajada farq qiladi. Bu farqni asl ma’nosи ularga erishish tavsifidadir. Muammoviy va innovatsion maqsadlar katta aqliy energiya sarfini talab qiladi, chunki o‘ziga yangi elementni qamrab oladi. U ijodiy natijani qo‘lga kiritish uchun aniqlanadi va ishlab chiqariladi.

Muammoviy maqsadlar firmanın yoki alohida insonning faoliyati uchun zarur vaziyatni o‘zgarishi bilan bog‘liq. Masalan, birdaniga tovarlar sifatining pasayishi kuzatildi, tabiiyki, bu

korxonaning oladigan foydasiga ta'sir ko'rsatadi. Sifatni nazorat qilish bo'limi rahbari oldiga qo'yilgan maqsad ma'lum muddat davomida buning sababbini aniqlash va mahsulot sifatini yaxshilashdan iborat.

Muammoviy maqsadlar qatoriga yana innovatsion maqsadlarni qo'yish kerak. Ular yangi usullarni izlash va ishlab chiqish, yangi vosita va yangi mahsulot bilan bog'liqdir. Masalan, reklama bo'limi mutaxassisining maqsadi, tovar uchun yangi, samaraliroq, reklama yaratish va uni telestudiyaga ma'lum muddat ichida yo'llash esa innovatsion maqsaddir, chunki uni mazmuni bo'yicha dalolat berib turibdi. Izlanish bo'limining hizmatchilarini innovatsion maqsadi quyidagi masaladan iborat: «1 iyulga 3 ta yangi tovarni eksport sotuvchi uchun tekshirib maqomiga yetkazish».

Rahbar yoki xizmatchi o'z oldiga qo'ygan maqsadi qanchalik mashhaqqatli bo'lsa, unda shunchalik muammoviylik ko'pdır. Shuni aytish kerakki, muammoviylik tushunchasi faqat obyektiv omil bo'lib qolmasdan, balki u o'ziga subyektiv omilni qamrab olgan. Bitta maqsad bir xizmatchi uchun oddiy hisoblansa, boshqasi uchun esa muammoviy hisoblanadi. Birinchi holatda xizmatchi unga erishish uchun zaruriy usullarga ega bo'lsa, qo'yilgan vazifani katta qiyinchiliklarsiz bajarish uchun yetarli bilim va qobiliyatga ega bo'ladi.

17.4. Menejment funksiyalarining mohiyati, mazmuni

Har qanday menejment funksiyasi boshqaruv xodimlarining o'ziga xos faoliyatini turidir, mehnatni kasbiy taqsimoti, boshqaruv sohasidagi ixtisoslanish natijasidir. Ushbu faoliyatni o'ziga xosligi shundaki, har bir funksiya berilgan maqsadni bajarilishiga yo'naltirilgan. Shuning uchun u o'zining mavjud rolini o'ynaydi va boshqaruv xodimlarining umumiy faoliyatini tarkibiy qismi hisoblanadi.

Funksiya lotincha «function» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, bajo keltirish, bajarish, amalga oshirish ma'nosini bildiradi. Xorijiy so'zlar lug'atida funksiyani faoliyat darajasi, majburiyat, maqsad va rol deb ifodalanadi. Menejment funksiyalari boshqaruvchi va boshqaruvchi tizimlarni bir butun qilib bog'lab, aniq majburiyatlar bilan tavsiflaydi.

Menejment funksiyalariga bir qator muttakiflarni o'zlarini nazariy qarashlari bilan asos solganlar. F.Teylarning fikricha, har bir xizmatchi eng yuqori lavozimdan eng past lavozimgacha imkoniboricha oz sonli vazifani bajarilishi kerak.

Ba'zi bir mutaxassislar menejment funksiyalarini o'z qarashlarida asosiy tayanchni mazmuniy tomonga emas, balki axborotli tomonga yo'naltirganlar. Menejment funksiyasi deganda, ular eng avval axborotga ishlov berilishidagi tashkiliy faoliyat, yani shunday zarur mehnat faoliyati turiga bevosita axborotni ishlab chiqarishni boshqaruvning mansaati uchun harakati va ishlatalishi bilan bog'liqligi, shu jumladan, zarur qarorlar ishlab chiqilishi tushuniladi.

Ba'zi bir mualliflar menejment funksiyasini menejment subyektlarini harakat operatsiyasi desa, boshqasi ijtimoiy jamiyat birlashmasi faoliyati bir qismini tartibga solinishi deydi, uchinchi esa obyektiv zarur, barqaror takrorlanuvchi harakat deydi.

Yirik mutafakkirlardan biri A. Fayol boshqaruvchining korxonada bajariladigan barcha funksiyalarni quyidagi oltita guruxga bo'lgan:

Texnik (ishlab chiqarish, yasash, qayta ishslash).

Tijorat (sotib olish, sotish, almashtirish).

Moliaviy (kapital topish, uni boshqarish).

Himoyalash (mulkni va shaxsni himoyalash).

Hisob-kitob (muvozanat, sarflar, statistika).

Ma'muriy (ish olib borish, tashkil qilish, farmon chiqarish va nazorat).

A. Fayol boshqarishni umumiy funksiyalarini turkumlashda birdan bir muallif hisoblangan. A. Fayol ma'muriy funksiya korxona rahbari zimmasidagi eng katta o'rinni egalovchi majburiyatdir va uning predmeti deb quyidagilarni bilgan:

- oldindan ko'ra bilish (kelajakni o'rganish va harakat yaratish);
- tashkil qilish (korxonaning moddiy - texnika bazasini yaratish);
- farmon berish (korxona xodimlarini harakatga keltirish);
- tartibga keltirish (barcha jarayonlarni, harakat va intilishlarni birlashtirish);
- nazorat qilish (qonun - qoidalarga, chiqarilgan farmonlarga rioya qilinishini kuzatish).

Menejmentning funksiyalarini turkumlash muammosiga bildirilgan fikr-mulohazalar tahlili quyidagi asosiy xulosalar chiqarishga imkon yaratadi:

- menejer tomonidan maqbul qarorlar ishlab chiqiladi;
- korxona taraqqiyotini ta'minlaydigan buyruqlar chiqariladi va bajaruvchilarga yetkaziladi;

- mehnat samarali tashkil qilinadi va tartibga solib boriladi;
- qabul qilingan qarorlar bajarilishi nazorat qilinadi.

17.5. Menejmentni asosiy funksiyalarining tarkibiy tuzilishi

Menejment jarayoni, eng avvalo, uning oliy maqsadini aniqlashdan va, shu bilan birga, uni amalga oshirishni zaruriy harakatlar dasturini ishlab chiqishdan boshlanadi. Ma'lumki, rejalshtirish boshqarishning asosiy funksiyalaridan biri hisoblanadi. Rejalshtirish, eng avvalo, kelajakni belgilash, uning samaradorligini oshirishning istiqbolli yo'nalishlarini tanlashdir. Qarorlarning eng maqbul variantlarini ishlab chiqish va ularni amalga oshirishni ta'minlashdan iboratdir. Hozirgi vaqtida rejalshtirishning muhim yo'nalishi kelajakni bashorat qilishdir. Kelajakni bashorat qilish iqtisodiy matematik usullar yordamida matematik modellashtirish orqali amalga oshiriladi.

Menejmentning tashkil etish funksiyasi qo'yilgan maqsadlarga muvofiq ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan moddiy-texnika baza yaratish, boshqaruv apparatining maqsadga muvofiq tashkiliy tarkibini aniqlash, zarur me'yoriy xujjalarni ishlab chiqish va joriy etish, yangi standartlar, boshqaruv bo'linmalari to'g'risidagi qoidalar, vazifaviy yo'riqnomalar tayyorlash va boshqalarni o'z ichiga oladi. Tashkil etish funksiyasi korxonada bo'limlar faoliyatining tarkibiy - tashkiliy bog'lanishiga belgilangan rejalarни ma'lum tartib o'rnatib bajarilishini ta'minlaydi. Boshqacha qilib aytganda, korxonada barcha jarayonlarni birligini ta'minlab, yagona maqsadga birlashtiradi.

Menejmentning muvofiqlashtirish funksiyasi belgilangan dasturni yoki maqsadga muvofiq yoki rejani amalga oshishini, ishlab chiqarish jarayonlarining bir me'yorda borishini ta'minlaydi va o'rnatilgan me'yordan og'ishini bartafar etadi. Bu korxonada zaruriy tartiblilik va barqarorlik holatini o'rnatadi. Ishlab chiqarishni taraqqiy etishi bilan boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimlar o'tasidagi aloqalar doimo ham bir me'yorda davom etmaydi. Bo'limlarning vazifaviy majburiyatları to'liq bajarilmasliklari o'zaro aloqalarda uzilishlar, jarayonlarda og'ishlar vujudga keladi. Bu masalalar muvofiqlashtirish funksiyasi orqali yechiladi. Muvofiqlashtirish funksiyasi bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida katta ahamiyatga ega. Unga ishlab chiqarish ko'lami oshgan, murakkablashib borayotgan iqtisodiy aloqalar vujudga kelgan sari katta talab qo'yilmoqda. Menejmentning

muvofiqlashtirish funksiyasi orqali korxonaning dinamikasini, boshqaruv tizimini turli qism va bo'linmalari bilan aloqasini bir tekisligi ta'minlanadi.

Menejmentning nazorat qilish funksiyasi amalda belgilangan topshiriqlarning bajarilishini, ishlab chiqarishning bir me'yorda davom etishini kuzatish, uzilish holatlarni, o'rnatilgan talablardan og'ish sabablarini aniqlash, bartaraf etish, ularni oldindan bilish va ogohlantirish, ishlab chiqarishning barqrarligini ta'minlashdir. O'zining mohiyatiga ko'ra nazorat funksiyasi universal hisoblanadi, chunki, korxonaning funksiyasi barcha bog'lnlari va bo'linmalariga (texnologik jarayonlarning nazorati, texnik hujjatlar holatini nazorat qilish, bo'lim va bo'linmalar holatini nazorat qilish, mahsulot sifatini nazorat qilish va hokazo) kirib boradi va menejmentni boshqa funksiyalari bilan yaqin bog'langan bo'ladi. Shunday qilib, menejmentning nazorat funksiyasi korxona faoliyatining haqiqiy holatini o'rnatilgan talablardan og'ishdan doim xabardor bo'lib turish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, menejmentning funksiyalari bir-biri bilan o'zviy bog'langan bo'lib, korxonaning mahsulot ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish, samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Qisqacha xulosa

Qishloq xo'jaligida menejment butun boshqaruv tizimining uzlusiz amal qilishi jarayonini ifodalaydi. Menejment jarayoni rahbar va boshqaruv apparatining qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun kishilarning birgalikdagi faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha maqsadli harakat qilishidir. Menejment jarayoni ma'lum menejment funksiyalari asosida amalga oshadi. Menejment funksiyasi boshqaruv xodimlarining o'ziga xos faoliyatini turidir, mehnatni kasbiy taqsimoti, boshqaruv sohasidagi ixtisoslanish natijasidir.

Tayanch iboralar

Menejment jarayoni, maqsad qo'yish, axborot faoliyati, tahliliy faoliyat, tashkiliy - amaly faoliyat, harakatlar variantlari, maqsad, vaziyat, muammo, qaror qabul qilish, qisqa muddatga mo'ljallangan maqsadlar, uzoq muddatga mo'ljallangan maqsadlar, joriy maqsadlar, istiqboldagi maqsadlar, muammoli maqsadlar, innovatsion maqsadlar, funksiya, rejalahshtirish, tashkil etish, tartibga solish, nazorat qilish.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Menejment jarayoni nimalarni o'z ichiga oladi?
2. Menejment jarayoni qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?
3. Qanday menejment meqsadlari mavjud?
4. Menejment maqsadilariga qanday asosiy talablar qo'yiladi?
5. Joriy maqsadlar deganda nimani tushunasiz?
6. Istiqboldagi maqsadlar deganda nimani tushunasiz?
7. Muammoli maqsadlar deganda nimani tushunasiz?
8. Innovatsion maqsadlar deganda nimani tushunasiz?
9. Menejment funksiyalari nimalardan iborat?

Asosiy adabiyotlar

1. *Фуломов С.С. Менеджмент асослари.* Т., 1997.
2. *Зайнутдинов Ш.Н., Муракаев И.У. Основы менеджмента.* Т.: *O'qituvchi*, 1996.
3. *Мескон М., Альберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента.* Пер. с англ. М.: Дело, 1995.
4. *Герчикова Н.И. Менеджмент.* М.: 1995.
5. *Фатхутдинов Р.А. Система менеджмента.* М.: 1997.
6. *Умурзоқов Ў.П., Абдураҳимов И.Л. Сув хўжалиги менеджменти.* -Т.: "IQTISOD-MOLIYA". 2008

18-bob. MENEJMENT QONUNLARI VA TAMOYILLARI

18.1. Iqtisodiy qonunlarni bilishning ahamiyati


Menejment jamiyat qonunlari tizimiga asoslanadi. Nazariy jihatdan tushunmay va asoslanmagan holda birorta yirik amaliy masala hal etilishi mumkin emas. Nazariya yangilanishning muhim usulidir. Fan esa voqelik haqida obyektiv bilimlarni o'rganish va tartibga solishga qaratilgandir. Bilimlarni tartibga solinishi qonunlarda ifodalanadi.

Qonun - falsafiy kategoriya bo'lib, borliq voqealarning barqaror, takrorlanuvchan aloqasi va munosabatini, hodisalar yuz berishining aniq tartibda bo'lishiga olib keluvchi tomonlarini aks ettiradi. Qonunlarni bilish rivojlanishning obyektiv yo'nalishlarini aniqlash, amaliy vazifalarni hal etish imkonini beradi. Shu sababli iqtisodiyotni boshqarish qonunlarni bilish, ularni amalda mohirlik bilan qo'llay olishga asoslanishi kerak.

Iqtisodiyotni boshqarishda qonunlardan qanchalik to'liq va izchil foydalanilsa, mehnat sarfi shunchalik samarali bo'ladi. Va, aksincha, menejment jarayonida iqtisodiy qonunlarni hisobga olmaslik jamiyat uchun kutilmagan, salbiy oqibatlarga olib keladi. Shu sababli menejment qonunlarini o'rganishda faqat amal qilishni emas, balki menejment jarayonida ongli ravishda qo'llanilishni ham ko'zda tutish lozim. Boshqaruva qonunlaridan ongli ravishda foydalanish, ko'p jihatdan ularni o'rganish bilan bog'liq. Qonunlar qanchalik chuqur o'rganilsa, ulardan amalda to'g'ri foydalanish imkoniyatlari ortadi.

Lekin menejment qonunlarini bilish ularni aniq amaliyotda muvaffaqiyatli qo'llash uchun kafolat bo'la olmaydi. Qonunlarni foydalanishda nazariya amaliyotdan ajralib qolishi foydasizdir. Demak, qonunlardan foydalanish ularni bilish, tushunish, amalda o'z vaqtida va to'g'ri qo'llay olishga bog'liq ekan. Bu menejment samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omildir.

Iqtisodiy qonunlar tizimidan foydalanishning asosiy elementlari va bosqichlari quyidagi chizmada aks ettirilgan:



18.2. Umumiy falsafiy va iqtisodiy qonunlar

Umumiy falsafiy va iqtisodiy qonunlardan to‘g‘ri foydalaniłgan holdagini iqtisodiyotni muvaffaqiyatl boshqarish mumkin. Umumiy falsafiy qonunlar ta’siri amaliyotda iqtisodiy rivojlanish qonuniylatlari va yo‘nalishlarini aniqlash shaklida namoyon bo‘ladi. Ishlab chiqarishni boshqarishdagi turli-tuman ijtimoiy munosabatlar umumiy falsafiy, ham iqtisodiy qonunlarga bo‘ysunadi.

Umumiy falsafiy qonunlar, bu avvalo, quyidagi materialistik dialektika qonunlaridir:

1. Miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘tish qonuni narsa va hodisalarning miqdor va sifat jihatlarini o‘zaro bog‘liqligi, ta’sirini tavsiflaydi.

2. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni harakatlantiruvchi kuch, o‘z-o‘zidan harakat qilib amalga oshuvchi rivojlanish manbaini ko‘rsatadi.

3. Inkorni inkor etish qonuni cheksiz rivojlanish va takomillashish yo‘nalishini belgilaydi. Eskirgan narsani inkor etmay, rivojlanishga erishib bo‘lmaydi, chunki inkor natijasida yangi narsa uchun joy yaratiladi. Shuning uchun inkor yangi bilan eski bog‘langan vaqtdir. Bozor munosabatlari sharoitida menejment eski buyruqbozlik shakl va uslublarni inkor etib, ular ilmiy asoslangan yangilari bilan almashtiradi.

4. Ijtimoiy borliqning ijtimoiy ongdan birlamchi ekanligini belgilovchi qonun mehnat jamoasi, alohida mehnatkash hayotining birlamchi ekanligini ko‘rsatdi. Boshqaruvni umumlashtirish zarur bo‘lgan ijtimoiy, jamoa, shaxsiy mansaatlarni aniqlashda bu qonun amal qilishini hisobga olmay amalga oshirib bo‘lmaydi.

5. Ishlab chiqarish kuchlarining ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga nisbatan belgilovchi ekanligini ifodalovchi qonun boshqaruv uchun katta ahamiyatga ega. Aynan boshqaruv vositasida ishlab chiqarishning ikki tomoni ishlab chiqaruvchi kuchlar va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari aloqasi yuz beradi.

Yuqorida sanab o'tilgan umumiylarsiz falsafiy qonunlar menejment metodologiyasi asosini tashkil etadi. Ular menejmentda markaziy kategoriyalardan bo'lib, uning konsepsiysi birligini mustahkamlash, barcha kategoriyalardan o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashga imkon yaratadi.

Iqtisodiyotni boshqarish tizimida iqtisodiy qonunlar yetakchilik qiladi. Insonlar mehnatini erkin birlashtiruvchi va tartibga soluvchi boshqarish tizimi maqsadlarni aniq belgilash, ularni amalga oshirish yo'llarini izlash, ular erishilgan natijalariga baho berish, iqtisodiy samaradorligida aks etuvchi iqtisodiy qonunlar talablari aniq xisobga olish lozim.

1. Jamiyat ehtiyojlarini mumkin qadar kam resurslar sarflab iloji boricha to'liq qondirish qonuni. Jamiyatdagi barcha iqtisodiy va ijimoiy jarayonlar, ularni amalga oshirish qonunlari bu qonunga amal qiladi, chunki u quyidagilarni ifodalaydi:

- ishlab chiqarishning obyektiv yo'nalishi, uning xalq farovonligini oshirish, shaxsiy har tomonlama rivojlantirishga qaratilganligini;

- insonlar xo'jalik faoliyatining asosiy sabablari, umumxalq iqtisodiy manfaatlarining yetakchiligidini;

- ishlab chiqarish samaradorligininining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini.

2. Qiymat qonuni yoki narx qonuni. Tovarlarning pulda ifodalangan qiymati narx deb ataladi. Narx esa talab va taklifga bog'liq ravishda aniqlanadi. Narx bozor barometridir, ya'ni agar talab va narx yuqori bo'lsa, ishlab chiqarish kengayadi. Talab va narx pasayganda ishlab chiqarish qisqaradi. Talab hajmi va tarkibi taklif hajmi va tarkibiga teng bo'lgan holdagi narx muvozanat narxi deyiladi.

Ishlab chiqariladigan har bir tovar turi, hajmi ularga bo'lgan ijtimiy ehtiyojlarga teng bo'lishi, ya'ni to'lov qobiliyatiga ega talabga teng bo'lishi kerak.

3. Talab qonuni. Uning mazmuni shundan iboratki narx qancha yuqori bo'lsa, talab shunchalik kam bo'ladi. Talab hariidorning to'lov qibiliyatini ifodalaydi.

4. Taklif qonuni. U narx ortishi bilan taklif ortishini ifodalaydi. Taklif - bu bozordagi tovar va xizmatlarning hajmidir.

Shunday qilib, bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda iqtisodiy qonunlardan foydalanish imkoniyatlari har tomonlama kengayib boradi.

18.3. Menejment qonunlari

Menejment qonun va qonuniyatlar o‘z mohiyatiga ko‘ra obyektiv jarayon hisoblanadi. «Qonun» va «qonuniyatni» umumiy va xususiy tushunchalarga kiritish mumkin.

«Qonun» umumiy tushuncha bo‘lsa, qonuniyat uning bir qismi hisoblanadi. Iqtisodiy qonun va qonuniyatlar inson ongi va saviyasidan tashqarida amal qiladi. Inson uni to‘g‘ri tushunishi va undan o‘z faoliyatida oqilona foydalanishi lozim. Bozor iqtisodiyoti tizimi uni to‘g‘ri tushunish va undan oqilona foydalanishni talab qiladi. Menejmentning quyidagi qonunlari mavjud:

- ixtisoslashtirish qonuni;
- integratsiya qonuni;
- markazlashtirish qonuni;
- demokratizatsiyalash qonuni;
- vaqt qonuni (vaqtini iqtisod qilish qonuni).

Ixtisoslashtirish qonunining mohiyati shundaki, korxonani boshqarish ma’lum miqdordagi boshqaruvchilar, rahbarlar tomonidan amalga oshiriladi. Ular o‘z faoliyatları jarayonida mehnat taqsimoti asosida o‘ziga xos quyidagi funksiyalar bo‘yicha (rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, faollashtirish, nazorat), mehnat vositalari bo‘yicha (axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish usullari), funksiyalarni bajarish hajmi va mehnatga bo‘lgan talab bo‘yicha (bo‘lim rahbarlari va unga bo‘ysunuvchilar), menejment vakolati bo‘yicha (menejment darajasi, huquqi, mas’uliyati va boshqalar) amalga oshiradi.

Menejment tizimida har xil funksiyalar taqsimoti mavjud bo‘ladi. Xususan korxonani boshqarishning umumiy vazifalari – ishlab chiqarish jarayoni, moliya, sotib olish, sotish, marketing, kadrlarni o‘qitish, ilmiy faoliyat, axborotlar tizimini boshqarish kabilalar mavjud bo‘ladi. Bu o‘z navbatida boshqarishning ixtisoslashuvi bo‘lib, ular yordamida boshqarishning samaradorligi ta’minlanadi. Menejmentning ixtisoslashgan funksiyalari shu sohani bilgan tajribali va malakali xodimlar tomonidan amalga oshiriladi.

Integratsiya qonuni - bu obyektiv qonun bo‘lib, menejment barcha boshqaruvchi xodimlar faoliyatini integratsiyasi asosida amalga oshirishni ko‘rsatadi. Bunday ehtiyoj ishlab chiqarish va boshqarishga bo‘lgan talabdan kelib chiqadi va amalga oshiriladi.

Menejmentning integratsiyasi uning quyidagi tarkibiy qismlari yordamida namoyon bo‘ladi:

1. Maqsad – boshqarishning integratsion omil sifati;
2. Menejment mexanizmi – balanslashgan usuli va menejment jarayoni sifatida;
3. Strukturaviy bo‘linmalar va ularning fuknsiyalarini muvofiqlashtirish sifatida;
4. Axborotlar bilan ta’minlash - menejment bo‘linmalari o‘rtasida bog‘lash sifatida.

Menejmentning markazlashtirish qonuni. Bu qonun markazdan va quyidan boshqarishning optimal (eng qulay) variantini topishni talab etidi.

Bu qonun bir tomondan markazdan, ya’ni yuqorida pastga, ikkinchi tomondan pastdan yuqoriga menejment jarayonini o‘zida aks ettiradi.

Boshqarishning obyektiv tizimi markazlashtirilgan shaklda bo‘ladi. Masalan, biologiyada birinchi tizim faoliyat ko‘rsatishi uchun markaz, ya’ni miya ishlashi kerak.

Korxonani boshqarishda, muhim qarorlar qabul qilishda vakillikning aksariyat qismini o‘z zimmasiga oladigan boshqaruv tizimi markazlashgan boshqaruv deb ataladi. Korxonani boshqarish vakolatlari asosan quyi boshqaruv organlariga berilgan bo‘lsa, buni markazlashmagan ya’ni quyidan boshqaruv deyiladi.

Markazlashgan boshqaruvning afzallikkleri quyidagilar:

1. Ixtisoslashgan boshqaruv xizmati faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish imkonи tug‘iladi.
2. Harakatning yagona kelishilgan tartibi ta’minlanadi.
3. Menejment mehnati bilim va tajribadan unumliroq foydalanish imkonini beradi.

Quyidan boshqarishning afzallikkleri quyidagilar:

1. Muammoni yaxshiroq biladigan rahbar tomonidan qaror qabul qilish imkonи tug‘iladi.
2. Yirik korxonalarni axborotlar hajmi ko‘pligi sababli boshqarish va menejment qarorlarini ishlab chiqish qiyinlashadi.
3. Quyidan boshqarish rahbarlik lavozimidagi shaxsning mas‘uliyatini oshiradi, o‘ziga nisbatan talabchanlik kuchayadi va o‘z ish joyida mustahkam bo‘lish imkonini beradi.

Demokratizatsiyalash qonuni. Menejment samaradorligi odamlar manfaatiga mos tushadigan bo'lishini ta'minlanishi lozim. Manfaatdor har bir shaxs, boshqaruv xodimi mehnat jamoasi uchun xos bo'lgan jarayon hisoblanadi. Bu esa boshqarish jarayonini nafaqat malakali, qolaversa demokratik bo'lganda ta'minlanadi. Bu qonun mohiyatiga ko'ra jamoada odamlarning bir-biriga bo'lgan o'zaro munosabatini aks ettiradi, ya'ni rahbar va bo'y sunuvchilar o'tasidagi o'zaro aloqani aks ettiradi.

Vaqt qonuni (vaqt ni iqtisod qilish qonuni)- bu bozor iqtisodiyotining muhim qonunidir. Vaqt iqtisodiy kategoriya bo'lib, uning qadr-qimmati korxona faoliyatining barcha tomonlarini o'z ichiga qamrab oladi, jumladan, ishlab chiqarish tezligi, kapital aylanmasi, mehnat unumдорлиги, mehnat qurollaridan foydalanish harajatlari va boshqalar.

18.4. Menejmentning asosiy tamoyillari

Tamoyil - bu faoliyat yuritishning asosiy qoidasi, yetakchi g'oyadir. Ilmiy adabiyotlarda odatda boshqaruv tamoyillari deganda iqtisodiyotga rahbarlik qilishda asoslaniladigan asosiy qoida, yo'il-yo'riq, xulq me'yordi tushuniladi. Boshqaruv tamoyillari iqtisodiyot qonunlari ta'siri natijasida boshqaruv usullariga bog'liq hodisalar mohiyatini aks ettiradi. Boshqaruv mexanizmini quyidagicha ifodalash mumkin:

Qonunlar → tamoyillar → usullar → uslublar.

Boshqaruv tamoyillari o'zaro bog'liq va birgalikda qo'llanilishi lozim.

Menejmentning asosiy tamoyillarga quyidagilar kiradi:

1. *Boshqaruvda yakkaboshchilik va kollegiyalik tamoyili.* Yakkaboshchilik tamoyili bevosita ishlab chiqarishda xodimlarning yagona rahbar buyruqlariga qat'iy boysunushini talab qiladi. Yuqori darajadagi rahbar quyisi bo'g'in rahbari vakolatiga kiruvchi masalalarni hal etmasligi lozim. Bu tamoyilni amalga oshirishning asosiy sharti har bir ijrochining huquq, burch, majburiyatlarini qat'iy belgilab qo'yishdir. Yagona boshchilik kollegiallik, qabul qilinadigan qarorlar oshkoraliqi bilan qo'shib olib borilishi kerak. Kollegiallik intizom,

rahbar, yagona shaxs irodasiga so‘zsiz bo‘ysunush bilan birga amalga oshishi kerak. Demokratiya, oshkoraliq har bir kishiga o‘z fuqarolik qarashlarini namoyon qilish, boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va qabul qilishda faol qatnashish uchun imkon yaratadi.

2. *Ilmiylik tamoyili*. Boshqaruv tamoyillari orasida valutarizmni inkor qiluvchi har bir rahbar iqtisodiy qonunlar, jamiyat rivojlanishining obyektiv yo‘nalishlari, bu sohada milliy va chet el tajribasini qo‘llashini taqozo qiluvchi o‘rin egallaydi.

3. *Rejalilik tamoyili*. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni rejali boshqarish - biznes va strategik rejasini tuzish - iqtisodiy siyosatlarni amalga oshirishning muhim shartidir. Bu tamoyil ishlab chiqarish rivojlanishining uzoq muddatga mo‘ljallangan yo‘nalishlari.

4. *Boshqaruv shakl va usullarini takomillashtirib borish tamoyili*. Bozor iqtisodiyoti sharoitida boshqaruvning uch shakli mavjud, jumladan, xususiy, jamoa, davlat boshqaruvi. Boshqaruvning xususiy shaklida mulkdor yakka o‘zi qaror qabul qiladi va butun ish uchun javobgar bo‘лади. Boshqaruv xususiy shaklining ijobiy tomoni mulk egasi ishlar borishini o‘zi to‘liq nazorat qilish imkoniyatiga egaligi kamchiligin esa sarmoyaning uncha katta bo‘imasligi va bir kishi boshqaruvning turli vazifalarini bajarishiga majburligidir.

Boshqaruvning jamoa shaklida ikki yoki undan ko‘p jismoniy va huquqiy shaxslar boshqaruv qarorlarini birgalikda qabul qiladilar va korxona yoki aksionerlar jamiyati faoliyati uchun javobgar bo‘ладilar. Sherikchilik nisbatan malakali boshqaruv qarorlarini qabul qilish, boshqaruvning xususiy shakli kamchiliklarini bartaraf etishga imkon yaratadi. Boshqaruvning jamoa shaklining afzalligi sheriklar aksiya sotish yo‘li bilan qo‘srimcha sarmoya jalb qilish imkoniyatiga ega bo‘lishidadir.

Davlat boshqaruv shakli davlat yoki mahalliy mulk bo‘lgan korxonalarda amalga oshiriladi. Davlat bu korxonalar faoliyati uchun to‘liq javob beradi.

5. *Kadrlar tanlash va joylashtirish tamoyili*. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kadrlarni tanlash va joy-jiyiga qo‘yish tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi. Bozor munosabatlari boshqaruv kadrlariga qat’iy talablar qo‘yadi, ularning ishbilarmonlik sifatlari, ishlab chiqarish oldida turgan masalalarni belgilaydi.

6. *Shaxsiy tashabbus tamoyili*. Bozorda ishbilarmon, omilkor, shaxsiy foyda uchun harakat qiluvchi, tadbirkor kishilar faoliyat yuritishi kerak.

7. *Javobgarlik va tavakkalchilik tamoyili*. Tadbirkor o‘z faoliyati uchun javobgar bo‘lishi, bunda ma’lum tavakkalchilik ham hisobga olinishi, ya’ni tadbirkorning o‘z huquq va majburiyatlari bo‘lishi kerak.

Qisqacha xulosa

Rahbarning qonunlarni mukammal bilishi, rivojlanishning obyektiv yo‘nalishlarini aniqlash, amaliy vazifalarni hal etish imkonini beradi. Shu bois rahbar boshqarish qonunlarini bilish bilan birga, ularni amalda mohirlik bilan qo‘llay olishi kerak. Menejment qonunlarini o‘rganishda faqat amal qilishni emas, balki menejment jarayonida ongli ravishda qo‘llanilishni ham ko‘zda tutish lozim. Boshqaruven qonunlaridan ongli ravishda foydalanishning ko‘p jihatdan ularni o‘rganish bilan bog‘liq. Qonunlar qanchalik chuqur o‘ganilsa, ulardan amalda to‘g‘ri foydalanish imkoniyatlari shunchalik ortadi.

Tayanch iboralar

Iqtisodiy qonunlar, umumiylarsasiy qonunlar, qiymat qonuni, talab qonuni, taklif qonuni, ixtisoslashtirish qonuni, integratsiya qonuni, markazlashtirish qonuni, demokratizatsiyalash qonuni, vaqt qonuni, tamoyil, yakkaboshchilik va kollegiyalik tamoyili, ilmiyilik tamoyili, rejalilik tamoyili, boshqaruven shakl va usullarini takomillashtirib borish tamoyili, kadrlar tanlash va joylashtirish tamoyili, shaxsiy tashabbus tamoyili, javobgarlik va tavakkalchilik tamoyili.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Qanday iqtisodiy qonunlar sizga ma’lum?*
2. *Umumiylarsasiy qonunlar deganda nimani tushunasiz?*
3. *Bozor iqtisodiyotida qaysi qonunlar muhim rol o‘ynaydi?*
4. *Menejmentning qanday qonunlarini bilasiz?*
5. *Tamoyil deganda nimani tushunasiz?*
6. *Menejmentning qaysi tamoyillari sizga ma’lum?*

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlash tirish yo'liida. T.: O'zbekiston , 1995.
2. G'ulomov S.S. Menejment asoslari. T., 1997.
3. Зайнутдинов Ш.Н., Муракаев И.У. Основы менеджмента. Т.: O'qituvchi, 1996.
4. Герчикова Н.И. Менеджмент. М.: 1995.
5. Мескон М., Альберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента. Пер.с англ. М.: Дело, 1995.
6. Акназаров Ф.А., Абдурахимов И., Тошматов Х., Даулетов Ё. Менеджмент в водном хозяйстве. -Т. 2003.
7. Фатхутдинов Р.А. Система менеджмента. М.: 1997

19-bob. MENEJMENT USULLARI

19.1. Menejment usullarining asosiy mazmuni

Menejment usullari - bu menejment subyektining menejment obyektiga maqsadli yo'naltirilgan ta'sir o'tkazishning usullari, ya'ni menejerning u boshqarayotgan ishlab chiqarish jamoasiga qo'yilgan maqsadlarga erishish jarayonida uning faoliyati muvofiqlashuvini ta'minlashdir.

Menejment usullari vositasida iqtisodiy jarayonlarga va ishlab chiqarish qatnashchilariga moddiy, moliyaviy, energiya, mehnat resurslarini imkonli boricha kam sarf qilib yuqori natijalarga erishish maqsadida ta'sir etiladi. Ishlab chiqarish samaradorligi ko'p jihatdan menejment usullari mukammalligi va to'g'ri shakllanligi bilan uzviy bog'liqdir.

Menejment usullari boshqaruvda muhim o'rinni egallab, menejment qonun va tamoyillari bilan uzviy bog'liqdir. Menejment usullari tashqi va ichki omillar ta'sirida o'zgaradi. Tashqi omillarga: tashqi va ichki sharoit o'zgarishi, iqtisodiyotni boshqarishda tub islohotlarni amalga oshirish, qishloq xo'jaligining texnikaviy qurollanganlik darajasi, boshqarish tizimidagi o'zgarishlar kiradi. Ichki omillarga: yirik ishlab chiqarish birlashmalarini tashkil etish asosida ishlab chiqarish konsentratsiyasini amalga oshirish; korxona kattaligi o'zgarishi natijasida uning bir guruhdan ikkinchisiga o'tkazilishi; ishlab chiqarish ixtisoslashish darajasi o'zgarishi; mehnatning texnika bilan ta'minlanish darajasi yaxshilanishi; ishlab chiqarishni rejalashtirish va jadal tartibga solishning mavjud usullarini takomillashtirish va yangilarini joriy qilish (ishlab chiqarishni uzlusiz tezkor rejalashtirish, ishlab chiqarishni boshqarishni avtomatlashtirilgan tizimini qo'llash va h.k.) ni kiritish mumkin.

Menejment usullari bevosita ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga ta'sir etuvchi ishlab chiqarish usuli rivojlanishi va jamiyat ishlab chiqarish kuchlari o'sishi bilan o'zgarib boradi. Iqtisodiyot muvaffaqiyatli rivojlanishda menejment usullarini to'g'ri tanlash muhim ahamiyatga ega.

Menejment usuli- bu, eng avvalo maqsadga erishish yo‘lidir. Shuning uchun menejmentning maqsadi eng muvofiq usullarni tanlashdan iboratdir. Shunday ekan «Menejment usuli» birinchi navbatda korxona faoliyati jarayonida ishlataladigan ta’sir ko‘rsatishni asosiy maqsadini aks ettirishi kerak.

19.2. Menejmentning iqtisodiy usulining asosiy mazmuni

Iqtisodiy usullarning mohiyati xodimlar va ishlab chiqarish jamoasiga ular manfaati bo‘lishini ta’minlovchi iqtisodiy sharoit yaratishdan iboratdir. Boshqaruv usullari tizimida iqtisodiy usullar yetakchi o‘rinni egallaydi.

Iqtisodiy usullar iqtisodiy ta’sir vositalari yigindisidan (narx, kredit, biznes-reja, foyda, soliqlar, ish haqi, iqtisodiy rag‘batlantirish va h.k.), ya’ni xo‘jalik faoliyatiga ta’sir etishning har bir jamoa mos xo‘jalik bo‘g‘ini bilan uzviy aloqada amal qilishini ta’minlovchi tadbirlaridan iboratdir.

Bozor iqtisodiyoti ma’muriy-buyruqbozlik tizimiga nisbatan qarama-qarshi tizim bo‘lib, bozorda narx, soliq, kredit vositasida tartibga solish, eng avvalo, ijtimoiy maqsadda amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida narx va ish haqi o‘zgarishini qat’iy tartibga solmay barqarorlikka erishib bo‘lmaydi.

Menejment jarayoni xo‘jalik tizimida iqtisodiy munosabatlarga asoslanadi, ularning asosida ongli ravishda ishlataladigan iqtisodiy qonunlar va menejment obyektiga xos qonuniyatlar yotadi. Bu qonunlar va qonuniyatlar menejmentga to‘laligicha va uning har bir alohida bo‘g‘iniga turli yo‘llar bilan maxsus mexanizm yordamida ta’sir ko‘rsatadi. Mexanizmning tarkibiga eng avval menejmetning iqtisodiy usullari kiradi.

Iqtisodiy usullar o‘zaro bog‘langan tizimdir. Ammo ushbu tizimning tuzilishi masalasida mutaxassislarining fikrlari turlichadir. Birlari rejalashtirishdan, iqtisodiy rag‘batlantirishdan, mehnatni ishlab chiqarishni, menejmentni ilmiy asosda tashkil etishdan, narx belgilashdan, moliya bilan ta’minlashdan tashkil topgan desalar, boshqalari shular bilan bir qatorda yana xo‘jalik hisobini qo‘srimcha qiladilar, uchinchilari esa, iqtisodiy usullar tizimini rejalashtirishdan, xo‘jalik hisobidan va iqtisodiy tahlildan tashkil topgan deydilar, to‘rtinchilari- rejalashtirish, xo‘jalik hisobi, yaxshi ish natijalari uchun moddiy rag‘batlantirish deb tasdiqlaydilar. Beshinchilari- rejalashtirish,

xo'jalik hisobini iqtisodiy va moddiy rag'batlantirish deb biladi. Oltinchilar- markazlashgan rejalashtirish va iqtisodiy dastaklar tizimi, xo'jalik hisobi, narx belgilash, moddiy rag'batlantirish va hokazolar deb tushunadilar.

Iqtisodiy usullar, eng avval, iqtisodiy qonunlar talabiga, ishlab chiqarish munosabatlarining tizimi va tarkibiga asoslanmog'i kerak. Shunday qilib, menejmentni iqtisodiy usullarining negizida eng avval tashkilot jamoalarining iqtisodiy manfaati yotadi. Ular o'z faoliyatida eng yuqori natijalarga eng kam harajatlar hisobiga erishishga harakat qiladilar. Iqtisodiy usullarni takomillashuvining asosiy yo'nalishlari- bu iqtisodiy sharoitlarni yaratishdir.

Menejmentning iqtisodiy usullari to'la iqtisodiy mexanizmning bir kichik bo'lagi hisoblanadi va ular yordamida ishlab chiqarish samaradorligining muammosi yechiladi. Bu usullar menejmentga iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi asosida ma'lum holatni bunyod etish, iqtisodiy va moddiy rag'batlantirish hamda narx, kredit kabi iqtisodiy dastaklar orqali ta'sir qiladi.

19.3. Menejmentning ijtimoiy-psixologik usulining mazmuni

Hozirgi vaqtida iqtisodiyotning barcha sohalarida bozor munosabatlarining bosqichma-bosqich shakllanib borishi sharoitida menejmentning ijtimoiy-psixologik usulining ahamiyati o'sib bormoqda. Menejmentning ijtimoiy-psixologik usullari - bu ishlab chiqaruvchi va ayrim shaxslarga ularning ijtimoiy ehtiyojlari va psixologik xususiyatlariga ta'sir etish bilan boshqarish vositasidir. Ijtimoiy-psixologik usullarni qo'llash korxonada yuz berayotgan ijtimoiy hodisalarни chuqur o'rganish xodimlar kayfiyatiga ta'sir etuvchi psixologik (ruhiy) omillarni bilishni talab etadi.

Menejmentning ijtimoiy-psixologik usuli- bular tashkilot jamoalarining zaruriy ongli, faol, uzlusiz mehnat faoliyati tarzini amalda ro'yobga chiqarish bo'lib, ular odamlarni shaxslararo va ruhiy rag'batlantirishni ishlatilishi asosida amalga oshiriladi.

Menejmentning ijtimoiy-psixologik usullari ishlab chiqarishda mavjud ijtimoiy mexanizmni (o'zaro munosabat tizimi, ijtimoiy ehtiyojilar) qo'llashga asoslanadi. Menejmentning ijtimoiy usullari ijtimoiy tartibga solish vositasida amalga oshiriladi.

Ijtimoiy tartibga solish usullari turli guruqlar va shaxslar maqsadi va manfaatlarini aniqlash va rostlash yo'li bilan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish va uyg'unlashtirish maqsadida qo'llaniladi.

Ular jumlasiga ijtimoiy tashkilotlar nizomlari, shartnomalar, o'zaro majburiyatlar, ishchilarni tanlash, taqsimlash va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish tizimi kiradi. Ijtimoiy tartibga solish usullari inson omili faolligini oshirish, boshqaruvni demokratlashtirish maqsadida ham qo'llaniladi.

Menejmentning ijtimoiy-psixologik usullari jamoada maqbul psixologik holatni tashkil etish yo'li bilan kishilar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgandir. Psixologik usullarga kichik guruh va jamoalarni tashkil etish, malakali kadrlar tanlash, ularni o'qitish va h.k.lar kiradi.

Ijtimoiy- psixologik usul har bir jamoaga va alohida uning xizmatchisiga ta'sir ko'rsatadi. Ularga quyidagilar kiradi: ishontirish usullari, tarbiyalash, ruhiy rag'batlantirish, ishlovchilarni maishiy talablarini qondirish hamda jamoaning ilg'or mehnat an'analarini saqlash va rivojlantirish.

Kishi ruhiy xususiyatlarning u bajaruvchi ish talablariga mos kelmasligi o'z kasidan qoniqmaslik uni o'zgartirishga harakat qilishga, xato qilish ehtimoli ortishiga va natijada mehnat unumдорligi pasayishiga olib keladi. Aksincha, agar inson o'z qobiliyatini to'liq namoyon qila oluvchi ish bilan band bo'lsa, u o'z mehnatidan mammun bo'ladi, kasbni tez egallaydi va mehnat unumдорligi yuqori bo'ladi.

Inson uchun faqat moddiy rag'bat muhim deb hisoblash noto'g'ri. Unga juda ko'p narsa katta umumiyligi ishda o'z hissasi borligini his etish, o'zini mehnat orqali namoyon etish, o'z malakasi bilan g'ururlanishi, do'stлari hurmatiga sazovor bo'lish va h.k.lar ham muhimdir. Ko'pchilik kishilar shaxsiy farovonlikka boshqalar hisobiga erishilgan shaxsiy muvaffaqiyat orqali emas, mamlakat iqtisodiyotiga qo'shgan mehnati hisobiga erishish lozimligini ta'kidlaydilar.

19.4. Menejmentning ma'muriy usuli, uning mohiyati va tavsifi

Menejmentning ma'muriy usuli davlat tabiatidan kelib chiqadi. Ular har qanday menejment jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Korxona va tashkilotlarining ishlab chiqarish xo'jalik faoliyati

menejmentning turli ma'muriy usullarini qo'llash bilan bog'liqdir. Menejmentning ma'muriy usullari boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimlar samarali faoliyat yuritishini ta'minlovchi ta'sir etish tizimidan iboratdir. Menejmentning ma'muriy usullari iqtisodiy usullarni to'ldirib, bozor iqtisodiyoti qonunlari, huquqiy hujjatlarni hisobga olish va bajarishga asoslanadi.

Menejment tizimida ma'muriy usul ma'muriy shakllar bilan qo'shib olib boriladi. Bu ko'p hollarda tashkiliy ta'sir ma'muriy huquqni qo'llash, ya'ni qaror va farmoyishlarni amalga oshirishga asoslanadi. Ma'muriy usul boshqaruvning turli darajalariga turli ko'lamda va shaklda tashkiliy ta'sir etishni o'rganish masalalarini ham qamrab oladi. Ma'muriy usul boshqaruvning har bir bo'g'ini vazifalarini belgilab beradi, boshqaruv apparati intizomi va faoliyati samaradorligini ta'minlaydi, ishda tartib o'rnatadi, qaror va farmoyishlarni bajaradi, kadrlarni tanlaydi va joy-joyiga qo'yadi va h.k.

Shuni ta'kidlash zarurki, ma'muriy usullarning tarqalishini cheklash, ularni bozor iqtisodiyotining amalga oshishini turli bosqichlarda menejmentning turli saviyalarida to'g'ri ishlatilishida majburiy shart hisoblanadi. Ma'muriy usullarni to'g'ri va o'z vaqtida ishlatilishi menejment amaliyotida menejmentni tashkil qilishini yaxshilashga va uning samaradorligini oshirishga imkon beradi.

Menejmentning ma'muriy usullarini ishlatilishining kengayishi iqtisodiy usullarining ma'lum mutanosiblikda ishlatilishini hech qachon inkor qilinmagan. Ma'muriy shakl o'z ichiga iqtisodiy ma'noni oladi. Xo'jalik muammolarni hal etishda umumiy yondashuvning turli tomonlari, bu masalalarni hal etishda bir-birlarini to'ldirib, hamma vaqt birga ishlatilgan.

Menejmentning ma'muriy usuli ishlab chiqaruvchilarga ta'sir etish manbalari va yo'nalishlari bo'yicha turlicha bo'ladi. Ta'sir etishning farmoyish usullari chekllovchi hujjatlarda ko'zda tutilmagan mavjud vaziyatdan kelib chiqqan holda kundalik jadal menejment maqsadida qo'llaniladi. Farmoyish orqali ta'sir etishning asosiy maqsadi boshqaruv apparatining aniq harakati, boshqaruvning barcha bo'linma va xizmatlari barqaror ishlashini ta'minlab berishdan iborat. Ta'sir etishning farmoyish usullari buyruq, farmoyish, ko'rsatma va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Menejment samaradorligini oshirishda iqtisodiy va ma'muriy usullarni majmuaviy ishlatilishi zaruriyatini ko'zda tutilgan bo'lib,

aniq sharoitni hisobga olib, ishlab chiqarishning har bir saviyasida ularni maqbul ravishda bir-birlariga to'g'ri kelish talabi yuzaga keladi. Ushbu muhim masalaning yechilishi menjmentning nazariyasi va amaliyoti uchun katta ahamiyatga egadir. Tashkilotda turli toifadagi mehnat ishlarini xo'jalik yuritish samaradorligini oshirishdagi muammoni yechishda moddiy rag'batlantirishni kuchaytirish kabilar markazlashgan menejmentning rejali ahamiyatini oshirishni muhim sharoitlaridan biri hisoblanadi.

Ammo ma'muriy usulni tashkilotni boshqarishda ahamiyati qanchalik katta bo'lishidan qat'iy nazar, hamma vaqt shuni nazarda tutish kerakki, ular boshqariluvchi tizimga birinchi turki bo'ladilar.

19.5. Zamonaviy boshqaruvning huquqiy usullari

Korxonada huquqiy boshqaruv undagi boshqaruv tizimida mehnatdan foydalanish sohasida (intizomni mustahkamlash, shaxsiy mas'uliyatni oshirish, kadrlarning qo'nimsizligi darajasini pasaytirish, tashkilot tuzilmasini takomillashtirish va h.k.), boshqaruv apparati xodimlarining mehnat predmetlaridan foydalanish sohasida (axborot oqimlarini oqilona tashkil qilish, axborotni o'z vaqtida tayyorlash) hamda iqtisodiyotning boshqaruv tizimida mehnat vositalaridan foydalanish sohasida (bino va inshootlar, texnik vositalar, hisoblash texnikasidan foydalanish) zaxiralardan maksimal foydalanishga yo'naltirilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish sohasidagi ustuvor yo'nalishlar amalga oshirilishini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" va "Tadbirkorlik subyektlarini huquqiy himoya qilish tizimini yanada takomillshtirish to'g'risida"gi farmonlari davlat mulkini xususiy lashtirish sohasidagi qonunchilikni takomillashtirish, xususiy tarmoqni jadal rivojlantirishni ko'zda tutadi.

Farmonlar mamlakatimiz Prezidenti Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senati qo'shma majlisidagi "Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokra tlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir" ma'rurasida belgilab berilgan vazifalarining mantiqiyl davomi hisoblanadi. Ma'ruzada asosiy strategik vazifamiz- demokratik qurilish va fuqarolik jamiyatini shakllantirish, bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish yo'lida samarali,

bosqichma-bosqich va izchil borish ekanligi ta'kidlangan edi. Shuningdek, ushu ma'ruzada 2005 yilda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning eng muhim ustuvor vazifalari etib quyidagilar ko'rsatilgan:

-asosiy ustuvor masala — avvalgidek, bozor islohotlarini chuqurlashtirish va yanada erkinlashtirishdan iborat;

-ikkinchi ustuvor masala- xususiy tarmoqning jadal rivojlanishini, uning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushi ko'payishini ta'minlash;

-uchinchi ustuvor masala — kichik biznes va fermerlikni rivojlantirish borasidagi ishlarni chuqurlashtirish va ko'lamin kengaytirishdan iborat;

-to'rtinchi ustuvor masala- bank va moliya tizimlaridagi islohotlarni chuqurlashtirish.

Qisqacha xulosa

Menejment usuli bu qo'yilgan maqsadga erishish uchun ta'sir etish yo'lidir. Shuning uchun menejmentning maqsadi eng muvofiq usullarni tanlashdan iboratdir. Shunday ekan menejment usuli, bиринчи navbatda, korxona faoliyati jarayonida ishlataladigan ta'sir ko'rsatishni asosiy maqsadini aks ettirishi kerak. Menejer usullarni sharoitdan, ayni vaziyatdan kelib chiqqan holda qo'llasa, har bir usul o'zining ijobiy samarasini beradi.

Tayanch iboralar

Menejment usuli, iqtisodiy usul, ma'muriy usul, ijtimoiy – psixologik usul, rejalashtirish, iqtisodiy rag'batlantirish, narx belgilash, moliya, xo'jalik hisobi, qaror, buyruq, farmoyish, ko'rsatma, ijtimoiy hodisalar, psixologik holat.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Menejment usullari deganda nimani tushunasiz?
2. Menejmentning iqtisodiy usulining asosiy mazmuni nimadan iborat?
3. Menejmentning iqtisodiy usuli borasida mutaxassislar qanday fikrlar bildirganlar?
4. Menejmentning ijtimoiy-psixologik usulining mazmuni nimadan iborat?

5. Menejmentning ma'muriy usulining mazmun va mohiyati nimadan iborat?

6. Zamonaliv boshqaruvning huquqiy usullari deganda nimani tushunasiz?

Asosiy adabiyotlar

- 1. Фуломов С.С. Менежмент асослари. Т., 1997.*
- 2. Зайнутдинов Ш.Н., Муракаев И.У. Основы менеджмента. Т.: O'qituvchi, 1996.*
- 3. Мескон М., Альберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента. Пер.с англ. М.: Дело, 1995.*
- 4. Герчикова Н.И. Менеджмент. М.: 1995.*
- 5. Фатхутдинов Р.А. Система менеджмента. М.: 1997*
- 6. Sharifxo'jaev M., Abdullaev Yo. Menejment. -T.: "O'qituvchi". 2002.*

20-bob. ISHLAB CHIQARISHNI BOSHQARUVNING TASHKILIY TUZILMASI

20.1. Boshqaruvda tashkiliy tuzilmalarning roli

Tuzilma muayyan tizimining tashkil topgan shakli, tizim elementlarining muhim o'zaro aloqalarining yaxlitligidir. Tuzilma funksional munosabatlarning umumiy qonunlariga bo'y sunadi.

Har bir murakkab tizim bir-biriga bo'y sunish, ko'p pog'onali tarzda shakllanadi. Boshqaruvning sisfati tuzilmaning yuqori halqasidan bir xil masofada uzoqlashgan va teng huquqqa ega bo'lgan tizim elementlari bilan belgilanadi. Tizim boshqaruvining funksiyasini amalga oshirish uchun maxsus apparat tashkil etiladi. Uning tuzilmasi boshqaruvning bir-biriga tobe bo'lgan bo'g' inlari bilan belgilanadi.

Boshqaruv tuzilmasini shakllantiruvchi elementlar bir-biri bilan uzviy aloqada bo'ladi. Boshqaruv tizimining oqilona tashkil etilgan tuzilmasi uning samaradorligini belgilab beradi, ya'ni boshqaruv obyektning ko'p sonli elementlar aloqalari mustahkamligini va tizim yaxlitligini ta'minlaydi. U tizim elementlarini bir butun holga keltiradi. Boshqaruv tizim shakli va tashkiliy tomonlariga, ishni tashkil qilish usullariga, muvofiqlashtirishga ta'sir qiladi, tizim faoliyati natijasini baholashga va qiyoslashga imkon beradi.

Tuzilma boshqaruv texnologiyasiga ta'sir ko'rsatadi, axborotni oqilona tarqatish, xodimlarni tanlash va lavozimiga qo'yishdag'i boshqaruv texnikalarini ishlatish bilan bog'liq vazifalar qo'yadi. Tizimning «ichki muhitini» undagi elementlarning asosiy funksiyalari yordamida aniqlab olsa bo'ladi.

Korxona va tashkilotlarda boshqarish samaradorligini oshirish, ularni tashkiliy tuzilmalariga, qay darajada tarkib topganligiga bog'liqdir. Tashkiliy tuzilma qanchalik mukammal, aniq, maqsadga muvofiq tuzilgan bo'lsa, boshqaruv xodimlarning faoliyati shunchalik samarali bo'ladi.

20.2. Boshqaruv tashkiliy tarkibini ikki uslubi

Boshqaruv ikki uslubda amalga oshiriladi, ya’ni rahbar qo’l ostida ishlovchilarни bevosita (to’g’ridan-to’g’ri) va bilvosita(to’g’ridan –to’g’ri bo’limgan holda) boshqarishi mumkin.

Boshqaruvning birinchi uslubida (to’g’ri chiziqli tuzilma) ijrochilar to’g’ridan –to’g’ri bir boshliqqa bo’y sungan bo’lib, faqat undan ko’rsatmalar oladi. Bu uslub oddiy tushunarli va mantiqlidir. Tuzilma bo’limini barcha vakolatlarga ega bo’lgan bir kishi boshqaruv funksiyalarni shaxsan o’zining zimmasiga oladi. Uning chiqargan buyruqlarini barcha xodimlar bajarishi kerak. Bunday sharoitda jamoa samaradorli bo’ladi. Shuni esda tutish kerakki, ushbu joriy etilayotgan bo’ysunish tamoyili bir kishi qo’lida butun hokimlikni to’playdi, shu bilan birga, rahbar zimmasiga katta javobgarlik yuklanadi. Yuqorida turuvchi boshqaruv idorasini quyி korxona rahbaridan so’zsiz ushbu korxona ishchilariga buyruqni bajarish haqida ko’rsatma berish huquqiga egadir.

Rahbar jamoa faoliyatining barcha tomonlariga javobgar bo’lib, boshqaruv ishlarning hammasini o’zi bajarishi lozim va shu tufayli ba’zida me’yordan ortiqcha axborot ta’sirida bo’lib qoladi. Agar ijrochilar ko’p bo’lib, ular turli xildagi ishlarni bajarayotgan bo’lsa, ularga rahbarlik qilish murakkab bo’ladi.

To’g’ri chiziqli boshqaruv tuzilmalarining ustuvorligi ularning oddiyligida, tashkil topishining aniqligida, tuzilma elementlari bir-biriga bo’lgan tobelligi va ma’suliyatligidadir. Shu bilan birga, murakkab masalalarni yechishda paydo bo’lgan qiyinchiliklar tufayli ularni qo’llanilishi cheklangandir. Bo’linmalar o’rtasida yuzaga kelgan masalalar qiyin yechiladi, rahbarlarni ish bilan band qilinishi bir tekisda emasligi va juda katta yuklama bilan ishlashligi ko’zga tashlanadi.

Boshqarishning ikkinchi uslubi (funksional tuzilma) rahbar ishini ancha yengillashtiradi, chunki u barcha xodimlar bilan emas, balki o’zining o’rinbosarları yordamida ish olib boradi. Har bir o’rinbosar funksional yo’nalish bo’yicha yuzaga kelgan ishlab chiqarish muammolarni o’z vakolati doirasida malakali hal etishi kerak. Boshqarishning funksional tuzilmasini, odatda, an’anaviy yoki klassik deb ataydilar. Bu tuzilmada har bir o’rinbosar funksional yo’nalish bo’yicha yuzaga kelgan ishlab chiqarish muammolarni o’z vakolati doirasida malakali hal etishi kerak. Amalda ham turli xildagi funksional tuzilmalar qo’llaniladi.

20.3. Vazifaviy va divizionli tashkiliy tarkiblar

Vazifaviy tarkibni an'anaviy yoki klassik tarkib deb ataydilar. Bu turdag'i tarkib boshqaruvni departamentlashtirish (taqsimlash) natijasida kelib chiqqandir. Uni elementlarga (bo'limlarga), ya'ni ularning har biri boshqaruvda o'zining aniq vazifasiga ega, o'ziga buyurilgan vazifani bajaradi. Vazifaviy tarkib boshqaruvining ustuvorligi quyidagilardan iborat:

-*ishbiharmonlik va mutaxassislik ixtisoslashuvini rag'batlantiradi. Masalan, marketing bo'yicha bu sohadagi mutaxassis o'z ishini oliy rahbarlikka qaroganda yaxshi bajaradi;*

-*vazifaviy sohalarning muvofiqlashuvini yaxshilaydi. Xizmatchilar bu tizimda yaxshi ko'nikadilar;*

-*harakatlarning takrorlanishini pasaytiradi yoki butunlay bartaraf qiladi va moddiy resurslar sarfini kamaytiradi.*

Vazifaviy tarkibning kamchiliklari quyidagilardan iborat:

-*vazifaviy bo'limlar o'z faoliyati davomida firmaning umumiyoq maqsadidan cheplashishlari mumkin, chunki ular o'zlarining ichki masalalarini amalga oshirishga qiziqadilar. Bu esa, bo'limlar orasida o'zaro kelishmovchilikni keltirib chiqarishi mumkin;*

-*yirik tashkilotlarda buyruqlar zanjiri (tizimi) rahbardan to bajaruvchiga yetib kelguncha ancha uzoq vaqt ketadi va shu sababli samarasiz bo'lib qolishi mumkin;*

-*bo'limlardan birortasi ham tashkilotning umumiy ish natijalariga javob bermaydi, ya'ni har bir bo'lim o'zicha javob beradi.*

Vazifaviy tarkibni ko'proq kichik va o'rta firmalar qo'llaydi. Katta korporatsiyalar esa divizional tarkibni qo'llab keladi. «Divizional» so'zi inglizcha «Division» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, u bo'linish, qism, bo'lim ma'nosini bildiradi. Tashkilotni bo'limga bo'lish, bu bu turdag'i tarkibda quyidagi uchta belgi asosida kelib chiqadi, ya'ni: mahsulot, haridorlar guruhi va geografik hudud bo'yicha. Bu bo'limlar go'yoki mustaqil tashkilotlar kabi harakat qiladi va faqatgina markaziy boshqaruv idoraga yoki bosh firmaiga, korporatsiyaga bo'ysunadi.

Divizional mahsulot tarkibining zarurati yirik firma va korporatsiyalarning o'sishi, ularni yangi ishlab chiqarish eskilaridan farqli sohalariga kirib borishi hisobiga kelib chiqdi.

Divizional tarkibning ustuvorligi quyidagilardan iborat:

- bu firma o'sishini ta'minlaydigan eng muhim usulidir. - menejerlar erkinligining yuqori darajaligi ularning ishlab chiqarish uchun javobgarligini oshiradi;

- oliy zvenodagi menejerlarni tayyorlashda yaxshi sharoitlar mavjudligi.

Divizional tarkibning kamchiliklari quyidagilardan iborat:

- bo'limlar orasidagi axborot aloqasini bo'shligi hisobiga faoliyat jarayonlarida ishlarning takrorlanishi;

- bosh korxona bilan zaif aloqa yuzaga kelishi, buning hisobiga bosh firma ularning faoliyatini tez-tez nazorat qila olmasligi, bu esa ko'rildigan zararning ko'payishiga olib kelishi mumkin.

20.4. Muntazam va muntazam-shtabli tashkiliy tarkiblar

Agar yuqorida ko'rib chiqilgan vazifaviy va divizional tarkiblar *departamentatsiyaga*, ya'ni gorizontal bo'yicha bo'linishga asoslangan bo'lsa, unda muntazam tarkib boshqaruvni gorizontal o'qi bo'yicha bo'lishga asoslangan. Muntazam tarkib, shu kabi nomga ham egaki, uning barcha elementlari gorizontal bo'ysunish bo'ylab joylashgan, ya'ni eng yuqori saviyadan to qo'yi saviyagacha. Har bir boshqaruv saviyasi yuqoriroqda turganiga bo'ysunadi.

Muntazam tarkib o'z navbatida ikki turga ega: *yassi* (ingliz tilidagi «Flat» - yassi so'zidan kelib chiqqan) va *ko'p saviyali* (ingliz tilidan «Tall» - yuqoridagi ma'noni bildiradi).

Muntazam yassi tarkib oz (2 x 3) saviyaga ega va katta sondagi ishlovchilar bitta rahbarga bo'ysunadi. U shakl bo'yicha oddiy hisoblanadi. Muntazam ko'p saviyali tarkib quyi boshqarilish me'yoriga ega, ya'ni uncha katta sonda bo'limgan xizmatchilar bitta rahbarga bo'ysunadi. Bu kabi tarkib shakl bo'yicha murakkabroqdir.

Yassi va ko'p saviyali muntazam tarkib tashkilotga (firmaga, korporatsiyaga, uncha katta bo'limganda samara beradi. Firmaning o'sishi bilan menejmentda maxsus eksport xodimlariga zaruriyat tug'iladi).

Mutazam va shtabli bo'linmalar orasidagi o'zaro munosabatlар murakkab va qoida bo'yicha hamma vaqt ham do'stona bo'lavermaydi. Ular ham, bular ham o'zlarining ustuvorligini himoya qilishga urinadilar. Natijada esa, bunday munosabatlар janjalga ham olib keladi. Shtab bo'lim menejerlari o'zlarini biroz mafakaliroq mutaxassis, muntazam rahbarlarga ko'rsatma berishga huquqli deb hisoblaydilar.

Keyingi mansabdagilari esa, umumiy huquqlarini himoya qilishga urinadilar.

20.5. Loyihali va matriatsali tashkiliy tarkiblar

Loyihali tarkib bu vaqtinchalik tashkilotning aniq masalasini yechish uchun buniyod qilinadi. Uning a'zolari har xil sohadagi yuqori malakali mutaxassislardir. Ular murakkab loyihalarni amalga oshirish uchun bir guruhga jamlanganlar. Loyiha nihoyasiga yetkazilgandan keyin tarqatilib yuboriladi-bir qismi yangi loyiha guruhiga qo'shiladi. Bu tarkibning xususiyati –xizmatchilar bir vaqtida ikkita rahbarga bo'ysunadilar, loyiha rahbari va bo'lim rahbariga. Ko'pchilik firmalar bu kabi tarkiblarga barcha diqqat-e'tiborini muhim texnologiyalar joriy etishga, innovatsiyaga qaratadi.

Loyiha tarkibini ichida keng tarqalgan va taraqqiy etgan shakl bu matriatsali tarkibdir. Matriatsali tarkib ikkitali bo'ysunishni ko'zda tutadi, ya'ni bo'lim boshlig'i (vazifaviy yo'nalish) va loyiqa rahbari. Loyiha rahbari loyiha strategiyasi va ish natijalariga javob beradi. Ularning ixtiyoriga moliyaviy resurslar beriladi. Vazifaviy bo'lim boshlig'i ishni tashkil qilishida qatnashadi, ishini ketishini va bajarilish muhlatlarini nazorat qiladi mahsulotning sotuvini amalga oshiradi.

Qisqacha xulosa

Tuzilma muayyan tizimning tashkil topgan shakli, tizim elementlarining muhim o'zaro aloqalarining yaxlitligidir. Har bir murakkab tizim bir-biriga bo'ysunish, ko'p pog'onali tarzda shakllanadi. Boshqaruvning sifati ko'p jihatdan tuzilmaning qay darajada tashkil topganligiga, uning ixcham, maqbul tuzilganligiga bog'liq. Boshqaruv tizimining ogilona tashkil etilgan tuzilmasi uning samaradorligini belgilab beradi, ya'ni boshqaruv obyektning ko'p sonli elementlar aloqalari mustahkamligini va tizim yaxlitligini ta'minlaydi.

Tayanch iboralar

Tashkiliy tarkib, vazifaviy tashkiliy tarkiblar, divizionli tashkiliy tarkiblar, muntazam tashkiliy tarkib, muntazam-shtabli tashkiliy tarkib, loyihali tashkiliy tarkiblar, matriatsali tashkiliy tarkiblar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Tashkiliy tuzilma deganda nimani tushunasiz?*
2. *Boshqaruvda tashkiliy tuzilmalarning tutgan o'rni va ahamiyati nimadan iborat?*
3. *Boshqaruvning tashkiliy tarkibining qanday turlari mavjud?*
4. *Vazifaviy tashkiliy tarkib qanday tarkib toradi?*
5. *Divizionli tashkiliy tarkib qanday tarkib topadi?*
6. *Muntazam va muntazam-shtabli tashkiliy tarkiblar deganda nimani tushunasiz?*
7. *Loyihali va matritsali tashkiliy tarkiblar qanday tarkib?*

Asosiy adabiyotlar

1. Гладышев А.Г., Городяненко. *Теория управления: Учеб. пособ.* – М., 2003. – 100 с.
2. Гурков И. Б. *Стратегический менеджмент организаций: Учеб пособ. 2-е изд., исправ. и дополн.* - М: ТЕИС, 2004. – 238 с.
3. Егорова В.Н., Уолт К. *Ключевые показатели менеджмента. 2-е изд.- М: Дело, 2004. – 100 с.*
4. Компенсационный менеджмент. / Под ред. Гарелова Н.А. Пер. с англ. Хендерсон Р. 8-е изд. - СПб.: Питер, 2004. – 880 с.
5. Котлер Ф. *Маркетинг менеджмент: Учеб. пособ. 11-изд. – М., 2005. –800с.*
6. Кравченко Р.С. *Корпоративное управление: обеспечение и защита права акционеров на информацию. (Российский и англо-американский опыт).- М.: Спарт. – 2002.*
7. Акназаров Ф.А., И.Абдурахимов, Х.Тошматов, Ё.Даулетов. *Менеджмент в водном хозяйстве. -Т. 2003.*
8. Умурзоқов Ў.П., Абдураҳимов И.Л. *Сув ҳўжалиги менежменти. -Т.: "IQTISOD-MOLIYA", 2008.*

21-bob. MENEJMENTDA AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA

21.1. Axborot va kommunikatsiya haqida tushuncha

«Axborot» - atamasi lotincha so'z bo'lib, xabardorlik, biror hodisa yoki biror kishi faoliyati haqida xabarga ega bo'lish ma'nosini bildiradi. Axborot boshqaruv tizimiga uni rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida faol ta'sir etish uchun zarur ma'lumotlar yigindisidan iboratdir. Yetarli va aniq axborotga ega bo'lmay turib korxonani boshqarish mumkin emas.

Ishlab chiqarish axboroti boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimlar o'rtaida aloqa usulidir. Boshqaruvchi tizim boshqariladigan tizimdan ishlab chiqarish holati va uning xo'jalik faoliyati to'g'risida axborot oladi. Boshqaruvchi tizim olingan axborot asosida boshqariluvchi tizim faoliyatiga baho beradi, boshqarishni yanada takomillashtirish maqsadida ko'rsatma, farmoyishlar chiqarib, boshqariluvchi tizimga ijro uchun yuboradi.

Axborot menejment tizimida alohida bo'g'in bo'lib hisoblanadi. Unga qator o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular axborot boshqaruvining barcha bo'g'inlari, barcha vazifalarini qamrab olishiga bog'liqdir. Axborot - bu boshqaruv apparati faoliyatining ham dastlabki nuqtasi, ham natijasidir, shuningdek, amalga oshirilayotgan harakatlar mayjudligi sharti, mustahkamlash usulidir. Axborot hajmi ortishi bilan boshqaruv axborotining sifat ko'rsatkichlariga bo'lgan talab ham ortib boradi.

Menejment jarayoni boshqaruv qarorlarini qabul qilish maqsadida axborot to'plash, uzatish va qayta ishlash, boshqaruv buyruqlari ko'rinishida axborot berish va uni ijrochilarga yetkazishdan iborat.

Axborotning bir necha turlari mavjud, jumladan, statistik, operativ, iqtisodiy, hisob, moliya, ta'minot, kadrlar bo'yicha, texnologik, konstrukturlik, marketing, ijtimoiy va boshqalar.

Menejmentda iqtisodiy axborot alohida o'rin egallaydi, chunki u kishilarning moddiy boyliklarni ishlab chiqarish, taqsimlash,

ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonidagi munosabatlarini aks ettiradi. Shu bilan birga, fan-texnika taraqqiyoti asosida ishlab chiqarish rivojlanishini aks ettiruvchi ilmiy-texnikaviy axborot ahamiyatini ham ta'kidlab o'tish lozim.

Kelib chiqish manbasiga bog'liq ravishda axborot tashqi va ichki axborot turlariga bo'linadi. Tashqi axborot tashqi muhitdan olinadigan xabarlardan iborat bo'ladi. Bular jumlasiga yuqori tashkilotlar farmoyishlari, reja topshiriqlari, mahsulotni sotish shartlari haqida axborotlar kiradi. Ichki axborot korxona yoki uning boshqaruv bo'g'inda shakllanib, iste'mol qilinadi. Korxona miqyosida ular jumlasiga rejaning bajarilishi, moddiy-texnikaviy ta'minot, mahsulot tannarxi, kadrlar, mehnat unumdarligi haqida axborotlar kiritilishi mumkin.

Yo'nalishi bo'yicha axborot - boshlang'ich va boshqaruvchi (rahbarlik) axboroti turlariga bo'linadi. Rahbarlik axboroti boshlangich axborotni qayta ishslash asosida qaror qabul qilish natijasidir. Boshlang'ich axborot doimo boshqaruv tizimining quyi darajasidan yuqoriqoq darajaga qarab harakat qiladi, rahbarlik axboroti esa teskari yo'nalishda harakatlanadi.

Axborot vaqt o'tishi bilan turlicha ahamiyat kasb etadi. Barqarorlik darajasi bo'yicha uni barqaror shartli-barqaror, o'zgaruvchan turlarga bo'lish mumkin. Barqaror axborot uzoq muddat davomida o'z ahamiyatini o'zgartirmaydi (korxona, uning bo'linmalari nomi, mahsulot turi). Shartli-barqaror axborotning ahamiyati ma'lum muddat davomida saqlanib turadi. Korxona miqyosida bunday axborotga turli me'yor va me'yoriy xujjalarni (moddiy, mehnat sarfi, tariflar me'yorlari)ni kiritish mumkin. Axborotning bunday turi korxona bo'yicha umumiyligi axborotning 35% dan ko'prog'ini tashkil etadi. O'zgaruvchan axborot menejment obyekti faoliyatini va unga mos holda boshqaruv jarayonlari o'zgaruvchanligini aks ettirib, qaror qabul qilish uchun tez qayta ishslashni talab etadi.

Menejment faoliyatida, shuningdek, boshlang'ich axborotni qayta ishslash natijasida olingan hosila (ikkilamchi) axborotdan ham foydalilanildi.

Kommunikatsiya - bu axborot almashishdir. Ana shu axborot negizida rahbar ma'lumotlar olib, samarali qarorlar qabul qiladi va ishchi xodimlarga yetkazadi.

Rahbarlik faoliyatini samarali axborot almashinuvni talab qiladi. Agar insonlar o'zaro axborot almashinmasa, ular birgalikda ishlay

olmaydi va oldilariga qo‘ygan maqsadning shakllanishi, unga erishishi qiyin bo‘ladi.

Menejment faoliyatida axborot almashuvi muhim ahamiyatliligi uchun rahbar o‘zining vaqtining 50% - 90% ni kommunikatsiyaga sarflaydi. Axborot almashishning sifati boshqaruv qarorlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Korxona tashqi muhit bilan aloqa bog‘lashda, turli-tuman vositalardan foydalanadi. Mayjud hariidorlar bilan ular reklama orqali bog‘lanibgina qolmay, mahsulotni bozorga olib kiradigan boshqa dasturlardan ham foydalanadi.

Bozor munosabatlari sharoitida har bir korxona o‘z vaqtida axborotlar to‘plashi va shunga mos ravishda mahsulot ishlab chiqarishni yoki xizmat ko‘rsatishni tashkil etishi lozim. Biroq to‘planayotgan axborotlar ham bir qator talablarga javob berishi kerak. Shu bois ham bozor munosabatlarining qaror topishi natijasida axborotlar sifatiga yanada yuqori talablar qo‘yilmoqda. Axborotlarning sifatiga qo‘yiladigan talablar quyidagilar:

- axborotlarning dolzarbligi;
- o‘z vaqtida kelishi;
- axborotdagi ma’lumotlarning to‘g‘riligi;
- axborotdagi ma’lumotlarning yetarliligi;
- ma’lumotlarining ishonchliligi;
- axborot tizimining majmuaviyiliği (obyekt to‘g‘risidagi barcha ma’lumotlarni qamrab olishi);
- ko‘p marotaba foydalanishlik;
- qayta ishslash va bir tizimga keltirishning qo‘layligi.

21.2. Boshqaruvni axborot bilan ta’minlash jarayonlari

Axborot yig‘indisi boshqaruvning axborot tizimini tashkil etib, u boshqaruv jarayonini axborot bilan ta’minlash shaklida namoyon bo‘ladi. Axborot to‘g‘ri, aniq, o‘z navbatida, obyektiv, mazmunli va qarorlarni qabul qilish uchun tushunarli bo‘lishi kerak. Axborot hajmi jihatidan kichik, mazmun jihatidan chuqur, uning matni tushunarli va sodda bo‘lishi lozim. Korxonani axborot bilan to‘g‘ri aloqalar ko‘rinishidagi turli-tuman axborot oqimlari vositasida ta’milanib, ular aniq ishlab chiqarish vazifasini hal etish imkonini beradi.

Boshqaruv tizimini o‘z vaqtida axborotlar bilan ta’minalash menejment jarayonida qabul qilinadigan qarorlarning belgilangan muddatda bajarilishini ta’minalash imkonini beradi. Korxona va tashkilotlarning faoliyati to‘g‘risidagi axborotlarning yuqori boshqaruv pog‘onalariga uzatilishi va uning tashkiliy tizimi orasidagi ma’lumotlarni aylanib yurishi axborot texnologiyasi yordamida amalga oshiriladi. Axborotlar kerakli qaror qabul qilish uchun zarur bo‘ladi. Boshqaruv tizimini axborotlar bilan ta’minalash — barcha vazifalar ichida eng muhimlaridan biri hisoblanadi. Chunki, boshqaruv tizimining samaradorligi axborotlar ta’minotiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

21.3. Kommunikatsion jarayon

Axborotlar korxona ichida bosqichma-bosqich, ya’ni vertikal kommunikatsiyalar orqali o‘tadi. Axborotlar yuqori boshqaruv organlaridan, pastki organlarga o‘tadi. Shuningdek, pastki organlardan yuqori boshqaruv bo‘limlariga axborotlar oqimi keladi. Aynan ikkinchi jarayon korxonalarda ijobji o‘zgarishlarga olib keladi.

Korxonada vertikal kommunikatsiyalardan tashqari, gorizontal kommunikatsiyalar ham mavjud. Ma’lumki, korxonalarda turli-xil funksional bo‘limlar, sexlar va boshqa bo‘limlarning mavjudligi ular orasidagi axborot oqimining kerakligini anglatadi. Masalan, fundamental texnologiya asosida, korxona turli xil mahsulotlar ishlab chiqarishi mumkin, shuning uchun ham marketing bo‘limining axborot ahamiyatligini saqlab qoladi va uning talablarini o‘z vaqtida qondirilishini ta’minalaydi.

Kommunikatsiya — bu axborotlar almashinushi bo‘lib, uning asosida rahbar o‘ziga kerakli bo‘lgan axborotlarni olib, qaror qabul qilgach, ularni ijrochi yoki ishlab chiqaruvchilarga yo‘naltiradi. Kommunikatsiya murakkab jarayon bo‘lib, o‘zaro bog‘liq ishlardan iborat. Boshqaruv pogonalarida axborot almashinushi eng murakkab muammolardandir. Axborotlar bilan almashuv jarayonida quyidagi 4 ta elementlarni ajratib olish mumkin:

Jo‘natuvchi — bu shaxs hamma g‘oyalarni jamlovchi yoki axborotlarni yig‘ib, ularni uzatib boruvchi.

Xabar — bu axborotlarning o‘zi.

Kanal — bu axborotlarni uzatish vositasi.

Oluvchi — axborotlarni qabul qiluvchi va o‘zgartiruvchi shaxs.

Axborot almashuv jarayonida ular jo‘natuvchi va oluvchi o‘zaro bog‘liq bir necha bosqichlarni bosib o‘tishlari kerak. Ularning vazifasi xabarni shunday tuzish va kanallarni shunday tanlash kerakki, har ikkala tomon boshlang‘ich g‘oyani bilishlari, tushunishlari kerak. Bu juda murakkab, chunki, har bir nuqtada axborotlar mazmuni o‘zgarib yoki butunlay yo‘qolishi mumkin.

Amalda boshqaruvchi tizim boshqariluvchi obyektlardan ijtimoiy, iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy, texnik-texnologik ko‘rsatkichlarga oid axborotlarni olib turadi. Zarurat tug‘ilganda olingan axborotlar asosida boshqaruvchi tizim obyekt uchun kerak buyruqlar tayyorlaydi va uni bajarish uchun obyektga uzatadi.

Murakkab va ko‘p qirrali tashkilotlarni menejment katta hajmdagi birlamchi axborotlarni ko‘rib chiqishni talab qiladi. Ularga quydigilar kiradi: statistik, operativ-hisobot, reja-iqtisodiy, buxgalterlik, moliyaviy, moddiy-texnika ta’minoti, kapital qurilish, texnologik, konstrukturlik va boshqalar.

Axborot boshqaruv jarayonining asosidir, boshqaruvchining mehnati uni tahlil qilish va qayta ishlashdan iborat. Hozirgi jamiyatni «axborot jamiyatি», degan fikr ham to‘g‘ri. Boshqaruv muammolaridan yiroq bo‘lgan kishilar, hatto kichik firmaning ma’muriyati nihoyatda katta hajmli axborot bilan ishlashini tasavvur qilolmaydi. Masalan, 200-300 odam ishlayotgan o‘rtacha me’yordagi tijorat tashkilotidagi rasmiy va norasmiy axborot oqimini qayta ishlashini hisobga oladigan bo‘lsak, unda juda katta raqam yuzaga keladi.

Korxona boshqaruvda ishlab chiqarish muvaffaqiyatli kechishi uchun moddiy, mehnat, xom ashyo, moliya resurslari qatorida axborot resurslari birlamchi ahamiyatga ega. Ilmiy-texnik axborot yangi texnologiyalar, ishlab chiqarish vositalarining asosi bo‘lib xizmat qiladi.

21.4. Boshqaruv texnikasi va uning turlari

Boshqaruv texnikasi - bu aqliy mehnat texnikasi, boshqaruv tizimida axborotni qayta ishlash vositasi. Texnika vositalari qanchalik takomillashgan bo‘lsa, boshqaruv texnologiyasi, boshqaruv mehnatini tashkil etish va butun boshqaruv jarayoni shunchalik samarali bo‘ladi. Hisoblarga asosan mamlakat iqtisodiyotini maqbul boshqarish uchun yil davomida 1000 ta elementar arifmetik operatsiya bajarishi zarur bo‘lsa, boshqaruv apparati xodimlari 10% ni bajarish qobiliyatiga ega

ekanlar. Bu muammoni muvaffaqiyatli hal etish uchun boshqaruv mehnatini takomillashtirish, axborot toplash va qayta ishlashni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish zarur. Boshqaruv texnikasini faqat hisoblash mashinalari bilangina bog'lash noto'g'ridir. Dastlabki texnika vositalari 100 yil oldin paydo bo'lgan ruchka, chizgichdan tortib EHM va kompyutergacha bo'lgan texnika vositalarini quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin: tashkiliy texnika va hisoblash mashinalari.

Tashkiliy texnika vositalariga juda turli-tuman uskuna va qurollar (oddiy qurol va vosita, axborot olish va qayta ishlash, ko'chirish, ko'paytirish, aloqa vositalari va axborot uzatish, xizmat ko'rsatish, xizmat xonalari uskunalari) kiradi. Boshqaruv mehnati turli oddiy qurol va uskunalardan (qalam, ruchka, idora daftarlari, jadval, grafik va boshqa lar) foydalanishga asoslanadi. Hisoblash mashinalariga komputerlarni kiritish mumkin. Hozirgi vaqtida ularning imkoniyati juda kengayib bormoqda.

21.5. Menejment tizimida axborotlarning ahamiyati

Korxonada menejment uchun zarur bo'lgan barcha turdag'i axborotlar majmui axborot tizimini vujudga keltiradi. Axborot tizimlari boshqarishning har qanday bosqichida bir butun bo'lib faoliyat ko'rsatadi. Ammo ular o'zining vazifasi va tarkibi bilan har xildir. Misol uchun, menejment tizimi korxona faoliyati ko'lami, texnik darajasi va soha turiga qarab har xil bo'lishi mumkin. Hozirgi zamondagi taraqqiyotida korxonalarni axborotlar bilan ta'minlash katta ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. Ishlab chiqarish jarayonida mahsulot hajmini rejalashtirishda axborotlar juda zarur. Bunda qaror qabul qilinishida, yangi ilmiy bilimlarga, ya'ni ixtirolarni o'z ichiga olgan ilmiy-texnik axborotlar olinadi. Muntazam ravishda o'z vaqtida axborotlardan foydalanish firmani raqobatbardoshligini oshiradi. Hisobotlar tayyorlash va boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishning asosini axborotlar tashkil etadi.

Hozirgi zamondagi sharoitda yuqori samarali korxonalarda axborotlardan keng foydalanish, ularning taraqqiyoti uchun juda muhim ahamiyatga egadir. Ularni qo'llash zamondagi texnik vositalar, matn va raqamli axborotlarni avtomatlashtirilgan qayta ishlashga, korxonaning ichki axborotlari aloqalar tizimiga birlashtirish asosida tashkil etilgandir.

Korxonalarda boshqaruv axborotlar tizimi bu turli jarayonlari birligidan iboratdir. Axborotlar tizimi axborotlarni qayta ishlash, ichki va tashqi axborotlarni uzatish aloqa kanallaridan tashkil topadi.

Boshqaruv axborotlar tizimi birin-ketin ishlab chiqarish jarayonini amalga oshirish uchun texnik vositalar yordamida axborotlarni yig'ish, to'plash va ularni qayta ishlash uchun tahliliy usullar, matematik, statistika va istiqbolini aniqlash usullarini qo'llash bilan birga olib borishga mo'ljallangan.

Axborotlar tizimining samaradorligini oshirish yo'llari ularni to'g'ridan- to'g'ri bir-biri bilan kelishilgan holda ko'rish, axborotlarning qaytarilmasligi, ularni ko'p marotaba ishlatalish, ularni birlashtirish ko'rsatkichlariini cheklash, axborotlar oqimini qisqartirishdan iboratdir. Axborotlar boshqaruv jarayonida quyidagi masalalarni yechish uchun keng foydalaniladi:

- qarorlar qabul qilish;
- ma'muriy – tashkiliy ishlari;
- ilmiy tadqiqot ishlari;
- ishlab chiqarish tadbirlarini amalga oshirish uchun.

Axborotlarning avtomatlashtirilgan tizimlaridan foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Menejment axboroti juda xilma-xil bo'lib, ma'lumotlardan tashkil topadi va ular quyidagicha tavsiflanadi:

- obyekt faoliyatini boshqarishga bevosita aloqador bo'ladi;
- boshqariladigan obyektning o'ziga xos alohida xususiyatlarini, uning ichki va tashqi tavsiflarini aks ettiradi;
- obyekt faoliyati davomida sodir bo'ladigan voqealarini va jarayonlarni tavsiflaydi.

O'nlab, ba'zida yuzlab mijozlar, tovarlarning keng assortimenti, mijozlar bilan hisob-kitob qilish, maosh hisob-kitoblari, qiymat va natura ifodasidagi tovarlarning omborxonadagi harakatini hisoblash, marketing, ya'ni bozorni tadqiq qilish, reklama, raqobatchilarni xatti-harakati, o'zgaruvchan qonunlar, soliq qoidalari, bojxona tariflari va shu kabi axborotlarni firma ma'muriyati bir yilda milliondan ortig'ini qayta ishlaydi. Bozorning doimo o'zgaruvchanligi ma'muriyat e'tiborining tezkorligini talab qiladi, agar shu o'zgarish haqidagi axborot kechiksa yoki asta-sekin qayta ishlansa ularning natijasi firma faoliyatga juda salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 90-yillar boshida AQSHdag'i 60% ishchi joylar axborotni qayta ishlash xizmatiga bog'liq bo'lgan va bunga milliy yalpi daromadning 70% sarflangan edi. Shu bilan birga AQSH, Yaponiya va Yevropaning yirik firma va kompaniyalari shu hariajatni sarflaydi.

Qisqacha xulosa

Axborot boshqaruv jarayonining asosini tashkil etadi. Axborot - bu boshqaruv apparati faoliyatining ham dastlabki nuqtasi, ham natijasidir, shuningdek, amalga oshirilayotgan harakatlar mavjudligi sharti, mustahkamlash usulidir. Boshqaruvchining mehnati axborotni tahlil qilish va qayta ishlashdan iborat. Axborotlar kerakli qaror qabul qilish uchun zarur bo'лади. Boshqaruv tizimini o'з vaqtida axborotlar bilan ta'minlash menejment jarayonida qabul qilinadigan qarorlarning belgilangan muddatda bajarilishini ta'minlash imkonini beradi. Boshqaruv tizimini axborotlar bilan ta'minlash – barcha vazifalar ichida eng muhimlaridan biri hisoblanadi. Chunki, boshqaruv tizimining samaradorligi axborotlar ta'minotiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Tayanch iboralar

Axborot, ichki, tashqi, boshlang'ich, boshqaruvchi, barqaror, shartli-barqaror, o'zgaruvchan, kommunikatsiya, axborotlar sifatiga qo'yiladigan talablar, kommunikatsion jarayon, vertikal, gorizontal, jo'natuvchi, xabar, kanal, oluvchi, boshqaruv texnikasi, tashkiliy texnika, hisoblash mashinalari.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Axborot deganda nimani tushunasiz?
2. Axborotlarning qanday turlari mavjud?
3. Ichki va tashqi axborotlarning bir-biridan farqi nimada?
4. Boshlang'ich va boshqaruvchi axborotlar bir-biridan qanday farq qiladi?
5. Axborotlarning sifatiga qanday talablar qo'yiladi?
6. Kommunikatsiya nima?
7. Vertikal va gorizontal kommunikatsiyalar bir-biridan qanday farq qiladi?
8. Boshqaruvni axborot bilan ta'minlash jarayonlari.
9. Kommunikatsion jarayon.

10. Boshqaruv texnikasi nima va uning qanday turlari mayjud?

11. Menejment tizimida axborotlarning ahamiyati qanday?

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. *O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lidasi.* T.: O'zbekiston, 1995.
2. G'ulomov S.S. *Menejment asoslari.* T., 1997.
3. Зайнутдинов Ш.Н., Муракаев И.У. *Основы менеджмента.* Т.: Ўқитувчи, 1996.
4. Мескон М., Альберт М., Хедоури Ф. *Основы менеджмента.* Пер.с англ. М.: Дело, 1995.
5. Герчикова Н.И. *Менеджмент.* М.: 1995.
6. Фатхутдинов Р.А. *Система менеджмента.* М.: 1997.
7. Умурзоқов Ў.П., Абдураҳимов И.Л. *Сув хўжалиги менежменини.* -Т.: "IQTISOD-MOLIYA". 2008

22-bob. MENEJMENT MADANIYATI VA USLUBI

22.1. Menejment va uning madaniyati

«Madaniyat» tushunchasi rivojlanishi darajasining umumlashtiruvchi ko'rsatkichi bo'lib, bir qancha ma'noni bildiradi. Masalan, jamiyat madaniyati, ayrim shaxs madaniyati, va nihoyat, inson faoliyatining ayrim turi madaniyati haqida so'z yuritish mumkin. Inson faoliyati moddiy va ma'naviy boyliklar yaratuvchi turlarga bo'linadi. Shu sababli, moddiy va ma'naviy madaniyat farq qilinadi.

Moddiy madaniyat inson tomonidan tabiatni bo'ysundirish darjasini ko'rsatkichidir. Unga ishlab chiqarish vositalari va mehnat predmetlari kiradi. Ma'naviy madaniyatga fan, aholi ma'lumot darjasini, meditsina xizmati darjasini, san'at darjasini, axloqiy me'yorlar, ma'naviy ehtiyojlar va manfaatlar rivojlanishi darajasini kiritish mumkin. Shunday qilib, madaniyat insonning ham madaniy ishlab chiqarish, ham ma'naviy hayot sohasida rivojlanishi jarayonidagi yutuqlarini qamrab oladi. U insoniyat bilimlari, uning mehnati mohiyatidan iborat bo'lib, kishilararning avvalgi avlodlari tomonidan yaratiladi.

Insoniyat madaniyati o'suvchan, o'zgaruvchan, chunki hozirgi avlod avvalgi avlodlar madaniy qadriyatlaridan ijodiy foydalanish asosidagina yanada rivojlanishi mumkin.

Inson hayoti faoliyatining muhim tarkibiy qismi butun insoniyat tomonidan jamlangan madaniy boylikka ega bo'lishi, shu jumladan, menejment madaniyatini egallashdir.

Menejment madaniyati juda muhimdir. Insoniyat o'z rivojlanish jarayonida juda katta menejment tajribasini jamlagan. Bozor sharoitida bu tajriba menejment samaradorligini oshirishga xizmat qilishi kerak. Menejmentning vujudga kelishi va rivojlanishi, avvalo menejment madaniyati darjasini yuksalishi bilan bog'liqidir. Chunki, menejment yo'llari, usullari, vosita va uslublariga tanqidiy baho berish yo'li bilan, ularning eng yaxshilari jahon tajribasida qo'llanishi uchun ajratib olingan.

Menejment madaniyati inson madaniyatining tarkibiy qismi bo'lish bilan birga qator o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Madaniyatga ega bo'lish rahbar uchun faqat zarur emas, balki shartdir, chunki har bir tashkilotning, har bir bo'linmasi samarali ishlashi uchun uning xodimlari yuksak madaniyatga ega bo'lishlari kerak.

Menejment madaniyati darajasi xodimlar, ayniqsa, rahbarlar madaniyatini, menejment jarayoni madaniyati, menejment texnikasi, mehnat sharoitini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar bo'yicha baholanadi. Menejment madaniyati unsurlarining turli-tumanligi menejment jarayonida turli-tuman me'yorlarga, jumladan, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, estetik me'yorlarga rioya qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Axloqiy me'yorlar insonning axloq va odob sohasidagi xulqini tartibga soladi. Ular jumlasiga ijtimoiy burchni to'g'ri tushunish, kishilar o'rtasida insoniy munosabat va o'zaro hurmat, vijdonlilik, haqiqatgo'ylik, kamtarlik va h.k.lar kiradi. Menejment jaaryonida axloqiy me'yorlarga rioda qilish uning madaniyati yuqori darajasidan dalolat beradi.

Menejmentda huquqiy me'yorlar davlat-huquqiy va tashkiliy-huquqiy me'yoriy xujjalarda aks etadi. Uning jumlasiga «Korxonalar to'g'risida»gi, «Tadbirkorlik to'g'risida»gi, «Mulkchilik to'g'risida»gi qonunlar kiradi. Lekin qonunlar har bir korxonaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga ololmaydi. Shu sababli, har bir korxona, qonunga asoslangan holda, korxonada ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oluvchi me'yoriy qoidalar o'rnatiladi.

Iqtisodiy me'yorlar korxona faoliyati jarayonida erishilishi lozim bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlarni belgilaydi. Ular jumlasiga moliya-kredit me'yorlari, ssudalar olish tartibi, amortizatsiya me'yorlari, mahsulotning hisoblangan bahosi, foyda me'yori, rentabellik me'yori, fondlar uchun to'lovlar, budgetga to'lovlar, iqtisodiy rag'batlantirish me'yorlari kiradi.

Tashkiliy me'yorlar tashkilot tarkibini, alohida bo'linma va shaxslar faoliyati tarkibi va tartibini ichki tartib faoliyat turlarini, xodimlar vazifalarini, axborotni qayta ishlash va foydalanish jarayonini belgilaydi.

Texnikaviy me'yorlar korxona va uning bo'linmalarini boshqarish uchun zarur uskuna, texnika va transport vositalari, asboblar bilan qurollanganlik darajasini bildiradi.

Estetik talablar va me'yorlar ham menejment boshqarish jarayonida qo'llaniladigan texnika vositalari va uskunalari, ham rahbar xodimlarini o'rab turuvchi tashqi muhit uchun belgilanadi.

22.2. Menejment madaniyatining asosiy elementlari

Menejment madaniyati tarkibiga boshqarish xodimlari madaniyati, boshqarish jarayonlari madaniyati, mehnat sharoiti madaniyati va xujjalat yuritish madaniyati kiradi.

Menejment madaniyatining barcha elementlari o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sir etuvchidir. Shu bilan birga, ular orasida menejment xodimlari madaniyati yetakchi ahamiyatga ega. Rahbar boshqaruva jarayoni madaniyatining yuqori darajasiga erishishi va o'z mehnatini tashkil etishni takomillashtirib borishi kerak.

Menejment xodimlari madaniyati ko'p omillarga bog'liq, umumiyligi madaniyat darajasi, ishbilarmonlik sifatlari, menejment ilmini chuqr va har tomonlama bilish va uni o'z faoliyati jarayonida qo'llay olish hariakterlanadi.

Har bir korxona va tashkilot rahbari o'z vazifasini bajarish jarayonida jamoaning boshqa a'zolari bilan munosabatda bo'lar ekan ishbilarmon kishilar o'rtasida mavjud axloqiy qoidalarga bo'ysunadi. Har bir jamoada xayrihohlik, insonga hurmat muhiti mavjud bo'lishi kerak. Menejment madaniyati sansolarlik, mansabparastlik, shafqatsizlik, qo'pollikka ziddir. Amaliy mehnatga ijodiy yondashish, tadbirkorlik, javobgarlik, tashabbus va mustaqillik, vijdoniyilik, kamtarlik va oddiylik menejment xodimlari madaniyatini ifodalaydi.

Boshqarish xodimlari madaniyatini, ta'minlashning asosiy yo'llari - menejment ilmini chuqr egallash, umumiyligi madaniydarajasi va malakasini muntazam oshirib borish, o'z faoliyati natijalarini tahlil etish va tushunish, ijobiy shaxsiy sifatlarni rivojlantirishdan iborat.

Menejment madaniyati uchun boshqarish jarayonini tashkil etish madaniyati darajasi muhim ahamiyatga ega. Boshqarish jarayoni madaniyatiga rioya qilish korxonada zamonaviy boshqarish jarayoni qo'llanilishini bildiradi.


Boshqarish jarayoni madaniyati shuningdek, boshqarish mehnatini (boshqarish mehnatini maqbul taqsimlash, kooperatsiya qilish va chegaralash, ishchilar sonini me'yorlash, kadrlarni to'g'ri joylashtirish va ulardan foydalanish) va ishlovchi ish joyini (ish joyi va binoning qulayligi, ularning sanitariya-tozalik talablariga javob berishi), maqbullashtirishsh, majlislarni, suhbatlarni, tashrifchilarni qabul qilish, uchrashuv, telefon orqali so'rash, xodimlar xatlari bilan tanishishni to'g'ri tashkil etish va rasmiylashtirishni ham qamrab oladi.

Boshqarish jarayonida turli-tuman texnika - oddiy kalkulatordan tortib murakkab EHM largacha qo'llaniladi. Rahbarlar bu texnika imkoniyatlari va maqbul foydalanish sohalarini bilishlari lozim bo'lib, bu menejment madaniyati darajasini bildiradi.

Menejment madaniyatining ajralmas elementi - xujjalalar yuritish madaniyatidir. Hujjatlarning boshqarish jarayonidagi ahamiyati juda katta, chunki menejmentning biror-bir vazifasini hujjatlar asosida yetkazilib beriluvchi axborotsiz amalga oshirib bo'lmaydi. Hujjatlardagi axborot korxona tashqi va ichki faoliyatining hamma tomonini qamrab oladi.

Boshqarish jarayonining barcha operatsiyalari amalda hujjatlardan boshlanib, hujjatlar bilan tugaydi. Shu bois hujjatlar bilan ishlash ham menejment madaniyatining muhim jihatlaridan biridir.

Menejment madaniyatining elementlari



22.3. Boshqaruv xodimlarining madaniyati

Texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarishning doimiy o'sib borishi, texnologiya jarayonlarini mexanizatsiyalashuvi va avtomatlashtirilishi, ixtisoslashish va kooperatsiyaning rivojlanishi menejment xodimlarning rolini keskin oshirmoqda va ishlab chiqarishda rahbarlarning funksiyalarini yanada murakkablashtirmoqda. Demak, rahbar ishlab chiqarish texnikasi, texnologiyasi va iqtisodini yaxshi bilishi, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ko'maklasha olishi lozim. Lekin, hozirgi kunda rahbar uchun yuqorida qayd etilganlarni bilishi kifoya qilmaydi, aksincha, u yana odamlarni menejment «texnologiyasini» ham mukammal egallagan bo'lishi, shu bilan birga, har xil texnikaviy, iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va boshqa ko'pgina masalalarni hal eta olish-lozim. Shunday qilib, rahbar ishlab chiqarish jarayonlarini va odamlarni menejment bo'yicha mehnat taqsimotining mavjudligi tufayli faqat belgilangan rejalar va ishlab chiqarish dasturlarining bajarilishini ta'minlab qolmasdan, bundan tashqari ijtimoiy vazifani ham bajaradi.

Rahbarning ijtimoiy vazifasi, avvalo, uyushgan va ishga qobiliyatli mehnat jamoasini vujudga keltirishdan iborat. Qaror topgan jamoada rahbarning ijtimoiy vazifasi shundan iboratki, u muayyan ijtimoiy guruhi a'zolari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi bo'lib maydonga chiqadi, sog'lom ruhiy muhitni vujudga keltiradi, xulq-atvorda o'rnatko'lib, guruhning o'ziga xos ramzini ifodalaydi, ma'suliyat va novatorlik namunasini ko'rsatadi. Iqtisodiy islohotlar korxona rahbarlariga xo'jalik siyosatini amalga oshirishda katta mustaqillik berdi. Bu hol rahbarlarga qo'yiladigan talablarni, shu jumladan, yuksak mehnat unumdarligiga erishish maqsadida boshqarishning ijtimoiy-psixologik omillaridan foydalanish sohasida qo'yiladigan talablarni ham oshirdi.

22.4. Boshqaruv uslubi tushunchasi, xususiyatlari va turkumlanishi

Ishlab chiqarishda boshqaruv uslubi rahbar va mutaxassislar faoliyatini katta va sermashaqqat tomonlarini aks ettiradi. Boshqaruv uslubi – bu rahbarning menejment fazilatidir. Ma'lumki, har bir rahbarning o'ziga xos menejment uslubi mavjud. Yangi jamoaga kelgan rahbar oldingi

rahbarning o‘rnini tez bosa olmasligi mumkin. Shu bois u, birinchi navbatda, jamoaga moslashishi, mayjud uslublarni o‘zlashtirishi va butun jamoaga o‘rganib olishi kerak. O‘z navbatida, uning ishlash uslubi, albatta, butun mehnat jamoasi uslubiga ta’sir ko‘rsatadi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida ishlayotgan rahbar-mutaxassislarga yanada ko‘proq talablar qo‘yiladi. Ular yuksak darajada ishchanlik va ahloq sifatlariga, uddaburon, ji psplashgan jamoani tashkil eta oladigan, mehnat jamoasi va davlat manfaatlarini to‘liq tushunadigan qobiliyatga ega bo‘lishlari kerak. Zamonaviy rahbarda kasb mahorati, iqtisodiy tafakkurga, kelajakni ko‘ra biluvchi va samarali xo‘jalik yuritish, shaxsiy intizom, topshirilgan ishga yuksak mas’uliyat, g‘oyalarni ishlash qobiliyati bo‘lishi kerak.

Rahbar o‘z ishiga munosabatini shunday tashkil etishi kerakki, uning qo‘l ostidagilari undan hech tortinmasdan va qo‘rqmasdan maslahat va nasihatlar olsin. Rahbar qo‘l ostidagilarni bilishi, ular qobiliyati ishga mosligi, bilim ko‘nikma va ahloqlarini egallab turgan mansablarga mosligi yoki aksariyat ana shu xususiyatlarni to‘liq namoyon eta olayaptimi degan savolga javob topishi kerak.

Rahbar shaxsiy namuna ko‘rsatmasa obro‘ topa olmaydi. Menejment san‘atini bilmagan rahbar, qabul qilingan qarorlar samarasini ta‘minlay olmaydi. Rahbarning boshqaruvi uslubi ishlab chiqarishni menejment funksiyasi orqali korxona faoliyatining pirovard natijasiga ta’sir ko‘rsatadi. Demak, buning hammasi korxona faoliyatini boshqarishning yagona mexanizmi bo‘lib hisoblanadi.

Shunday qilib, ishlab chiqarish natijasi rahbarning bilimi va ko‘nikmalari, boshqaruvi jarayoni texnologiyasi, mehnat intizomi, u qo‘llayotgan usullar bilan belgilanadi.

Boshqarishda uchta aniq uslub bor: avtoritar, demokratik va liberal.

Avtoritar-yakkahokimlik tushunchasini bildiradi, ya’ni hukmronlikni ushlab turuvchi va amalga oshiruvchi biringa odam. Bunday rahbarlar menejment guruhining diqqat markazida va faoliyatida turadi. Barcha hukmronlik uning qo‘lida bo‘lishi kerak. U qo‘l ostidagilarni o‘ta passiv, agar qo‘l ostidagilarning fikrini eshitishga to‘g‘ri kelsa: u buni o‘z obro‘yiga putur yetkazyapti deb tushunadi.

Avtoritar uslubga quyidagi xislatlar xususiyatlidir:

- yakkahokimlik bilan qaror qabul qiladi;
- ma’muriyatchi, qo‘l ostidagi xodimlarning ishiga doim aralashib turadi;

- barcha katta-kichik muammolarni qo'l ostidagilarga kamgap, talabchan, gohida tazyiq o'tkazish yo'li bilan yakka o'zi hal qiladi.

- o'z qo'l ostidagi xodimlarning faoliyati uchun hamma javobgarlikni o'z zimmasiga oladi, butun axborotni o'zi orqali o'tkazishga harakat qiladi;

- jamoa a'zolarining bevosita fikr almashuvini cheklab qo'yadi, o'zining xatti- harakatini tanqid qilinishiga chidab tura olmaydi, lekin o'z qo'l ostidagi kishilarning xatti - harakatlarini va xulq - atvorini keskin tanqid qiladi;

- kamgap, uning xodimlar bilan aloqasi boshliqlarga xos ohangda bo'ladi;

- xodimlarning qarashlari, mulohazalari, o'z fikrlarini bildirishlarini yoqtirmaydi;

- qo'l ostidagilar bilan sovuq muomalada bo'ladi, qabulga kiruvchilar uchun qo'shimcha rasmiyatshiliklar ko'rsatadi.

Avtoritar rahbar kamdan - kam hollarda ochiq chehrada bo'ladi, uning ko'rinishi doim ish bilan band bo'lgan kishining qiyofasini aks ettiradi. Uning asosiy belgisi shundaki, unga bilimi sayoz bo'lsa ham, itoatkor va so'zini ikki qilmaydigan xodim yoqadi. Avtoritar rahbarning salbiy sisfati to'g'risida ko'p ma'lumot berish mumkin, chunki, unda tashkilotchilik qobiliyati, boshqaruvning umumiyl madaniyati - kasb tayyorgarligi yetishmaydi, o'z - o'zini idora qilaolmasligi va zolimga aylanishi, ishlovchilarni, inson qadrini pastga uruvchi bo'lishi mumkin. Lekin, shu bilan birga, ushbu uslubda ijobiy belgilarni ham topish mumkin. Masalan, bu turdag'i odamlar chaqqon va dono, qiyinchiliklarni dadil bartaraf eta oladi va katta tavakkalchilik talab qiladigan ishlarni qo'rmasdan amalga oshirish xususiyati bor. Bunday rahbarlar tez va dadil qarorlar qabul qiladilar va ularni bajarilishini qattiq nazorat qilib amalga oshiradilar. Ular o'zlariga ishonadilar va jamiyatga rahbarlik qilish qobiliyatiga erishadilar. Demak, bu kabi uslubda ta'sir tezlashadi, bu esa ishlab chiqarishda murakkat holat va sharoit yuzaga kelganida qo'l keladi. Ba'zi hollarda esa bunday uslubdagi rahbarlar qo'l ostidagilar bilan munosabat madaniyatini tushunib yetmasligi, qattiq ma'muriyatshilikka aylanishiga olib keladi va jamoaning fikri bilan hisoblashmaslik, jamoaning ishslash qobiliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Demokratiya xalq hukmronligini odamlar manfaatini aks ettiradi. Rahbarlikning «demokratik» uslubi shu bilan hariakterlanadiki,

rahbar o‘z faoliyatida guruh a’zolariga tayanib faoliyat yuritadi. U jamoa a’zolari o‘rtasidagi bevosita fikr almashishni ma’qullaydi, ularning fikriga qulog soladi, ular bilan maslahatlashadi. Rahbarning ana shunday usuli xodimlarning shaxsiy tashabbusini, ijodiy aktivligini oshiradi, jamoada do’stona vaziyatni vujudga keltiradi. Rahbarlikning demokratik uslubi kollektivning tarkibidagi hamma elementlar bir-biri bilan ijobiy ravishda bog‘liq bo‘ladi. Bundan tashqari, mana shu holda rahbar o‘zining tarbiyaviy funksiyasini ham to‘la - to‘kis amalga oshiradi. Demokratik uslub «rahbar» bo‘ysunuvchi» o‘zaro munosabati o‘zaro hurmat, ishonch asosida ko‘riladi, jamoa fikri bilan hisoblashish asosida ish yuritadi.

Demokratik uslubning quyidagi belgilari bor:

- muammolarni birgalikda hal etadi;
- qabul qilingan qarorlarni ish bajaruvchilarga yaxshilab tushuntirishga intiladi;
- qo‘l ostidagilar tashabbusini qabul qiladi va qo‘llaydi;
- demokratik rahbar qaror qabul qilishdan avval, uni xizmatchilar orasida keng doirada muqokama qiladi;
- qo‘l ostidagilarga jamoadagi ishlar ahvoli haqida tizimli ravishda axborot berib boradi, lekin bunda u qiyinchiliklar va muvaffaqiyatlarni ochiqdan - ochiq gapirib beradi;
- rahbar o‘z tomoniga aytilgan tanqidga to‘g‘ri yondashadi, xizmatchilar bilan bo‘ladigan muomalada o‘zining ustunligini sezdirmaydi;
- o‘zi qabul qilgan qarorlar uchun javobgarlikdan qochmaydi;
- qo‘l ostidagilar xatosi uchun zaruriy jazo belgilaydi, yaxshi tomonlarini maqtaydi, o‘z ko‘rsatmalarini aniq va ishonarli ifodalaydi;
- o‘ta bandlikni soxta bunyod etmaydi, qo‘lidan kelgunicha ishlaydi, mehnat qiladi.

Demokratik uslub to‘belar uchun ularning tashabbuslarini taraqqiy ettishda o‘z huquqlari doirasida o‘zlarini erkin tutishlari uchun yaxshi sharoit yaratadi. Shunday qilib, bu kasbda boshqaruv jamoalarining dunyoqarashlari umumiyligi va rahbarning yuqori obro‘ga egaligi aniq ko‘zga tashlanadi.

Liberal so‘zi rahimdlil, sahiy, olıyanob degan ma’noga ega, bu uslubning xususiyati shundaki, rahbar o‘zining rahbarlik holatini namoyish etmaydi, aksincha, u bundan tortinadi va korxonadagi

ishlarning amalga oshirilishiga aralashmaydi. Qo‘l ostidagilarga hurmat bilan murojaat qiladi va ularning fikrini sabr bilan tinglaydi, ular taklifidan foydali fikrlarni izlaydi va ularni hayotga tatbiq qilishga xizmat qiladi. O‘zining tortinchoqligi uchun birinchi qatorlardan qochadi, o‘zini ko‘rsatishni, oshkoraliqni yoqtirmaydi. Lekin, bu ijobjiy tomonlar xodimlarga yoqadi va ular uning bu xislatlarini o‘zlariga singdiradilar.

Liberal uslubning quyidagi belgilari bor:

- ishda unchalik faol emas;
- hamma ishlarga aralashishni yoqtirmaydi;
- begonalar ta’siriga osonlikcha bo‘ysunadi va bevaqt qabul qilingan qarorlardan tez voz kechadi;
- murakkab vaziyatlarda ikkilana turib, unda bir fikrga kelishlik va izchillik xususiyati yo‘q;
- qo‘l ostidagilar bilan munosabatni buzmaslik uchun jiddiy harakatlardan o‘zini tiyadi.

Yuqorida ko‘rib chiqilgan uch tur uslublardagi boshqaruв rahbarlari o‘zlarining kundalik ishlarida o‘ziga xos turdagи boshqaruв qoidalariga suyanadilar.

Uchta boshqaruв uslubiga baho bera turib, asosan demokratik uslubga ustuvorlik beriladi, chunki hozirgi vaqtда mas’uliyatli vazifa bizning jamiat va ishlab chiqarish munosabatlarini demokratlashtirish, ya’ni boshqaruв tizimini demokratlashtirishdir.

22.5. Bozor munosabatlariga o‘tish sharoitda boshqaruв uslubining shakllanishi

Hozirgi vaqtда mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotining birdan - bir samarali yo‘li - bu bozor munosabatlaridir. Tabiiyki, bu yangi boshqaruв uslubining shakllanishiga olib keladi. Madaniy taraqqiyot darajasi yuqori bo‘lgan davlatlarning va bu yo‘nalishda birinchi qadamlar qo‘yayotgan mustaqil respublikamizning bozor iqtisodiyoti davrini tahvil qila turib boshqaruв uslubini tashkiliy- professional xususiyatlarini aniqlab beruvchi ba’zi bir guruh belgilarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

Birinchi guruh belgilari - bu iqtisodiy fikr yuritishning yangi turi bo‘lib, bozor iqtisodiyoti, ya’ni yangicha erkin tadbirkorlik faoliyatini vujudga kelishi bilan bog‘liqdir. Bunday sharoitda rahbarning qo‘l ostidagilar faoliyatiga aralashishi avvalgidan bir oz kamroq bo‘ladi.

Ikkinchı guruh belgilari - yangi uslubdagi boshqaruvni vujudga kelishi bilan tavsiflanadi. Bunga boshqaruv mehnati bilan band ishbilarmon bilimdon rahbarlarni kiritish mumkin. Bu, eng avval, o'z sohasida o'ta bilimdon, madaniy taraqqiyot darajasi yuqori bo'lgan rivojlangan davlatlarda to'plangan tajribani o'zlashtirgan bozor iqtisodiyotini barcha zamonaviy sohalarini, jumladan, tadbirkorlik, menejment, marketing, bank ishi, soliq va boshqalarni chuqur o'rgangan mutaxassis bo'lmosh'i lozim.

Uchinchi guruh belgilari - bu sheriqlarga nisbatan tartiblilik, ma'muriyatçılık, rasmiyatçılıkning yo'qligi, qo'l ostidagilar haqida g'amxo'rlik, madaniyatçılık bilan tavsiflanadi. Bu guruh, belgilaringin mazmuni shundaki, zamonaviy biznesda iqtisodiy aloqalarni tartiblilikni o'ta zarur, o'z - o'zidan kerakli bo'lgan sifat deb qaraladi.

Demak, haqiqiy tadbirkor ishbilarmonlik olamida faqat o'ta yuqori daromad haqida o'yamasdan, balki ishning sifati va korxonadagi xodimlarni, ularning faravonligi haqida ham o'yash zarur.

Qisqacha xulosa

Menejmentning rivojlanishi, avvalo, menejment madaniyati darajasi yuksalishi bilan bog'liqdir. Menejment madaniyati inson madaniyatining tarkibiy qismi bo'lish bilan birga, qator o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Madaniyatga ega bo'lish rahbar uchun faqat zarur emas, balki shartdir, chunki har bir tashkilotning, har bir bo'linmasi samarali ishlashi uchun uning rahbar xodimlari yuksak madaniyatga ega bo'lishlari kerak. Korxonada ishlab chiqarish natijasi rahbarning madaniyati, bilimi va ko'nikmalari, boshqaruv jarayoni texnologiyasi, mehnat intizomi, u qo'llayotgan usullar bilan belgilanadi.

Tayanch iboralar

Menejment madaniyati, element, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, estetik, boshqarish xodimlari madaniyati, boshqaruv jarayonlari madaniyati, mehnat sharoiti madaniyati, hujjatlashtirish madaniyati, boshqaruv uslubi, avtoritar, demokratik, liberal, guruh belgilari.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Madaniyat nima va uning menejmentda tutgan o'rni qanday?
2. Menejment madaniyatining asosiy elementlari nimalardan iborat?
3. Boshqaruv xodimlarining madaniyati deganda nimani tushunasiz?
4. Boshqaruv uslubi deganda nimani tushunasiz?
5. Boshqaruvning qanday uslubi mavjud?
6. Avtoritar uslubdagi rahbarning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
7. Demokratik uslubdagi rahbarning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
8. Liberal uslubdagi rahbarning o'ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
9. Boshqaruv uslubining tashkiliy- professional xususiyatlarini aniqlab beruvchi guruh belgilari nimalardan iborat?

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'llida. T.: O'zbekiston, 1995.
2. G'ulomov S.S. Menejment asoslari. T., 1997.
3. Зайнутдинов Ш.Н., Муракаев И.У. Основы менеджмента. Т.: Ўқитувчи, 1996.
4. Мескон М., Альберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента. Пер.с англ. М.: Дело, 1995.
5. Герчикова Н.И. Менеджмент. М.: 1995.
6. Фатхутдинов Р.А. Система менеджмента. М.: 1997
7. Акназаров Ф.А., Абдурахимов И., Тошматов Х., Даулетов Е. Менеджмент в водном хозяйстве. -Т. 2003.
8. Умурзоқов Ў.П., Абдураҳимов И.Л. Сув хўжалиги менежменити. -Т.: "IQTISOD-MOLIYA". 2008

23-bob. QISHLOQ XO'JALIGIDA MEHNAT JARAYONLARINI BOSHQARISH

23.1. Boshqaruvchining mehnati, uning mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari

Boshqaruv mehnati, tovar ishlab chiqaruvchilarning mehnatini ajralmas qismi, boshqaruvning funksiyalari operativ bajarilishi to'g'ri tashkil qilinishiga bog'liq bo'ladi va ishlab chiqarish natijasiga ta'sir ko'rsatadi. Boshqaruv mehnati aqliy, ijodiy harakterlarni o'zida mujassam etadi.

Boshqaruv mehnatining predmeti ishlab chiqarishning moddiy elementi emas, balki axborot, har xil xujjatlar, boshqaruv yechimlari hisoblanadi. Boshqaruv mehnatida va texnik bajaruvchilarning ulushi - bu mehnat hariajatlarini olish uchun axborotni qayta ishslash, ta'minlash va saqlash asosiy o'rinni egallaydi. Boshqaruv maqsadga yo'naltirilgan jarayondek, avvalambor, insonlarni boshqarishdir.

Boshqaruv mehnati boshqaruvchi harakatlarida, boshqaruv operatsiyalarida, ya'ni insonlar boshqaruv jarayonida namoyon bo'ladi. Boshqaruv jarayoni qo'yilgan maqsaddan boshlanib, vazifa va vazifaning yechilishi bilan yakunlanib, maqsadga erishish bilan tugaydi. Masala yechilgandan keyin, maqsadga erishishda, yana boshqa vazifa qo'yiladi, yangi maqsad va yana boshqaruv jarayoni boshlanadi.

Maqsad —— harakat —— natija.

Lekin bunda boshqaruv jarayoni nazariy jihatdan to'g'ri bo'ladi, amaliyotda boshqaruv ko'pgina, bir-biridan farqlanadigan jarayonlarda ham namoyon bo'lishi mumkin.

Qishloq xo'jaligida menejer mehnati quyidagi ko'pgina masalalarni hal qilishga qaratilgan bo'ladi:

— texnik, ya'ni uskunlardan foydalanishi, mehnat sharoitlarini, ishlab chiqarishni tashkillashtirish va x.k.;

— texnologik, ya'ni loyihalashtirish va texnologik jarayonlarni takomillashtirish bilan bog'liq;

- iqtisodiy, ya’ni qishloq xo‘jaligi korxonalarida ichki va tashqi muhitida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish;
- tashkiliy, ya’ni qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishda boshqaruv strukturasini takomillashtirish bilan bog‘liq ishlar va h.k.;
- ijtimoiy, ya’ni ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirish bilan bog‘liq ishlar va h.k.

Qishloq xo‘jaligi menejer mehnati qo‘yilgan maqsadga erishishdagi jamoa a‘zolarining harakatini muvofiqlashtirishga qaratilgan. U korxona rivojida asosiy o‘rin tutadi.

Shunday vaziyatlar bo‘lganki, bunda yangi tayinlangan rahbar zarar bilan ishlayotgan xo‘jalikni yoki korxonani foyda keltiradigan korxonaga aylantirgan. Bu shundan dalolat beradiki, boshqaruv apparati xo‘jalik faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Zamonaviy boshqaruv xodimlarining o‘ziga xos xususiyatlari - yuksak professionallik va ishbilarmonlik, boshqaruv bilimi asoslari va iqtisodiy fikr yuritishdan xabari bo‘lishi kerak. Yuksak ma‘rifatli va madaniyatli, demokratik, mohirlikni va xalqning ehtiyojiini bilishi kerak. Bundan tashqari maqsadni ko‘ra olish ijtimoiy muammolarni yecha olish, jamoani ji pustashtirish va ma‘lum maqsadlar sari yo‘naltira olish xususiyatlariga ega bo‘lishi kerak.

23.2. Mehnatga haq to‘lash va rag‘batlantirishni takomillashtirish yo‘llari

Ish haqi- bu mehnat bilan band bo‘lgan aholining asosiy daromadidir. Bajarilgan ishni o‘lchash mezoniga qarab vaqtbay va ishbay (donabay) ish haqlari farqlanadi. Vaqtbay ish haqi ma‘lum malaka va ish tajribasiga ega bo‘lgan xodimning ishlagan vaqtiga, ya’ni necha kun yoki soat ishlaganiga, vaqt sarfiga qarab to‘lanadi. Ishbay ish haqi muayyan malakali ishchi yaratgan sifatlari tovar va ko‘rsatgan xizmat miqdori yoki bajargan ish hajmi uchun oladigan haqdirdi. Uning miqdori mehnat unumdorligiga nisbatan to‘g‘ri mutanosiblikda o‘zgaradi.

Rag‘batlantirish bu inson omilini keng demokratik asosida faollashtirish, uning mansaatlari yo‘lida g‘amxo‘rlik qilishni boshqarishdir. Mehnatni pirovard natijasiga qarab xodimlarni rag‘batlantirish amalga oshiriladi. Bunda moddiy rag‘batlantirish usuli qo‘llaniladiki, natijada bu katta samara beradi.

Rag'batlantirish har doim ham menejerlar uchun muhim va e'tiborli funksiya bo'lib kelgan. Buning muhimligi shundaki, menejerlar doimo ishchilar bilan, odamlar bilan ishlaydilar, muloqotda bo'ladilar. Menejerlar tashkilotni maqsadlarga erishishi uchun, odamlarni birlashtirish uchun odamlarni xulq-atvorini qandayligi to'g'risida bir qancha ma'lumotlarni olish uchun rag'batlantirishni amalgalashiradilar.

Ijtimoiy xizmat ko'rsatish faoliyatining muhim tomonini xilma-xil rag'batlantirish omillaridan foydalanish tashkil etadi. Bu omillar jamoani ijtimoiy rivojlantirishning maqsadli dasturlarini va rejalarini bajarish, birgalikda kuch-g'ayrat sarflash natijalarini oshirish sohasidagi faol ishlarga undaydi. Bunga ijtimoiy rivojlantirish ishida tashabbus ko'rsatib, yaxshi namunasi bilan ajralib turadigan xodimlarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish kiradi.

Har bir korxona va tashkilot o'z xodimlarini ma'lum bir shaklda rag'batlantiradi, ya'ni ular korxona va tashkilotning maqsadlariga erishishi uchun mehnat qilib, sarflagan vaqtлari, kuch-quvvatлari, aql-idrokлari o'rnnini to'ldiradilar. Rag'batlantirishning eng ko'p tarqalgan va odatdagи shakli, albatta, pul bilan mukofotlash yoki ish xaqini oshirishdir. Lekin xodimlarni rag'batlantirishning boshqa turlari ham borki, bular korxonada lavozimi bo'yicha ko'tarishdir.

Shunday qilib, qishloq xo'jaligida muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun kadrlarni tanlash, o'qitish, baho berish va rag'batlantirish, boshqarish, ya'ni mazkur jarayonlarni tashkil etishning alohida usullari, tadbirlarini ishlab chiqish, ularni takomillashtirish zarur. Birgalikda olingen bu usullar, tadbirlar, dasturlar inson resurslarini boshqarish tizimlaridan iboratdir. An'anaviy ravishda bunday tizimlar to'rtta bo'lib, ular inson resurslarini boshqarishning asosiy vazifalariga to'g'ri keladi - bu tizimlar kadrlarni tanlash, kadrlarni o'qitish va malakalarini oshirish, ularga baho berish va rag'batlantirishdir. Ba'zan bu so'nggi ikki tizim bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli ular birlashtiriladi.

Rag'batlantirish to'g'risida ko'plab nazariyalar mavjud bo'lib, ular menejerlarga odamlarni samarali faoliyatini tashkil qilishda turli xil yo'l -yo'riqlar ko'rsatadi. Rag'batlantirish bu faqat bir xodimning ishini bajara olish darajasiga ta'sir qilish emas, balki korxonaning barcha xodimlariga ta'sir qilishdir. Rag'batlantirishning ikkita omili mavjud bo'lib, "iste'dod" va "qobiliyat" omillaridir. Rag'batlantirish, iste'dod

va qobiliyat omillari doimo o‘zaro bog‘lanishda amalga oshiriladi. Chunki qobiliyatli va iste’dodli ishchi xodimlar rag‘batlantiriladi.

Alovida olingan har bir xodimdan samarali foydalanish, uning talab qilingan ishni bajara olish qobiliyatiga bog‘liqdir. Qobiliyat deyilganda xodimda o‘ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun kasb malakasining mayjudligi, yetarli darajadagi jismoniy kuch-quvvat va chidamlilik, o‘quvlilik, umumiyl madaniyat borligi va shu kabilar tushuniladi. Masalan, oliygoh o‘qituvchisi uchun qobiliyat fanni dasturini bilish, talabalar ruhiyatini tushunish, tinglovchilar oldida so‘zlay olishi, ularga har jihatdan o‘rnak bo‘lish, ularga maslahatlar bera olish, murabbiylik qilish tushuniladi.

Menejmentning evolyutsion bosqichlarida aytishicha menejerlar tomonidan rag‘batlantirishning uchta usulini amalga oshiradilar. Bular quyidagilar:

- 1.An’anaviy usul.
- 2.Insoniy munosabatlar usuli.
- 3.Insoniy resurslar usuli.

Menejerlar rag‘batlantirishning shu uchta usuli orqali odamlarni belgilangan tartibda boshqarishga ishonch hosil qiladilar.

An’anaviy usul. Bu usul F. Teylor va boshqa ilmiy boshqarish maktablarining ilmiy izlanishlari bilan bog‘langan bo‘lib, boshlang‘ich usul hisoblanadi. Bu usul asosan, menejerlar qanday qilib o‘z kasblarini hamda ishchi xodimlarini rag‘batlantirishda ish haqi tizimini to‘g‘ri qo‘llashni ko‘rib chiqadi.

Tajriba shuni kursatadiki, ayrim ishchilar, odatda, dangasaroq bo‘ladilar va menejerlar bu sharoitni tushungan holda, ishchilarni moliyaviy mukofot bilan taqdirlab, qisman bo‘lsa ham ularning ishlariga ko‘mak beradilar. Ko‘p vaziyatlarda bu usul samaralidir.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida an’anaviy tizimlardan tashqari xorijiy tajribani ham hisobga olgan holda quyidagi tizimlar tatbiq etiladi, foydada ishtirok etish, hissadorlar sarmoyasida qatnashish, tranport hariajatlariga haq to‘lash yoki rahbar xodimlarga transport vositalarini biriktirib qo‘yish, tibbiy xizmat ko‘rsatish dasturi, ta’lim dasturi, turli xil sug‘urtalar, imtiyozlar va kompensatsiyalar, imtiyozli qarz olish tizimi va shu kabilar. Bu tizimdan ko‘plari mehnatning nufuzini, shaxsnii tashabbuskorligini, ijodiy faolligini, ya’ni uning asoslash o‘zagi turli tomonlarini rag‘batlantirishga qaratilgan.

Masalan, korxona foydasidan rag‘batlantirish fondi shakllanadi. Ana shu fonddan soydaga haqiqatda ta’sir ko‘rsata oladigan xodimlar toifasi rag‘batlantiriladi.

Insoniy munosabatlar usuli. Rag‘batlantirishning an‘anaviy usuli hisoblanadi. E.Meyo va ilmiy - tadqiqot instituti xodimlari “Insoniy munosabatlar usuli” ustida ishladilar. E.Meyo va boshqalar shunga amin bo‘ldilarki, menejerlar ishchilarning ijtimoiy ehtiyojlarini bilgan holda hamda ularni korxona ishini muhim va foydali ekanligini his qilishga da‘vat etish orqali rag‘batlantira oladilar.

An‘anaviy usulda ishchilar tomonidan ishlab chiqilgan va ishchilar tomonidan amalga oshiriladigan samarali tizim orqali yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan katta miqdordagi ish haqi natijasida menejmentning vakolatlarini qabul qilish kutiladi.

Insoniy munosabatlar usulida esa ishchilar rahbarlarni, ularga nisbatan ma’naviy munosabatda bo‘lishini va ularning ehtiyojiga doimo diqqat-e’tibor qilishlari natijasida menejmentning vakolatlarini qabul qilishlari kerak.

Insoniy resurslar usuli. Keyinchalik Mark Greygor va Maslou kabi nazariyotchilar hamda Argris va Laykret kabi ilmiy izlanuvchilar insoniy munosabatlar usulini tanqid qildilar. Bu nazariyotchilarning fikricha, ishchilar yoki ularning ehtiyojilarini qondirish kabi omillar bilan emas, balki yutuqqa hamda mazmunli ish uchun ehtiyojlarni qondirish mumkin. Shunday qilib ishchilarga qarorlar qabul qilish uchun hamda o‘z vazifalarini amalga oshirishlari uchun mas’uliyatlar beriladi.

Inson ehtiyojilarining miqdori va xilma-xilligi nihoyatda katta bo‘lib, boshlangich ehtiyojilar ajratib ko‘rsatiladi. Bular inson fiziologiyasi tomonidan vujudga keltiriladigan oziq-ovqatga va boshqalarga bo‘lgan ehtiyojilar bo‘lib, ular insonning biologik tur sifatida mavjud bo‘lishini ta’minlaydi.

Ikkilamchi ehtiyojlar xayotiy tajribani rivojlantirish va hosil qilish jarayonida paydo bo‘ladi. Ular birlamchi ehtiyojilarga nisbatan xilma-xil bo‘lib, shaxsnинг psixologik rivojlanishiga, turmush sharoitiga, jamiyatda, guruhda qabul qilingan ijtimoiy me’yorlarga bog‘liqdir.

Shaxs ehtiyojilarining butun xilma-xilligi uning faoliyatining manbaini, sababini tashkil etadi. Sabab - insonning nima uchun harakat qilishini ko‘rsatuvchi, faoliyatga ichki undovchi kuch bo‘lib, u muayyan ehtiyojilarni qondirish bilan bog‘liqdir. Masalan, yaxshi

haq olib ishlamaydigan mutaxassis xodimning daromadliroq yangi ish izlashi muqarrardir. Bunday xatti-harakatning sababi ishdan qoniqmaslik, bajarayotgan vazifalariga qiziqishning pasayganligi, ehtimol, rahbar bilan munosabatlarining buzilishi, jamoadagi sharoitning o'zgarganligi va hamkasblari bilan munosabatlarida keskinlikning kuchayganligi va boshqa sabablar bo'lishi mumkin.

Bu barcha hollarda mutaxassis xodimlar xulq-atvorining haqiqiy sabablarini o'rganib borish, o'z navbatida, yaxshi xodimdan ajralib qolishning oldini olish, jamoadagi ehtimol tutilgan nizoni oldini olish imkonini beradi.

23.3. Qishloq xo'jaligida rahbar xodimlarning boshqaruv mehnatini baholash

Hozirgi vaqtida bozor iqtosodiyotiga o'tish sharoitida kadrlarning sifatiga bo'lgan talab tobora ortib bormoqda. Boshqaruv xodimlarining sifatini aniqlashning muhim jihatlaridan biri ularning faoliyatini baholashdir. Chunki bu ishda kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va tayyorlash asosiy masala hisoblanadi.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligida boshqa tarmoqlar singari kadrlar faoliyatini baholashda attestatsiya usuli keng qo'llaniladi. Ushbu attestatsiyani o'tkazish uchun rahbar buyrug'i bilan rais, kotib va boshqalardan tarkib topgan attestatsiya komissiyasi tuziladi. Ushbu komissiya tarkibini yuqori malakali mutaxassislardan, imtihon bo'layotganlarning bevosita rahbarlaridan, yuqori malakali ishchilardan va jamoa tashkilotlari vakillari tashkil etadi. Attestatsiya bo'layotgan har bir kishiga o'zining rahbari tavsifnomaga tuzadi, bu tavsifnomada o'sha kishining ijtimoiy va ish faoliyati o'z aksini topadi.

Atetstatsiyaga kirayotgan xodim avvaldan, (bir hafta oldindan) tavsifnomaga bilan tanishishi shart. Komissiya ushbu materiallarni ko'rib chiqadi, attestatsiya bo'layotgan kishini tinglaydi va quyidagi qarorlardan birini chiqaradi:

- a) egallab to'rgan lavozimiga loyiq;
- b) shartli o'tdi, 6 oydan so'ng qayta atetstatsiya qilinadi;
- v) egallab to'rgan lavozimiga noloyiq.

Komissiya ba'zi ishchilarni marta basini yuksaltirishga va ba'zi xizmatlari uchun taqdirlashga va boshqa ishga o'tkazishga tavsija qilish mumkin.

Menejerlarning ishbilarmonlik va shaxsiy xususiyatlarini yana ham obyektiv baholash uchun attestatsiyadan tashqari boshqaruv amaliyotida uch guruhga bo'linadigan turli xil usullar qo'llaniladi:

1-guruh. Xodimning ishbilarmonlik va shaxsiy xususiyatlarini baholaydigan, subyektiv harakterga ega bo'lgan ta'rif beruvchi yoki sifat usullarini o'z ichiga oladi. Ularga «kadrlar hisob varag'i» va «Avtobiografiyadagi» boshqaruvchi talabiga davogarlik qiluvchi talabgorning avtobiografik ma'lumotlarini o'rganish, rahbarlardan o'sha odam haqida ma'lumot yig'ish kiradi.

2-guruh. Xodimning ishbilarmonlik va shaxsiy xususiyatlarini yetarli darajadagi obyektivlikdan miqdoriy bahosini aniqlash ta'minlaydi. Eng ko'p tarqalgan usul ball bo'yicha baholash usulidir. Bu usul bo'yicha xodimning har bir bajargan vazifasi va erishgan yutuqlariga qarab ballar qo'yilib boriladi va uning o'rtacha balli chiqarilib aniqlanadi.

3 gurux. Yuqoridagi 2 ta guruxni ya'ni ta'rif beruvchi va miqdoriy usullarni o'z ichiga oladi. Ulardan eng ko'p tarqalgani test usuli bo'lib, oldindan tayyorlab qo'yilgan masalalar natijalariga qarab baho beriladi. Rahbarlar va mutaxassislarning ishbilarmonlik va shaxsiy xususiyatlarini ball bo'yicha baholash uchun xodim xususiyatlarini ball bo'yicha baholash yoki attestatsiya o'tkazish bilan aniqlash mumkin. Bunda xodimning ishbilarmonlik va shaxsiy xususiyatlarini baholash uchun eng kamida 2 ta qo'l ostidagi ishchisi, 2 ta rahbari va 2 ta hamkasbini baholashlarini hisobga olishadi. Oxirgi natijaviy bahoni komissiya beradi. Kadrlarni baholash kriteriyasi bitta bo'lishi kerak, ya'ni aniq bajarilgan ishlar.

Attestatsiya rahbar xodimlarning ishbilarmonlik va shaxsiy xususiyatlarini baholash usuli bo'lishi bilan birga ularni qayta tayyorlash bilan chambarchas bog'liqidir. Rahbar xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash - bu ta'limning ilmi asoslangan tizimii bo'lib, ma'lum sohada faoliyat ko'rsatish uchun bilim, tajriba va yo'l-yo'riq o'rgatadi.

Boshqaruv xodimlarini baholashda quyidagi sifatlarga ham alohida e'tibor berish lozim:

Birinchi guruh - umum ijtimoiy sifatlar - bu insonda mujassamlashgan sifat hisoblanadi. Bunga:

- *tartiblilik;*
- *insoniylik;*
- *sipolik;*

- *talabchanlik;*
- *odillik;*
- *qat'iylik;*
- *mulohazalilik;*
- *mardlik;*
- *o'zini - o'zi idora qila olishlik;*
- *odamlarga g'amxo'rlik.*

Ikkinchchi guruh - kasbiy sifatlar. Bunga:

- *sohasi bo'yicha fikr yuritishning tizimliligi;*
- *tadbirkorlik;*
- *ishchanlik;*
- *harakatchanlik;*
- *kasbga layoqatlilik;*
- *amaliy tajribaga egalik;*
- *kasbga doir maxsus bilimlarga egalik.*

Uchinchi guruh - tabiiy – genetik sifatlar. Bunga:

- *sog'lik* –*salomatlik;*
- *jismoni y baquvvatlik;*
- *jo'shqinlik;*
- *chaqqonlik;*
- *serg'ayratlik;*
- *serharakatlik.*

To'rtinchi guruh - pedagogik sifatlar. Bunga:

- *maslahat bera olishlik;*
- *ko'rsatma bera olishlik;*
- *nasihat bera olishlik;*
- *har bir xodim ko'ngliga yo'l topa olishlik;*
- *samarali ishni ma'naviy rag'batlantira olishlik;*
- *jamoani o'ziga ishontira olishlik;*
- *yetakchilik qila olishlik.*

23.4. Boshqaruv mehnatini tashkil etishning asosiy yo'nalishlari

Boshqaruv mehnatini tashkil etishda boshqaruv apparatidagi har bir ijrochining ishi cheklangan va nisbatan bir turda bo'lishiga erishish talab qilinadi. Bu mehnat unumдорligi ortishi, ish sifati yaxshilanishi va har bir ijrochi tajribasi ortib borishiga imkon yaratadi.

Ixtisoslashuv majburiyatlar doirasini shunday belgilash lozimki, bunda har bir ishlovchi masalasi imkonи boricha to'liq ishga solinsin.

Mehnatni kooperatsiya qilish boshqaruv tashkilotlari bilan boshqaruv apparati turli bo'linmaları xodimlari o'rtasida aloqa o'rnatilishini ko'zda tutadi. Boshqaruv jarayonida, ham shu korxonada, ham undan tashqaridagi alohida xodimlar, xizmat va bo'linmalar faoliyati birlashtiriladi.

Rahbar xodimlar mehnati taqsimlash va kooperatsiya qilish yo'llari tarkibiy bo'linmalar haqida qoidalar va boshqaruv apparati xodimlari lavozim qo'llanmasi tomonidan belgilangan bo'ladi. «Korxonalar to'g'risida» qonun asosida korxona va uning bo'linmalarida har bir rahbar, mutaxassis va texnikaviy ijrochi uchun lavozim qo'llanmalari ishlanadi. Lavozim qo'llanmalari, huquq va majburiyatları yakka boshchilik tamoyili asosida mansabdar shaxslarning bo'ysunishi, topshirilgan vazifa uchun javobgarligi belgilanadi.

Boshqaruv apparati mehnati uchun sanitар-gigiyena me'yорлари, shuningdek, mehnat va dam olish tartiblarini hisobga olgan holda sharoit yaratish muhim ahamiyatga ega. Mehnat unumdoрligiga - psixologik omil, xodimlar va rahbar, shuningdek, xodimlar o'rtasidagi o'zar munosabatlari ham katta ta'sir ko'rsatadi. Ularning kayfiyati, mehnat faolligi, oxir natijada mehnat natijalari bu omilga bog'liq bo'ladi.

Qishloq xo'jaligida menejment samaradorligi asosan rahbar o'z vazifasini qanchalik muvaffaqiyatli bajarish bilan bog'liq bo'ladi. Hozirgi davr boshqaruv mehnati va boshqaruvni tashkil etishning yangi ilmiy va texnikaviy yechimlari, usullarini qo'llashi, ishlab chiqarish imkoniyatlarini iqtisodiy ravishda kengaytirishi lozim. Menejer ham tashkilotchi, tarbiyachi, ham izlanuvchi, ma'muriyatchi sifatlariga ega bo'lishi kerak.

Qishloq xo'jaligida rahbar xodimlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar murakkabligi va javobgarlik ortishi bajariladigan ishlar turli - tumanligi ulardan vaqtini unumli taqsimlashni talab qiladi. O'z faoliyatini rejorashtirishni bilmaydigan, faqat joriy masalalar bilan shug'ullanuvchi rahbar xodimlar faqat boshqaruv jarayonida vujudga keluvchi u yoki bu vaziyat natijalarini tahlil qilishgagina ulgurub, kelajakda qilinishi lozim bo'lgan ishlarni hal etish uchun vaqt topolmay qoladilar.

Qishloq xo'jaligida rahbar xodimlar faoliyati maqsadini belgilashda, avvalo, undan yuqoriroq boshqaruv tizimi oldida turgan vazifalardan kelib chiqishi lozim, chunki aks holda butun tizim faoliyatiga to'g'ri kelmaydigan (yoki qarama-qarshi) ish ko'rishi mumkin.

Qishloq xo'jaligida rahbar ishi sur'atining tezligi uning mehnat faoliyati to'laqonli dam olish bilan, shuningdek, ish kuni davomida mehnat turlari almashinishini talab etadi, chunki faqat shunday qilinganda mehnat yuqori samarali bo'lishi, ish qobiliyati to'liq tiklanishi mumkin.

Rahbar xodimlar mehnatida maqbul ish sur'atini, ular amalga oshiruvchi hariakatlarning doimiy tartibini o'rnatish juda muhimdir.

Mutaxassis egallagan bilimlar tez eskirgani sababli, uni doimo takomillashtirib borish lozim. Agar rahbar o'z bilimini takomillashtirib bormasa, eski bilimlariga tayanib qolishi, ishlab chiqarish bundan zarar ko'rishi mumkinligini tajribada ko'rish mumkin. Olingan maxsus bilimga doimo to'ldirilib borilishi lozim bo'lgan asos sifatida qarash kerak. Bozor munosabatlari sharoitida texnik ma'lumotga ega bo'lgan ishlab chiqarish rahbarlari, ayniqsa, iqtisodiyot, marketing, ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish masalalarini chuqur o'rganishlari kerak.

Qisqacha xulosa

Boshqaruv mehnati boshqaruvchi harakatlarida, boshqaruv operatsiyalarida, boshqaruv jarayonida to'liq namoyon bo'ladi. Boshqaruv jarayoni qo'yilgan maqsaddan boshlanib, vazifa belgilab olish va uning yechilishi bilan yakunlanib, maqsadga erishish bilan tugaydi. Masala yechilgandan keyin, maqsadga erishishda, yana boshqa vazifa qo'yiladi, yangi maqsad va yana boshqaruv jarayoni boshlanadi. Boshqarish mehnatining unumini oshirish uchun xodimlarning samarali faoliyati rag'batlantiriladi. Rag'batlantirish bu inson xatti-harakatini faollashtirish, uning manfaatlari yo'lida g'amxo'rlik qilishni boshqarishdir.

Tayanch iboralar

Boshqaruv mehnati, texnik, texnologik, iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy, ish haqi, vaqtbay, ishbay, rag'batlantirish, iste'dod, qobiliyat, an'anaviy usul, insoniy munosabatlari usuli, insoniy resurslar usuli, attestatsiya, ishbilarmonlik, shaxsiy xususiyatlar, kadrlar hisob varag'i, tarjimai

xol, ball bo'yicha baholash, umum ijtimoiy, kasbiy sifatlar, tabiiy – genetik, pedagogik, ixtisoslashuv, kooperatsiya, lavozim qo'llanmalari.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Boshqaruv mehnati deganda nimani tushunasiz?*
2. *Qishloq xo'jaligida boshqaruv mehnatining mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?*
3. *Qishloq xo'jaligida menejer mehnati qanday masalalarni hal qilishga qaratilgan?*
4. *Mehnatga haq to'lashning qanday usullarini bilasiz?*
5. *Xodimlarni rag'batlantirishning qanday usullari mayjud?*
6. *Qishloq xo'jaligida rahbar xodimlarning boshqaruv mehnatini baholashda qanday usullardan foydalaniladi?*
7. *Menejerlarning ishbilarmonlik va shaxsiy xususiyatlarini baholashda boshqaruv amaliyotida yana qanday usullar qo'llaniladi?*
8. *Boshqaruv xodimlarining umum ijtimoiy sifatlari deganda nimani tushunasiz?*
9. *Boshqaruv xodimlarining kasbiy sifatlari deganda nimani tushunasiz?*
10. *Boshqaruv xodimlarining tabiiy – genetik sifatlari nimalarni o'z ichiga oladi?*
11. *Boshqaruv xodimlarining pedagogik sifatlari deganda nimani tushunasiz?*
12. *Qishloq xo'jaligida boshqaruv mehnatini oqilona tashkil etishning asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?*

Asosiy adabiyotlar

1. *Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chugurlashtirish yo'lida. T.: O'zbekiston, 1995.*
2. *G'ulomov S.S. Menejment asoslari. T., 1997.*
3. *Зайнулдинов Ш.Н., Муракаев И.У. Основы менеджмента. Т.: O'qituvchi, 1996.*
4. *Мескон М., Альберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента. Пер.с англ. М.: Дело, 1995.*
5. *Герчикова Н.И. Менеджмент. М.: 1995.*
6. *Фатхутдинов Р.А. Система менеджмента. М.: 1997.*

24-bob. AGRAR SOHADA BIZNES VA MENEJMENT

24.1. Agrobiznes tushunchasi

“Biznes” - so‘zi inglizcha so‘z bo‘lib, u tadbirkorlik faoliyati yoki boshqacha so‘z bilan aytganda kishilarni foyda olishga qaratilgan tadbirkorlik faoliyatidir. Agrobiznes deyilganda agrar sohadagi tadbirkorlik faoliyati tushuniladi. Agrobiznes- bu avvalo agrar sohada ishlab chiqarishni tashkil etish, iqtisodiy faoliyat va munosabatlar demakdir. Demak, agrobiznes bu murakkab ishlab chiqarishni yoki xizmat ko‘rsatishni tashkil etish demakdir.

Agrar sohada agrobiznes va xususiy tadbirkorlik o‘z ko‘lami jihatidan agraiqtisodiyotni uzlusizligini va barqarorligini ta‘minlashda katta o‘rin egallaydi. Agrobiznes va tadbirkorlikning agraiqtisodiyotga ta‘sir ko‘lami bir qator iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy va jihatlarni o‘z ichiga oladi.

Biznes bozor iqtisodiyotiga xos iqtisodiy faoliyatdir. Boshqacha aytganda, u muayyan ijtimoiy-iqtisodiy natijaga erishish maqsadida tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va ayriboshlashni tashkil etishdir.

Agrobiznes faoliyati juda katta tavakkalchilikka asoslanadi.

Qishloq xo‘jaligida **mulk shakllarini** quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

- **xususiy mulk egaligi** (dehqon xo‘jaliklari, fermer xo‘jaliklari mulki);
- **jamoa (shirkat) mulki** (qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkat xo‘jaliklari) mulki);
- **davlat mulki** (davlat xo‘jaliklari, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalariga foydalanishga berilgan davlat mulki);
- **qo‘shma (hamkor) mulk** (qo‘shma korxonalar mulki).

Xususiy mulk egaligi o‘z manfaatlari yo‘lida biznesni mustaqil tashkil etish imkonini beradi. Uning **afzalliklari** quyidagilarda ko‘rinadi:

- xususiy mulk egaligiga asoslangan tadbirkorlikni tashkil etish nisbatan oson kechadi, ya’ni ularni davlat ro‘yxatidan o’tkazish va

hisobga olish hamda tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi yengil;

- xususiy mulk egasi o‘z biznesiga o‘zi xo‘jayin va mustaqil xo‘jalik yuritish hamda qarorlar qabul qilish imkoniyatiga ega.

Ammo shu bilan birga uning quyidagi kamchiliklari ham mavjud:

- ko‘p hollarda xususiy korxonaning keyinchalik o‘z biznesini kengaytirish va ko‘proq daromad topish imkoniyatlari moliyaviy jihatdan cheklangan bo‘ladi;

- moliyaviy resurslarning cheklanganligi sababli tijorat banklari va boshqa moliyaviy muassasalar ko‘p holatlarda xususiy tadbirkorlar bilan hamkorlik qilishga moyil bo‘lmaydi;

- xususiy mulk egasi tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va boshqarish bilan bog‘liq barcha vazifalarni (xodimlarni yollash va boshqarish, moddiy ta‘minot, mahsulotni sotish, ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarini tashkil etish, mablag‘larni jalb etish, buxgalteriya hisobi va hisobot shakllarini yuritish va hakozo) bir o‘zi bajarishiga to‘g‘ri keladi va bular uning ko‘p vaqtini band etadi;

- xususiy tadbirkorlik subyekti cheklanmagan javobgarlikka ega bo‘ladi, ya’ni noto‘lovlar vujudga kelganda kreditorlar uning shaxsiy mulkiga ham da’vo qo‘zg‘atishi mumkin.

24.2. Agrar sohada tadbirkorlik

Qishloq xo‘jaligida asosiy maqsadga erishish uchun tarmoqda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirilishini taqozo etadi. Tadbirkorlik

- mulkchilik subyektlarining qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirish, ularni qayta ishlash va sotish hamda xizmatlar ko‘rsatish natijasida foyda yoki daromad olishga qaratilgan tashabbuskorlik bilan faoliyat ko‘rsatishidir. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik qishloq xo‘jaligida ham yuridik, ham jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Bu jarayonda ular O‘zbekiston Respublikasining «Mulk to‘g‘risida»gi, «Korxonalar to‘g‘risida»gi hamda «Tadbirkorlik to‘g‘risida»gi qonunlari talablariga qat‘iy rioya etishlari zarur. Ular faoliyatlarini samarali amalga oshirishlari uchun mustahkam iqtisodiy negizga ega bo‘lishlari kerak.

Qishloq xo‘jaligida tadbirkorlar o‘z ishlab chiqarishini rivojlantirish uchun chetdan o‘zgalarning mablag‘larini ham jalb etishlari mumkin. Tadbirkorlarning mulkka egalik qilish huquqi, uni

tashkil etish hamda undan foydalanish masalalari O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida, «Mulk to‘g‘risida» gi qonun va boshqa qonunlarda bat afsil yoritilgan.

Tadbirkorlik – bu qanday sharoitda amaliy harakat qilishni, oldida uchraydigan to‘siqlarni hal qilish yo‘llarini va qanday yutuqlarga erishishga qaratilgan faoliyatdir. Tadbirkor - ishlab chiqarishni tashkil etish hamda mahsulotni sotishni bilishi kerak. U bozor munosabatlari sharoitida yuzaga keladigan aniq sharoitlarni baholashni va to‘g‘ri yo‘l tanlashni bilishi kerak. Har bir tadbirkor faqat o‘z kuchiga, bilimiga va zakovatiga ishonishi va suyanishi lozim.

Tadbirkorlik faoliyatini aksiyadorlik mulki shaklida ham, jamoa mulki shaklida ham, xususiy (yakka) mulk shaklida ham amalgalashirish mumkin. Biroq aksiyadorlik mulki shakli va jamoa mulki shakli doirasida uni tashabbus ko‘rsatish, qarorlar qabul qilish va o‘z faoliyati uchun javobgarlik masalalarida xodimlar va menejerlarga xususiy mulk egasi imkoniyatlari qanchalik darajada berilishiga bog‘liq ravishda amalgalashirish mumkin.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarida band bo‘lgan xodimlarning o‘rtacha yillik soniga ko‘ra ularni *kichik tadbirkorlik subyektlari* va *yirik korxonalarga* bo‘lish mumkin. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 30-avgustdag‘i “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 9-apreldagi xususiy tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Farmoniga o‘zgartirish va qo‘s himchalar kiritish haqidagi”gi PF-3305-sonli Farmoniga muvofiq 2004-yilning 1-yanvardan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda:

- dehqon xo‘jaliklari – yakka tadbirkorlik sifatida;
- band bo‘lgan xodimlarning o‘rtacha yillik soni 20 kishidan oshmagan fermer xo‘jaliklari – mikrofirmalar sifatida;
- band bo‘lgan xodimlarning o‘rtacha yillik soni 50 kishidan oshmagan fermer xo‘jaliklari – kichik korxonalar sifatida kichik tadbirkorlik (biznes) subyektlari toifasiga kiritildi. O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga oid keng miqyosdagi davlat dasturlari amalgalashirishga tufayli, dehqon va fermer xo‘jaliklari ham kichik tadbirkorlik subyektlari sifatida bir qator iqtisodiy va huquqiy imtiyozlarga egadirlar.

Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 20-avgustdag‘i

“Tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish uchun ro‘yxatdan o‘tkazish tartibotlari tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi 357 - sonli qarori va shu qaror bilan tasdiqlangan “Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, hisobga qo‘yish va ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirish tartibi to‘g‘risida NIZOM”ga muvofiq amalga oshiriladi. Ushbu qarorda barcha kelishib olish tartibotlari tadbirkorlik subyektlarini amaldagi qonun hujjatlariга rioya qilgan holda ro‘yxatdan o‘tkazadigan faqat bitta tashkilot doirasida amalga oshirilishi belgilab berilgan.

Tuman (shahar) hokimliklari huzurida tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish inspeksiyalari tashkil etilgan bo‘lib, ularning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

- tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishni mo‘ljallayotgan ariza beruvchining hujjatlarni hamda buning uchun zarur bo‘lgan asoslarni qabul qilish va ekspertizadan o‘tkazish;

- tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida muhandislik-kommunikatsiyalariga (gaz, energiya, suv, kanalizatsiya, issiqlik bilan ta‘minlash, telefon aloqasi tarmoqlari) ulanish, turar joylarni noturar joy toifasiga o‘tkazish, obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilishga texnik shartlarni belgilangan tartibda rasmiylashtirish, shuningdek, muhr va shtamp tayyorlashga ruxsatnomalar olish uchun ularning vakolatlari doirasida majburiy tartibda kelishiladigan va ruxsat olinadigan tegishli tashkilotlarni aniqlash;

- yuqorida ko‘rsatilgan ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirishni hisobga olgan holda tadbirkorlik subyektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, reyestri yuritish, shuningdek, ularni soliq va statistika organlarida hisobga quyish;

- ariza beruvchiga barcha ruxsat beruvchi hujjatlar bilan uning tadbirkorlik subyekti sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi to‘g‘risida guvohnoma berish.

Tadbirkorlik subyektlarini ariza berilgan sanadan boshlab ruxsat beruvchi hujjatlarni bergen holda davlat ro‘yxatidan o‘tkazishgacha bo‘lgan muddat texnik shartlar va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlarni rasmiylashtirishning murakkabligini va hajmini hisobga olib, 7 ish kunidan bir oygacha belgilanadi.

Korxonalar va tashkilotlarning Yagona davlat reyestri joylardagi statistika organlari tomonidan to‘ldiriladigan ro‘yxatdan o‘tkazish kartalari asosida O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan yuritiladi. Tadbirkorlik subyekti davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi uchun davlat boji yoki ro‘yxatdan o‘tkazish yig‘imi to‘lanadi.

24.3. Bozor iqtisodiyotiga xos agrar sohani yangicha boshqaruvning shakllanishi

Agrar sohada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan – boshqaruvni takomillashtirish, uni bozor sharoitlariga moslash maqsadida isloh qilish yillari davomida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmonlari, hukumat qarorlari, me’yoriy – huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Ma’muriy – buyruqbozlik, rejalashtirish tizimiga xos bo‘lgan Davlat agrosanoat komiteti tugatilib, bozor tamoyillariga mos boshqarish tizimini yaratish ustuvor vazifa qilib belgilandi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish iqtisodiy munosabatlarni yangilash, institutsional o‘zgarishlarni amalga oshirishni, boshqarishning tegishli strukturasini yaratishni talab qilmoqda. Shu sababli iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichida davlat tomonidan boshqaruv tizimini isloh qilishga alohida e’tibor berildi.

Institutsional o‘zgarishlar jaryonidayoq boshqaruv mexanizmlari takomillashtirilib borildi, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarni boshqarish borasida ularning xususiyatlariga ancha mos keladigan, xo‘jalik yurituvchi subyektlarga iqtisodiy erkinliklar berishga yordamlashadigan, tashabbuskorlik va tadbirkorlikning rivojlanishini rag‘batlantiradigan tashkiliy-huquqiy shakllar vujudga keldi.

Ishlab chiqarishni boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari tizimida boshqarishni izchil, bosqichma-bosqich tashkil etish modeli qabul qilindi. Boshqaruv sohasidagi o‘zgarishlar natijasida ko‘plab boshqaruv bo‘g‘inlarining vazifasi o‘zgardi, yangi organlar tuzildi. Ma’muriy buyruqbozlik tizimining qoldiqlari, nazorat qiluvchi tizim, uning ijroiya organlari tugatildi.

Qishloq xo‘jaligini boshqaruvchi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Melioratsiya va suv xo‘jaligi vazirliklari birlashtirilib, tashkil etilgan yangi Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligi tashkiliy tuzilmasi va vazifaları qayta ko‘rib chiqildi. Bir qator sohalari bo‘yicha aksionerlik uyushmalari, xolding ti pidagi kompaniyalar, birlashmalar tashkil etildi.

Jumladan, islohotlar yillarida «Shaxsiy yordamchi xo‘jaliklar egalari uyushmasi», “Dehqon va fermer xo‘jaliklari uyushmasi”ga hamda O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi fanlari akademiyasi «O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi ilmiy – ishlab chiqarish markazi»ga aylantirildi.

Bular faoliyatini takomillashtirishga hozirgi kunda ham katta e’tibor berilmoqda. Masalan, Qishloq va suv xo‘jaligi vazirligining tuzilishi bilan

qishloq xo'jaligini moddiy – texnika resurslari bilan ta'minlash, mahsulotni qayta ishlash sohalari rivojlandi. Bular agrar tarmoqni boshqarish tizimida islohotlar bosqichma – bosqich amalga oshirilayotganligidan dalolatdir.

O'tgan davr mobaynida agrar sohani rivojlantirish asosan qisqa 2-3 yilga mo'ljallangan dasturlar asosida olib borildi, chunki yangi muommolar yuzaga kelishi va o'tish davrining o'ziga xos xususiyatlari uzoq muddatli dasturda to'liq qamrab olishning imkonи yo'q.

Bu o'zgarishlar faqat yangi vazirliliklar va idoralarni tashkil etish emas, balki qishloq xo'jaligida boshqarish tizimini bozor iqtisodiyotiga moslashtirish, qishloq xo'jalik ishlab chiqarish va sanoat o'rtaasida integratsiya jarayonlarini tezlashtirish, xom – ashyo sotishdan tayyor mahsulot sotishga o'tish jarayonini jadallashtirishga qaratilgan tadbirdaridir. Bular, o'z navbatida tarmoqqa yirik chet el investitsiyalarini jalb etish va mahsulotlarni eksport qilish hajmini ko'paytirish imkonini berdi.

Bozor munosabatlariiga o'tishning boshlang'ich davrida institutsional o'zgarishlarni amalga oshirish va boshqaruв tizimini isloh qilish tajribasi quyidagi xulosalarni chiqarishga imkon berdi.

Birinchidan, dastlabki bosqichda boshqaruв tizimida jiddiy buzilishlarga yo'l qo'ymaslik, iqtisodiyotni boshqarishning real dastaklarini qo'ldan chiqarib yubormaslik.

Ikkinchidan, o'tish davrida, yetuk bozor munosabatlari va mexanizmlari hali uzil-kesil shakllanmagan bir paytda muayyan ma'muriy vositalarsiz yolg'iz iqtisodiy usullarning o'zigna ish bermaydi.

Uchinchidan, boshqaruв organlarini qayta tuzish va ular zimmasiga yangi vazifalar yuklash boshqaruvni isloh qilish tugallanganligini anglatmaydi. Ularning ish uslubi tubdan o'zgarishi, boshqaruв strukturalari hozirgi sharoitlarga hamda iqtisodiy o'sishni va ishlab chiqarishni tashkil etish qoidalariga to'la-to'kis javob berishi zarur.

To'rtinchidan, vertikal va gorizontal tashkiliy hamda xo'jalik aloqalari sobiq Ittifoq parchalanib ketishidan ham ko'proq, iqtisodiyotni isloh qilishning, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirishning jadallahish borayotgan jarayonlari tufayli buzilib ketishi boshqaruв strukturalari faoliyatining byurokratik hariakterini o'z-o'zidan o'zgartira olmasdi. Shu sababli ko'pgina boshqaruв organlarida hozirgacha saqlanib qolayotgan rasmiyatchilikka, qog'ozbozlikka, qoloqlikka qat'iy kurash olib borishdan iboratdir.

Beshinchidan, yangi boshqaruв strukturasiini vujudga keltirish, ularda ishlaydigan kadrlarga, ularning kasbiy tayyorgarligiga yuqori talablar qo'yadi. Hozirgi davr boshqaruв kadrlari yuqori malakali, tashabbuskor, jonkuyar, fidokor bo'lishlari lozim.

Qisqacha xulosa

Agrobiznes bu agrar sohadagi tadbirkorlik faoliyatidir. Tadbirkorlik - bu qanday sharoitda amaliy harakat qilishni, oldida uchraydigan to'siqlarni hal qilish yo'llarini va qanday yutuqlarga erishishga qaratilgan faoliyatdir. Agrobiznes- bu avvalo agrar sohada ishlab chiqarishni tashkil etish, iqtisodiy faoliyat va munosabatlardir. Agrar sohada iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari, turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllarini vujudga keltirish, agrar sohada boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda agrar sohada ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmasini rivojlanirishdan iboratdir. Bu, o'z navbatida, agrobiznesni rivojlanishini ta'mminlaydi.

Tayanch iboralar

Biznes, agrobiznes, tadbirkorlik, yakka tadbirkorlik, kichik tadbirkorlik, mulk shakllari, xususiy mulk, jamoa mulki, davlat mulki, qo'shma mulk, fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari, inspeksiya, institutsional, iqtisodiy islohotlar.

Nazorat va muhokama uchun savollar

1. *Agrobiznes deganda nimani tushunasiz?*
2. *Qishloq xo'jaligida mulkchilik va xo'jalik yuritishning qanday shakllari mavjud?*
3. *Agrar sohada tadbirkorlik deganda nimani tushunasiz?*
4. *Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaysi qarorida belgilab berilgan?*
5. *Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga qo'yish va rasmiylashtirish tartibi qanday amalga oshiriladi?*
6. *Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida agrar soha boshqaruvida qanday o'zgarishlar vujudga keldi?*
7. *Agrar sohada iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?*

Asosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. *O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. T.: O'zbekiston, 1995.*
2. G'ulomov S.S. *Menejment asoslari. T., 1997.*

3. Зайнутдинов Ш.Н., Муракаев И.У. *Основы менеджмента.* Т.: *O'qituvchi*, 1996.
4. Мескон М., Альберт М., Хедоури Ф. *Основы менеджмента.* Пер.с англ. М.: Дело, 1995.
5. Герчикова Н.И. *Менеджмент.* М.: 1995.
6. Фатхутдинов Р.А. *Система менеджмента.* М.: 1997.
7. Sharifxo jaev M., Abdullaev Yo. *Menejment.* -Т.: "O'qituvchi". 2002.
8. Умурзоков Ў.П., Абдураҳимов И.Л. *Сув хўжалиги менажменти.* -Т.: "IQTISOD-MOLIYA". 2008

25-bob. QISHLOQ XO'JALIGIDA MENEJMENT SAMARADORLIGI

25.1. Samaradorlik – iqtisodiy kategoriya sifatida

Samaradorlik har bir korxona faoliyatining eng asosiy vazifasi hisoblanadi. U xo'jalik yuritishning sifat va miqdor ko'rsatkichlarini, shuningdek, buyumlashgan va jonli mehnat hariajatlari hamda olingan natijalar o'rtaсидagi munosabatni ifodalaydi.

Bozor sharoitlarida "samaradorlik" tushunchasi, garchi, daromad olish, hariajatlarni kamaytirish, mehnat samaradorligining o'sishi, fond qaytimi, rentabellik va hokazolar samaradorlik tabiatiga mos kelib, bozor iqtisodiyoti talablariga zid kelmasada, baho, foyda, daromad, hariajat kabi tushunchalarga qaraganda kam qo'llanilmoqda. Samarali ishslash degani o'z mohiyatiga ko'ra, mo'ljallangan (rejalashtirilgan) foydani olish, noishlab chiqarish hariajatlari va yo'qotishlarni kamaytirish, ishlab chiqarish quvvatlari va ishchi kuchidan yaxshiroq foydalanish, mehnat samaradorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotning sifatini yaxshilashni anglatadi.

"Samara", "samaradorlik", "ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik" kabi tushunchalarning orasidagi farqni anglab olish zarur.

Samara – bu, ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat), foyda va daromad hajmini oshirish, mahsulot tannarxini kamaytirish, sifatsiz mahsulot ishlab chiqarishni kamaytirish yoki umuman, yo'q qilish bilan bog'liq bo'lgan korxona faoliyatining ijobjiy natijalaridir. Bu yutuqlar natural shaklda *ishlab chiqarish samarasini*, pul shaklida esa *iqtisodiy samarani* tavsiflaydi.

Samaradorlik, avvalo, korxona faoliyatining sifat jihatlarini tavsiflovchi tushunchadir. U "samara" toifasidan kelib chiqadi hamda unga qaraganda murakkab va kompleks tavsifga ega.

Samaradorlik chora sifatida ko'plab texnik, iqtisodiy, loyiha va xo'jalik qarorlarini avvaldan belgilab beradi. Korxona o'zining xo'jalik, ilmiy-texnik va investitsion siyosatini belgilashda samaradorlikdan kelib chiqadi.

Samaradorlik o‘z-o‘zidan avtomatik ravishda kelmaydi. Fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish quvvatlari va resurslardan oqilona foydalanish, tejamkorlikka rioya qilish, ishlab chiqarishni intensivlashtirish, boshqaruv tizimini takomillashtirish va oqilona investitsion siyosat samaradorlikni oshirishning muhim omili va yo‘nalishi bo‘lib xizmat qiladi.

25.2. Iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik tushunchalari

Samaradorlikning asosi hariajatlarni minimallashtirish va foydani maksimallashtirishdir. Korxona xo‘jalik yuritishining samaradorligini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlar sifatida mehnat mahsulorligi, fond qaytimi va fond sig‘imi, material sig‘imi, mehnat sig‘imi, rentabellik va hokazolarni ko‘rsatish mumkin.

Samaradorlik, o‘z navbatida, iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikka bo‘linadi.

Iqtisodiy samaradorlik samaradorlikka qaraganda bir munkatator ma’noni anglatadi. U qabul qilinayotgan qarorlarning xo‘jalik yuritishda maqsadga muvosifligini tavsiflaydi hamda barcha hollarda samaraning unga erishish uchun ketgan hariajatlar(ishlab chiqarish resurslari)ga nisbati sifatida aniqlanadi. Hariajatlar qanchalik kam bo‘lsa (mahsulot sifatiga ta’sir qilmagan holda), samara shunchalik ortadi, demak, iqtisodiy samaradorlik ham ortadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish samaradorligini mehnat sharoitlarini, uning ijodkorlik mazmunini boyitish, aqliy va jismoniy mehnat o‘rtasidagi farqni yo‘qotishni inobatga olgan holda tavsiflaydi. Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik bir vaqtning o‘zida, ishlab chiqarish samaradorligini kuchaytirish, korxonaning muvaffaqiyatlari faoliyat yuritishi, shaxsnинг har tomonlama rivojlanishi va uning barcha qobiliyatlaridan foydalanishning sabab va natijasi hisoblanadi. Bevosita ijtimoiy samara, xodimlarning bilim va malakasi, tajriba va madaniyatining o‘sishi, aholi sog‘lig‘ining yaxshilanishi va umr ko‘rishining uzayishida aks ettiriladi.

Ishlab chiqarish samaradorligi ijtimoiy samaradorlikka nisbatan birlamchi hisoblanadi: iqtisodiy yutuqlar korxonaning ijtimoiy muammolarini hal qilishga yordamlashadi. Masalan, foydaning o‘sishi, jamg‘armalarning ortishi korxonaga ijtimoiy vazifalar doirasini kengaytirish va ularni hal qilish imkonini beradi.

Biroq samaradorlik va uning asosiy ko'rsatkichi - foyda (daromad) o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. Turli korxonalarda samaradorlikka erishish uchun mavjud ishlab chiqarish quvvatlari va boshqa xususiyatlardan kelib chiqqan holda, turli vosita va yo'llardan foydalaniadi. Bunda vaqt omili, ya'ni samaradorlikka qisqa yoki uzoq muddatlarda erishishni mo'ljallash, asosiy rollardan birini o'ynaydi. Masalan, korxona olayotgan foydasini qisqa vaqt mobaynida mahsulot sifatini yaxshilashni mablag' bilan ta'minlash, ishlab chiqarishni qayta qurollantirish va modernizatsiya qilish, xodimlar malakasini oshirishga ajratilayotgan mablag'larni kamaytirish yo'li bilan ko'paytirishi mumkin. Uzoq muddatli rejalarda esa bu, foydaning kamayishiga va hattoki korxonaning bozordagi o'rnnini yo'qotishi natijasida inqirozga uchrashiga olib kelishi mumkin.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqadiki, samara va samaradorlik qotib qolgan kategoriylar qatoriga kirmaydi hamda faqatgina pul ko'rinishida o'lchanmaydi. Samaradorlik va sifatlari mehnat tufayli korxona *birinchidan*, o'zining iqtisodiy barqarorligi va bozordagi raqobatchilikka bardosh berishini ta'minlaydi, *ikkinchidan*, o'z imidjini yaxshilaydi va hamkorlar bilan aloqalarini mustahkamlaydi, *uchinchidan*, xodimlarning iqtisodiy va ijtimoiy ahvolini yaxshilaydi. Demak, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo'llarini qidirish, hariajat va natijalarni to'g'ri solishtirish, mulkchilik shakli, qaysi tarmoqqa tegishliligi, hududiy joylashishi va faoliyat turidan qat'i nazar, har bir korxona uchun muhim vazifa hisoblanadi.

25.3. Menejmentning samaradorlik mezonlari

Menejment tizimi samaradorligini tahlil qilish va baholash hozirgi kungacha nafaqat qishloq xo'jaligi korxonalari, balki barcha tarmoqdagagi korxona va tashkilotlarda ham to'lig'icha o'z yechimini topmagan o'ta murakkab muommo bo'lib hisoblanadi. Mazkur muommoni uslubiy va amaliy yechimi boshqaruv faoliyatini oqilona tashkil etish yo'nalishlarini belgilashiga muhim zamin yaratadi. Aksariyat tadqiqotchilar ishlab chiqarishning rivojlanishini yakuniy natijalariga bevosita boshqaruvning ta'sirini aniqlash lozim degan fikrni ilgari suradilar, chunki jamiyatda ko'plab omillar o'zaro aloqadorlikda bo'ladi. Lekin u yoki bu maqsadga erishishda boshqaruv samarasini ulushini ajratib olish o'ta murakkabligicha qolmoqda. Ushbu muommoni yechimini topishga olimlar turlichaga

yondashadilar. Ayrimlari, boshqaruv samaradorligi masalasi yechimi mayjud emas, degan fikrni ilgari sursa, boshqalari uni aniqlashda mayjud uslubiyotlar(yangi texnika yoki kapital qo'yilmalar iqtisodiy samaradorligini aniqlash)dan foydalanish mumkin degan qarashlarni ta'kidlamoqda. Uchinchilari faqatgina boshqaruvning quyi bo'g'inidagi samarani aniqlash bilan chegaralanmoqda. To'rtinchilari miqdoriy baholash umuman mumkin emas degan fikrni bildirishmoqda.

Qishloq xo'jaligida boshqaruv faoliyati ma'lum ishlab chiqarish natijalariga erishishga qaratilgan, maqsadli yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Shu bois ham boshqaruv organlari ishining sifati va uni to'g'ri baholash va unga erishish yo'llarini aniq belgilab olishga bog'liqdir. To'g'ri va aniq qo'yilmagan maqsadlar kutilgan ishlab chiqarish samarasini bermaydi.

Keng ma'noda qishloq xo'jaligida menejment samaradorligi deganda faoliyatning yakuniy natijasi, jamoaning harakati, choralar majmui yaxlitligini tushinish mumkin.

Boshqaruv xodimlari mehnati unumli bo'lib, bevosita ishchilar mehnatiga teng baholanadi, shu bilan birga sifat jihatidan ular mehnatidan farq qiladi, chunki, intellektual faoliyat bo'lib bevosita tayyor mahsulot yaratmaydi. Boshqaruv apparati xodimlari faoliyati axborotni yig'ish, jamlash, saqlash, qayta ishlash va taqdim etish bo'yicha mehnat jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Shu tariqa, maqbul boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va ularni bajarilishini ta'minlashga yo'naltirilgan axborot jarayonlari boshqaruv xodimlari mehnati predmeti bo'lib hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida menejment faoliyati natijaviyligi, avvalo, menejmentning sifat jihatlarini aks ettiruvchi samaradorlik mezonlari yordamida baholanadi. Bularga qo'yidagilarni kiritish mumkin:

- boshqaruvning tezkorligi – qarorlarni o'z vaqtida tayyorlash va qabul qilish, shuningdek, teskari aloqadorlik mexanizmlarini yaxshi yo'lga qo'yish;

- boshqaruv tizimining ishonchliligi axborotni haqqoniyligi va o'z vaqtida taqdim etilishi, ish uslubi va qoidalarini ilmiy-texnik taraqqiyotning zamонавиy darajasiga muvofiqligi, xodimlarni tayyorgarlik darajasi, ish staji va barqarorligi;

- bajarilayotgan vazifalar sifati, texnika vositalari bilan ta'minlanganligi;

- boshqaruv tizimi maqbulligi – qarorlarni qabul qilishda maqbul uslublarni qo'llash darajasi, pog'onaviylikka (iyerarxiya) asoslanganligi,

shuningdek, muayyan sharoitlarda boshqaruvni markazlashganligi va markazlashmaganligi, boshqaruv me'yorlari va hokazolardir.

Qayd etilgan mezonlar qishloq xo'jaligida menejment tizimi samaradorligining ma'lum jihatlarini tavsiflash bilan birga, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish omillari sifatida nomayon bo'ladi. Shuning uchun ularni qishloq xo'jalik korxonalari ishlab chiqarish moliyaviy faoliyatining yakuniy ko'rsatkichlari bilan o'zviy aloqadorlikda ko'rib o'tish joiz. Shu bilan bir qatorda, menejment samaradorligini baholash ishlab chiqarish samaradorligini hisobga olish orqali o'zining mustaqil yo'nalishiga ega bo'lishi lozim.

Menejment tizimi samaradorligini xo'jalik faoliyatining yakuniy natijalari yordamida aniqlash, menejment jarayoni ishlab chiqarish - xo'jalik faoliyatining ajralmas qismi bo'lganligi bois murakkablik keltirib chiqaradi. Shuning uchun uning natijalari bir vaqtning o'zida ishlab chiqarish samaradorligining bir qator omillari ta'siri bilan bog'lanib ketadi. Shu bois, ko'rib o'tilayotgan mezon bo'yicha menejment samaradorligini baholash, ishlab chiqarishning muayyan sharoitlarida xo'jalikni qator ko'rsatkichlar bo'yicha taqqoslash imkonini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

Menejment obyektini taqqoslanishini ta'minlash uchun ko'rsatkichlar orasidan ishlab chiqarishni obyektiv iqtisodiy sharoitlarini tavsiflab beradiganini ajratib olish lozim. Mazkur sharoitlarni teng ta'siri, shu bilan birga, yakuniy ko'rsatkichlar o'rtaqidagi farqlarni aniqlash orqali, boshqarish tizimlari samaradorligini baholash mumkin.

Qishloq xo'jaligida menejment samaradorligini baholashni ishlab chiqarish samaradorligi va boshqarish sharoitlarini tavsiflab beruvchi ko'rsatkichlar aloqadorligini ma'lum darajada aks ettiruvchi, alohida mezonlar bo'yicha ham amalga oshirish lozim. Menejment samaradorligining asosiy mezonlariga boshqaruv mehnati natijaviyligi yoki unumdarligi va boshqaruv apparati tejamlilagini kiritish mumkin. Boshqaruv xodimlari mehnat unumdarligini aniqlashning o'ziga xos tomonlari, bevosita aniqlash imkonи bo'limgan boshqaruv faoliyatining o'ziga xosligi bilan bog'liq. Demak, mehnatni to'g'ridan -to'g'ri baholash mumkin bo'lgan boshqaruv xodimlarining individual unumdarlik ko'rsatkichlarini hisoblash mumkin. Boshqaruv xodimlari uchun ushbu usul bilan ayrim turdagи ishlar unumdarligini hisoblash mumkin.

Rahbar va mutaxassislar mehnati natijalarini yakuniy baholash bilvosita qishloq xo'jaligi korxonalari faoliyatining pirovard natijalari orqali ma'lum ko'rsatkichlar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Boshqaruv tizimi tejamliligi uni amalga oshirish uchun sarflangan hariajat miqdori bilan tavsiflanadi. Lekin boshqarishga ketgan hariajatlar tejamliliyini baholashda asosiy belgilovchi ko'rsatkich bo'la olmaydi. Shuning uchun ularni ishlab chiqarishga sarflagan jami hariajat va boshqa ko'rsatkichlar bilan taqqoslash zarur. Ma'lum hariajatlarni talab etuvchi ishlab chiqarishni boshqarishda texnika vositalarini qo'llashning iqtisodiy samaradorligini alohida hisoblash lozim.

25.4. Menejment tizimining iqtisodiy samaradorligini baholashning uslubiy asoslari

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni muvaffaqiyatli yechilishi ishlab chiqarishning samaradorligini o'sishi hisobiga amalga oshirishi mumkin. Ishlab chiqarishning har tomonlama samaradorligini oshirilish bozor munosabatlariga o'tishni hozirgi bosqichida muhim iqtisodiy masala hisoblanadi. Menejment tizimining iqtisodiy samarasini baholash o'ta murakkab masaladir. Menejment tizimining iqtisodiy samarasini baholash kapital mablag'larni kiritish va yangi texnika joriy qilishning iqtisodiy samarasini xisoblashdan ancha murakkabdir, chunki bular yagona usulga, nazariy izlanishlarga, ularning alohida tomonlariga amaliy tajribaga asoslanib olib boriladi. Shu bilan birga, menejmentning iqtisodiy samarasini baholash, kapital mablag'lar va yangi texnikani kiritish iqtisodiy samarasining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligida menejment tizimining iqtisodiy samarasini ilmiy asosda hisoblash bir qator uslubiy qoidalarga asoslanish lozim. Ular ichida eng muhimi bu bir birlik mahsulotga to'g'ri keladigan eng yuqori foydani olishga intilishdir. Menejment tizimi murakkab tashkilotlarda kichik bir tizim hisoblanadi. Shuning uchun uning iqtisodiy samarasini asosan ikkita tomonдан ko'rib chiqmoq kerak.

Birinchi tomonidan, menejment tizimini xususan o'ziga tegishli iqtisodiy samarani, shu jumladan, boshqaruv jarayonini tashkil qiluvchi harakatlar birlashmasi tezkor, iqtisodiy bo'lmog'i, qabul qilinadigan qarorlarni maqbul bo'lishini va yanada samarali bo'lishini ta'min etishi kerak.

Ikkinchchi tomondan, iqtisodiy samara menejment tizimining ishlab chiqarish faoliyatini natijalarini nuqtai- nazardan baholanishi zarur.

Menejment tizimining samaradorligini oshirishni o'ziga xos bir qator muammolarini yechish uchun juda muhim bo'lgan tomoni, bu sarf- hariajatlar va ular bilan bog'liq bo'lgan natijalar tizimi hisobga olinishi lozim.

Menejment tizimining joriy qilinishi va takomillashuvi ma'lum moddiy va mehnat hariajatlari bilan bog'liq bo'lgani sababli qo'yilgan maqsadning maqbul turlarini tanlashda aniq bir holatda ularni iqtisodiy asoslanishi lozim.

Iqtisodiy samarani aniqlash usullari, albatta, birinchidan, kapital mablag'lar kiritishdagi iqtisodiy samarani aniqlashda yangi texnika ishlatalishini umumiylar qoidalari hamda hariajatlarning iqtisodiy samarasini hisobga olish kerak. Boshqa tomondan esa, ular asosida menejmentning o'ziga xosligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar bo'lishi lozim.

Menejment tizimining iqtisodiy samarasini bir dona mahsulot uchun eng kam hariajat evaziga eng yuqori daromad olishga qaratilgandir.

25.5. Menejmentning iqtisodiy samaradorligini oshirish

Menejmentning vazifasi ishlab chiqarishda maksimal samaraga erishish bo'lganligi sababli, menejment tizimi samaradorligi ham nafaqat boshqaruv jarayonining o'zida balki boshqaruv obyektidagi o'zgarishlarda ham aks ettirilishi lozim. Bu o'rinda menejment samaradorligining umumiylar mezoni, menejment obyekti oldidagi maqsadga kam hariajat evaziga erishishni ta'minlovchi, menejment tizimi faoliyatining natijasi deb e'tirof etish mumkin.

Muayyan sharoitlarda boshqaruv darajasi yer, mehnat resurslari, ishlab chiqarish fondlaridan foydalanishga ta'sir ko'rsatadi va shu tariqa, ishlab chiqarishning yakuniylaridagi, jumladan, mehnat unumdarligi, fond qaytimi, foyda miqdori, rentabellik o'zgarishiga olib keladi.

Iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish natijalarini, ularga erishish uchun sarflangan resurslar bilan taqqoslash orqali tavsiflanadi. U natijaviylik va iqtisodiy ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi. Masalan, ishlab chiqarishdagi yuqori ko'rsatkichlarga, me'yordan ortiq resurslarni sarf qilish evaziga erishilishi mumkin, iqtisod qilish esa

kam hariajat hisobiga past ishlab chiqarish ko'rsatkichlariga erishiladi. Shunday qilib qishloq xo'jaligida menejment tizimining iqtisodiy samaradorligini baholash faqatgina natijaviylik va iqtisodiy ko'rsatkichlari yordamida amalga oshirilishi lozim.

Qishloq xo'jaligida menejmentning iqtisodiy samaradorligini asoslash ko'p hollarda ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash masalasining bir qismi bo'lib hisoblanadi va uni aniqlash umumuslubiy tamoyillar asosida amalga oshirilishi lozim. Menejment samaradorligini aniqlashda, natijalarga erishishga sarflangan hariajatlar hisobga olinadi. Shu bilan birga, ishlab chiqarishni boshqarishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash, menejment faoliyatining o'ziga xosligidan kelib chiquvchi va ishlab chiqarishni boshqarish tizimi natijaviyligini baholashga bevosita ta'sir etuvchi o'ziga xos xususiyatlariga ega.

Boshqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish boshqaruva mehnati hariajatlarini tejash, ishlab chiqarishda menejmentning iqtisodiy samaradorligini oshishini ta'minlaydi. Shuning uchun, boshqarishda texnika vositalarini qo'llashning iqtisodiy samaradorligini aniqlashning uslubiy tamoyillari menejment samaradorligini aniqlashning umumiyligi tamoyillariga asoslanishi lozim. O'zgaruvchan ko'plab omillarga bog'liq bo'lgan boshqaruv samaradorligi darajasi turli korxonalarda bir xil emas, buni taqqoslama tahsil yordamida aniqlash mumkin. Shunday qilib, boshqaruv xodimlari mehnati unumli bo'lib, bevosita ishchilar mehnatiga teng baholanadi.

25.6. Rahbar xodimlarning boshqarish samaradorligini oshirish tadbirlari

Bozor iqtisodiyoti munosabatlarining shakllanib borishi bilan davlat va xo'jalik boshqaruvining ahamiyati yanada oshib bormoqda. Bozorni boshqarish dastlab bevosita yuqori pirovard natijalarga erishish, qishloq xo'jaligi va suv xo'jaligi tizimidagi korxonalar o'rtaida muvozanatlashgan mutanosiblikni o'rnatishdir. Shu munosabat bilan qishloq xo'jalik korxonalarida boshqaruv xodimlarining boshqarish jarayonidagi tutgan o'rni va ahamiyati oshib boradi. Bozor munosabatlarini tartibga solish rejali – taqsimot tizimi sharoitida ishlab chiqarishni boshqarishga nisbatan murakkabdir. Shuning uchun boshqarish organlari davr talabiga javob bera oladigan funksiya va talablarga, tashkiliy tuzilmaga va mutaxassislar tarkibiga

ega bo'lmog'i lozim. Rahbar xodimlar ishchanlik va malakaviy qobiliyatları tufayli iqtisodiy subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish muammolarini yechish qibiliyatiga ega bo'lmog'i lozim.

Qishloq xo'jaligida boshqarish tizimini takomillashtirish va uning boshqaruvi organlari o'rtasidagi o'zaro ta'sirini muvofiqlashtirish maqsadida dastlab vertikal tuzilma bo'yicha ijrochilarning ish faoliyatini tartibga solish va takomillashtirish zarur.

Qishloq xo'jaligida xo'jalik mexanizmini tartibga solishdagi roli bevosita iqtisodiy mexanizmlar va moddiy rag'batlantirish orqali o'sib borishi lozim.

Qishloq xo'jaligida rahbar xodimlarning boshqarish samaradorligini oshirishda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish va ularga amal qilish lozim:

- qishloq xo'jalik korxonalarini rahbarlarini zamonaviy bilimlar asosida muntazam malakasini oshirib borish;
- xorijiy mamlakatlarning tajribalaridan keng foydalanish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiya vositalarini boshqaruvi tizimiga keng joriy etish;
- chet el investitsiyalarini keng jalb etish;
- boshqaruvning zamonaviy, ilg'or texnologiyalarini joriy etish;
- ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalarni joriy etish ishlarini jadallashtirish;
- xodimlarning tashabbuslarini qo'llab — quvvatlash va samarali mehnatini muntazam rag'batlantirib borish;
- korxona maqsadiga erishish, izlanish, o'z ustida ishlashi uchun xodimlarga imkon boricha erkinlik berish va zarur shart-sharoitlarni yaratib berish;
- xodimlar faoliyati nazoratini bir me'yorda olib borish;
- korxonada sog'lom psixologik muhitni yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- xodimlarning vakolatiga muvofiq vazifa va topshiriqlarni to'g'ri va odilona taqsimlash, ortiqcha vazifalar va yuklamalarni o'z zimmasiga olmaslik;
- o'z imkoniyati va bajara olishi mumkin bo'lgan doirasidagi ishlarni bajarish;
- boshqaruv qarorlarini ishlab chiqishda tizimli yondashuvdan keng foydalanish;
- korxona maqsadlarini xodimlarning shaxsiy maqsadlari bilan muvofiqlashtirish;

- boshqarish samaradorligiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni bartaraf etish;
- o'z mehnatining sisati uchun har bir xodimga ma'suliyatni va javobgarlikni to'liq yuklash.

Qisqacha xulosa

Samaradorlik – bu korxonaning pirovard natijasini, faoliyatning ijobiy natijasini tavsiflovchi ko'rsatkichdir. Uning asosi harajatlarni minimallashtirish va soydani maksimallashtirishdadir. Korxona xo'shalik yuritishining samaradorligini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlari mehnat mahsuldarligi, fond qayitimi va fond sig'imi, rentabellik va hokazolardir. Boshqaruv tizimining samaradorligini tavsiflovchi mezonlar boshqaruvning tezkorligi, qarorlarni o'z vaqtida tayyorlash va qabul qilish, boshqaruv tizimidagi axborotlarni haqqoniyligi va o'z vaqtida taqdim etilishi, xodimlarni tayyorgarlik darajasi, bajarilayotgan vazifalar sisati, texnika vositalari bilan ta'minlanganligi va boshqaruv tizimining maqbulligidir.

Tayanch iboralar

Samara, samaradorlik, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik, samaradorlik mezonlari, boshqaruvning tezkorligi, qarorlar, qabul qilish, boshqaruv tizimining ishonchliligi, axborot, xodimlar, baholash, hariajat, daromad, rahbar xodimlar, tadbirlar

Asosiy adabiyoitlar

1. Мазур И.И. Управление качеством: Учеб. пособ. – М.: Омега-Л, 2005. - 400 с.
2. Волгин В.В. Автосервис. Производство и менеджмент: Учеб. пособ. М.: Дашков и К, 2004. - 440 с.
3. Гавриленко В.М., Водопьянов В.П. Менеджмент: Учеб. пособ. - М.: Книга-сервис, 2003. – 192 с.
4. Герчикова И.Н. Менеджмент: Учебник. 4-е изд., перераб. и доп. - М: Юнити-Даня, 2004. – 511 с.
5. Гительман Л.Д., Исаев А.П. Амбициозные менеджеры: Дерзость и интеллект. - М.: Дело, 2004. - 360 с.
6. Гладышев А.Г., Городяненко. Теория управления: Учеб. пособ. – М., 2003. – 100 с.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Yer kodeksi” va boshqa qishloq xo‘jaligiga oid qonun hujjatlari (yer kodeksi, shirkat xo‘jaligi, fermer xo‘jaligi, dehqon xo‘jaligi, yer kadastro to‘g‘risidagi qonunlar). –T.: Adolat 1999. 446 b.
2. “Kimyo sanoati korxonalarini boshqarish tuzilmasini takomillashtirish va qishloq xo‘jaligiga agrokimyo xizmati ko‘rsatishini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2004-yil 23-yanvar, 33-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24-dekabridagi 607-sonli “2005-2007 yillarda fermer xo‘jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
4. Karimov I.A. “Dehqonchilik taraqqiyoti – faravonlik manbai”. –T.: “O‘zbekiston”, 1993.
5. Karimov I.A. “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida”. –T.: O‘zbekiston, 1995.
6. Karimov I.A. “Qishloq xo‘jaligini isloh qilish. Agrar munosabatlarning yangi turlarini shakllantirish”. –T.: “O‘zbekiston”, 1995.
7. Karimov I.A. “Qishloq xo‘jaligi taraqqiyoti-to‘kin hayot manbai”. –T.: “O‘zbekiston”, 1998.
8. Karimov I.A. “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”. –T.: “O‘zbekiston”, 1998.
9. Karimov I.A. “Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard məqsadimiz”. –T.: “O‘qituvchi”, 2000.
10. Хасанжанов К.А. Эффективность средств химии в земледелии.-Ташкент.: Узбекистан, 1980 г. 204 стр.
11. Емельянов А.И. “Экономика сельского хозяйства”. –М.: “Экономика”, 1982.
12. Конюкин Ю.А. “Экономика ремонта сельскохозяйственной техники”. –М.: “КОЛОС”, 1983, -415 ст.

13. Кошкин Ю.А. "Экономика ремонта сельскохозяйственной техники". –М.: "Колос", 1983, 413
14. Синюкова М.И. "Организация производства на сельскохозяйственных предприятиях". –М.: 1989, -511.
15. Добринин В.А. "Экономика сельского хозяйства". –М.: 1990, -47.
16. Тошбоев А.Ж. "Повышение эффективности агрехимического обслуживания в хлопкосыющих хозяйствах". –Т.: "Меҳнат", 1991, 154 б.
17. Петренко И.Я., Чужиков П.И., "Экономика сельскохозяйственного производства". Алма-Ата: Кайнар, 1992.
18. Xo'jayev B.A. "Avtomobil transporti iqtisodiyoti". –Т.: "O'qituvchi", 1992, -268
19. Tolipov T. va boshqalar. "O'zbekiston Respublikasi Yer kadastro". –Т.: "MSXRUz", 1994, -242.
20. Ikromov U., Ergashev A., Saylikov M. "Traktorlarni ishlatalish va ta'mirlash asoslari". –Т.: "O'qituvchi", 1995, -224 б.
21. Коваленко Я.Н. "Экономика сельского хозяйства". Москва: ЭКМОС, 1998.
22. Toshboyev A.J. "Tarmoq iqtisodi va menejment" fanidan amaliy mashg'ulot olib borish uchun uslubiy qo'llanma. –Т.: "TIQXMII", 1999, -38.
23. Toshboyev A.J. "Tarmoq iqtisodi va menejment" fanidan bosqich ishini bajarish uchun uslubiy qo'llanma. –Т.: "TIQXMII", 1999.
24. Xusanov R.H., Hamdamov A.N., Rafiqov I.E. "Qishloq xo'jaligida servis xizmati muqobil mashina-traktor parklarini rivojlantirish masalalari. –Т.: "Yangi asr avlod", 2001, -124 б.
25. Попов Н.А. Экономка отраслей АПК. Курс лекции, 2002, <http://family.taukita.ru/item22219310.htm>
26. Salimov B.T. va boshqalar. "Fermer va dehqon xo'jaligi iqtisodiyoti" –Т.: TDIU, 2003, 142 б.
27. Abdug'aniyev A., Abdug'aniyev A.A. "Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti", -Т.: TDIU, 2004.
28. Umurzoqov Yo.R., Toshboyev A.J., Aldaberganov M., Raximov X. "Fermer xo'jaligini tashkil etishning huquqiy, iqtisodiy ishlab chiqarish asoslari. –Т.:TIQXMII, 2004. 141 б.
29. O'zbekistonning yangi qonunlari. №19. –Т.: "Adolat", 1998.

30. Ушачев И.Г. и др. “Модели экономических взаимоотношений предприятий АПК в системе интегрированных формирований”. –М.: 2004.
31. Qishloqda ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish asoslari. –Т.: “Ijod dunyosi”, 2004, -318 b.
32. Farmonov T.X. “Fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish istiqbollari”. –Т.:”Yangi avlod” 2004. 143 b.
33. Ўзбекистон иқтисодиёти журнали. №8, 2005.
34. «Государственное регулирование развития АПК и земельные отношения в России», -М.: «ТЕИС»,2005, -221 ст.
35. Фермер: сельское хозяйство, сельскохозяйственное оборудование, техника продаж.... www.selhoz.net.ru
36. ЛБР - сельскохозяйственная техника, комбайны, косилки, сеялки, запчасти к сельхозтехнике www.lbr.ru
37. Приамурский Институт Агроэкономики и Бизнеса www.admin.ru
38. Московская сельскохозяйственная академия. www.ecfak.timacad.ru
39. Toshboyev A.J. “O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti fanidan leksiyalar kursi”. –Т.: “TIMI”, 2006, -142 b.
40. Устойчивое развитие агропродовольственного сектора как важнейший фактор социально-экономической стабильности России. (Материалы Второго Всероссийского конгресса экономистов – аграрников (13-15 февраля 2006 г., Москва)). Часть I, II. –М.: ФГНУ «Росинформагротех», 2006.
41. O‘zbekiston iqtisodiyoti. Jurnal 2006. №4
42. Умурзоков Ў.П., Абдураҳимов И.Л. Сув хўжалиги менежменти. -Т.: “Иқтисод-молия”. 2008
43. G‘ulomov S.S. Menejment asoslari. Т., 1997.
44. Зайнутдинов Ш.Н., Муракаев И.У. Основы менеджмента. Т.: О‘qituvchi, 1996.
45. Мескон М., Альберт М., Хедоури Ф. Основы менеджмента. Пер.с англ. М.: Дело, 1995.
46. Герчикова Н.И. Менеджмент. М.: 1995.

MUNDARIJA

So‘zboshi 3

1-bob. «QISHLOQ XO‘JALIGI IQTISODIYOTI VA MENEJMENT» FANINING QISHLOQ XO‘JALIGIDA TUTGAN O‘RNI, MAQSADI VA VAZIFALARI

| | |
|--|----|
| 1.1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo‘jaligi va uning rivojlanish istiqbollari | 5 |
| 1.2. Fanning qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda tutgan o‘rni | 9 |
| 1.3. Fanning maqsadi va vazifalari | 10 |
| 1.4. Fanda qo‘llaniladigan usullar..... | 11 |

2-bob. BOZOR MUNOSABATLARIGA O‘TISH SHAROITIDA AGROSANOAT MAJMUASI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

| | |
|--|----|
| 2.1.Agrerosanoat majmuasi tushunchasi, vazifasi va tarkibi | 14 |
| 2.2. Agrosanoat majmuasining tashkiliy tuzilmasi | 16 |
| 2.3. ASM da qishloq xo‘jaligi va uning iqtisodiy mexanizmlari | 17 |
| 2.4. Agrosanoat majmuasini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari | 21 |

3-bob. YER FONDI VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH, YER KADASTRI

| | |
|--|----|
| 3.1. O‘zbekistonning yer fandi va undan foydalanish | 26 |
| 3.2. Yer monitoringi va yer kadastro | 31 |
| 3.3. Yerdan foydalanish samaradorlik ko‘rsatkichlari | 33 |

4-bob. SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING TASHKILIY, IQTISODIY ASOSLARI

| | |
|--|----|
| 4.1. O‘zbekistonda suv resurslaridan foydalanishning holati va uning tashkiliy tuzilmasi | 39 |
| 4.2. Suv xo‘jaligi bosh bashqarmasining asosiy vazifalari | 41 |
| 4.3. Irrigatsiya tizimida havza boshqarmasining vazifasi va funksiyalari .. | 42 |
| 4.4. Magistral kanallarning vazifasi va funksiyalari | 43 |

5-bob. MEHNAT RESURSLARI BOZORI VA MEHNAT UNUMDORLIGI

| | |
|---|----|
| 5.1. Qishloq xo'jaligidagi mehnat resurslari va undan foydalanish | 47 |
| 5.2. Mehnat resurslari bozori va uni shakllantirish | 48 |
| 5.3. Mehnat unumdorligini oshirish omillari va ko'rsatkichlari | 49 |

6-bob. ASOSIY VA AYLANMA FONDLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

| | |
|--|----|
| 6.1. Asosiy va aylanma fondlar tushunchasi hamda uning tarkibi | 54 |
| 6.2. Asosiy ishlab chiqarish fondlari va undan samarali foydalanish ... | 56 |
| 6.3. Aylanma fondlar va undan foydalanish | 58 |
| 6.4. Asosiy fondlardan foydalanishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari | 60 |

7-bob. QISHLOQ XO'JALIGINING MODDIY-TEXNIKA RESURSLARI

| | |
|--|----|
| 7.1. Qishloq xo'jaligi moddiy-texnika resurslari tushunchasi, uning mohiyati va ahamiyati | 64 |
| 7.2. Qishloq xo'jaligini moddiy - texnika resurslari bilan ta'minlash va ulardan samarali foydalanish | 66 |
| 7.3. Fan - texnika taraqqiyoti va samarali texnologiyalar | 69 |
| 7.4. Yangi texnika va texnologiyalardan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini aniqlash | 71 |

8-bob. QISHLOQ XO'JALIGIDA INVESTITSIYALAR

| | |
|--|----|
| 8.1. Investitsiya haqida tushuncha, mohiyati va ahamiyati | 74 |
| 8.2. Xorijiy investitsiyalarni jaib etish va undan foydalanish yo'llari... | 77 |
| 8.3. Qishloq xo'jaligidagi investitsiyadan foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlari | 81 |

9-bob. QISHLOQ XO'JALIGINING ISHLAB CHIQARISH INFRATUZILMASI VA UNDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

| | |
|---|----|
| 9.1. Ishlab chiqarish infratuzilmasining qishloq xo'jaligidagi tutgan o'rni | 86 |
| 9.2. Qishloq xo'jaligidagi ishlab chiqarish infratuzilmasi obyektlarining rivojlanishi | 88 |
| 9.3. Qishloq xo'jaligidagi infratuzilmani rivojlanishi | 90 |
| 9.4. Infratuzilma xizmatidan foydalanish samaradorligi..... | 92 |

10-bob. MASHINA-TRAKTOR PARKI (HOVLI) SERVIS XIZMATIDAN FOYDALANISH IQTISODIYOTI

| | |
|---|-----|
| 10.1. Qishloq xo'jaligida mashina-traktor parkining vazifasi | 97 |
| 10.2. Texnika – ta'mirlash xizmatini tashkil etish | 98 |
| 10.3. Texnik xizmat ko'rsatish turlari | 100 |
| 10.3.1. Traktor texnik holatini diagnostika qilish | 101 |
| 10.4. Texnik xizmat ko'rsatishning tashkiliy asoslari | 102 |
| 10.5. Texnikalarni saqlash turlari va ularni tashkil qilish | 103 |
| 10.6. MTP dan foydalanishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari | 105 |
| 10.7. Energetik vositalar va ulardan foydalanish samaradorligi | 106 |

11-bob. QISHLOQ XO'JALIGIDA LIZING VA UNDAN FOYDALANISH YO'LLARI

| | |
|---|-----|
| 11.1. Lizing tushunchasi va uning vazifalari | 111 |
| 11.2. Lizing kompaniyalari faoliyatidan foydalanish | 113 |
| 11.3. Lizing obyektlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlash ko'rsatkichlari | 115 |

12-bob. TRANSPORT XIZMATIDAN FOYDALANISH IQTISODIYOTI

| | |
|--|-----|
| 12.1. Qishloq xo'jaligida transport xizmatining tashkiliy tuzilmasi ... | 121 |
| 12.2. Qishloq xo'jaligida transport vositalaridan foydalanish | 122 |
| 12.3. Qishloq xo'jaligida transport vositalaridan foydalanishning iqtisodiy ko'rsatkichlari | 129 |

13-bob. QISHLOQ XO'JALIGIDA AGROKIMYO XIZMATI VA UNDAN FOYDALANISH

| | |
|--|-----|
| 13.1. Qishloq xo'jalik korxonalariga agrokimyo xizmati ko'rsatish tushunchasi | 133 |
| 13.2. Mineral o'g'it ishlab chiqarish va uni iste'molchiga yetkazib berish yo'llari | 138 |
| 13.3. Agrokimyo xizmati korxonasi haqida tushuncha | 139 |
| 13.4. Mineral o'g'itlardan foydalanish va agrokimyo servis xizmat ko'rsatishning iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari | 143 |

14-bob. QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINING IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA UNI BAHOLASH

| | |
|---|-----|
| 14.1. Iqtisodiy samaradorlikning mohiyati va mezoni | 149 |
|---|-----|

| | |
|--|-----|
| 14.2. Qishloq xo‘jaligida mahsulot yetishtirish va uning iqtisodiy ko‘rsatkichlari | 150 |
| 14.3. Iqtisodiy samaradorlikni aniqlash usullari | 152 |
| 14.4. Foyda va rentabellik | 156 |
| 14.5. Qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishda baho va baholash | 158 |

15-bob. DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIK AHSULOTLARI YETISHTIRISH SAMARADORLIGI

| | |
|---|-----|
| 15.1. Dehqonchilik tarqmoqlari va unda mahsulotlar yetishtirish | 162 |
| 15.2. Dehqonchilik mahsulotlarining iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari | 164 |
| 15.3. Chorvachilik tarmoqlari haqida tushuncha | 165 |
| 15.4. Chorvachilikda mahsulot yetishtirish | 166 |
| 15.5. Chorvachilik mahsulotlari yetishtirishning iqtisodiy ko‘rsatkichlari..... | 168 |

16-bob. QISHLOQ XO‘JALIGINI BOSHQARISHDA MENEJMEHT

| | |
|--|-----|
| 16.1. Qishloq xo‘jalik korxonalarini boshqarish tizimi va usullari | 171 |
| 16.2. Qishloq xo‘jaligini boshqarishda menejment va uning vazifalari | 173 |
| 16.3. Menejment obyekti va subyekti, ularning o‘zaro aloqadorligi | 173 |
| 16.4. Boshqaruv konsepsiyalari va ularning asoschiları | 174 |

17-bob. QISHLOQ XO‘JALIGIDA MENEJMENT JARAYONI, MAQSADI VA FUNKSIYALARI

| | |
|--|-----|
| 17.1. Qişloq xo‘jaligida menejment jarayonining mazmuni | 178 |
| 17.2. Menejmentning maqsadi va ularga qo‘yiladigan asosiy talablar . | 180 |
| 17.3. Menejment maqsadining turlari | 180 |
| 17.4. Menejmen funksiyalarining mohiyati, mazmuni | 181 |
| 17.5. Menejmentni asosiy funksiyalarining tarkibiy tuzilishi | 183 |

18-bob. MENEJMENT QONUNLARI VA TAMOYILLARI

| | |
|---|-----|
| 18.1. Iqtisodiy qonunlarni bilishning ahamiyati | 186 |
| 18.2. Umumiyl falsafiy va iqtisodiy qonunlar | 187 |
| 18.3. Menejment qonunlari | 189 |
| 18.4. Menejmentning asosiy tamoyillari | 187 |

19-bob. MENEJMENT USULLARI

| | |
|--|-----|
| 19.1. Menejment usullarining asosiy mazmuni | 195 |
| 19.2. Menejmentning iqtisodiy usulining asosiy mazmuni | 196 |
| 19.3. Menejmentning ijtimoiy-psixologik usulining mazmuni | 197 |
| 19.4. Menejmentning ma'muriy usuli, uning mohiyati va tavsifi | 198 |
| 19.5. Zamonaviy boshqaruvning huquqiy usullari | 200 |

20-bob. ISHLAB CHIQARISH BOSHQARUVNING TASHKILIY TUZILMASI

| | |
|--|-----|
| 20.1. Boshqaruvda tashkiliy tuzilmalarning roli | 203 |
| 20.2. Boshqaruv tashkiliy tarkibini ikki uslubi | 204 |
| 20.3. Vazifaviy va divizionli tashkiliy tarkiblar | 205 |
| 20.4. Muntazam va muntazam-shtabli tashkiliy tarkiblar | 206 |
| 20.5. Loyihali va matritsali tashkiliy tarkiblar | 207 |

21-bob. MENEJMENTDA AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA

| | |
|--|-----|
| 21.1. Axborot va kommunikatsiya haqida tushuncha | 209 |
| 21.2. Boshqaruvni axborot bilan ta'minlash jarayonlari | 211 |
| 21.3. Kommunikatsion jarayon | 212 |
| 21.4. Boshqaruv texnikasi va uning turlari | 213 |
| 21.5. Menejment tizimida axborotlarning ahamiyati | 214 |

22-bob. MENEJMENT MADANIYATI VA USLUBI

| | |
|---|-----|
| 22.1. Menejment va uning madaniyati | 218 |
| 22.2. Menejment madaniyatining asosiy elementkari..... | 220 |
| 22.3. Boshqaruv xodimlarining madaniyati | 223 |
| 22.4. Boshqaruv uslubi tushunchasi, xususiyatlari va turkumlanishi | 223 |
| 22.5. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitda boshqaruv uslubining shakllanishi | 227 |

23-bob. QISHLOQ XO'JALIGIDA MEHNAT JARAYONLARINI BOSHQARISH

| | |
|--|-----|
| 23.1. Boshqaruvchining mehnati, uning mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari | 230 |
| 23.2. Mehnatga haq to'lash va rag'batlantirishni takomillashtirish yo'llari | 231 |

| | |
|--|-----|
| 23.3. Qishloq xo‘jaligida rahbar xodimlarning boshqaruv mehnatini baholash | 235 |
| 23.4. Boshqaruv mehnatini tashkil etishning asosiy yo‘nalishlari ... | 237 |

24-bob. AGRAR SOHADA BIZNES VA MENEJMENT

| | |
|---|-----|
| 24.1. Agrobiznes tushunchasi | 241 |
| 24.2. Agrar sohada tadbirkorlik | 242 |
| 24.3. Bozor iqtisodiyotiga xos agrar sohani yangicha boshqaruvning shakllanishi | 245 |

25-bob. QISHLOQ XO‘JALIGIDA MENEJMENT SAMARADORLIGI

| | |
|--|------------|
| 25.1. Samaradorlik – iqtisodiy kategoriya sifatida. | 249 |
| 25.2. Iqtisodiy va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik tushunchalari | 250 |
| 25.3. Menejmentning samaradorlik mezonlari | 251 |
| 25.4. Menejment tizimining iqtisodiy samaradorligini baholashning uslubiy asoslari | 254 |
| 25.5. Menejmentning iqtisodiy samaradorligini oshirish..... | 255 |
| 25.6. Rahbar xodimlarning boshqarish samaradorligini oshirish tadbirlari | 256 |
| Foydalanilgan adabiyotlar | 259 |

UMURZOQOV O'KTAM PARDAEVICH,
TOSHBOYEV ABDURAYIM JABBOROVICH,
RASHIDOV JAMSHID HAMIDOVICH,
TOSHBOYEV AZIM ABDURAYIMOVICH

**QISHLOQ XO'JALIGI
IQTISODIYOTI VA MENEJMENTI**

Muharrir *Z. Bozorova*
Kompyuterda sahifalovchilar *B. Gafurova*

Bosishga ruxsat etildi 30.08.2008. Qog'oz bichimi 60x84 ^{1/16}
Hisob-nashr tabog'i 17. Adadi 1500.
Buyurtma № 7

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.
100084, Toshkent, Kichik halqa yo'li ko'chasi, 7-uy.
Hisob-shartnoma 55-2008.

“HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO'JIZASI” bosmaxonasi,
Toshkent, Qori-Niyoziy ko'chasi, 39-uy.

The background of the image is a detailed landscape painting. It features a large tree on the left with dense, multi-colored foliage in shades of green, yellow, and orange. The tree is reflected in a body of water that occupies the middle ground. In the distance, more trees and a hilly or mountainous terrain are visible under a clear sky.

ISBN 978-9943-13-076-0



9789943130760